

R. XAITBOYEV

EKOLOGIK TURIZM



TOSHKENT

338.48(07)


2-14

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

RAXMATULLA XAITBOYEV

EKOLOGIK TURIZM

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan 5610200 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish
va boshqarish, 5610300 – Turizm (xalqaro va ichki turizm)
ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida
tavsiya etilgan*



Toshkent – 2018

UO‘K: 38.48(075.8)

KBK: 65.43я7

X 17

Xaitboyev R

Ekologik turizm.[Matn]: /R.Xaitboyev. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: 2018. — 248 b.

Qo‘llanmada yozilgan mavzular ekoturizmning barcha savollarini qamrab oluvchi 7 qismga bo‘linadi: 1-ekoturizmning mohiyati, tushunchasi, obyekti, maqsadi va vazifalari; 2-ekoturizmning nazariy metodologik va ijtimoiy-iqtisodiy asoslari; 3-ekoturizmning resurslari; 4-ekoturizmni rivojlantirishdagi muammolar va yechimlar; 5-O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishda xalqaro ekoturizm modellaridan foydalanish yo‘llari; 6-xorij davlatlaridagi ekoturizm; 7-ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqish, ekoturizm marshrutining reklamasi va turistlarning hayoti xavfsizligini ta‘minlashdan iborat.

O‘quv qo‘llanma Samarqand iqtisodiyot va servis institutining Ilmiy Kengashida ko‘rib chiqildi va nashr qilishga tavsiya qilindi (1-son bayonnoma, 28-avgust 2015-y.)

UO‘K: 38.48(075.8)

KBK: 65.43я7

Mas‘ul muharrir:

M.Q. Pardayev – i.f.d., prof.

Taqrizchilar:

SamISI, – I.S. Tuxliyev, i.f.d., professor

SamDU, – A. Abdulqosimov, g.f.d., professor

QCHEITI, – M.M.Maxmudov, q/x.f.d., professor

ISBN 978-9943-5519-5-4

© «Barkamol fayz media» 2018.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2016-yil 2-dekabrda PF-4861-sonli Farmoni mamlakatimizda turizmni rivojlantirishda tub burilishni, yangi bosqichning zaminini, turizmga istiqbolli islohotlarning sharoitlarini yaratdi ¹. Prezident farmonida:

“Mamlakatda turizmni jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanish, an‘anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda turizmning boshqa salohiyatli turlarini – *...ekologik turizmni... ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish*” belgilangan.

Bu farmon mamlakatimizda turizmning barcha turlarini bir tekis rivojlantirish masalalarini tatbiq qilishga, turizmni hududiy va mintaqaviy rivojlantirish uchun asosiy dastur bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan va “Farmon”da ekologik turizmni rivojlantirish alohida ta‘kidlanganligi ham, ekologik turizmni jadal rivojlantirishning jiddiy muammolarini aniqlashimiz va bu muammolarning yechimlarini ishlab chiqishning ilmiy-amaliy tadqiqotlarini kuchaytirishimizning vaqti keldi.

Hozirgi vaqtda ekologik turizm “Turizm va ekskursiya jahon kengashi” ning va «Butunjahon turizm tashkiloti»ning ma‘lumotlari bo‘yicha jadal rivojlanib borayotgan turizm industriyalarining biri hisoblanadi. Ya‘ni ekologik turizmning jahon turizm industriyasidagi ulushi—10%dan to 20% gachani, ekologik turizm xizmatlaridan olinadigan daromad 55 mlrd. dollar va uning yillik o‘ssishi 30% ni tashkil qilmoqda. Shuningdek, istiqboldagi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2016-yil, 2-dekabr, PF-4861-son. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016-y., 49-son, 558-modda, 2017-y., 1-son, 3-modda).

2020-yilgacha ekologik turizm jahon turizmidagi asosiy strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib boradi va albatta bu yo'nalishlar O'zbekiston Respublikasiga ham kirib keladi.

O'zbekistonda ekoturizmning rivojlanishi nafaqat ma'naviyatimiz, ilm-fan, madaniyat, ma'rifat, tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlarni jalb qilish, biologik xilma-xillikni saqlash muammolarini hal qilishga balki, shu bilan birga iqtisodiy masalalarni, mahalliy xalqimizning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini yaxshilash, yangi ish joylari bilan ta'minlash, mamlakatimiz iqtisodiyotining o'sishiga katta hissa qo'shadi. Mamlakatimiz dunyoda ekologik turizm resurslariga boy davlatlar qatorida turadi va Markaziy Osiyoda, dunyo mamlakatlarining o'zaro aloqalarini geografik jihatdan bog'lovchi davlatdir. Shu sababli ichki, xalqaro turistik oqim va ekoturistik oqim ham bizda kuchayishining juda katta, salohiyatli imkoniyatlari bor.

Ekologik turizmni rivojlantirishdagi ko'plab muammolar ham mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirishga kirishganimizdan keyingina aniqlanmoqda. Hozirga kelib, Respublikamizda ekologik turizmni rivojlantirishda yechimlari jiddiy bo'lgan muammolari ham yuzaga chiqmoqda. Bu muammolarning birinchi navbatda o'z yechimini kutib turgani, ekoturizm uchun malakali kadrlar tayyorlash hisoblanadi.

Hozirgacha ekologik turizm bo'yicha DTS talablari asosida darslik, o'quv qo'llanma ham nashr qilingan emas. Universitet va institutlarda ham ekologik turizm bo'yicha oliy malakali mutaxassislar tayyorlanayotgan emas. Mamlakatimizda ekologik turizmni rivojlantirishning dolzarbligi hisobga olinib, institut va universitetlarda tayyorlanayotgan turizm sohasiga oid mutaxassislarga "Ekologik turizm" fani o'qitilmoqda. Ushbu zaruratni hisobga olib mazkur o'quv qo'llanma tayyorlandi.

1-mavzu. EKOLOGIK TURIZM FANINING O'RGANISH OBYEKTI, MAQSADI VA VAZIFALARI. EKOTURIZMNING TA'RIFI

Reja:

1.1. Ekologik turizm fanining maqsadi va vazifalari. O'rganish obyekti.

1.2. Ekologik turizm fanining ta'rifi va mohiyati.

1.1. Ekologik turizm fanining maqsadi va vazifalari.

O'rganish obyekti

Dunyoda turizm sohasining ekologik turizm yo'nalishi insoniyat oldidagi ekologik inqirozning oldini olish, insoniyatning barqaror rivojlanishi va yashab qolishi uchun, sayyoramiz tabiati va uning resurslarini saqlab qolishdagi najot yo'llarini axtarish zaminida shakllandi va rivojlanib bormoqda. Insoniyat oldida turgan sayyoraviy ekologik muammolarni insoniyatning o'zi bartaraf etishi kerak va bartaraf etishga majbur. Shu nuqtayi nazardan ham, mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirish masalalarini o'z vaqtida hal qilishimiz, tabiatimizdagi bioxilma-xillikni saqlab qolish, tabiiy resurslarimizni muhofaza qilish hamda xalqaro ekologik inqirozlarning oldini olishga qo'shgan hissamiz bo'ladi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning ushbu so'zlarini keltirishimiz o'rinli bo'ladi: *“Men turistik biznes deganda, turizmni shunchaki rivojlantirish emas, balki kengroq tushunchani nazarda tutaman. Bunda gap turizm faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan xizmat ko'rsatish va servis tarmoqlarini rivojlantirish haqida bormoqda. Bu soha taraqqiyoti mamlakatimizga xorijiy turistlarni ko'plab jalb etish bilan birga, eng muhimi, katta valuta tushumlarini ta'minlash bilan yurtimizning iqtisodiy va ijtimoiy rivojiga ulkan hissa qo'shishi muqarrar”*².

Turizm sohasi o'z rivojlanishini boshlayotganligi uchun respublikamizda iqtisodiyotning bu muhim tarmog'ining istiqboli

² I.A.Karimov. Obod va ozod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. – Toshkent, O'zbekiston, 2000. 232-b.

bo'yicha ilmiy tadqiqotlar asta-sekinlik bilan tahlil qilinmoqda, ekoturizmni O'zbekistonda tashkil qilishning mohiyati, an'analari va strategiyasi, O'zbekistonda milliy turizmni rivojlantirish modeli, milliy turizm biznesini tashkil qilish va boshqarish hamda turizmga xavfsizlik asoslari bo'yicha dastlabki muhim tahlillar natijalari chop qilindi. Shuningdek, O'zbekistonda turizm sohasida oliy va o'rta toifadagi mutaxassislar tayyorlash uchun dastlabki darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, sohani rivojlantirishda o'quv-uslubiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim ilmiy adabiyotlar tayyorlanmoqda. O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning dolzarb masalalari va muammolari va ularning yechimlariga bag'ishlangan, o'quv va ilmiy adabiyotlarning nashr qilinganligi ham, iqtisodiyotimizda turizmning muhim sohaga aylanib borayotganligini bildiradi³.

Mamlakatimizda turizmni shakllantirishda turizm sohalarining, turizm turlarining mohiyatini anglab olishda turizm amaliyotida va nazariyasida etuk mutaxassislar, olimlarning yo'qligi natijasida dastlabki vaqtlarda ko'plab noaniqliklarga yo'l qo'yildi. Tajribasizlik natijasida dastlabki tadqiqotchilar ekoturizmning kelib chiqishi va uning maqsadi, vazifalarini to'g'ri tushunaolmadilar.

Ekologik turizm xalqaro miqyosda ommaviylashib borishi natijasida uning targ'ibotiga va tashviqotiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil qilish, o'tkazish kuchaytirilgandan keyin noaniq fikr-mulohazalar, quruq tavsiyalar, ilmiy to'plamlarda ekoturizmning ta'rif va tavsiflarini belgilashdagi tavsiyalar ilmiy-amaliy jihatdan asoslanmagan holda ko'payib ketdi (shaharlar ekoturizmi, tarixiy obidalar ekoturizmi, arxeologik qoldiqlar ekoturizmi, hayvonot bog'lari ekoturizmi, muzeylar ekoturizmi va boshq.).

Ekoturizmni rivojlantirishda muammolar bilan birga noaniq, axborotlarning, tavsiyalarning ham ko'payib borayotganligi turizm

³ Н.Тухлиев, Т.Абдуллаева. Экологический туризм; сущность, тенденции стратегия развития. – Ташкент, 2006. 416-б., Тухлиев И., Наяитбойев Р. va boshqalar. Turizm asoslari. – Ташкент, 2014. 330-б. Тухлиев И.С., Қудратов Г.Н., Пардаев М.Қ. Turizmni rejalashtirish. – Ташкент, 2010. 265-б. Маматқулов Х.М. Turizm infratuzilmasi. O'quv qo'llanma. – Ташкент, 2011. 336-б.

a'limi yo'nalishida bilim olayotgan yosh mutaxassislarni ham, turistik firmalar faoliyatini ham, ekoturizmdagi tadbirkorlarni ham, tadqiqotchilarni ham chalkashtirishi aniq. Shuning uchun ham biz, jahon ekoturizm rivojida ustuvor usullar, dasturlarini yaxshi o'rganishimiz, ekoturizm rivojlangan davlatlarning tajribalari asosida o'zimizning milliy ekoturizm dasturlarini ishlab chiqishga mas'ulmiz. Bu yo'nalishda dastlab ekoturizmning kelib chiqishidagi ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy muhit sabablari va mohiyatini bilishimiz va tushunib olishimiz lozim.

Ekologik turizm Vatanimizning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish sohasida, nafaqat xorijiy sayyohlarni Vatanimizning tabiiy landshaftlari, hayvonot va nobotot dunyosiga boy hamda betakror tabiati bilan tanishtirish, balki xalqlar o'rtasida do'stlik rishtalarini bog'lash, mamlakatlar va turli xalqlarning bir-birini kengroq bilishini ta'minlaydi, shu bilan birga O'zbekiston hududida qirilib ketish arafasida turgan noyob hayvonlar va o'simliklarni saqlash, ko'paytirish maqsadlarida qo'riqxonalar tarkibida va atrofida jahon talablariga javob beraoladigan milliy tabiiy bog'larni yaratish loyihalarini ishlab chiqish, ularni amalga oshirish orqali muhofaza qilinadigan hududlarda ekoturizm obyektlarining moddiy-texnika bazasini yaratish uchun «ekoturizmni rivojlantirish» davlat dasturlarini ishlab chiqish zarur bo'ladi.

Ekologik turizmning haqiqiy muxlislari o'zining yangi tabiat go'shalariga sayohati vaqtida «tabiat – jamiyat do'stligi, birdamligi» munosabatlarini ko'rishni xohlaydi, kuzatishni xohlaydi. Umumiy fikrlarni jamlab tahlil qilganimizda, ekoturizm tabiat qo'ynida bo'lishlikdir. O'zbekistonda hozirgacha turizm sohasiga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilishdan va turizmning rivojlanish ma'lumotlari natijalaridan ma'lum bo'ladiki, turizm Respublikamizda umumiy yo'nalishdagi dastlabki bosqichlaridan o'tdi^{4.5}.

⁴ Tuxdiyev I.S., Qudratov G'X., Pardayev M.K. Turizmni rejalashtirish. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2010. 265-b.

⁵ Tuxdiyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G. Turizm asoslari. Darslik. – Toshkent, 2014. 330-b.

Endilikda, Respublikamizda turizmni rivojlantirishning iqtisodiy geografik, tabiiy, mintaqaviy jihatlarini tadqiq qilish yuzaga chiqmoqda. Lekin bu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar juda kam. O'zbekistonlik turizm mutaxassislari turizm geografiyasi va mintaqaviy turizmni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalish ekanligini tadqiq qilishga kirishdilar. Bu yo'nalishdagi dastlabki tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki, mintaqa turizmini barqaror rivojlantirishda ushbu mintaqaning barcha turistik resurslari asosiy, hal qiluvchi o'rinni egallaydi.


Ekoturizm – «Tabiatni muhofaza qilish», «Biologiya», «Geologiya», «Geografiya», «Botanika», «Tabiatdan foydalanish iqtisodi», «Iqtisodiy ekologiya», «Bioekologiya», «Geoekologiya» va boshqa tabiiy fanlarning nazariyasi, asoslari, jamiyat va tabiat munosabatlarining hozirgi asrimizga kelib sayyoraviy chegaralarda keskinlashib borayotganligi holatlaridan kelib chiqdi. Shu nuqtayi nazardan bu fanlarning har qanday fan ta'limi va har qanday sohadagi o'rni deyarli bir-biriga o'xshash ta'rifni, tavsifni anglatadi. Bunday ta'rif va tavsiflarni G.A. Bekbulatova juda yaxshi tushungan va olimaning xulosalari bo'yicha «Ekoturizm» fanida ekologik fanlar nazariyasiga nisbatan ekoturizm amaliyoti ancha ustunroq darajalarni egallaydi⁶.

Ekologik turizmning o'rini belgilaganda tabiatning inson-turist uchun bo'lgan ahamiyatlari ko'rsatkichlarini keltirish lozim bo'ladi. Ekoturizmning ahamiyatini ekoturistning ehtiyojlarini qondirish jihatlariga qarab iqtisodiy, sog'lomlashtirish, tarbiyaviy va estetik guruhlarga bo'lishimiz mumkin. Bu guruhlarning tavsifi faqat turist uchun emas, umuminsoniyat hayotidagi tabiatning o'rini ham anglatadi.

Umumfikrlarni jamlab, tahlil qilganimizda ekoturizm tabiat qo'ynida bo'lishlikdir. Shundan kelib chiqib, ekoturizmning o'rganish obyekti tabiat va tabiatning barcha resurslari hisoblanadi. Sayyoramiz biosferasi va uning barcha tabiiy geografik mintaqalari,

⁶ Bekbulatova G.A. Turizm va rekreatsiya geografiyasi. Ma'ruzalar matni. – Nukus, 2008. 107-b.

dunyo okeani, tog'lar, daryolar, o'rmonlar, o'simliklar dunyosi, hayvonot olami, iqlim boyliklari va xususiyatlari ekoturizmning o'rganish obyekti hisoblanadi. Shu bilan birga xalqaro ekoturizm ilmiy-amaliy adabiyotlarida ekoturizmning asosiy obyektlari – alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar, milliy parklar, biosfera qo'riqxonalari, tabiat qo'riqxonalari, tabiat buyurtmaxonalari, tabiat rezervatlari deyilgan. Yana bir xulosa bo'yicha ekoturist o'z qiziqishi bo'yicha tanlagan tabiiy obyekt uning uchun ekoturizmdagi asosiy obyekt hisoblanadi.



1-chizma. Ekoturizmning ekologik fanlar bilan bog'langanligi

Ekologik turizm bilan tabiatshunoslik va tabiatni muhofaza qilish fanlari va amaliyotlari tobora o'zaro yaqinlashib bir maqsadga intilib bormoqda. Mavzu boshlanishidagi mulohazalardan kelib

chiqib ekoturizmning bosh maqsadi ham tabiatni va uning barcha resurslarini hozirgi va kelajak avlodlar uchun muhofaza qilish va saqlab qolishni bildiradi.

Ekoturizmning maqsadini belgilashda jahonda ekoturizmning kelib chiqishi va shakllanishini puxta o'rganishni talab qiladi. Hozirgi kunda ekoturizm jahon turizmida jadal rivojlanib borayotgan yo'nalish hisoblanadi. Shu o'rinda ekoturizm insoniyatning XXI asrdagi eng og'ir sayyoraviy ekologik muammolarining yechimlarini ham topilishida najot yo'llaridan biri ekanligining mazmunini, mohiyatini tushunib olishni talab qiladi.

Turizmning ko'plab turlari o'z mavzusi yoki atalishi bo'yicha bir yo'nalishni yoki bir maqsadni bildiradi. Masalan, tarixiy obidalar bilan bog'liq turlar turdagi tarixiy obidalarning tarixi yoki ularning mo'jizaviy qurilishlari, ulug'vorligi, qadimiyligi bilan insonlarni o'ziga jalb qiladi. Albatta, tarixiy obidalarga qiziquvchi turistlarni yoki ziyorat turizmini misol qilganimizda, ziyoratchi turistlar birinchi navbatda o'zi uchun muqaddas bo'lgan ziyorat makonlarni tanlaydi va ziyoratni amalga oshiradi, so'ngra ushbu ziyoratgohning tarixi bilan qiziqishi mumkin.

Ekoturizmda esa majmual masalalar qo'yiladi va birinchi navbatda insonning tabiat boyliklaridan foydalanishi, tabiat bag'rida dam olishi va ushbu tabiat boyliklarining o'z farzandlariga ham tegishli ekanligini anglab bilishi, muhofaza qilishi, ongli ravishda saqlashga, ko'paytirishga harakat qilishi tushuniladi.

Chunki, Butunjahon Turizm Tashkiloti ekoturizmni rivojlantirishda, uning maqsadi va vazifalarini belgilashda BMTning insoniyatning hozirda og'ir ekologik inqirozlarga duch kelganligini va sayyoramiz hayotini saqlab qolishdagi global ekologik muammolarini hal qilishda ekoturizm najot yo'llaridan eng maqbuli ekanligini hisobga olgan. Shuning uchun ham, mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirishda birinchi navbatda ekoturizmning maqsadi va vazifalarini puxta o'rganib olishimiz talab qilinadi. O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish

Konsepsiyasi mukammal ishlab chiqilgan. Bu muhim hujjatda ekoturizmning maqsadi va vazifalari ekoturizmning xalqaro talablari va huquqiy-me'yorlari berilgan. Ushbu Konsepsiyada belgilanganidek, **ekoturizmning maqsadi:**

• *hozirgi va kelajak avlodlarning ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun tabiatdan turistik yo'nalishda oqilona foydalanish hisoblanadi.*

Ekoturizmning maqsadini amalga oshirish uchun quyidagi **vazifalarni** bajarish talab etiladi:

• *ekoturizm industriyasini shakllantirish uchun maxsus qonunlar ishlab chiqish va ularning huquqiy mexanizmini yaratish;*

• *ekoturistik fan, ta'lim va amaliyotning nazariy asoslarini ishlab chiqish;*

• *aholining ekologik ongi va madaniyatini ekoturizm orqali o'stirish;*

• *ekoturizm bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash;*

• *ekoturizm monitoringini va istiqbolini olib borishni yo'lga qo'yish;*

• *milliy davlat hududini ekoturizm bo'yicha rayonlashtirib chiqish;*

• *biologik xilma-xillikni saqlash;*

• *davlatning ekoturizmga oid taktik reja va strategik dasturlar hamda tadbirlarini ishlab chiqish⁷.*

Ekoturizmning yuqoridagi maqsadi va vazifalarini o'rganimizda bu turni mamlakatimizda rivojlantirishda ko'plab muammolarni hal qilishimizga to'g'ri kelishini va albatta birinchi vazifalarimiz ekoturizmning asl mohiyatini, uning talablarini, ekoturizmni rivojlantirishga tayyorligimiz va mas'ulliligimizning, bilimliligi mizning qanday darajalarda ekanligini to'g'ri baholashimiz lozim. Ikkinchidan, mamlakatimizda ekoturizm muammolarini o'rganuvchilar va uni tashkil qiluvchilar ekoturizm

⁷ O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish Konsepsiyasi. Ekologiya xabarnomasi, № 6, - Toshkent, 2007. 6-7-b.

kuchli rivojlangan mamlakatlarning tajribalarini mukammal o'rganishlari va ularning tajribalaridagi usullar, texnologiyalar yoki amaliyotlar bizning ekoturizmimizga qanchalik muvofiq kelishliklarini yaxshi bilishlari lozim.

1.2. Ekologik turizm fanining ta'rifi va mohiyati

Agar biz tabiat bilan «kelishuvda» yashashni, uning ne'matlaridan foydalanishni, go'zalliklaridan zavqlanishni xohlasak uning sharoitlarini qabul qilishimiz, o'z ehtiyojlarimizni qondirish uchun atrof-muhitni o'zgartirayotganda muayyan chegaralardan chiqmasligimiz zarur. Ekoturizm ana shu ikki fanning rivoji bilan uzviy holatda bog'lanishi lozim. Tabiat muhofazasi, tabiatdagi salbiy o'zgarishlar, jamiyatdagi kasalliklarning ko'payishi, yangi xavfli kasalliklarning kelib chiqayotganligi, tabiatdagi kutilmagan – insoniyat uchun fojiali, halokatli – dovullar, suv toshqinlari, sunami va boshqa hodisalarning barchasi ekologiya bilan bog'lanmoqda.

Nemis olimi E.Gekkel 1866-yilda yozgan «Organizmlarning umumiy morfologiyasi» va 1868-yilda yozgan «Dunyo vujudga kelishining tabiiy tarixi» kabi asarlarida ekologiya atamasiga to'liq tavsif berib ekologiyaning ikkinchi ma'nosini «yashash joyi», «oziqlanish makoni» deb belgilagan. Shuning uchun ham, tabiatni har bir inson o'z uyim deb bilgandagina global ekologik inqirozlarning oldini olishi mumkin. Ekologik turizm bu yo'nalishda insoniyatga katta yordam beradi. Shuning uchun ham, dastlab ekoturizmning mohiyatini va mazmunini yaxshi tushunib va o'rganib olishimiz lozim^{8,9}.

Ekologik turizmning mazmuni va mohiyati bo'yicha birinchi bo'lib meksikalik ekolog-iqtisodchi **Gektor Seballos Laskureyn** 1980-yilda o'z tadqiqotlari natijalarini bildirgan edi. Uning xulosasi bo'yicha – “Ekoturizm – bu tabiatga xushyor munosabatlar,

* Allcock A., Jones B., Lane S., Grant J. National ecotourism strategy. Commonwealth of Australia, 1994. P. 196.

⁹ Hayitboyev R., Matyaqubov U. Ekologik turizm (Uslubiy qo'llanma). – Samarqand, 2010. 60-b.

tanishish quvonchini birlashtiruvchi va flora, fauna namunalari o'rganishga, himoya qilishga yordam berish imkoniyatlariga asoslangan turistik faoliyatdir".

G.S.Gujin, M.Yu.Belikov va E.V.Klimenkolar 1997-yilda Rossiyada birinchilardan bo'lib «Ekoturizmning asosi – atrof-muhit g'amxo'rliqi va muhofazasidir» degan taklifni kiritdi va ekoturizmning o'zlari belgilagan ta'rifga asoslangan ekoturistik marshrutlarni ishlab chiqdi va o'tkazdi¹⁰. O'sha vaqt uchun ham, hozir ham ushbu ta'rif eng qulay va ekoturizmning haqiqiy mazmuni, mohiyatini anglatadi degan xulosalarni biz ham quvvatlaymiz. Mustaqil hamdo'stlik davlatlarida quyidagi rossiyalik olimlarni ekoturizm asoschilari deb tan olishadi:

M.B.Birjakov – *«Ekoturizm da tabiatga minimum ta'sir qilib, tabiat bilan birga bo'lish natijasida uning boyliklarini muhofaza qilish, asrab qolish tuyg'ulari hosil bo'ladi»¹¹.*

A.V.Drozdov – *«Eski va Yangi dunyoda deyarli bir vaqtda mahalliy aholining an'anaviy madaniyatini hurmat qilishga, sayohatchilarning ma'rifiy madaniyatini oshiruvchi, tabiat oldida mas'ullik va himoya qilishga, ijtimoiy va ekologik talablarini qondirishga qaratilgan va sayyoraviy ekologik inqirozning oldini olishga asoslangan ekoturizm shakllandi»¹².*

T.S.Sergeyeva – *“Ekoturizm bu – mahalliy aholining an'anaviy turmush tarzini saqlagan, xo'jalik faoliyati kam ta'sir qilgan betakror tabiiy hududlarni ko'rish; bu – mahalliy aholining yashash darajalarini va turistik jarayondagi barcha qatnashuvchilarning ekologik madaniyati darajalarini oshirish, ekologik tur va dasturlarda tabiat muhofazasi me'yorlari va texnologiyalariga rioya qilishdir”¹³.*

XX asr oxirlariga kelib AQSH, Kanada, Yevropa davlatlari, Avstraliya ekoturizmni rivojlantirish davlat dasturlarini ishlab

¹⁰ Биржаков М.Б. Введение в туризм. Издания 9-е переработанное и дополненное – СПб.: «Издательский дом Герда», 2007. С. 576.

¹¹ Дроздов А.В. Основы экологического туризма. – М.; Гардарики, 2005. С 271.

¹² Сергеева Т.С. Экологический туризм. Москва, Финансы статистика, 2004. С. 360.

¹³

chiqdilar. Bu dasturlarda ekoturizmni rivojlantirish shiorlari va talablari quyidagicha edi:

Amerika Qo'shma Shtatlari ekoturizmi jamiyati — *«Ekoturizm — mahalliy aholi manfaatlarini e'tiborga oluvchi, tabiiy resurslarni muhofaza qiluvchi, ekotizimlarning butunligini saqlovchi, mahalliy madaniyat va tabiiy muhitni anglash uchun tabiiy hududlarga maqsadli sayohat».*

Avstraliya ekoturizmi milliy strategiyasi — *«Ekoturizm — ekologik barqarorlik prinsiplariga va ekologik bilim, madaniyat dasturlariga amal qilishga asoslangan va mahalliy aholi manfaatlarini hisobga olgan holda tabiatga sayohat qilish turizmi».*

Germaniyada ekoturizmni rivojlantirishda moliyaviy hamkorlik Federal vazirligi — *«Ekoturizm da tabiatga minimum ta'sir qilish hissi madaniyati va tuyg'usi paydo bo'ladi, qo'riqlanadigan hududlarga moliyaviy yordam imkoniyatlari va mahalliy aholida qo'shimcha daromad olish manbalari hosil bo'ladi».*

Atrof-muhit muhofazasi bo'yicha Kanada davlati maslahat Kengashi — *«Ekoturizm — turizmning turi bo'lib, mahalliy xalq manfaatlarini hurmat qilish asosida tabiatni bilish, anglash va ekotizimlarni saqlashga yordam ko'rsatish yo'nalishidagi turistik faoliyat hisoblanadi».*

Ekoturizm jadal rivojlantirilayotgan davlatlarning ekoturizm dasturlari asosida xalqaro tabiat va turizm tashkilotlari ham ekoturizmning ta'riflarini qabul qilishdi:

Butunjahon turizm tashkiloti — *«Ekoturizm — tabiat turizmining barchasini o'zida mujassamlashtirib, tabiiy hududlarga mas'uliyat bilan sayohat qilish natijasida tabiatni muhofaza qilishni ta'minlaydi va mahalliy xalqning turmush darajasini yaxshilaydi».*

Xalqaro ekoturizm tashkiloti (TIES) — *«Ekoturizm — tabiat mintaqalariga mahalliy aholining farovonligini quvvatlovchi va atrof-muhitni saqlovchi mas'uliyatli sayohatdir».*

O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish «Konsepsiyasi» da — *«Ekoturizm deganda nafaqat ma'rifiy-ma'naviy maqsadlarni ko'zlagan ekzotik tabiiy hududlarga, ularning hayvonot va o'simlik*

dunyasiga sayohat balki, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarning amalga oshirilishi yordamida ekologiya muammolarini hal qilish bilan bir-biriga bog'liq majmualar yig'indisini tushunamiz»¹⁴.

Xalqaro turizm jamiyati (XTJ) – *«Ekoturizm – tabiiy hududlarga mas'uliyat bilan sayohat qilish natijasida tabiatni muhofaza etishni ta'minlaydi va mahalliy xalqning turmush darajasini yaxshilaydi».*

Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi – *«Ekologik turizm yoki ekoturizm – tabiat muhitiga nisbatan mas'uliyat bilan sayohat qilish, tabiat hududlariga ziyon yetkazmagan holda, hamda tabiatning betakror, jalb etuvchi joylaridan zavq olish maqsadida tabiatni muhofaza qilgan holda tabiatga ko'maklashadi, atrof-muhitga «yumshoq» ta'sir etadi. Mahalliy xalqning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini faollashtiradi va shu faoliyatdan ularning imtiyozlar olishini ta'minlaydi»¹⁵.*

R.A. Islomova – *“Ekoturizm deganda, tabiiy, madaniy va ijtimoiy qadriyatlarni ko'rish, tomosha qilish, ilmiy jihatdan o'rganish, ularning betakror jozibasi va o'ziga xos tomonlaridan zavq olish maqsadida tabiat hududlariga ziyon yetkazmasdan, atrof-muhitni muhofaza qilgan holda sayohat va sarguzasht qilish orqali tabiatga ko'maklashish, mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini yaxshilashga qaratilgan turizmning turi tushuniladi».*

Yuqorida keltirilgan mulohaza va fikrlarni jamlab bizningcha ekoturizmning ta'rifi bo'yicha quyidagi xulosaga kelish mumkin:– *«Ekoturizm-faqat tabiat bag'rida dam olish, o'rganish, kuzatish, tomosha qilish va zavqlanish natijasida tabiatni, biologik xilma-xillikni saqlash, muhofaza qilish tadbirlariga ixtiyoriy moddiy yordam berishga qaratilgan, mahalliy aholining milliy madaniyatini, me'rosiy an'analarini, yashash tarzini hurmat qilishga asoslangan turistik faoliyatdan iboratdir».*

Ekologik turizmning mohiyati va mazmuni haqida *«Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi», «Xalqaro turizm jamiyati»,*

¹⁴ O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish Konsepsiyasi. Ekologiya xabarnomasi, № 6, Toshkent, 2007. 6–7-b.

¹⁵ Xalqaro tashkilotlarning ekoturizm bo'yicha ta'riflari (Hayitboyev R., Matyaqubov U. Ekologik turizm. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand, 2010. 60-b.) bo'yicha berildi.

«Yovvoyi tabiat umumjahon jamg'armasi» va boshqa ko'plab xalqaro tashkilotlar Butunjahon Turizm Tashkilotining ekoturizm haqidagi ta'rifini qabul qildi. Dunyo hamjamiyatiga xizmat qiluvchi yuqoridagi xalqaro markazlarning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari har xil bo'lsada, ekoturizmning o'rini belgilashdagi xulosalari deyarli bir xil¹⁶. Chunki, ekoturizmni targ'ib qilayotgan, BTT, XTJ tabiatni muhofaza qiluvchi – TMKHI ning ish tartibi, maqsadlari doimo bir-biriga qarshi turadi. Dastlabki ikki xalqaro jamiyat tabiatdan turistik maqsadlarda foydalanish tarafdori, keyingi xalqaro tashkilot esa tabiatni muhofaza qilish tarafdori.

Ekoturizmning jahon miqyosida jadal rivojlanib borayotganligining yana bir sababi ham shundaki, tabiatni muhofaza qilishdagi xalqaro markazlar ham ekoturizmni rivojlantirishni quvvatlamoqda. Ushbu xulosalar ekoturizmning umumiy turizmga nisbatan farqlanishlariga asoslangan bo'lib, ekoturizmning asl mohiyati va mazmunini tushunib olishga yordam beradi. Mamlakatimizda hozirga kelib ekoturizmning muammolarini o'rganish va rivojlantirishdagi dastlabki ilmiy tadqiqotlar boshlandi¹⁷.

Bu tadqiqotlar hozircha mintaqaviy chegaralarda bajarilayotganligidan ekoturizmning mintaqaviy muammolari va ularning yechimini ishlab chiqishga yo'naltirilmoqda. Shuning uchun ham birinchi navbatda oliy ta'lim tizimida ekoturizm mutaxassislarini tayyorlashni boshlashimiz lozim. Shuningdek, institut va universitetlarda hozirda turizm oliy ta'limining barcha yo'nalishida ekoturizm fanini amaliyoti bilan o'qitish mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirishdagi dastlabki qadamlar bo'ladi.

¹⁶ Lindberg K., Hawkins D.E. (eds) Ecotourism: a Guide for Planners and Managers. North Bennington, Vermont. 1993. P. 256.

¹⁷ Shamuratova N.T. O'zbekistonda ekologik turizm va uning tabiiy geografik jihatlari. g.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 2011. 22-b. Matyaqubov U. Ekologik vaziyatni inobatga olib turizm samaradorligini oshirish yo'nalishlari va istiqbollari, i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. -- Samarqand, 2011. 22-b. Islomova R.A. Ekologik turizmni rivojlantirish muammolari. – Toshkent, Iqtisodiyot, 2014, 131-b. Hayitboyev R., Matyaqubov U. Ekologik turizm. – Samarqand, 2010, 60-b.

Tayanch soʻz va iboralar: ekoturizm, biosfera qoʻriqxonalari, biologik xilma-xillik, strategik reja, taktik vazifalar, ekonomika.

Mavzuni oʻzlashtirish boʻyicha test savollari:

1. Ekoturizmning oʻrganish obyekтини belgilang.

- A. Tabiat va uning barcha resurslari.
- B. Togʻlar, daryolar, oʻrmonlar.
- D. Biologik xilma-xillik resurslari.
- E. Oʻsimliklar olami va hayvonot dunyosi.

2. Ekoturizmni rivojlantirishning dasturlarini birinchilardan boʻlib qaysi davlatlar ishlab chiqdilar?

- A. AQSH, Kanada, Yevropa davlatlari va Avstraliya.
- B. AQSH, Germaniya, Italiya va Avstraliya.
- D. AQSH, Germaniya, Kanada va Avstraliya.
- E. AQSH, Kanada, Meksika va Avstraliya.

3. Ekoturizmning maqsadi nima?

A. Hozirgi va kelajak avlodlarning ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishini taʼminlash uchun tabiatdan turistik yoʻnalishda oqilona foydalanish.

B. Aholida ekologik madaniyat va ekologik bilimlarni shakllantirish.

D. Tabiatni va tabiiy resurslarni saqlash hamda muhofaza qilish.

E. Biologik xilma-xillikni saqlash va tabiat bagʻrida dam olish.

4. Ekoturizmning taʼrifini birinchi boʻlib kim yaratdi?

- A. M.B.Birjakov
- B. T.S.Sergeyeva
- D. A.V.Drozdov
- E. S.Laskureyn


5. Ekoturizmning asosiy talablarini aniqlang.

A. Tabiatga sayohat+tabiat muhofazasi+mahalliy aholiga iqtisodiy yordam.

B. Tabiatga sayohat+tabiat muhofazasi.

D. Tabiatga sayohat+mahalliy aholiga iqtisodiy yordam.

E. Tabiatga sayohat+sarguzasht turizmi.



Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Istiqbolda nima uchun ekoturizm xalqaro miqyosda rivojlanib boradi?
2. Ekologik inqirozni bartaraf etishda ekoturizmning o'rini belgilang.
3. Ekoturizm fani haqida dastlabki fikrlaringizni aytib bering.
4. Ekoturizmning mohiyati va mazmuni bo'yicha qaysi olimning xulosasi sizga ko'proq tushunarli bo'ldi?
5. Ekoturizmning ta'rifi bo'yicha qaysi xalqaro tashkilotning xulosalari sizga ko'proq tushunarli bo'ldi?
6. Yashayotgan tumandagi ekoturizm obyektlari haqida ma'ruza tayyorlang.
7. Ekoturizmning ta'rifini yaratgan olim haqida gapirib bering.
8. Ekoturizm bilan tabiat muhofazasi o'rtasidagi bog'liqlik nimalardan iborat?
9. Ekoturizm fani qaysi fanlar bilan bog'langan holatlarda faoliyat ko'rsatadi?

2-mavzu. EKOLOGIK TURIZMNING KELIB CHIQISH TARIXI EKOLOGIK TURIZMNING TURLARI

Reja:

2.1. Ekologik turizmning shakllanishi davrida tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar. BMTning xalqaro ekoturizm yilini e'lon qilishi.

2.2. Ekologik turizmning turlari.

2.1. Ekologik turizmning shakllanishi davrida tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar.

BMTning xalqaro ekoturizm yilini e'lon qilishi

Jahonda ekologik turizmning yoki ekoturizm atamasining kelib chiqishi XX asrning so'nggi choragida insoniyat jamiyati oldida global ekologik muammolarning kuchayib ketganligi hisoblanadi. Bu davrda insoniyatning tabiiy atrof-



muhitga, tabiiy resurslarga salbiy ta'siri kuchayganligi natijasida ekologik inqiroz sayyoraviy hududlarda insoniyatning kelgusida yashab qolishini og'irlashtirishini xalqaro miqyosda kun tartibiga qo'ydi.

Shu o'rinda tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar hozirga kelib qanday darajalarga kelib qolganligi haqida qisqacha to'xtalish zarurati bor. Ikkinchidan, o'tgan asrning 70-yillariga kelib AQSH, Kanada va Yevropa davlatlarida ommaviy turizmning keskin rivojlanishi ham nafaqat tabiiy resurslar inqirozini kuchaytirdi balki, ijtimoiy-madaniy resurslarning butun saqlanishiga xavf sola boshladi. Quyida ana shu ikki masala-muammolarning mazmun va mohiyati keltiriladi¹⁸.

O'tgan asrning so'nggi choragidan boshlab insoniyatning yashash muhiti dunyo jamoatchiligining diqqat markazidagi

¹⁸ Douglas Pearce. Tourism Today: A Geographical Analysis. Second edition. Edinburg Gate. Harlow, 1997. P. 204.

eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qoldi. Bu muammolar "ekologik xavf" nomi bilan atalib, yildan-yilga kuchayib, og'irlashib bormoqda. Ilmiy texnika taraqqiyoti jarayonida tabiiy resurslarning kamayib borishi, atrof-muhitning ifloslanib borishi kelajak avlodlar uchungina emas, hozirgi jamiyat taraqqiyotiga ham jiddiy xavf solyapti.



*Sayyoramizning asosiy kislorodini yetkazib beradigan
Amazonka o'rmonlaridagi holatlar*

Hozirgi davrimizdagi ilmiy-texnika taraqqiyoti insonning qudratini juda kuchaytirib yubordi. Ya'ni, inson tabiat ustidan o'zining to'liq hukmronligini o'rnatdi. Insoniyat hozirgi imkoniyati bilan yangi dengizlar qurishi, cho'llarni hosildor

yerlarga aylantirishi, daryolarni xohlagan tarafga burib yuborishi mumkin. Shu bilan birga ma'lum bo'ldiki, inson o'z kuch-qudratini tabiatga nisbatan cheksiz ravishda qo'llashi, uning o'zi uchun ko'plab salbiy oqibatlarni keltirib chiqarar ekan. Ilmiy-texnika inqilobi ta'sirida, ayniqsa XIX asrning 60-yillaridan so'ng ekologik muammolar insoniyat hayotiga katta tashvishlar bo'lib kirib keldi.

Bu muammolar asosida tabiatning o'zini-o'zi tiklash kuchi susaygani, uning resurslari kamaygani, atrof-muhitning tobora ifloslanib borayotganligi, insonning bir me'yorda yashashiga tabiat to'liq sharoit yarata olmayotganligi yotadi. Bu holat tabiat va jamiyat o'rtasida XX asrda shakllangan ekologik munosabatdir. Dastlab, Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida, ayniqsa Germaniyaning Rur havzasida tabiiy muhitning keskin yomonlashuvi kishilar va organizmlar hayoti uchun xavf paydo bo'lishi sababi tabiat va jamiyat o'rtasidagi ekologik munosabat shaklini yuzaga keltirdi

Nemis olimi Ernest Gekkel 1866-yilda ekologiya haqida birinchi bo'lib fikr-mulohazalar bildirgan edi. Hozir esa dunyoviy muammolarning eng dolzarbi ham ekologik muammo bo'lib qoldi. Hozirgacha yer biosferasiga 2 ming xil kimyoviy birikmalar yoyildi. Dunyo sog'liqni saqlash tashkilotining (VOZ) ma'lumotlariga ko'ra inson foydalanayotgan 4 ming kimyoviy moddalar uning sog'lig'i uchun xavf tug'dirmoqda. Dunyoda har yili 250 ming xil yangi kimyoviy birikmalar sintez qilinadi. Shulardan 300 xili ishlab chiqarishda ishlatilmoqda.

Dunyo bo'yicha har yili 100 mlrd tonna ruda va mineral yoqilg'ilar qazib chiqarilmoqda. Keyingi 30 yilda insoniyatning butun tarixi davomiga qaraganda ko'proq rangdor metallar qazib chiqarildi. Agar 18-asrgacha 19 xil ximiyaviy elementdan foydalanilgan bo'lsa, hozirda bu son 100 dan oshib ketdi. Hozirgacha 2/3 qism o'rmonlar yo'q qilingan. Oxirgi 2000 yil ichida 0,5 mlrd. gektar yer xarob qilindi. Keyingi 100 yilda dunyoda 67 mln. ga o'rmon kesilib ketdi. Olimlarning hisobiga ko'ra, oliy tur o'simliklarning 3 ming turi butunlay yo'qotilish arafasida.

“Tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi” ning (MSOP) ma’lumotlari bo’yicha 1600 yildan hozirgacha qushlarning 94 turi va sut emizuvchilarning 63 turi butunlay qirilib ketgan. Sayyoramizda bugunga kelib qushlarning 600 xili, sut emizuvchilarning 120 xili abadiy yo’qolish xavfida turibdi. Inson faoliyati tufayli sayyoramizda 9 mln km² unumdor yerlar sahroga aylandi. Ya’ni har kuni 3 ming ga unumdor yer qishloq xo’jaligida ishlab chiqarishdan chiqarilmoqda. Yer sharida 50 million ga yer umuman foydalanib bo’lmaydigan holatga kelgan.

Ifloslangan suvdan iste’mol qilish natijasida har yili dunyoda 5 mln kishi vafot etmoqda. Xuddi shunday suvlarni ichish natijasida sayyoramizda har yili 500 ming kishi og’ir dardlarga chalinmoqda. Dunyo okeaniga har yili 10 ming tonna neft to’kilmoqda. Sanoat korxonalarini har yili 140 xildan ziyod zaharli gazlarni havoga chiqarmoqda. Insoniyatda uchrayotgan rak kasalligining 50%i ana shu gazlardan zaharlanish natijasida kelib chiqishi aniqlangan.

Keltirilgan manbalardan ma’lum bo’ladiki, insoniyat yashash makoni bo’lgan o’z uyi atrofi muhitini buzib bormoqda. Insoniyatning yashash sharoiti darajasi tabiat bilan bog’liq ekan, insonning bu masalada tabiat bilan uzviy kelishmog’i zarurati asosiy masaladir. Hozirga kelib, tabiatda yuz berayotgan ijobiy va salbiy o’zgarishlar turli sohalarda o’rganilmoqda, lekin ular orasida tabiatni iqtisodiy-ekologik jihatdan, ekologik foydalanish jihatlaridan o’rganish jiddiy ahamiyat kasb etadi.

Global ekologik muammolarning tobora ijtimoiy- iqtisodiy inqiroz holatlarini hosil qilishi, jahon hamjamiyati oldiga sayyoramiz miqyosida keskin chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish muammolarini kun tartibiga qo’ydi. Insoniyatning bugungi hayoti va kelgusi avlodlar uchun sayyoramizda saqlanib qolgan tabiiy boyliklarni muhofaza qilishda ilg’or fikrli olimlarning xulosalari bo’yicha global inqirozdan chiqish yo’llaridan eng muhimi — aholida ekologik bilim va madaniyatni shakllantirish deb bildi.

Turizm sohasidagi adabiyotlarning tahlili va yuqorida sanab

oʻtilgan koʻrsatkichlarni inobatga olib ilk bor ekoturizmning quyida keltirilgan bosqichlarini qoraqalpogʻistonlik olimi G.A.Bekbulatova ajratdi¹⁹:

I. XX asrning 90-yillarigacha boʻlgan davr – ekoturizmning mahalliy va milliy mustaqil turizm sohasi sifatida yuzaga kelish davri.

II. 1990–2000-yillar – turizmning regional miqyosda, ekoturizmning turizm industriyasi sifatida rivojlangan davri.

III. 2000-yildan keyingi bosqich – global miqyosda ekoturizmning rivojlanish davri.

I. Ekoturizmning mustaqil turizm sohasi sifatida yuzaga kelish davri. XVIII asrning oxiri – XIX asrning boshlarida Yevropaning yaxlit qitʼasiga ingliz turistlari mahalliy aholining madaniyati, tarixini oʻrganish bilan bir qatorda ajoyib tabiatini koʻrib ketish uchun sayohat qilganlar. Chunki Alp togʻlari landshaftlari yoki Karpatning togʻli oʻrmonlari Angliyada uchramaganligi uchun ham turizmning asosiy obyekti sifatida qaralgan. Lekin ushbu turizm kompleks turistik marshrutlar bilan qoʻshib olib borilgan. Inglizlarning tabiat qoʻyniga qilinadigan sayyohlikka qiziqishini inobatga olib shveysariyalik ishbilarmonlar “Grand-tur” tarkibida tabiiy turizm xizmatini tashkil etganlar va u tashkilotchilarga juda katta miqdorda moliyaviy foyda keltirgan. Shu davrda (1913-yillar) Shveysariyada davlatning alohida eʼtibori bilan qoʻriqlanadigan tabiiy hududlar ajratildi. Qoʻriqxonalariga qilinadigan sayohat garchand ekoturizm deb nomlanmasa-da, ular «tabiatga yoʻnaltirilgan turizm» sifatida yuzaga kela boshladi.

Turizmning ekologik yoʻnalishi aslida XX asrning 70-yillaridan boshlangan. 1972-yilda Skandinaviya mamlakatlari fuqarolari uchun kitlarni tomosha qilish va ularni oʻrganish maqsadida turistik marshrutlar uyushtirilgan. Ushbu turizmdan tushgan mablagʻ kitlarni muhofaza qilish uchun ishlatilgani ham ekoturistik marshrut sifatida eʼtirof etilgan. Keyinchalik, bunday turistik

¹⁹ Bekbulatova G.A. Turizm va rekreatsiya geografiyasi. Maʼruzalar matni. Nukus, 2008, 107-b.

marshrutlar Yevropaning boshqa mamlakatlari, Uzoq Sharq, Shimoliy Amerika davlatlarida ham uyushtirila boshlandi.

II. Ekoturizmning regional miqyosda turizm industriyasi sifatida rivojlangan davri – 1990–2000-yillarni o‘z ichiga oladi. 90-yillarning boshlarida “Ekoturizm” xalqaro, mintaqaviy va milliy miqyosda rasmiy maqomga ega bo‘ldi. Aynan shu yillari Yevropada Xalqaro ekoturizm ittifoqi ish boshladi.

Atrof-muhit muhofazasi sohasida eng muhim voqea 1992-yil 3–14-iyun kunlari Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida bo‘lib o‘tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Atrof-muhit va rivojlanish”ga doir konferensiyasida qabul qilingan “XXI asr kun tartibi”da ekoturizm ham barqaror rivojlanishning asosiy omillaridan biri ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Mazkur hujjat undan keyingi davrlardagi xalqaro hayotda ekoturizm nuqtayi nazardan ekologik–ijtimoiy–iqtisodiy masalalar doirasida bir qator xalqaro normativ hujjatlar qabul qilinishiga sabab bo‘ldi:

- 1995-yildagi Atrof-muhit bo‘yicha YUNEP dasturi;
- 1995-yilda Lansarotda qabul qilingan “YUNESKOning barqaror turizm xartiyasi”;
- 1997-yilda Osiyo-Tinch okean mintaqasi turizm va tabiat muhofazasi vazirliklarining “Turizmning barqaror rivojlanish deklaratsiyasi”;
- 1997-yilda «Biologik xilma-xillik va barqaror turizmga bag‘ishlangan Berlin deklaratsiyasi”;
- 2000-yil YUNEP ekologik barqaror turizm prinsiplari va boshqa hujjatlar qabul qilindi.

XX asrning 90-yillariga kelib, Yevropaning bir qator mamlakatlarida, jumladan sobiq Ittifoqda ham “Ekoturizm” atamasi tez-tez ishlatiladigan bo‘lib qoldi. I.V.Zorin va V.A.Kvartalnovlarning ekoturizm atamasining talqini birmuncha ommalashdi. Bu Rossiyada 1996-yilda Butunjahon yovvoyi tabiat fondi (WWF) Uzoq Sharqda tarkib topishi bilan bevosita bog‘liqdir. WWF dasturining bir qismi alohida muhofaza etiladigan hududlarni ta’minlash bilan bog‘landi.

Bizning mamlakatimizda 1996-yildan boshlab Djozif Mak-Nalti rahbarligida xalqaro ekspertlar guruhi “O‘zbekiston Respublikasida turizmning barqaror rivojlanishi dasturi” bo‘yicha tadqiqotlar olib bordi.

III. XXI asr – global miqyosda ekoturizmning rivojlanish davri.

2001-yilda Rossiyada ekoturizm assotsiatsiyasi tashkil etildi. 2002-yil BMTning atrof-muhit dasturi (YUNEP) va Butunjahon turistik tashkilotining (BTT) tashabbusi bilan “Xalqaro ekoturizm yili” deb e‘lon qilindi. Ana shu tashkilotlar tashabbusi bilan ekoturizm yilida Kanada turistik komissiyasi hamda Kvebek shahrining turistik boshqarmasi homiyligida Butunjahon ekoturistik Sammiti 2002-yil 19–22-may kunlari bo‘lib o‘tdi.

Unda 132 mamlakatdan davlat, nodavlat va xususiy sektordan mingdan oshiq vakillar ishtirok etdilar. Kvebek Sammiti ekoturizmni global miqyosida aks ettiruvchi hamda yangi turistik yo‘nalishni tubdan yangi yo‘sinda boshlash nuqtasi edi. U 2002-yil avgust-sentabr oylarida o‘tkazilgan Butunjahon barqaror rivojlanish Sammitidagi tegishli turistik yo‘nalishdagi asosiy taktik va strategik vazifalarni yaqin o‘n yillikkacha aniqlab berdi. Sammitda qabul qilingan Deklaratsiya BMTga jo‘natildi.

Milliy, mintaqaviy va mahalliy organlarga Kvebek Deklaratsiyasi orqali tavsiya etilayotgan ko‘rsatmalar 19 ta bo‘lib, ular deyarli ekoturizmning barcha jabhalarini o‘z ichiga qamrab oladi. Deklaratsiyada Xususiy sektor namoyandalariga 14 ta banddan iborat bo‘lgan tavsiyanomalar taqdim etiladi. Ularning aksariyati xususiy kompaniyalar, turoperatorlar yoki tashkilotlarni ekoturizmni tashkil etish, uni boshqarish hamda ekologik xavfsizlikni ta‘minlash uchun yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib o‘tadi.

BMTning xalqaro ekoturizm yilini e‘lon qilishi. Ekoturizmni rejasiz, tabiatning qonuniyatlarini hisobga olmasdan ommaviy rivojlantirishdagi yuqorida qayd qilingan holatlar insoniyatni xalqaro miqyoslarda tashvish va noroziliklarga olib keldi. Natijada Butunjahon Turizm Tashkilotining (BTT) va “Yashil dunyo” ekologik tashkilotining samarali mehnatlari tufayli “XXI asrda

turizmning barqaror rivojlanishi Konsepsiyasi” (Agenda 21 for travel and tourism industry) ishlab chiqildi.

«Turizm va sayohatlarning industriyasi uchun XXI asr Kun tartibi» Konsepsiyasi “Har tomonlama harakatlar Dasturi”, “Atrof-muhit va rivojlanish” (UNCED) tashkilotining 182 ta davlatlarning boshliqlari qatnashgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro konferensiyasida 14-iyun 1992-yilda Rio-de-Janeyro shahrida qabul qilindi.

Insoniyat oldida turgan ekologik inqirozning oldini olish bo‘yicha qabul qilingan bu muhim hujjatni jahondagi davlatlar o‘z imkoniyatlari darajalarida ishlab chiqdilar va ekologik inqirozning oldini olishning eng maqbul usullaridan biri ekoturizmni rivojlantirish degan xulosalarga to‘xtaldi. Natijada sayyoraning tabiiy muhitini saqlab qolish va muhofaza qilishga bag‘ishlangan tadqiqotlar xalqaro miqyosda kuchayib bordi. Ushbu yo‘nalishda birgina 1999-yilda 400 dan ortiq ilmiy maqolalar xalqaro miqyosda tan olingan nashriyotlarda chop qilindi.

Insoniyat oldidagi global ekologik muammolarning yechimlaridan eng maqbul yo‘llaridan biri ekoturizmni rivojlantirish ekanligini xulosa qilgan BMT 2002-yilni «Xalqaro ekoturizm» yili deb e‘lon qildi. Hozirga kelib ekoturizm xalqaro hamjamiyatda sayyoramiz tabiatini saqlash va muhofaza qilishda kutilgan va kutilayotgan natijalarni bermoqda. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilish, ekologiya va tabiatdan oqilona foydalanish ishlarida xalqaro hamkorligini keltirish lozim.

Butunjahon Turizm Tashkilotining (BTT) va “Yashil dunyo” ekologik tashkilotining samarali mehnatlari tufayli “XXI asrda turizmning barqaror rivojlanishi Konsepsiyasi” (Agenda 21 for travel and tourism industry), Turizm va sayohatlarning industriyasi uchun XXI asr Kun tartibi» Konsepsiyasining “Har tomonlama harakatlar Dasturi”, “Atrof-muhit va rivojlanish” (UNCED) dasturi qabul qilingandan keyin O‘zbekiston Respublikasi tabiat muhofazasi yo‘nalishida o‘zining xalqaro hamkorlik strategiyasini ishlab chiqdi.

O‘zbekiston Respublikasining tabiiy resurslardan foydalanish

va atrof-muhitni muhofaza qilishda xalqaro hamkorligi yildan-yilga faollashib bormoqda. Bu hamkorlik mamlakatimizning milliy vazifalari va istiqbolda rivojlanish masalalari bilan hamohangdir. Hozirga kelib O'zbekiston Respublikasi biologik xilma-xillikni saqlash, iqlimning sayyoraviy o'zgatib borishining oldini olish, ozon qatlami buzilishining oldini olish, betakror tabiiy mintaqalarning ekologik muvozanatini saqlab qolish, tabiat resurslaridan zamonaviy texnologiyalar asosida foydalanish bo'yicha xalqaro hamkorlikda faol qatnashmoqda.

O'zbekiston Respublikasi 1992-yildan boshlab BMTning teng huquqli a'zosi sifatida MDHning Xalqaro Ekologik Kengashi a'zosidir. Mamlakatimiz 1992-yilda BMTning Braziliya shahrida qabul qilingan "Atrof-muhit va rivojlanish" deklaratsiyasini, Turizm va sayohatlarning industriyasi uchun XXI asr Kun tartibi» dasturini qabul qildi va xalqaro miqyosda quvvatladi.

Hozirga kelib O'zbekiston Respublikasi tabiat muhofazasi va tabiatdan foydalanishda 50 dan ziyod xalqaro shartnomalarda muvaffaqiyatli ishtirok etmoqda. Bizning davlatimiz atrof-muhit va tabiat muhofazasida tarixan muhim bo'lgan quyidagi xalqaro hamkorliklarning tashabbuskori hisoblanadi:

- Ozon qatlamini muhofaza qilish bo'yicha Vena konvensiyasi (1993-yil 18-may);
- Ozon qatlamini buzuvchi moddalar bo'yicha Monreal bayonnomasi (1993-yil 18-may);
- Ozon qatlamini buzuvchi Monreal bayonnomasiga London tuzatmasi (1993-yil 1-may);
- Tabiiy muhitga zarar keltiruvchi har qanday harbiy va dushmanlik qiluvchi foydalanishni taqiq qiluvchi Konvensiya (1993-yil 26-may);
- BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha Konvensiyasi (1993-yil 20-iyun), Kiota bayonnomasi (1999-yil);
- Qurg'oqchilik va qurg'oqchilik davom etayotgan davlatlarda qurg'oqchilik bilan kurashish bo'yicha Konvensiya (1995-yil 31-avgust);

- Biologik xilma-xillik bo'yicha Konvensiya (1996-yil 6-may);
- Xalqaro madaniy va tabiiy meroslarni saqlash bo'yicha Konvensiya (1995-yil 22-dekabr);
- Butunlay yo'qotilish xavfiga tushgan yovvoyi flora va faunaning xalqaro savdosiga qarshi Konvensiya (1997-yil 1-iyul);
- Yovvoyi qushlar migratsiyasi va ularni muhofaza qilish bo'yicha Konvensiya (1998-yil 1-may) va boshq.

2.2. Ekologik turizmning turlari

Ilmiy ekoturizm va tabiat tarixi ekoturizmi. O'tgan asrning 80-yillarida ekoturizmni rivojlantirishni birinchilardan bo'lib boshlagan AQSH, Kanada va Yevropa davlatlari bo'ldi. Bu davlatlar hali ekoturizmning ilmiy nazariyasi, tamoyillari, amaliyoti va turlari to'liq yaratilmaganligidan ekoturizmni o'z davlatlarida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari bo'yicha nomladilar²⁰;

- Yumshoq turizm – Germaniyada;
- Yumshoq turizm – Angliyada;
- Tog' turizmi – Fransiyada;
- Tabiat turizmi – Rossiyada, AQSHda;
- Yashil turizm, Sarguzasht turizmi – Italiyada;
- Qishloq turizmi-Yevropa davlatlarida;
- Ekologik turizm yoki ekoturizm – XX asr boshlaridan AQSH, Kanada va Yevropa davlatlarida, Avstraliya, Malayziya, Yaponiya va boshqa mamlakatlarda.

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, 1992-yildagi Rio-de-Janeyro konferensiyasida e'lon qilingan "Xalqaro ekoturizm yili" dan keyin turizm rivojlangan davlatlar ekoturizmni nomlash haqida yagona fikrga kelishgan. Shunday qilib, asrimizning boshlanishidan jahondagi ko'pchilik davlatlar tabiat bilan bog'liq turizmni ekologik turizm yoki ekoturizm deb nomlashga o'tishdi. Ekoturizmning turlari haqida so'z yuritilganda ilmiy adabiyotlardagi tasniflarni yaxshilab o'rganib olishimiz lozim

²⁰ Александрова А.Ю. География туризма. КНОРУС. Москва, 2010. С. 592.

bo'lad. Hozirda ekoturizmni quyidagi 4 yo'nalishdagi turlarga bo'lishadi²¹:

1. Ilmiy ekoturizm.
2. Tabiat tarixi ekoturizmi.
3. Tabiat qo'riqxonalar va rezervatsiyalari ekoturizmi.
4. Sarguzasht ekoturizmi.

Ilmiy ekoturizm asosan tabiat qo'riqxonalarida, milliy parklarda, biosfera qo'riqxonalarida, tabiat buyurtmaxonalarida amalga oshiriladi. O'zbekistonda ham shunday. Bizning tabiat qo'riqxonalarimizda ommaviy ekoturizm foydalanishga hozirgacha ruxsat berilganicha yo'q. Faqat ilmiy maqsadlarda foydalanish mumkin. Milliy bog'larimizdan ommaviy ekoturizm va rekreatsiyada foydalanish mumkin va foydalanilmoqda.

Hozirda Zomin milliy bog'i va Chotqol-Ugom milliy bog'idan ekoturistik maqsadlarda foydalanmoqdamiz. Ilmiy ekoturizm turistlar yoki ilmiy xodimlar tabiat qo'riqxonalarida, milliy parklarda va alohida muhofazadagi hududlarda tabiatdagi jarayonlarni, hayvonot va o'simliklar olamini kuzatadilar, ilmiy tajribalar qo'yadilar va hokazolar.

Tabiat tarixi ekoturizmi ham deyarli tabiat qo'riqxonalariga va milliy parklarda amalga oshiriladi. Faqat ilmiy kuzatishlarni, tabiat komponentlarining tarixi, kelib chiqishi, hayvon va o'simliklar olamining tarixi, alohida turlarning areali, o'zgarishi bo'yicha olib boriladi. Bunday kuzatishlarda maxsus ilmiy-ekspeditsiya marshrutlari tashkil qilinadi. Ekoturizmning bu turi Germaniyada juda ham ommaviylashgan. Shuning uchun ham bunday ekoturlarni ekoturizmni rivojlantirishdagi nemis modeli deb ham atashadi.

Tabiat qo'riqxonalariga va rezervatsiyalari ekoturizmi. Sarguzasht ekoturizmi. Jahonda ko'plab ekoturistlar milliy parklarga, tabiat qo'riqxonalariga va alohida muhofaza qilinadigan hududlarga sayohat qilishadi. Ular bu joylardagi o'ziga xos bo'lgan

²¹ Zalatan A. and A. R. Gaston. Soft Ecotourism: the Substitution Effect. The Tourist Review, 4, 1996.

tabiiy jarayonlarni, noyob biologik resurslarni kuzatadilar, tomosha qiladilar. Masalan, Lotin Amerikasiga kelayotgan turistlarning 60% i milliy parklar, qo'riqxonalar va rezervatsiyalarga kelishadi. Bu ekoturistik tur Avstraliyada juda ommaviylashganligi sababli ekoturizmni rivojlantirishdagi Avstraliya modeli deb ham atashadi.

Ekoturizmning bu turi tabiatda dam olish va harakatlanishda barcha faol sarguzasht turlarni o'z tarkibiga oladi. Bu turlar quyidagilar hisoblanadi: alpinizm, qoyatoshlar ekoturizmi, muzlarda yurish va chiqish, spelioturizm, tog' va piyoda harakatlanish ekoturizmi, suv ekoturizmi, chang'i va tog' chang'i ekoturizmi, dayving. Bu turizm turlari yaqin vaqtlardan boshlab ommaviylasha boshladi va turizmدا ekstremal turizm turlari deb ham atala boshlandi.

Turizmning turlarini tasniflashda qandaydir elementlar va mayda detallarga e'tibor berishning hech zarurati yo'q. Masalan, alpinizmni, spelioturizmni va tog' chang'i turizmlarini sport turizmining turlariga kiritmasdan alpinizm turizmi, spelioturizm, tog' chang'i turizmi deb turizmдagi alohida-alohida yo'nalishdagi turlar kabi belgilash mumkin. Masalan, ekoturizmning turlariga kiritilgan dayvingni (hech qanday yordamchi asbob-uskunasiz suvga sho'ng'ish) hozirda alohida dayving turizmi deyishmoqda. Shu o'rinda qayd qilish lozimki, turizmдagi ko'pchilik mutaxassislar alpinizm, qoyatoshlarga chiqish, spelioturizm, chang'i va tog' chang'i turizmini sport turizmining turlariga kiritishadi²². AQSHda bu turlarning barchasini tabiatga mo'ljallangan turizm turlari deb tasniflashadi²³.

Ekoturizmning turlari haqidagi fikr-mulohazalar turizm rivojlangan davlatlarda har xil hisoblanadi. AQSH va Kanadada ekoturizmning turlarini unchalik maydalashtirmaydi va aksincha ekoturizmning ta'rifi bo'yicha tabiatga qilingan barcha sayohatlarni ekoturizm talablarida amalga oshiradi. Shuning uchun ham bu

²² Храбовченко В.В. Экологический туризм. Финансы и статистика. Москва, 2004. С. 172.

²³ Zalatan A., Gaston A.R. Soft Ecotourism* the Substitution Effect// The Tourist Review. 1996, № 4.

davlatlar ichki va tashqi ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha lider davlatlardir.

Turizm sohasida A.Yu.Aleksandrova ekoturizmning ikki turini tan oladi va boshqa olimlar tavsiflagan ekoturizm turlarini ekoturizmning turmarshrutlar bo'yicha mavzuli turlari deb hisoblaydi²⁴. Bizningcha, bu juda to'g'ri xulosa hisoblanadi.

Yuqorida keltirganimizdek, A.Yu.Aleksandrova ekoturizmning barcha turlarini jamlab asosan ikki asosiy turga guruhlaydi:

1. Kam o'zgartirilgan yoki buzilmagan, yovvoyi sharoitdagi va alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar chegarasidagi ekoturizm.

2. Madaniy landshaftlar yoki madaniylashtirilgan kengliklar va alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar chegarasidan tashqaridagi ekoturizm.

Ekoturizmning turlarini tasniflash hozirgacha davom etmoqda. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilib shunday xulosaga kelish mumkinki, ekoturizm tabiat bilan bog'liq turistik faoliyat bo'lganligi uchun uning turlarini turistik maqsadlar bo'yicha, ekoturistik harakatlar bo'yicha ham alohida-alohida turlarga ajratish mumkin. Masalan:

- yovvoyi yoki madaniylashtirilgan tabiatni ekologik o'quv maqsadlarida kuzatish va o'rganish ekoturlari;
- tabiat bag'rida hissiy estetik maqsadlarda dam olish ekoturlari;
- tabiiy omillardan foydalanib sog'lomlashtirish ekoturlari;
- sarguzasht va sport maqsadlaridagi ekoturlar.

Ekoturistik qiziqish obyektlari bo'yicha ham ekoturizmni turlarga bo'lish mumkin. Bu holatlarda turistik obyektning nomi ekoturistik maqsadni anglatadi. Masalan:

- botanik, zoologik, tabiiy geografik, geologik va shunga o'xshash yo'nalishlardagi ekoturlar;
- ekologik-etnografik va ekologik-madaniy ekoturlar;
- agro-ekologik ekoturlar.

Ekoturizm kuchli rivojlangan Yevropa davlatlarida ko'p hollarda qishloq turizmini agroturizm deb ham nomlashadi. Qishloq turizmi

²⁴ Александрова А.Ю. География туризма. Москва, КноРУС, 2010. С. 592.

kuchli rivojlangan Fransiya, Germaniya, Italiya, Angliya va Avstriyada agroturizmni qishloq turizmi bilan birga qo'shib rivojlantiradi. Ba'zida agroturizmni ekoturizmga qo'shishadi. Har holda bunday tasniflash ularning ixtiyoridagi masala. Bizningcha, agroturizm bilan qishloq turizmi turizm sohasidagi alohida-alohida yo'nalishdagi turlar hisoblanadi. Bu haqda alohida mavzuda to'xtalamiz.

Xulosa qilganimizda, ekoturizmning turlarini tasniflashda biz o'zimizga qulay bo'lgan tasniflarni ishlab chiqishimiz lozim yoki xorijiy davlatlaridagidek maydalashmasdan, tabiat bag'riga har qanday maqsadlardagi turistik faoliyatni ekoturizm deb belgilashimiz to'g'ri bo'ladi. Shuning uchun ham aholi o'rtasida ekoturizmning maqsadi va vazifalarini tushuntirish, targ'ib qilish ishlarini jadal ravishda boshlashimiz lozim.

Tayanch so'z va iboralar: "yashil dunyo", global inqiroz, XXI asr kun tartibi, konvensiya, model, agro-ekologik, sarguzasht turizmi, etnografiya.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha test savollari:

1. Ekoturizmning kelib chiqishi sabablarini belgilang.

A. Tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning muvozanatdaligi.

B. Turizmning ommaviy va tartibsiz holatlarda rivojlanishi.

D. Mamlakatlar iqtisodiyotining o'sishi.

E. Tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi, global ekologik inqirozlarning halokatli rivojlanishi. Tabiiy muhitni va tabiat resurslarini muhofaza qilish va saqlab qolishda ekoturizmni rivojlantirish.

2. Ekoturizmning yuzaga kelish va shakllanish davrini aniqlang.

A. XX asrning o'rtalari.

B. XX asrning oxiri.

D. XXI asrning boshlanishi.

E. XX asrning so'nggi choragi.

3. Global ekologik inqirozdan chiqishning eng maqbul yo'llarini aniqlang.

A. Insoniyatning bugungi hayoti va kelgusi avlodlar uchun sayyoramizda saqlanib qolgan tabiiy boyliklarni muhofaza qilishda ilg'or fikrli olimlarning xulosalari bo'yicha global inqirozdan chiqish yo'llaridan eng muhimi – aholida ekologik bilim va madaniyatni shakllantirish.

B. Tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganib borish.

D. Turizmni rivojlantirish.

E. Ekologik dasturlar ishlab chiqish.

4. BMT qachon «xalqaro ekoturizm» yilini e'lon qildi?

A. 2002-yilda.

B. 1994-yilda.

D. 2004-yilda.

E. 1998-yilda.

5. Ekoturizmning turi nechta?

A. 10 ta.

B. 6 ta.

D. 4 ta.

E. 8 ta.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar haqida ma'ruza tayyorlang.

2. Ekoturizmning kelib chiqishi haqida prezentatsiyali ma'ruzani tayyorlang.

3. Ekologik inqiroz bilan ekoturizmning bog'liqligi haqida savollar tayyorlab keling.

4. Ekoturizmning asosiy turlari bo'yicha ma'ruza tayyorlang.

5. "Alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar chegarasidan tashqaridagi ekoturizm" mavzusida prezentatsiyali ma'ruza tayyorlang.

6. Ekoturizmning shakllanish bosqichlarini tushuntiring.

7. BMT qachon «xalqaro ekoturizm» yilini e'lon qildi?

8. Mavzu matnidagi xalqaro ramzni tavsiflang.

3-mavzu. EKOLOGIK TURIZMNING TAMOYILLARI. O‘ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI

Reja:

3.1. Ekoturizmning tamoyillari.

3.2. O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish Konsepsiyasi.

3.1. Ekoturizmning tamoyillari

Ishlab chiqarishda g‘oya va nazariyalarning shakllanishida ishlatiladigan prinsip so‘zi asos, talab, negiz ma‘nolarini anglatgani uchun davlat tilida tamoyil deb tarjima qilingan. Ekoturizmning tamoyillari ham ekoturizm yo‘nalishining rivojlanishidagi tartib-me‘yorlarga asoslanishi lozim. Ya‘ni ekoturizmning tamoyillari ekoturizmning mohiyatini, mazmunini, maqsadi va vazifalarini o‘zida aks ettirishi kerak.

Ekoturizmning tamoyillarini “Xalqaro ekoturizm tashkiloti” ishlab chiqqan. Bu tamoyillar jahondagi barcha davlatlarning rahbarlariga tarqatilgan bo‘lib, har bir davlatlar ekoturizmni tashkil qilganda ushbu tamoyillarga amal qilish talab qilinadi:

1. Ekoturizm tabiatga qaratilgan va tabiiy resurslardan foydalanishga asoslangan bo‘lishi.

2. Ekoturizm ekologik barqaror rivojlanishga va yashash muhitimizga keltirilayotgan ziyonlarni minimallashtirishga asoslangan bo‘lishi.

3. Ekoturizm ekologik ta‘lim va ma‘rifatga yo‘naltirilgan bo‘lib, tabiat bilan teng hamkorlikka asoslangan bo‘lishi.

4. Ekoturizm mahalliy ijtimoiy madaniyatni saqlashga va yordam berishga asoslangan bo‘lishi.

5. Ekoturizm faoliyat ko‘rsatgan hududlarning barqaror rivojlanishini va iqtisodiy samaradorligini ta‘minlashiga asoslangan bo‘lishi kerak.

Ekoturizmning tamoyillarini o‘rganganimizda albatta turizmning bu muhim sohasini rivojlantirish oson kechmasligini anglaymiz. Bu tamoyillar asosida ekoturizmni rivojlantirishda

albatta davlatning ekologik boshqaruviga murojaat qilinadi. Chunki, ekoturizmni yuqorida qayd qilingan tamoyillar asosida rivojlantirish faqat davlat tashkilotlarining quvvatlashi bilangina amalga oshishi mumkin.

Keyinchalik turizm mutaxassisleri va olimlari tomonidan ekoturizmning tamoyillari kengaytirildi va mukammallashtirildi ²⁵:

1. Tabiati yaxshi saqlangan joylarga sayohat.
2. Tabiat resurslaridan barqaror foydalanish, tabiiy, ijtimoiy va madaniy biologik xilma-xillikni saqlash.
3. Ekoturda belgilangan tartib-intizomga qat'iy rioya qilish.
5. Ekoturlarni tabiat qonunlari asosida mukammal ishlab chiqish.
6. Ekoturizmni hududlarning iqtisodiy rivojlantirish rejalari bilan birlashtirish.
7. Mahalliy aholini ekoturizm rivojlanishida qatnashtirish va bu yo'nalishda ularning iqtisodiy manfaatdorligini ta'minlash.
8. Ekoturizm sohasi mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlash.

Ekoturizm bo'yicha mutaxassislar taklif qilgan tamoyillar qatorida T.K.Sergeyevaning taklif qilgan tamoyillari ham diqqatga sazovor²⁶:

1. Rekreatsiyali tabiiy hududlarning biologik xilma-xilligini saqlash.
2. Ekoturizm sohasiga tortilgan (qo'shilgan) hududlarning iqtisodiy barqaror rivojlanishini oshirish.
3. Ekoturistik faoliyatda qatnashuvchilarning ekoturistik madaniyatini oshirish.
4. Rekreatsiyali hududlarning etnografik statusini (maqomini) saqlash.

“Xalqaro ekoturizm tashkiloti” o'z navbatida ekoturist uchun qoida ham ishlab chiqdi²⁷:

²⁵ Дроздов А.В. Основы экологического туризма. – М.: Гардарики, 2005. С. 271.

²⁶ Сергеева Т. К. Экологический туризм. – М.: Финансы статистика, 2004. С. 360.

²⁷ Бабкин А.В. Специальные виды туризма. Ростов на Дону, Феникс, 2008. С. 252.

1. Yer bilan bog'liqligini unutmaslik, yoddan chiqarmaslik.
2. Tabiatda faqat izlarini qoldirish, tabiatdan faqat rasmlarni olib ketish.
3. Borgan yerida dunyoni, xalqlar madaniyatini, geografiyasini anglash, bilish.
4. Mahalliy aholini hurmat qilish.
5. Ishlab chiqaruvchilardan atrof-muhitga xavf-xatar soluvchi, keltiruvchi mahsulotlarni sotib olmaslik.
6. Faqat maxsus solingan so'qmoqlardan yurish.
7. Atrof-muhitni muhofaza qilish dasturlarini quvvatlash, yordam berish.
8. Imkoniyat boricha atrof-muhitni toza saqlovchi usullardan foydalanish.
9. Tabiatni muhofaza qiluvchi tashkilotlarni quvvatlash.
10. Ekoturizm tamoyillari bo'yicha ishlovchi turistik firmalar bilan sayohatga chiqish.

Ekoturizmning tamoyillari, qoidalari va belgilari bilan tanishib chiqqandan keyin ekoturizmni rivojlantirishdagi ko'plab tushunmovchilik va noaniqliklar ma'lum bo'ladi. Bu noaniqliklar shulardan iboratki, jahondagi ko'plab davlatlarda ekoturizm talablar darajasida birdaniga rivoj topmayapti. Bu holatning asosiy sabablaridan biri shundan iboratki, ekoturizmning asosiy obyektlari alohida muhofazadagi hududlar, milliy parklar va tabiat qo'riqxonalari ekanligi hammaga ma'lum bo'lgan holda, bu tabiiy resurslar davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Bu sharoitda ekoturizmni kuchli rivojlantirishning imkoniyatlari chegaralanib qoladi. Lekin, AQSH, Kanada, Avstraliya, Malayziya, Yaponiya va Yevropa, Afrika davlatlarida ekoturizm yildan-yilga rivojlanib bormoqda.

Biz mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirishda yuqorida qayd qilingan davlatlarning tajribalarini, ekoturizmni rivojlantirish davlat dasturlarini puxta o'rganishimiz lozim. Ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, turizm rivojlangan, shuningdek, ekoturizm rivojlangan davlatlar 10–15 yillar davomida ichki turizmni rivojlantirganlar, o'z xalqlarini turizmning barcha

sohalarining mazmuni va mohiyatiga tayyorlaganlar. Xususan, ekoturizmning mazmun-mohiyatini, tamoyillarini o'rgatganlar.

Shuning uchun ham ekoturizm rivojlangan davlatlar o'z milliy parklaridan va tabiat qo'riqxonalaridan ekoturizmda foydalanishga ruxsat berganlar. Mamlakatimizda hozirga kelib milliy bog'larimizdan ekoturizmda foydalanmoqdamiz, tabiat qo'riqxonalaridan ekoturizmda foydalanishga hozircha ruxsat berilmagan.

Biz ham, mamlakatimizda aholining ekologik madaniyati va ekologik bilimlarini oshirishga, tabiatni muhofaza qilish qonunlarini yaxshi bilishiga va hurmat qilishiga, tabiatni va uning resurslarini muhofaza qilish dasturlariga ixtiyoriy hamkorlik qilish ishlariga tayyorlashimiz, ekoturizmning tartib-qoidalarini, tamoyillarini o'rgatishimiz lozim bo'ladi. Ekoturizmning tamoyillarini o'rganishdan shunday xulosa kelib chiqadiki, ekoturizmni rivojlantirishda davlatning ekologik boshqaruv siyosatini, dasturini ishlab chiqish talab qilinmoqda.

3.2. O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish Konsepsiyasi

XX asrning ikkinchi yarim yilliklaridan boshlangan ilmiy-texnika rivoji tabiat va uning resurslaridan rejasiz, ayovsiz foydalanish davrini boshlab berdi. Qudratli texnika yer bag'rining 10 km chuqurligicha kirib bordi. Xalqaro bozordagi raqobat tabiiy resurslardan qayta ishlab mahsulotlar ishlab chiqarishni kuchaytirdi. Sayyoramiz atmosferasining zaharli gazlar bilan ifloslanishi, unumdor yerlarning qishloq xo'jaligi foydalanishidan tobora ko'plab maydonlarda chiqarilishi, biologik resurslardagi turlarning yer yuzidan yo'qotilishi kuchayib borayotganligi, dunyo okeanining ifloslanib borishi o'tgan asr oxirlarida xalqaro hamjamiyatni tashvishga solib qo'ydi.

Yer yuzida insoniyat hayotini saqlab qolishning ko'pdan ko'p yo'llari izlandi. Shu izlanishlardan biri ekoturizmni tashkil qilish masalalari edi. Hozirgi yillargacha o'tgan muddatda ekoturizmni rivojlantirishning maqsadi, vazifalari, mohiyatiga ko'p yillik tortishuvlardan keyin baho berildi. Ekoturizmning tamoyillari belgilandi, shu bilan birga

ekoturizmni rivojlantirishning ko'plab metodlari, amaliyoti va xalqaro miqyosda tan olingan modellari yaratildi.

Tabiat muhofazasida va insonlarda ekologik ong va madaniyatni shakllantirishda ekoturizmning muhim o'rnini dastavval sezgan davlatlar qayd qilingan metodlar va xalqaro modellarni hech ikkilanmasdan qabul qildilar va o'z davlatlarida ekoturizmni jadal sur'atlar bilan rivojlantirib bormoqdalar.

Sayyoramizda tabiat boyliklarining tobora kuchayib borayotgan inqirozi inson jamiyatining umum halokatini tezlashtiradi degan xulosa va isbotlarning jahon nashriyotlarida e'lon qilinganiga ham ko'p yillar bo'ldi. Insoniyat faqat tabiatni saqlab qolgandagina bu holatning oldini olishi mumkin. Insoniyat hayotiga og'ir xavflarni solishi mumkin bo'lgan eng xatarli ekologik muammolar quyidagilar:

1. Global iqlimiy o'zgarishlar.
2. Atmosferada ozon qatlamining yemirilishi.
3. O'rmonlarning qurib borishi va qirqilishi.
4. Sayyoramizda cho'llanishning kuchayib borayotganligi.
5. Dunyo okeanining ifloslanib borayotganligi.
6. Biologik turlarning yo'q qilinishi.
7. Yer unumdorligining pasayishi.
8. Ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqishning pasayishi.
9. Chuchuk suv zaxiralarining kamayib borayotganligi.

Insoniyat oldida turgan sayyoraviy muammolarni insoniyatning o'zi bartaraf etishi kerak va bartaraf etishga majbur. Shu nuqtayi nazardan ham, ekoturizmni rivojlantirish dunyodagi barcha davlatlarning davlat siyosatiga aylanib borayotganligida ham tushunish mumkin. BMTning konferensiyasi va sammitlarida 150 dan ortiq xalqaro tabiat muhofazasi bilimlarining, ko'rsatmalarining qabul qilinishi natijasida ekologik boshqaruv milliy mexanizmlarining ko'plab zaruriy elementlari yaratilmoqda. Bu qarorlardagi eng muhim tamoyillar:

1) har qanday ishlab chiqarish sohalarida ekologik boshqaruvni amalga oshirish ta'minlansin;

2) har bir davlatlarda yashayotgan xalqlarning ekologik bilimi va madaniyatini shakllantirish ekologik muammolarni hal qilishdagi birinchi imkoniyatlar, kuchlar ekanligi alohida ta'kidlansin.

O'tilgan mavzularda ekoturizmning kelib chiqishida va shakllanishida insoniyatning o'z yashash makoni bo'lgan tabiatni g'orat qilib kelishi natijalari ekanligini keltirgan edik va bu fikr-mulohazalar boshqa mavzularda ham ko'plab ta'kidlandi. Dunyo turizmida ekoturizm ham kelib chiqqandan keyin mamlakatlarda turizmdagi bu muhim sohani rivojlantirishning davlat dasturlari, strategik rejalari ishlab chiqila boshlandi. Bu yo'nalishda ham iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar birinchilardan bo'lishdi. Yangi soha esa albatta o'zining rivojlantirish «Konsepsiyasi»ni talab qiladi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga butunlay yangi kirib kelgan sohaning rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish esa juda katta ilmiy salohiyatlarni talab qiladi.

O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishda hali jiddiyroq ilmiy maqolalar e'lon qilinmagan bir sharoitda «O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish Konsepsiyasi»ni O'zbekiston Respublikasi «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi» va «Davlat Bionazorati» tashkiloti ishlab chiqishdi. Shu o'rinda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasini boshqargan, mamlakatimiz tabiatini muhofaza qilishda Respublikamizdagi fidoyilardan bo'lgan B.Alixonovning xizmatlari alohida hurmatga loyiq. «O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish Konsepsiyasi» 2007-yilda «Ekologiya xabarnomasi» jurnalining 6-sonida e'lon qilindi.

O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish Konsepsiyasining tarkibiy qismlari. Konsepsiyaning tarkibi 2 qismdan iborat: muqaddima, 1-qism — «O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish konsepsiyasi»; ikkinchi qism — «O'zbekistonda ekoturizmning rivojlanishi va uning yaqin kelajakdagi istiqbollari» deb bosh mavzulari belgilangan.

Birinchi qism quyidagi bo'limlardan tashkil topgan:

- masalaning dolzarbligi va uni amalga oshirishning umumiy qoidalari;

- ekoturizmning tashkiliy huquqiy masalalari;
- ekoturistik fan, ta'lim, tarbiya va targ'ibot;
- ekoturizmning ijtimoiy-iqtisodiy masalalari.

Konsepsiyaning «muqaddima»sida ekoturizmning dunyoda shakllanishi va ekoturizmni mamlakatimizda rivojlantirishning imkoniyatlari, bu imkoniyatlar va ekoturizmning kuchli salohiyatlaridan foydalanishdagi muammolar keltirilgan. Ushbu konsepsiyada Vatanimizda ekoturizmni bosqichma-bosqich rivojlantirish uchun zarur bo'lgan ekoturizmning salohiyati, maqsadi, masalaning dolzarbligi va uni amalga oshirishning umumiy qoidalari; ekoturizmning tashkiliy huquqiy masalalari; ekoturistik fan, ta'lim, tarbiya va targ'ibot; ekoturizmning ijtimoiy-iqtisodiy masalalari mukammal yoritilgan.

Ushbu o'quv qo'llanmaning mavzularida yuqorida qayd qilingan masalalar, ekoturizmni rivojlantirishdagi muammolar, ekoturizmning maqsadi va vazifalari, mamlakatimizning ekoturistik salohiyatlari, ekoturistik obyektlar va ekoturistik resurslar haqidagi ma'lumotlar manbalar bo'yicha batafsil yozilgan.

Ikkinchi qismda quyidagi bo'limlar yozilgan:

- O'zbekistonda ekoturizmning rivojlanishi va uning yaqin kelajakdagi istiqbollari;
- ekoturizmning O'zbekistondagi salohiyati va uning yaqin kelajakdagi istiqbollari.

Ikkinchi qismning bo'limlarida ekoturizmning xalqaro bozordagi o'rni, uning rivojlanish tendensiyalari, ekoturizmning mohiyati, mazmuni va ekoturizmga xalqaro tashkilotlarning bergan ta'riflari, tavsiflari, xalqaro ekoturizm bozorida ekoturizmdan katta daromadlar olayotgan davlatlar, ekoturizmning maqsadlari bo'yicha tarmoqlanishi, ekoturizmning O'zbekistondagi salohiyati va uning yaqin kelajakdagi istiqbollari haqida ma'lumotlar, axborotlar keltirilgan. Shuningdek, konsepsiyada O'zbekistonning alohida muhofazadagi tabiat hududlari, milliy parklar, tabiat qo'riqxonalari, tabiat buyurtmaxonalari va tabiiy yodgorliklarning ro'yxati, maydoni, vazifasi va tashkil qilingan yillari joy olgan.

Konsepsiyaning so‘nggi bo‘limida ekoturizmni rivojlantirish uchun O‘zbekistonda olib borilayotgan keng qamrovli ishlar, milliy park va tabiat qo‘riqxonalarini sonini ko‘paytirish, ekoturizmning tegishli infratuzilmalarini yaratish, ekoturizmni rivojlantirishda xalqaro ekoturizm bozori talablariga javob beradigan xizmatlarni tayyorlash, ekoturizmning zamonaviy moddiy texnika va texnologiyalari zaxiralarini yaratish uchun amalga oshiriladigan loyihaviy yo‘nalishlar belgilangan.

Mavzu oxirida «O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish Konsepsiyasi»ning xotimasidagi so‘nggi bandni keltiramiz: *«Sizning diqqatingizga havola etilgan «O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish Konsepsiyasi»da ko‘rsatilgan omillar va chora-tadbirlar o‘z vaqtida to‘la-to‘kis amalga oshirilsa, ishonamizki, hech shubhasiz yaqin kelajakda O‘zbekiston ham dunyoda ekoturizm taraqqiy etgan mamlakatlar qatorida munosib o‘rinni egallaydi. Bu ishda kech qolmaslik, hamda sustkashlikka yo‘l qo‘ymaslik o‘ta muhim masaladir.*

Tayanch so‘z va iboralar: konsepsiya, zamonaviy konsepsiya, strategiya, taktika, ekotexnologiya, malaka, brakoner, qo‘mita.

Mavzuni o‘zlashtirish bo‘yicha test savollari:

- 1. Ekoturizmning tamoyillarini qaysi tashkilot ishlab chiqdi?**
 - A. Butunjahon turizm tashkiloti.
 - B. Tabiatni muhofaza qilish xalqaro tashkiloti.
 - D. YUNESKO tashkiloti.
 - E. “Xalqaro ekoturizm tashkiloti”.
- 2. Turizmning tamoyillari nechta?**
 - A. 8 ta.
 - B. 6 ta.
 - D. 4 ta.
 - E. 10 ta.
- 3. O‘zbekistonda milliy bog‘lardan ekoturizmda foydalanish mumkinmi?**
 - A. Foydalanishga ruxsat berilmagan.
 - B. Foydalanish mumkin.

- D. Foydalanmoqdamiz.
- E. Kelgusida ruxsat berilsa kerak.

4. O‘zbekistondagi tabiat qo‘riqxonalaridan ekoturizmga foydalanish mumkinmi?

- A. Foydalanishga ruxsat berilmagan.
- B. Foydalanish mumkin.
- D. Foydalanmoqdamiz.
- E. Kelgusida ruxsat berilsa kerak.

5. Ekoturizmni rivojlantirishda qanday tadbirlarni amalga oshirishini taklif qilasiz?

A. "O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi" da "Ekoturizm" bo‘limini tashkil qilish kerak.

B. Universitet va institutlar oliy ma‘lumotli "Ekoturizm" mutaxassislarini tayyorlash kerak.

D. "Ekoturizm" bo‘yicha maxsus turistik firmalar tashkil qilish kerak.

E. Mamlakat aholisi o‘rtasida tabiatni muhofaza qilish va ekologik savodxonlikni o‘rganishni tashkil qilish kerak.

Mavzuni o‘zlashtirish bo‘yicha savol va topshiriqlar:

1. Ekologik turizmning tamoyillarini tushuntiring.

2. Ekoturizmning qaysi tamoyili sizga ko‘proq tushunarli bo‘ldi?

3. Ekoturizm rivojlangan G‘arbiy Yevropa davlatlari ekoturizmi kuchli ilmiy nazariya va amaliyotga asoslanib rivojlantirilishini o‘rganing va xulosalaringizni bildiring.

4. «O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish Konsepsiyasi» nima uchun ishlab chiqildi?

5. Global ekologik muammolarning ekoturizmni rivojlantirish masalalariga qanday aloqasi bor?

6. O‘zbekistonda ekoturizmni davlatimizning qaysi tashkiloti boshqaradi?

7. O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishda sizning hissangiz qanday bo‘lishi kerak?

4-mavzu. EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING MAMLAKATIMIZ IJTIMOYIY-IQTISODIY HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Reja:

4.1. Ekoturizmni rivojlantirishning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati.

4.2. Ekoturizmda ekologik bilim va madaniyatning shakllanishi

4.1. Ekoturizmni rivojlantirishning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati

Ekoturizmni rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati. G'arb mamlakatlarida ekoturizmga ijtimoiy-iqtisodiy soha jihatidan qaraladi. Chunki, chet ellarda jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan ekoturizm iqtisodiy foyda keltiruvchi va tabiatni muhofaza qiluvchi turizmning eng istiqbolli tarmoqlaridan hisoblanadi. Turizmning roli aniqlanganda yana bir muhim, asosiy jihatlarga e'tibor berish lozimki, turizm ijtimoiy sohaning bir qismi bo'lib, uning asosiy faoliyatlarida iste'molchilarga iste'mol jarayonida moddiy va nomoddiy muhitni yaratish uchun xizmatlar qilish, dam olish va faoliyat ishlarini o'zgartirish, almashtirish uchun sharoitlar yaratish, sog'liqni muhofaza qilishni ta'minlash, shuningdek, aholining ekologik ma'lumoti va ekologik madaniyatligi darajalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Insonning bir yillik vaqti – 8760 soat, umumlashtirib olsak – 9000 soat. Bu ko'rsatkich vaqt o'tishi bilan quyidagicha bo'lingan:

a) 1850-yilda:

- 5000 soat ish vaqti;
- 3000 soat uyqu;
- 1000 soat ishdan bo'sh vaqt.

b) 2000-yilda:

- 3000 soat ish vaqti;
- 3000 soat uyqu;
- 3000 soat ishdan bo'sh vaqt.

Bundan xulosa qilish mumkinki, ish vaqti tizimli ravishda

qisqarib boradi, bo'sh vaqt esa ko'payib boradi. Shuning uchun ham insonda ekologik – rekreatsiya faoliyatining o'sishiga bo'sh vaqtning ko'payishi sabab bo'ladi²⁸. Bu bo'sh vaqtdan samarali foydalanish ham insonning ijtimoiy-iqtisodiy holatlarini belgilaydi. Hozirgi vaqtda dam olishni tashkil qilish, insonning hayotiy kuchlarini tiklash, bo'sh vaqtdan unumli, to'g'ri foydalanishning ko'plab imkoniyatlarini ham turizm sohasi ta'minlamoqda. Shuningdek, turizm shaxsning rivojlanishida, barkamolligida, sayohatining intellektual darajasini oshirishda, insonning jamiyatda o'rnini aniqlashda, shaxs sifatida tavsifini berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy so'zining izohlaridan kelib chiqadigan ma'no shundan iboratki, ijtimoiy masalalar insonlarning hayoti va rivojlanishi qonuniyatlari, jamiyatdagi faoliyatini, o'rnini belgilashdagi xususiyatlaridir. Bu yerdagi umumiylik, bog'langanlik so'zlarida insoniyat jamiyatining atrof-muhit va jamiyat qonunlarini o'z vaqtida ilg'ab olish va ushbu qonunlar asosida yashash tarzi tushunilmoqda.

Ekologik muammolar sayyoraviy tus olgan hozirgi vaqtda ekoturizmning mamlakat hayotidagi o'rnini qanday bo'lmog'i kerak? Ana shu savolga javob va isbotlar yozish ekoturizmning mezonlarini belgilaydi. Mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirishning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rnini belgilashda aynan, xalqimizning birinchidan, tabiat va uning boyliklariga qiziqishi, muhofaza qilishi, ikkinchidan, insonning kamol topishida tabiatni anglash, jamiyat qonun-qoidalarini bilishi uning hayotidagi birinchi darajali ehtiyojlari hisoblanadi.

Ekoturizm “tabiatni muhofaza qilish”, “ekologiya”, “biologiya”, “tabiatdan foydalanish iqtisodi”, “geologiya”, “geografiya”, “botanika” va boshqa tabiiy fanlarning nazariyasi, asoslari, tabiiy va ijtimoiy munosabatlardan, tabiatdagi o'zaro

²⁸ Ердавлетов С.Р. География туризма: история, теория, методы, практика. Алматы, 2000. С. 336.

munosabatlardan kelib chiqdi. Shu nuqtayi nazardan bu fanlarning har qanday fan ta'limi va har qanday sohadagi o'rni deyarli bir-biriga o'xshash ta'rifni, tavsifni anglatadi.

Ekoturizmning mamlakat ijtimoiy hayotidagi o'rni belgilaganda tabiatning inson — turist hayoti uchun bo'lgan ahamiyatlari ko'rsatkichlarini keltirish lozim bo'ladi. Ekoturizmning ahamiyatini turistning ehtiyojlarini qondirish jihatlariga qarab ma'naviy, iqtisodiy, sog'lomlashtirishi, tabiatni anglash, tarbiyaviy va estetik guruhlariga bo'lishimiz mumkin. Bu guruhlarning tavsifi faqat turist uchun emas, umuminsoniyat hayotidagi tabiatning o'rni ham anglatadi.

Ekoturizmning asl maqsadlari qayd qilingan xulosalarni tashkil qiladi. Ekoturizm o'zining ta'rifini izohlashda birinchi navbatda tabiat qo'ynida bo'lib, uning resurslariga ozor yetkazmaslikni ta'minlaydi. Tabiat va uning biologik xilma-xillik resurslaridan zavq-shavq olgan insonda albatta, bu obyektga asrash istagi paydo bo'ladi. Shuning uchun ham Butunjahon turizm tashkilotlarining: "tabiiy hududlarga mas'uliyat bilan sayohat qilish natijasida ekoturistlar faoliyati tabiatni muhofaza etishni ta'minlaydi va mahalliy aholining turmush darajasini yaxshilaydi" — degan ta'rifi birinchi navbatda xalqning ijtimoiy holatining yaxshilanishiga qaratilgan.

Ekoturizmni rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyati. Ekoturizmning mamlakat iqtisodiy hayotidagi o'rni esa ekoturizmning buyuk tamoyillaridan kelib chiqib, ya'ni ekoturizmdan keladigan mablag' tabiatni muhofaza qilish, noyob biologik resurslar, biologik xilma-xillikni saqlab qolishga qaratilganligi bilan juda muhimdir. Yana ham muhimrog'i, ekoturizm resursi atrofidagi aholining ish bilan bandligini oshirishi, ta'minlashi hisoblanadi. Ekoturistik xizmatlar ko'rsatish esa mehnat qilishning eng yengil turlariga kirishi ham juda muhimdir.

Shuning uchun ham ekoturizmning mamlakat iqtisodiy hayotidagi o'rni quyidagicha belgilash mumkin. Bu tamoyillar ekoturizmning ijtimoiy tamoyillariga qo'shiladi va ekoturizmning

mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida istiqbolli yoʻnalish boʻlishini isbotlaydi²⁹.

- Ekoturizm mahalliy mehnat resurslarini qoʻshimcha, yangi ish oʻrinlari bilan taʼminlashda yordam beradi;
- Ekoturizm tabiat va tabiiy resurslardan foydalanishning yangi texnologiyalarini jalb qiladi;
- Ekoturizm ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqishni ragʻbatlantiradi;
- Ekoturizm tabiat muhofazasidagi investitsiyalar kirishini axborotlaydi va ekoturistik xizmatlar servisini takomillashtiradi;
- Ekoturizm obyektlarida mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy darajalarini oʻstiradi;
- Ekoturizm va tabiat muhofazasi taʼlimini olishda mutaxassislarda ekoturistik bilim va ekoturistik madaniyat bilimlarining nazariy va amaliy asoslarini yaratadi;
- Ekoturizm mahalliy ekoturistik mahsulotlar hunarmandchiligiga yoʻl ochadi;
- Ekoturizm tabiatni muhofaza qiluvchi mahalliy boshqaruvni rivojlantiradi va maʼnaviy, moddiy jihatlar boʻyicha ragʻbatlantiradi;
- Ekoturizm xalqlar oʻrtasida doʻstona hamdoʻstlik aloqalarini yuzaga keltiradi.

Alohida muhofazadagi hududlarida ekoturizmni rivojlantirayotgan xorij davlatlari yaxshi foyda olmoqdalar va asta-sekinlik bilan oʻz aholisini va xorijlik ekoturistlarni ekoturizmning talablarini oʻrgatmoqdalar. Masalan, Kosta-Rikadagi Monteverdi qoʻriqxonasi mahalliy ishlab chiqarish mahsulotlarini sotish hisobiga 50 ming dollar, ekoturizmdan har yili 650 ming dollar foyda oladi. Keniya milliy parklaridan har yili 450 ming dollar, Ekvador “Galapagos” orollari ekoturizmidan 180 ming dollar daromad qiladi.

Ruanda ekoturizmda oʻz gorillalarini koʻrsatib (bir sutkada har bir gorillani 4 kishi tomosha qilishi mumkin, undan ortigʻiga ruxsat berilmaydi) har yili 1 mln., boshqa ekoturizmidan 3 mln. dollar foyda oladi. Zambiyada Luangva qoʻriqxonasi ekoturizmdan 150 ming dollar

²⁹ Hayitboyev R., Matyaqubov U. Ekologik turizm. Samarqand, 2010, 60-b.

daromad qiladi. Keniyadagi Amboseli qo'riqxonasi bitta sherdan 27 ming dollar, bitta fillar to' dasidan 61 ming dollar foyda oladi.

O'z mamlakatlarida ekoturizmni rivojlantirib yaxshi foyda olayotgan Afrika, Lotin Amerikasi davlatlarining taraqqiyot darajalariga qarab ularning ekoturizmni yaxshi yo'lga qo'yganligini hisobga olsak, bizning mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirishdagi holatimiz ancha taassufli holdir. Biz hozirdan ekoturizmدا lider davlatlarning tajribalarini, texnologiyalarini, ekoturizmni tashkil qilishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini, usullarini, ekoturizmدا boshqarish va ish yuritishni mukammal o'rganishimiz kerak. Eng muhimi, ekoturizmدا ekologik obyekt, resurslardan olinadigan daromadlar taqsimotida mahalliy aholining ulushlarini (ekoturistning kirish va tabiat betakrorligidan foydalangandagi to'lovlari) huquqiy-me'yorlar asosida hal qilishimizdir.

4.2. Ekoturizmدا ekologik bilim va madaniyatning shakllanishi

Insonda ekologik bilim va ekologik madaniyatning shakllanishida tabiat qonunlarining mohiyatini anglash, insonning o'zi ham tabiatning biologik turi ekanligini tushunib olishidir. Tabiat vayron qilinganda ham yashayveradi. Masalan, o'rmonlar kesilib ketsa, havo, suv zaharlansa, ifloslansa, hayvonot dunyosi qirilib ketsa va h.k.lar, lekin inson tabiatsiz yashay olmaydi.

Insonda insoniy faoliyatlarning kamol topishida tabiatning tarbiyaviy ahamiyati deyilganda, sof tabiatning kishilarda olijanoblik, xushfe'llik, bag'rikenglik, vatanparvarlik, ulug'vorlik, muloyimlik kabi axloqiy xislatlarni uyg'otishi va shakllantirishi xususiyatlari tushuniladi. Tabiat qo'ynida tez-tez bo'lib turish insoniy fazilatlarning kamol topishiga yordam beradi. Ekoturizm muxlislarining eng ulug' xislatlari ham, ularni tabiat bag'riga chorlagan xususiyat ham, aslida ana shundan iboratdir. Inson o'z uyi bo'lgan tabiatga qancha ko'p zarar yetkazar ekan, uning o'zi ham ma'naviy jihatdan qashshoqlashib boradi.

Tabiatni asrab qolishdek og'ir muammoni yechishda insonni ekologik savodxon, ekologik madaniyatli qilib tarbiyalashda ham ekoturizmning ahamiyati beqiyosdir. Ekoturizmning ta'rifini keltirishda xalqaro ekologik tashkilotlar, Butunjahon turizm tashkiloti qayd qilgan muhim omilni hisobga oladi va tabiatni asrab qolishda ekoturizmni rivojlantirishni eng muhim omillardan biri deb hisoblaydi.

Ekologik savodxonlik va ekologik madaniyatning asosi ekologik ong hisoblanadi. Ekologik ong tabiatni asrab-avaylashda, unga ongli munosabatda bo'lishida, resurslaridan me'yorida foydalanishda, tabiat inqirozining oldini olishda eng zaruri, atrof-muhitni doimo toza saqlashda namoyon bo'ladi. Insonda ekologik bilim va ekologik madaniyatni shakllantirishda quyidagi tamoyillar ma'nosini o'rganish, tushunish va amaliyotda qo'llash tushuniladi:

1. Tabiatni "Ona yer" deb ardoqlash.
2. Bizga ma'lum bo'lgan "Olamda" birorta ham Yer sayyorasining tabiatiga o'xshash tabiat va hayot shaklining mavjudligi aniqlanmaganligi.
3. Tabiatning iqtisodiy ahamiyati deyilganda, undagi resurslardan moddiy manba sifatida foydalanishni tushunish.
4. Tabiatning ilmiy ahamiyati deyilganda insonning barcha bilimlari negizida tabiatning jarayonlari asos bo'lishi.
5. Tabiatning sog'lomlashtirish ahamiyati deganda sof tabiat boyliklarining va shifo beruvchi tabiiy modda hamda jarayonlarining inson salomatligiga ijobiy ta'sir etishi.
6. Tabiatning tarbiyaviy ahamiyati deganda sof, haqiqiy tabiatning kishilarda olijanoblik, xushfe'llik, vatanparvarlik, ulug'vorlik, muloyimlik kabi axloqiy xususiyatlarini uyg'otish va shakllantirish xususiyatlari tushuniladi.
7. Tabiatning estetik ahamiyati deyilganda, insondagi barcha go'zallik, mukammallik, musiqa, tasviriy san'at, kuy-navo hislari va ularga bo'lgan ehtiyojlar tushuniladi.
8. Tabiat-inson-jamiyat yaxlit bir — yagona tizimdir.

Qayd qilingan tamoyillardan ekoturizmni rivojlantirishda foydalanish maqsadli bo'ladi va muhim ahamiyat kasb etadi. Ekologik tarbiyalanmagan kishi tabiatdan uzoqlashib, hissiz bo'lib qoladi. Bunday insonlar gullarning chiroyliligini his qilmasdan o'z uyiga yasama gullarni keltiradi, tabiatdagi qushlarning sayrashini his qilmasdan o'z uyini qushlarning portreti bilan to'ldirishdan qanoatlanishadi. Shu tariqa u tabiatdan uzoqlashib ma'naviy jihatdan qashshoqlashib boradi. Eng muhimi, insoniyatning ekologik ongi dunyo tabiatini muhofaza qilishdagi chora-tadbirlarini muntazam amalga oshirishda asosiy ijrochi omil hisoblanadi.

Hayotda ham, har qanday ishlab chiqarish sohasida ham ekologik bilim va ekologik madaniyatning shakllanishi mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ekologik bilim va ekologik madaniyatni shakllantirishni quyidagi tizimda amalga oshirishda tavsiya qilinadi³⁰:

1. Ekologik ta'lim – sayyoramiz tabiiy boyliklari va yaqin fazoga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishi, insoniyatning tabiatdagi ekologik jarayonlar bilan uzviy bog'liqligini chuqur anglash ruhida tarbiyalash va boshlang'ich o'qitish.

2. Ekologik madaniyat – hozirgi va kelajak avlod hayotida ekologik muammolar juda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglagan davlatlar va jahon madaniyatining rivojlanish bosqichi va tarkibiy qismi.

3. Ekologik targ'ibot – tabiiy boyliklarni maksimal holatda saqlab qolishni ta'minlovchi faktlar, qarashlar va g'oyalarni ommaviy axborot vositalari (gazeta, radio, TV, jurnal, ma'ruzalar, internet) orqali yig'ish va keng chegaralarda tarqatish.

4. Ekologik o'quv – kishilarda ekologik dunyoqarashni shakllantiradigan va tabiatda insonlarning tutgan o'rni haqidagi bilimlar bilan qurollantiradigan, tabiiy tizimlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi har bir insonning baxti saodatidagi ahamiyatini tushuntirishga qaratilgan ekologik tarbiya, ta'lim, ma'lumot va targ'ibot majmui.

³⁰ Nigmatov A. N. Ekologiya huquqi sxemalar va tushunchalarda. – Toshkent, 1999, 147-b.

Ekologik huquq, ekologik savodxonlik va ekologik bilim har bir ishlab chiqarish yoki ta'lim sohasiga moslashtirilmaydi balki, insonning komil inson bo'lib yetishiga da'vat qiladi. Ekoturizmning o'rini belgilashda asoslandiki, insoniyat oldidagi ekologik inqirozni to'xtatish va bartaraf qilishning eng samarali yo'li umuminsoniyatda ekologik huquq, ekologik tarbiya va ekologik bilimni shakllantirishdir. Ekoturizmدا ekologik tarbiya, ekologik bilim va madaniyatni shakllantirishda birinchi navbatda ekologik boshqaruv tizimini ishlab chiqish zarur bo'ladi. Ekologik boshqaruv tizimi turizmning sohalari, tarmoqlari bo'yicha har xil yo'nalishlarda bo'lishi mumkin. Lekin "Ekologiya" fanining predmeti bu fanning yangi tarmoqlari yo'nalishlari yuzaga kelganida ham o'zgarmasdan qolishi ma'lum, o'zgarish mumkin ham emas.

Ta'kidlash lozimki, ekologik tarbiya, ekologik bilim va ekologik madaniyat ishlab chiqarish sohalariga qarab o'zgarmaydi, balki ekologik bilimli, ekologik madaniyatli kishi o'z bilimlari yordamida o'zi ishlayotgan sohani ekologiyalashtiradi. Shu o'rinda ham mamlakatimizda ekologik turizmni rivojlantirish maqsadli, istiqbolli yo'nalish bo'lib qolishi insonni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ekoturizmда ham, ishlab chiqarishning barcha sohalarida ham inson ekologik bilim, ekologik madaniyatni o'rganish uchun ekologik huquq asoslarini mukammal bilishi lozim bo'ladi.

Turizmда ekologik huquq asoslarini bilishning majburiyligi shundaki, ekoturizm faoliyatidagilar asosan "kelib-ketuvchilar" bo'lganligidan turist yoki ekoturist tabiatimizda yoki qo'riqxonalarda, betakror landshaftlarda bo'lganida va o'simliklar olami ancha kambag'al bo'lganida ham tabiatni toptagani uchun jazolanishini bilishi kerak. Ekologiya huquqi esa jamiyat (kishilar) va tabiat o'rtasidagi o'zaro ta'sir doirasi ekologik harakatlarini tartibga solishning huquqiy tamoyillari va me'yorlarini o'rganuvchi ta'limot yoki fan sohasi hisoblanadi. Shuning uchun ham ekologiya huquqining maqsadi – hozirgi va kelajak avlod uchun tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

doirasidagi jamiyatning ekologik munosabatlarini huquqiy tartibga solish hisoblanadi.

Ekoturizmning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rnini belgilashda yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlar, tadqiqotlar natijasida quyidagi umumlashgan xulosalar kelib chiqadi. Ya'ni ekoturizm rivojlanishida ekoturizm faoliyatining ijtimoiy hayotidagi o'rnini quyidagicha izohlanadi:

1. Turistlar bilimini, madaniyatini, ma'naviyatini umum-madaniy, tabiiy ilmiy, ekologik bilim va ekologik xavfsizlik bilimlari bilan tabiatning o'zida boyitish va shakllantirish.

2. "Shahardagi" stress-charchoq holatdan chiqish va ehtiros, hissiyotlarni tiklash, sog'lomlashtirish.

3. Turistlarda notanish xalqlarning milliy yashash tarziga, milliy urf-odatlariga, marosimlariga, vataniga do'stona mehr-oqibatlarini shakllantirish³¹.

Tayanch so'z va iboralar: texnik daraja, ekologik rekreatsiya, intellektual daraja, ekologik ong, ekologik madaniyat, stress holat.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Tabiatni asrab qolishda ekoturizmni rivojlantirish eng muhim omillardan biri ekanligi haqida prezentatsiyali ma'ruza tayyorlang.

2. Ekologik bilim va ekologik madaniyatni shakllantirish tizimini tushuntirib bering.

3. Ekoturizm xalqlar o'rtasida do'stona hamdo'stlik aloqalarini yuzaga keltiradi" mavzusida ma'ruza tayyorlang.

4. Ekoturizm tabiat va tabiiy resurslardan foydalanishning yangi texnologiyalarini jalb qiladi" mavzusida ma'ruza tayyorlang.

5. Shahardagi "stress-charchoq" holatdan chiqish va ehtiros, hissiyotlarni tiklash, sog'lomlashtirishda ekoturizmning ahamiyatini tushuntiring.

6. Ekoturizmning iqtisodiy ahamiyatini belgilang.

7. Ekoturizmning ijtimoiy ahamiyatini belgilang.

³¹ Храбовченко В.В. Экологический туризм. – Москва: "Финансы и статистика", 2003. С. 172.

**5-mavzu. EKOLOGIK TURIZMNING RESURSLARI:
MILLIY PARKLAR, BIOSFERA VA TABIAT
QO'RIQXONALARI, TABIAT BUYURTMAXONALARI VA
TABIAT YODGORLIKLARI**

Reja:

5.1. Dunyoda ekoturizmning resurslari. Milliy parklarning tashkil qilinishi.

5.2. Tabiat qo'riqxonalari, tabiat buyurtmaxonalari va tabiat yodgorliklari.

5.1. Dunyoda ekoturizmning resurslari.

Milliy parklarning tashkil qilinishi

Ekoturizmning mohiyati, mazmuni, tamoyillari, maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda uning asosiy resurslarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Insonning xo'jalik faoliyati tegmagan tabiiy hududlar.

2. Insonning xo'jalik faoliyati qisman ta'sir qilgan ammo tabiiy ekologik muhit muvozanati saqlanib qolgan tabiiy hududlar.

3. Insonning xo'jalik faoliyati ta'sir qilmagan okeanlar va dengizlar akvatoriyasi.


4. Insonning xo'jalik faoliyati qisman ta'sir qilgan, ammo tabiiy ekologik muhit muvozanati saqlanib qolgan okeanlar va dengizlar akvatoriyasi.

5. Dunyo davlatlaridagi milliy parklar.

6. Dunyo davlatlaridagi tabiat qo'riqxonalari, biosfera qo'riqxonalari, tabiat rezervatlari.

7. Dunyo davlatlaridagi ekologik parvarishxonalar (ekologik, biologik pitomniklar) va tabiat buyurtmaxonalari (zakazniklar).

8. Dunyo davlatlaridagi alohida muhofaza qilinadigan hududlar.



MCOII

9. Sayyoramizning tabiat zonalari va uning tabiiy iqlim xususiyatlariga ega bo'lgan landshaftlari, florasi va faunasi.

10. O'rmonlar va uning landshaftlari, florasi va faunasi.

11. Daryolarning havzalari, ularning florasi va faunasi, sharsharalari.

12. Tog'lar, tog' oldi zonalari va ularning tabiiy boyliklari, daralari, kan'onlari, flora va faunasi.

13. Arid (quruq iqlimli cho'llar, yarim cho'llar, sahrolar) zonalar va ularning landshaftlari, florasi va faunasi.

14. Suv omborlari, ularning sohillari, florasi va faunasi.

Yuqorida qayd qilinganlarning barchasi ekoturizmning resurslari hisoblanadi. Chunki, ekoturist tabiat va uning boyliklariga qiziqishi, zavqlanishi, dam olishi va tomosha qilishini o'zi hal qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda va ekoturizmni dastlabki vaqtlarda rivojlantirish nuqtayi nazaridan hozirda ekoturizmning asosiy resurslari dunyoning barcha davlatlarida quyidagicha belgilangan:

1. Dunyo davlatlaridagi milliy parklar.

2. Dunyo davlatlaridagi tabiat qo'riqxonalari, biosfera qo'riqxonalari, tabiat rezervatlari.

3. Dunyo davlatlaridagi ekologik parvarishxonalar (ekologik, biologik pitomniklar) va tabiat buyurtmaxonalari (zakazniklar).

4. Dunyo davlatlaridagi alohida muhofaza qilinadigan hududlar.

Ekoturizm resurslarining umumiy ro'yxatining har bir nomlanishiga alohida-alohida to'xtalish va izoh berish mumkin. Lekin, ularning barchasini institut va universitet talabalari maktablarda, akademik litseylarda va kasb-hunar kollejlarda o'qib o'rganishgan. Shuning uchun ham biz hozircha ekoturizmning xalqaro miqyosda qabul qilingan asosiy resurslarini o'rganishimiz mumkin.

Dunyoda birinchi milliy park — Yellowstone — 1872-yili Kanada davlatining tashabbusi bilan Amerika Qo'shma

Shtatlarida tashkil qilindi. Chunki, Yellouston milliy parkining bir xil tabiiy landshaftlarga ega bo'lgan hududlarining katta qismi Kanada davlati chegaralarida joylashgan edi. Shimoliy Amerika qit'asining Qoyali tog'larida 1885-yilda 26 km. kv. maydonda Vud Baffalo milliy parki ochildi. 1948-yilda "Tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish xalqaro Ittifoqi" (MSOP) tashkil qilindi.

Ittifoqning bosh maqsadi – hayvonot va o'simliklar dunyosining hududlarini muhofaza qilish, tabiat muhofazasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazish deb belgilandi. MSOP 1958-yilda BMT ga milliy parklarni tashkil qilish va ularning muammolarini quvvatlashni taklif qildi. Natijada, 1962-yilda BMTning "Milliy parklar bo'yicha xalqaro konferensiyasi" o'tkazildi. Bu konferensiyada 70 ta davlatlarning vakillari qatnashdilar. 1972-yilda BMT va YUNESKO, YUNEP a'zolari "Milliy parklar bo'yicha xalqaro Ikkinchi Konvensiyani" qabul qildi³².

Bu Konvensiyaning qarorlari bo'yicha dunyodagi barcha milliy parklarda insonning xo'jalik faoliyati sezilarli "darajalarda" chegaralandi va o'simliklar, hayvonot dunyosini to'liq muhofaza qilish sharti qo'yilib (tabiiy landshaftlar va betakror tabiiy majmualar, o'simliklar va hayvonot dunyosiga insonning aralashuvi qat'iy man qilinadi) qisman ekologik turizmga foydalanishga ruxsat berildi.

Milliy parklar. Milliy park tushunchasi, uning vazifalari va milliy parklardan turizm va rekreatsiyada foydalanish bo'yicha birinchi 1933-yil Londonda "Afrika flora va faunasini muhofaza qilish Konvensiyasi"da qabul qilindi. 1940-yili Dehlida milliy parklarning hozirgi ta'rifi berildi.

Milliy parklar milliy va xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan betakror tabiatni va tabiiy landshaft obyektlarini, ekologik tizimlarni muhofaza qilish va ilmiy, rekreatsiya, dam olish, madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish uchun mo'ljallangan va


³² Mose Ingo. Sanfter Tourismusim Nationalpark Hohe Tauern. Vechtaer Arbeiten zu rGeographie und Regional wissenschaft, Band 6. Vechta, 1988. P. 267.

qo'riqlanadigan hududlar hisoblanadi. Milliy parklarning tarkibiy ta'riflari quyidagi tavsiflardan iborat:

- Inson xo'jalik faoliyati aralashmagan bir yoki bir necha ekologik tizimlardan iborat bo'lgan tabiiy majmualar yig'indisi;
- O'simliklar va hayvonot dunyosi bioxilma-xilligi o'zining turli-tuman va alohida etnik xususiyatlarga egaligi alohida ilmiy-amaliy qiziqishga ekanligidan muhofaza qilinadi;
- Mahalliy tabiiy landshaftlar faqat shu hududlarni egallagan bo'lib o'zining betakror chiroyiga ega;
- Ekologik, geomorfologik va estetik belgilari uchun davlatning alohida muhofazasidagi hududlarga aylantirilgan;
- Milliy parkka ilmiy tadqiqotlar va tabiatni o'rganish maqsadlarida kirishga ruxsat beriladi;
- Milliy parklardan (davlatlarning qarori bilan) dam olish va rekreatsiya, turizm maqsadlarida foydalanish mumkin.

Dunyodagi davlatlar o'zlarining milliy parklaridan har xil tartibda foydalanadilar. Shuning uchun ham dunyodagi milliy parklarning tashkiliy, iqtisodiy va geografik xususiyatlarini bilib olish zarur. Milliy parklar davlat va xususiy mulk egaligiga qarashli bo'lishi ham mumkin. Bundan tashqari ba'zi davlatlarda milliy parklar xalqaro tashkilotlar ixtiyoriga ham beriladi. Hozirgi vaqtga kelib milliy parklarning asosiy qismi deyarli davlat mulkiga aylantirilgan.

Milliy parklarning tashkil qilinishi. 1933-yil Londonda "Afrika flora va faunasini muhofaza qilish Konvensiyasi" ning milliy parklar bo'yicha qabul qilgan qaroridan keyin davlatlarda milliy parklarni tashkil qilish birmuncha jonlandi. Ayniqsa, Afrika davlatlarida XX asrda ko'plab milliy parklar va tabiat qo'riqxonalari tashkil qilindi. Bu milliy parklar va tabiat qo'riqxonalari hozirgi kungacha betakror tabiat muzeylari sifatida insoniyatga xizmat qilmoqda. Afrikadagi eng katta milliy parklar Zair davlatida tashkil qilingan; Salonga Upemba, Maiko, Virunga. Zairdagi Kafue milliy parkida dunyodagi karkidon va begemotlarning eng ko'p sonlari saqlanadi va muhofaza qilinadi.



Chilining "Xalqaro Pasxi oroli" milliy parkidagi afsonaviy tosh haykallar.

1949-yilda Zimbabveda Ywange milliy parki tashkil qilindi. Tanzaniyadagi Serengeti milliy parki hozirgacha jahondagi eng qiziqarli va mashhur parklardan hisoblanadi. Keniyaning markaziy qismidagi Aberdare, Kruger milliy parklarida Afrikaning 5 turdagi eng yirik yovvoyi hayvonlari muhofaza qilinadi.

Yaponiya davlati milliy parklar yaratishga katta e'tibor beradigan davlatlar qatorida turadi. Bu davlatdagi eng mashhuri Fudziyama tog'idagi – Fuji Hakone Izu milliy parkidir. Hindistonda ham ko'plab milliy parklar jahonga mashhur, taniqli. Bularning eng mashhurlari Himolay tog'larining old qismidagi – Corbet milliy parki hisoblanadi. Bu milliy parkda Hindiston yo'lbarsi va qoplon (leopard) muhofaza qilinadi va ko'paytiriladi.

Shri Lankada fillar, qoplonlar va kam uchraydigan noyob qushlar muhofaza qilinadigan Gal Oua milliy parki BMT ro'yxatida turadi. Avstraliya eng ko'p milliy parklari bor davlatlardan hisoblanadi. Bu davlatdagi Gagadu milliy parkida jahondagi eng ko'p timsohlar muhofaza qilinadi. Bu milliy parkda "Timsoh" mehmonxonasi jahonda timsoh shaklida qurilgan yagona mehmonxona hisoblanadi.

Yangi Zelandiyada Tongario, Egmont, Fiord Land milliy parklari taniqli milliy parklardan hisoblanadi. Buyuk Britaniya ham milliy parklar va tabiat qo'riqxonalarini ko'paytiruvchi davlatlardan hisoblanadi. Britaniyadagi eng yirik milliy park Britaniya orollaridagi Garingorn National Nature Reserve 26 ming ga maydonni egallaydi. Alp tog'laridagi eng katta milliy parklardan hisoblanadigan Gran Paradiso Italiya davlatining tashabbusi bilan tashkil qilingan.

Germaniyada 1969-yilda ikkita Berchtesgaden, Bavarian Forest milliy parklari o'z faoliyatlarini boshladi. Germaniyada 80 ta milliy parklar, zaxiradagi milliy parklar va tabiat qo'riqxonalari tashkil qilingan. Janubiy Amerikada milliy parklar tabiatni o'z tabiiy holatida saqlash va muhofaza qilish uchun tashkil qilinadi. Shunday milliy park Charlz Darvin tadqiqot o'tkazgan Galapagoss orollarida (Ekvodor davlati) noyob suv toshbaqalarini va suvda yashovchi turlarni saqlab qolish va muhofaza qilishni boshladi. Chilidagi mashhur va mo'jizaviy Pasxi oroli xalqaro miqyosdagi milliy park deb e'lon qilindi.

Argentinaning Nehuel Huapi milliy parki And tog'lari ostonasidagi 800 ming ga maydonni egallaydi. Venesueladagi

Canaima milliy parkida dunyodagi eng baland sharshara Angel Falls joylashgan. Milliy parklar va tabiat qo'riqxonalari, alohida muhofaza qilinadigan hududlarning ko'payishi ekoturizmning rivojlanishiga asos soladi.

Hozirda dunyoda 1500 dan ziyod milliy parklar bor. Ularning eng yirik bo'lgan 260 tasi BMTning ro'yxatiga olingan³³. Qayd qilingan ma'lumotlardan ma'lum bo'ladiki, milliy parklar turli maqsadlarda tashkil qilingan. Shuning uchun ham, ekoturizmni rivojlantirishda bu milliy parklarning tashkiliy, iqtisodiy va geografik xususiyatlarini tahlil qilish talab qilinadi.

Dunyoda milliy parklar tashkiliy va iqtisodiy jihatlaridan a) davlat mulki; b) xususiy va d) aralash (davlat va xususiy) mulk egaligida faoliyat ko'rsatmoqdalar. Ba'zi davlatlar o'z milliy parklarini xalqaro tashkilotlar ixtiyoriga berishadi va daromadning bir qismini olishadi. Hozirgi vaqtda ko'plab davlatlardagi xususiy va aralash mulkdagi milliy parklarni egalari davlat mulki boshqaruviga berishmoqda. Ikkala holatning ham kelib chiqish sabablari milliy parklar muhofazasining qiyinlashib borishi hisoblanadi. Afrika mamlakatlarida, Janubiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida, Yaqin Sharq va MDH davlatlarida, Lotin Amerikasida milliy parklarni davlat ixtiyoriga berish kuchaygan.

Milliy parklarni davlatga sotish yoki to'liq davlat ixtiyoriga berish Yevropa davlatlarida ham ustuvor yo'nalishga ega (Germaniya, Irlandiya, Bolgariya, Ruminiya, Chexiya Respublikasi va Skandinaviya davlatlari). Shimoliy va Janubiy Amerika Davlatlarida, Polsha, Gretsiya, Turkiya, Pokiston, Nepal va Aljirda milliy parklar xususiy hamda davlat tasarrufida faoliyat ko'rsatadi.

G'arbiy Yevropa davlatlarida, Fransiyada, Ispaniya va Buyuk Britaniyada, Paragvay, Urugvay, Ekvadorda milliy parklarning yarmi xususiy hisoblanadi. Janubiy Koreyada 40% milliy parklar xususiylashtirilgan.

³³ Бабкин А.В. Специальные виды туризма. Ростов на-Дону, Феникс, 2008. С. 252.

Milliy parklarning tashkiliy va boshqaruv xususiyatlari ham dunyo mamlakatlarida turlicha hisoblanadi. Milliy parklar dastlabki vaqtlarda tashkil qilinganda federal agentliklarga va departamentlar boshqaruvida bo'lishgan. Rivojlangan, o'tish davri iqtisodi rivojlanishidagi davlatlarda (90% davlatlar) milliy parklar boshqaruvi pastdan yuqoriga-vertikal tashkiliy boshqaruvida (Shvetsiya, Italiya, Niderlandiya, Yevropaning ko'plab davlatlari).

AQSH, Kanada, Fransiya, Avstraliya va JAR davlatlarida xususiy milliy parklar ko'pligidan teng huquqli-gorizontaal tashkiliy boshqaruv hukmron. Lekin, boshqaruvning barcha xilma-xilligi yoki milliy parklardagi turli mulkchilik shaklidan qat'i nazar milliy parklardagi tabiat muhofazasi albatta davlat organlari ixtiyorida hisoblanadi.

Mamlakatimizda milliy parklar, tabiat qo'riqxonalari, biosfera qo'riqxonalari, tabiat buyurtmaxonalari va alohida muhofaza qilinadigan hududlarni tashkil qilish va boshqarish O'zbekiston Respublikasi «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish» davlat qo'mitasi ixtiyoriga berilgan. So'nggi yillarda milliy parklar puldor, tabiat muhofazasini quvvatlaydigan xalqaro tashkilotlar, tijoriy banklar, mashhur yozuvchilar, san'atkorlar va boshqalardan tushadigan mablag'lar hisobidan ham faoliyat ko'rsatishmoqda. Shuning uchun ham ekoturistik resurslari bor davlatlar barcha imkoniyatlarini ishga solib o'zlarida ekoturizmni rivojlantirishga kirishganlar. Kanada milliy parklardan 240 mln. dollar, AQSH milliy parklardan yiliga o'rtacha 370 mln dollar daromad olishmoqda. Eng muhimi, ekoturistik obyekt qanchalik jozibador, betakror bo'lmasin ushbu obyekt ishlatilganda ekoturizm rivojlanadi. Dunyoda 1959-yilda 39 mamlakatda 200 ta milliy park, 1982-yilda 1000 ta va hozirda 1500 ta milliy parklar faoliyat ko'rsatmoqda³⁴.

³⁴ Mose Ingo. Sanfter Tourismusim Nationalpark Hohe Tauern. Vechtaer Arbeiten zu r Geographie und Regionalwissenschaft, Band 6. Vechta, 1988. P. 267.

5.2. Tabiat qo'riqxonalari, tabiat buyurtmaxonalari va tabiat yodgorliklari

Davlat tabiat qo'riqxonasi — noyob va o'ziga xos ekotizimlarni, o'simliklar va hayvonot dunyosi hamda alohida turlarni, o'simliklar va hayvonot dunyosining genetik fondini, tabiatdagi tabiiy jarayonlar va hodisalarni saqlash, muhofaza qilish va o'rganish, ekologik-ma'rifiy tadbirlar ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish maqsadida davlat tomonidan muhofaza qilinadigan tabiiy hududlardir.

Davlat tabiat qo'riqxonasining maqomi quyidagi talablardan iborat hisoblanadi:

- tabiiy majmualarni to'lig'icha muhofaza qilish va qayta tiklash;
- doimiy ekologik monitoringni tashkil qilish;
- ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish;
- ekologik-ma'rifiy ishlarni o'tkazish;
- noyob o'simliklar va hayvonot turlarining genofondini saqlash va muhofaza qilish, ko'paytirish.

Davlat tabiat qo'riqxonalari ko'p hollarda bitta noyob o'simlik yoki hayvon turini qo'riqlash uchun ham tashkil qilinadi. Bu holda ham qo'riqxonada hududlaridagi barcha ekologik tizimlar va ulardagi biologik xilma-xillik bir xil rejimda muhofaza qilinadi. Masalan, O'zbekistonda "Zarafshon tabiat qo'riqxonasi" endemik bo'lgan Zarafshon tustovug'ini, "Nurota tabiat qo'riqxonasi" yovvoyi qo'y arxarlarni qo'riqxonaning butun ekologik tizimlari bilan muhofaza qiladi.

Davlat tabiat qo'riqxonalari alohida o'simlik yoki alohida noyob, endemik bo'lgan hayvon turini muhofaza qilishga (Badayto'qay biosfera qo'riqxonasi) ham ixtisoslashtirilishi mumkin. Masalan, botanika tabiat qo'riqxonalari (xalqaro "Qizil kitob" va "O'zbekiston "Qizil kitob"iga kiritilgan endemik bo'lgan noyob o'simliklar, geomorfologik yoki geologik qo'riqxonalar (Kitob geologik qo'riqxonasi).

Biosfera qo'riqxonalari. Biosfera qo'riqxonalari atamasi 1976-yil YUNESKO yig'ilishida shakllantirildi. O'sha vaqtda 8 mamlakatda 59 ta biosfera qo'riqxonalari tashkil qilinganligi ro'yxatdan o'tkazildi. 1983-yilda "Biosferali hududlar" bo'yicha xalqaro kongress "biosferali hududlarni rivojlantirish" rejasini ishlab chiqdi. Biosfera qo'riqxonalari xalqaro miqyosdagi maqomga (statusga) ega bo'lgan davlat tabiat qo'riqxonalari hisoblanadi. Muhofaza rejimi davlat tabiat qo'riqxonalaridagidek. Dunyoda hozirga kelib 350 ta biosfera qo'riqxonalari tashkil qilindi³⁵.

Biosfera qo'riqxonalarining xalqaro qo'riqxonalariga aylantirishi xalqaro tabiatni muhofaza qilish tashkilotlarining va xalqaro "Qizil kitob"ning tashabbusi bilan amalga oshiriladi. Chunki bu tabiat qo'riqxonalarida muhofaza qilinayotgan o'simlik yoki o'simliklar turi, hayvon yoki hayvonlar turi endemik bo'lib dunyoning boshqa hududlarida yashamaydi va soni juda kamayib ketgan, tabiatda batamom qirilib ketishi mumkin. Ikkinchidan, davlatlarning tabiat qo'riqxonalarida muhofaza qilinadigan ba'zi bir hayvon yoki parrandaning xalqaro "Qizil kitob"ga kiritilishi ham ushbu qo'riqxonani xalqaro biosfera qo'riqxonalari tizimiga kiritilishining asoslaridan biri hisoblanadi.

Vatanimizda Qoraqalpog'iston Respublikasida, Quyi Amudaryo qayirlarida dunyoning boshqa hududlarida yashamaydigan, vatanimiz tabiati uchun endemik bo'lgan Buxoro bug'usini ko'paytiradigan va muhofaza qiladigan oldingi "Baday-to'qay tabiat qo'riqxonasi" Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi (MSOP) va Xalqaro "Qizil kitob" tashabbusi bilan "Baday-to'qay biosfera qo'riqxonasi"ga aylantirildi. Hozirda bu biosfera qo'riqxonasi "Baday-to'qay xalqaro rezervati"ga aylantirilgan. Vatanimizdagi ikkinchi biosfera tabiat qo'riqxonasi jahonda sanoqli sonlari qolgan qor barsini saqlayotgan va muhofaza qilayotgan "Chotqol davlat biosfera qo'riqxonasi" hisoblanadi.

³⁵ Кусков А.С., Голубева В.Л., Одинцова Т.Н. Рекреационная география. Саратовский государственный технический университет, 2005. С. 503.

Davlat tabiat buyurtmaxonasi (zakaznik) – tabiat majmualarini yoki bitta va bir necha o‘simlik hamda hayvon turini yoki turlarini muhofaza qilish, qayta tiklash maqsadlarida davlat tomonidan qo‘riqlanadigan tabiiy hududlardir. Tabiat buyurtmaxonalari (rus tilidagi zakaznik atamasi ko‘proq ommaviylashgan) asosan ma‘lum bir muddatlarda faoliyat ko‘rsatish uchun tashkil qilinadi.

Yangi yerlarni madaniylashtirishda, sanoat miqyosidagi foydali qazilmalarning topilishi va tartibsiz, rejasiz antropogen bosimning kuchayishi natijasida o‘sha yerdagi tabiiy landshaftlar va undagi o‘simliklar hamda hayvonlarning qirilib ketishi yuzaga chiqadi. Bunday holatlarda davlat bu joylarni davlat tabiat buyurtmaxonasiga aylantiradi. Ba‘zi hollarda tabiatdagi bitta noyob turning soni kamayib ketib butunlay yo‘qotilishi vaziyatlari kelib chiqqanda ham o‘sha tur nomi bilan tabiat davlat buyurtmaxonasi tashkil qilinadi.

Tabiatning muzeylari va haykallari. Tabiat muzeylari 1 dan to 10–15 gektar yerlarni, hatto 5–6 m² yerni ham egallashi mumkin. Lekin, bu yerda eng muhimi, tabiatdagi ana shu kichik joylar ham evolutsiyaning keng rivoji yoki atrof-muhitning rivoji haqida juda muhim ma‘lumotlarni berishi mumkin. Shu bilan birga bu yerda harakatsiz, jonsiz geotizimlarni tabiat muzeylari bilan aralashtirmaslik lozim. Masalan, V.I.Vernadskiy so‘zi bilan aytganda biosferada sayyoramizning butun tirik organizmlari yashagani uchun tirik tabiat, litosfera, gidrosfera va atmosfera notirik tabiat.

Tabiat muzeylari o‘zining alohida diqqatga tortishi, estetik zavq berishi, lol qoldirishi bilan umumiy ko‘rinishdan ajralib turadi. Tabiat muzeylari dam olish, sayohatga chiqish yoki sport inshootlari, parklar qurishda ishlatilib kelinmoqda, ular ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari hamdir. Respublikamiz tog‘laridagi qadimiy rasmlarni bunga misol qilish mumkin. Bunday joylarni A.Gumbold «Tabiat esdaliklari, haykallari» deb ham atagan.

Alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar – milliy parklar, davlat tabiat qo‘riqxonalarini, davlat tabiat buyurtmaxonalari,

milliy va xalq bog'lari ham alohida muhofaza qilinadigan hududlar tizimiga kiradi. Shuning uchun ham alohida muhofaza qilinadigan hududlarning ta'rifi milliy parklar va davlat tabiat qo'riqxonalarining ta'rifiga tenglashtirilgan. Xorijiy davlatlarda alohida muhofaza qilinadigan hududlardan chegaralangan tartiblarda turizmga, rekreatsiyaga ruxsat berilgan. Xalqaro tashkilotlarning ma'lumotlari bo'yicha dunyoda alohida muhofaza qilinadigan barcha xil tabiiy hududlarning soni 10 mingdan oshadi.

Hozirda O'zbekiston Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar» bo'limi tomonidan «O'simlik olamini muhofaza qilish» bo'limi bilan birgalikda 100 yosh va undan katta daraxtlarni hisobga olish va ularga «Davlat tabiat yodgorligi» maqomini berish uchun viloyat tabiatni muhofaza qilish qo'mitalaridan kelgan axborotni jamlash va umumlashtirish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur ma'lumotlar asosida umumlashtirilgan jadval tuzildi va barcha daraxtlar hisobga olindi³⁶.

Ekologik parvarishxonalar (pitomniklar) — ekologik parvarishxonalar xalqaro “Qizil kitob” ro'yxatiga tushgan, butunlay yo'qotilish arafasiga kelgan noyob hayvon turlarini saqlab qolish va ko'paytirish uchun maxsus tabiiy sharoitlarda hamda maxsus rejimda davlatlar tomonidan va tabiatni muhofaza qilish xalqaro tashkilotlari tomonidan tashkil qilinadi. Mamlakatimizda Buxoro viloyatida xalqaro “Jayron” parvarishxonasi va Toshkent viloyatida “Sayxun tabiat xo'jaligi” parvarishxona maqomiga tenglashtirilgan va tabiatni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro talablar darajasida faoliyat ko'rsatmoqda. 1976-yilda respublikada birinchi marta Buxoro viloyatida 5145 ga maydonda jayronlarni boqish bo'yicha ixtisoslashtirilgan pitomnik tashkil qilindi. 1989-yilda pitomnik noyob hayvon turlarini ko'paytirish bo'yicha respublika ilmiy-ishlab chiqarish markazi — «Jayron» ekomarkaziga aylantirildi va Davlat tabiat qo'mitasi tarkibiga qo'shildi.

³⁶ Milliy ma'ruza ma'lumotlari. 110–150-b.

«Jayron» ekomarkazi noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi hayvon turlarini saqlab qolish va ko‘paytirishga ixtisoslashgan jahon miqyosida o‘ziga xos bo‘lgan obyekt hisoblanadi. 1977-yilda tashkil etilganida ekomarkaz «Buxoro jayronlarni ko‘paytirishga ixtisoslashgan pitomnik» deb nomlanardi va unda 42 ta jayron, 4 ta qulon va sayg‘oklar boqilardi. Keyinchalik unda xalqaro va milliy Qizil kitoblarga kiritilgan xongul (Buxoro bug‘usi), gepard, yo‘rg‘a-tuvaloq ham boqildi. Pitomnikning oldiga jayronlarni ko‘paytirish, ular biologiyasini o‘rganish va populyatsiyasi resurslaridan oqilona foydalanish vazifasi qo‘yildi.

Keyinchalik ijobiy natijalar olinganidan keyin pitomnik boshqa noyob turlar — qulon, Prjevalskiy oti, yo‘rg‘a-tuvaloqni ko‘paytirish bilan shug‘ullandi, bu yerda sayg‘oklar podasi ham bor edi. Faoliyatini kengaytirish va hayvonlarni ko‘paytirish sohasidagi muvaffaqiyatlari tufayli 26.12.98-yilda Vazirlar Mahkamasining farmoyishi bilan pitomnik «Jayron» ekomarkaziga aylantirildi.

Ekomarkaz maydoni 7153 ga bo‘lib, shundan 5145 ga brakonerlar va yirtqichlardan himoyalanih uchun metall to‘siq bilan to‘silgan. Pitomnikda tutqunlik sharoitida hayvonlarni o‘rganish va zarurat tug‘ilganida hayvonlar bolalarini qo‘lda ovqatlantirish imkonini beradigan volerlar tizimi qurilgan. Hozirgi paytda 2007-yildagi hisobga ko‘ra jayronlar miqdori 549 bosh, Prjevalskiy otlari 35 boshgacha, O‘zbekiston tabiatida yo‘qolib ketgan qulonlar 55 boshgacha yetgan.

Jayronni volerda ko‘paytirish sohasidagi ishlar eng muvaffaqiyatli ketmoqda. Ekomarkaz faoliyat yuritgan vaqt davomida tutqunlikda ko‘paytirilgan hayvonlarning 30 ta avlodini olishga muvaffaq bo‘lindi. Bunda hayvonot bog‘lari va xususiy kolleksiyalarga 200 dan ortiq jayron, 5 ta Prjevalskiy oti sotilgan, 822 bosh jayron tarqatilgan, ovchilik mahsuloti (jayron) 128 boshni tashkil qildi. Hozirgi paytda uning maydoni 7,1 ming ga gacha kengaytirildi.

Uning hududida O'zbekiston "Qizil kitob"i va MSOP "Qizil kitob"iga kiritilgan jayron, Prjevalskiy oti, qulon, yo'rg'a-tuvaloq va boshqa hayvonlar yashaydi. «Jayron» ekomarkazida Buxoro qo'yini ko'paytirish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Yovvoyi hayvonlar sonining so'nggi hisobiga ko'ra, Ekomarkaz hududida 549 ta jayron, 55 ta qulon, 35 ta Prjevalskiy oti, 9 ta Buxoro qo'yi va bitta morxo'r mavjud. 2007-yil aprel va avgust oylarida Moskva hayvonot bog'i va Tojikiston milliy bog'iga tegishli ravishda 15 tadan jayron yuborilgan.

«Sayxun» tabiat xo'jaligi bo'yicha 2007-yilda inkubatorga 360 ta yovvoyi o'rdak tuxumi qo'yilgan va shundan 200 ta o'rdak bolasi ochilgan, tabiiy yo'l bilan 5 ta g'oz va 45 ta sesarka olingan, ko'lda 400 kg madaniy baliq turlari yetishtirilgan.

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlar ikkita xususiy pitomnik tashkil qildi. Bu O'zbekistonda qo'riqlanadigan hayvonlar yoki o'simlik turini xususiy mulkka berishda dastlabki istiqbolli yo'nalishdir.

1. Buxoro viloyatida (Peshku tumani) yo'rg'a-tuvaloqni ko'paytirish bo'yicha «Emirates Birds Breeding» MCHJ pitomnigi (2007-y.).

2. Navoiy viloyatida (Karmana) yo'rg'a-tuvaloqni ko'paytirish bo'yicha «Emirates Centre for Conservation of Houbara» MCHJ pitomnigi (2008-y.).

Tayanch so'z va iboralar: milliy park, flora, fauna, konvensiya, endemik, rezervat, ekomarkaz, pitomnik, tabiat haykallari, MSOP.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha test savollari:

1. Milliy parklarning to'g'ri ta'rifini belgilang.

A. Tabiat majmualarini yoki bitta va bir necha o'simlik hamda hayvon turini yoki turlarini muhofaza qilish maqsadlarida davlat tomonidan qo'riqlanadigan tabiiy hududlar.

B. Noyob va o'ziga xos ekosistemalarni, o'simliklar va hayvonot dunyosi va alohida turlarni, tabiatdagi tabiiy jarayonlar

va hodisalarni saqlash, muhofaza qilish va o'rganish, ekologik-ma'rifiy tadbirlar ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish maqsadida davlat tomonidan muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar.

D. Xalqaro miqyosdagi maqomga (statusga) ega bo'lgan davlat tabiat qo'riqxonalari. Muhofaza rejimi davlat tabiat qo'riqxonalaridagidek.

E. Milliy va xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan betakror tabiatni va tabiiy landshaft obyektlarini, ekologik tizimlarni muhofaza qilish va ilmiy, rekreatsiya, dam olish, madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish uchun mo'ljallangan va qo'riqlanadigan hududlar.

2. Alohida muhofaza qilinadigan hududlarning ta'rifini to'g'ri belgilang.

A. Tabiatning muzeylari va haykallari.

B. Tabiat qo'riqxonalari.

D. Milliy parklar.

E. Milliy parklar, davlat tabiat qo'riqxonalari, davlat tabiat buyurtma xonalari, milliy va xalq bog'lari ham alohida muhofaza qilinadigan hududlar tizimiga kiradi.

3. Dunyoda nechta milliy park bor?

A. 1000 ta.

B. 1200 ta.

D. 1500 ta.

E. 2000 ta.

4. Dunyoda nechta biosfera qo'riqxonalari bor?

A. 100 ta.

B. 150 ta.

D. 250 ta.

E. 350 ta.

5. O'zbekistonda nechta biosfera qo'riqxonalari bor?

A. 2 ta.

B. 5 ta.

D. 10 ta.

E. 12 ta

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. "Milliy parklar ekoturizm resurslari"ni tushuntiring.
2. "Davlat tabiat qo'riqxonalari"ni tushuntiring.
3. "Alohida muhofaza qilinadigan hududlar"ni tushuntiring.
4. "Tabiatning muzeylari va haykallari"ni tushuntiring.
5. "Biosfera qo'riqxonalari"ni tushuntiring.
6. Ekologik parvarishxonalarini tushuntiring.
7. Ekoturizmda tabiat qo'riqxonalaridan foydalanish mumkinmi?
8. Mavzu matnidagi xalqaro ekologik tashkilot ramzini ta'riflang.

6-mavzu. DUNYODA MILLIY PARKLARNING XALQARO MODELLARI. O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO MILLIY PARK MODELLARIDAN FOYDALANISH

Reja:

6.1. Ekoturizmni rivojlantirishning xalqaro modellari.

6.2. Ekoturizmni rivojlantirishda xalqaro modellardan foydalanish.

6.1. Ekoturizmni rivojlantirishning xalqaro modellari

Jahonda ekoturizmni rivojlantirishda yagona, har bir davlatlarning tabiiy iqlim sharoitiga, ulardagi turizm resurslaridan foydalanishda to'g'ridan to'g'ri mos keladigan, qulay bo'lgan modellar yoki usullar hozirgacha ishlab chiqilgan emas. Lekin, ekoturizmni rivojlantirishda milliy parklardan va davlat tabiiy qo'riqxonalaridan foydalanish masalalari yaxshi tadqiq qilingan^{37,38}. Shu nuqtayi nazardan milliy parklar modeli tushunchasiga, mazmun va mohiyatiga to'xtalish zarurati bor. Chunki, ekoturizmni rivojlantirishda milliy parklar standart, etalon vazifasini o'tamoqda. Hozirgi vaqtda ekoturizm va rekreatsiya turizmlarini rivojlantirishda milliy parklardan foydalanishning 6 ta modeli bor. Bu modellarning alohida-alohida model sifatida ajratilishi o'ziga xos xususiyatlarga asoslangan:

1. Amerika modeli.
2. Yevropa modeli.
3. Park rezervat modeli.

³⁷ Бишоп К., Грин М., Филлипс А. Модели национальных парков. Н.Новгород, Изд-во Центра охраны дикой природы, 2000. С. 278.

³⁸ Franklin P., Metzler J., Pitcher D. et al. USA: National Parks. Museums. N.Y.:DK Travel. 2004. P. 294.



UNEP

United Nations
Environment Programme

4. Osiyo modeli.

5. Avstraliya modeli.

6. Bavariya o'rmonlari milliy parki – Yevropa-2 modeli.


1. **Amerika milliy parklari modelida** muhofaza qilinadigan hududlarning juda kattaligi, betakror tabiati. ekotizimlarning ko'pligi bilan xususiyatlanadi. Masalan, Grenlandiya milliy parki – 70 mln. ga, Afrikadagi Markaziy Kalaxari parki – 5,2 mln.ga, Amerika Qo'shma Shtatlaridagi Alyaska milliy parki – 7,3 mln. ga, Kanada davlatidagi Vud-Baffalo – 4,4 mln.ga, Mo'g'iliston davlatidagi Gobi milliy parki – 5 mln.ga, Rossiyadagi Kolima milliy parki 3 mln.ga.

Bu modelda milliy park tashkil qilishni birinchi bo'lib Amerika Qo'shma Shtatlari boshlagan. AQSH hukumati 1872-yilda hozirda dunyoga mashhur Yellouston milliy parkini tashkil qildi. AQSH va Kanada davlatlari bu modelda foydalanishda insonning xo'jalik faoliyati kuchayib borayotgan bo'lsa ham o'z hududlari chegarasida milliy parklarning maydonlarini tobora kengaytirib bormoqdalar. Hozirgacha Kanada davlati milliy parklar hududlarini 12% ga kengaytirdi. Bu milliy parklar davlat tasarrufida, ba'zi hollarda yirik korporatsiyalarga ijaraga beriladi, lekin milliy parkning tabiati muhofazasi nazorat qilish huquqini davlat o'zida saqlab qoladi.

Bu modeldagi milliy parklarni moliyalashtirish juda baland. Milliy parklarni saqlash uchun davlat ham, federal shtatlar ham mablag' ajratadi. Bunga qo'shimcha bo'lib xususiy mulkdorlar ham mablag' qo'shishadi (milliy parklardagi rekreatsiya xizmatlarining yarmi xususiy sektorda). Shuning uchun ham Shimoliy Amerika modelidagi milliy parklar dunyodagi eng boy milliy parklardir. Milliy parkni rivojlantirishda Amerika Qo'shma Shtatlari va Kanada hukumati o'zaro teng shartnoma asosida hamkorlik qilishadi, milliy parkdan dam olish va ekoturizmda foydalanishning zamonaviy, yangi texnologiyalarini yaratadilar.

Xalqaro ekoturizm rivojida Amerika modelining ko'plab davlatlarda ishlatilayotganligi bu modelning jahonda birinchi marotaba mamlakat aholisining dam olishini va rekreatsiyaga

bo'lgan ehtiyojini qondirish edi. Eng muhimi, Amerika davlati mahalliy aholini ish bilan ta'minlashning, har bir hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini rejalashtirishni jahondagi boshqa davlatlarga qaraganda juda erta anglagan va boshlagan edi.



1-diagramma.

Ekoturizmni rivojlantirishda xalqaro Amerika modeli

Ikkinchidan, Amerika Qo'shma Shtatlari va Kanada davlatlari maydonlarining kattaligi, bu hududlarda aholining keng tarqalganligi, ovchilikning juda kuchayib borayotganligi va tabiatni va tabiat resurslarini muhofaza qilish xalqaro miqyosda kuchayib borayotganligi ham bu ikkala davlatning o'zaro hamkorlikda jahonda birinchilardan bo'lib milliy parklarni tashkil qilish va ulardan dam olish, tabiatni muhofaza qilishda ekoturizmni rivojlantirishning zarurligini o'z vaqtida tushunib yetgani edi.

Uchinchidan, tabiiy resurslari tobora kamayib borayotgan, atrof-muhitning ifloslanishi kuchayib borayotgan Yevropa


davlatlarida tabiatni va uning resurslarini kelajak avlodlarga saqlab qolish shiori olimlar va aholi tomonidan davlatlar hokimiyatlarining oldiga qat'iy ravishda qo'yila boshlangan edi. Shu nuqtayi nazardan Yevropa davlatlarining olimlari, ekologlari kun tartibidagi bu muhim masalani yechishning ilmiy amaliy tomonlarini tadqiq qilishga kirishgan edilar. Natijada global muammolardan biri bo'lgan tabiatni va uning resurslarini saqlab qolish va kelajak avlodlarga yetkazishda xalqaro miqyosda ekoturizmni rivojlantirishning davlat dasturlari ishlab chiqila boshlandi. Bu dasturlarni amalga oshirishda ekoturizmni rivojlantirishning modellarini ishlab chiqish o'sha vaqtdagi davr talabi edi.

Shu tariqa sayyoramiz tabiatini saqlashda sayyoraviy usul — ekoturizmni rivojlantirishning AQSH, Yevropa modellari yuzaga keldi. Dastlabki vaqtlarda bu modellar bo'yicha milliy parklardan ekoturizmni rivojlantirishda foydalanish masalalariga ancha ishonchsizlik bilan qarashlar hatto, bu modellarni tanqid qiluvchi xalqaro tashkilotlar ham topildi. Bu tanqidlarning asosida milliy parklarda sayyor ovchilik kuchayib ketadi, alohida muhofazadagi hududlarning ekologik tizimlarini muhofaza qilish qiyinlashadi, degan isbotlar ham bor edi.

Lekin, sivilizatsiya taraqqiyoti insoniyatning dam olishini ham birinchi o'rinlarga chiqarishi natijasida va sayyoramiz tabiatini oqilona rejalarda saqlab qolishning eng ustuvor yo'nalishlari aynan tabiat bag'rida dam olish va uning saqlanib qolishiga yordam berish ham xalqaro ekologik muammolarda ustuvor masalalarga aylangan edi. Shu nuqtayi nazardan AQSH va Yevropa milliy ekologik modelidan foydalanishni ko'plab davlatlar tezda qabul qilishdi.

2. Yevropa modeli. Birinchi Yevropa milliy parki 1909-yilda Shvetsiyada tashkil topgan. Bu modelning o'ziga xos afzalliklari Buyuk Britaniyada ishlab chiqildi. Bu modelda ishlash g'arbiy Yevropa va Yaponiyada tashkil qilindi va tobora rivojlanib bormoqda.

E'tibor qiling, birinchi Yevropa milliy parki Shvetsiyada tashkil qilindi. Buyuk Britaniyada amaliy jihatdan ishlab chiqildi. Yevropa va Yaponiyada sinab ko'rildi va muvaffaqiyat bilan ishlamoqda. Ekoturizmni rivojlantirishda davlatlarning hamkorligidan namuna olishimiz kerak. Bu modelning asosiy xususiyatlari milliy parklarning hududlari kichikligi va aholining ekologik bilim va madaniyat yuqori darajadali bilan farqlanadi. Bu modelni moliyalashtirish davlat tomonidan amalga oshiriladi. Shuning uchun ham transport, yo'l kommunikatsiyalari va ekoturizm infratuzilmalari juda yuqori darajalarda tashkil qilingan.



2-diagramma.

Ekoturizmni rivojlantirishda xalqaro Yevropa modeli

Yevropa modelidagi milliy parklarning yana bir xususiyati shundaki, deyarli 50% milliy parklar xususiy sektorda. Milliy parklarning eng katta shiori – mamlakat aholisining sog'ligini

tiklash va dam olish sharoitlarini yaratish hisoblanadi. Shuning uchun ham ichki ekoturistlar oqimi juda katta, lekin tashqi ekoturizm oqimi ham katta miqdorlarni tashkil qiladi.


Yevropa davlatlaridagi milliy parklarning tashkil qilinishi muhitini va sharoitini hisobga olsak, dastlab shunday omilga e'tibor berish kerakki, yevropaliklar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda boshqa xalqlarga nisbatan ancha oldinga chiqib olgan xalqlardir. Ularning aholi eng zich joylashgan materikda yashayotganligi ilmiy-texnika rivojlanib borayotganligi uchun ham, ikkinchidan, bu davlatlarda yashayotgan xalqlarning ijtimoiy-siyosiy ongi va madaniyatining juda yuqori bo'lganligi ham o'z davlatlari rahbariyati oldiga tabiat muhofazasini dadil qo'yganligi, o'zlarining ham global ekologik muammolarning tobora kuchayib borayotganligi o'z vaqtida tushunib olganliklari edi.

Yevropa davlatlari o'z davlatlari tabiati va tabiiy resurslarni saqlab qolishda va ekologik turizmni rivojlantirishda o'zaro hamkorlikni tashkil qilishdi. Chunki, Yevropa davlatlari biri-biri bilan chegaradosh davlatlar hisoblanadi va Yevropa qit'asi tabiati tabiiy geografik mintaqalarni tashkil qilganligidan bu davlatlarning chegaralariga bo'ysunmaydi. Shuning uchun ham bu davlatlar ekologik tizimlarni birgalikda va o'zaro hamkorlikda muhofaza qilishadi. Shu nuqtayi nazardan ham bu davlatlar ekoturizmni rivojlantirishda hech ikkilanmasdan AQSH va Yevropa ekologik modellariga yangi texnologiyalar kiritishib amaliyotda qo'llay boshladilar.

3. Park rezervat modelining rivojlanish konsepsiyasi butunlay boshqacha — bu milliy parklarni moliyalashtirish davlat hisobidan emas balki, aksincha davlatni quvvatlashdir. Bu milliy parklarning faoliyat ko'rsatishdagi bosh prinsipi — o'z kuchiga ishonish, g'oyasi — o'zini-o'zi ta'minlashdir. Bu model XX asr o'rtalarida shakllandi va hozirda rivojlanayotgan davlatlarda keng yoyilib bormoqda.

Milliy parkka kirish bahosi juda past va shuning uchun ham ichki va tashqi turistlar juda ko'p tashriflar qilishmoqda. Rezervat

park modelidagi eng muhim omil yevropaliklarning ekologik ong va ekologik madaniyatining juda yuqori bo'lganligi bilan belgilanadi. Bu milliy park tizimining ishlashida juda katta ma'no bor. Ya'ni yevropaliklar "o'z uyingni o'zing pokiza tut" shiorini ommaviy ravishda qabul qilganliklariga ko'plab o'n yilliklar o'tdi. Yevropaliklarning o'zaro hamkorlikda mustahkam, birodarlikda ekanligini jahondagi xalqlar tarix saboqlaridan juda yaxshi bilishadi.



3-diagramma.

Ekoturizmni rivojlantirishda xalqaro park rezervat modeli

Ikkinchidan, Yevropada yashayotgan xalqlar hayotning har qanday muammolarini birgalashmasdan hal qilib bo'lmashligini ham juda yaxshi bilishadi.

Uchinchidan, park rezervat tizimini tashkil qilish yo'li bilangina zamonaviy sanoati kuchli rivojlangan Yevropaning hozirgi tabiatini saqlab qolish va kelgusi avlodlarga yetkazish mumkinligini ular ancha erta angladilar.

To'rtinchidan, tabiat va uning resurslarini saqlab qolish va muhofaza qilishning yo'llarini birinchilardan bo'lib tadqiq qilganlar ham yevropaliklar hisoblanadi. Shu o'rinda qayd qilish lozimki, yevropaliklar oilasida ekologik madaniyatni o'qish-o'rgatish maktabgacha tarbiya ta'limiga kiritilgan.


Beshinchidan, Yevropa davlatlaridagi maktablarda boshlang'ich ta'limda "O'lkashunoslik", "Tabiatshunoslik", "Tabiatga ekskursiya" fanlarini o'qitish o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab juda kuchaytirilgan. Yevropaliklar tabiatga mehr va uni asrash-avaylash his-tuyg'ularini bolalikdan o'rganadilar.

4. Osiyo modeli hozirgi vaqtda shakllanish bosqichida. Bu modeldagi milliy parklarning faoliyat ko'rsatishi asosan davlat tasarrufida. Osiyo davlatlari o'z ichki turizmida ham xalqaro miqyosda rivojlanib borayotgan, tabiat muhofazasida va mahalliy aholi ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim istiqbolli yo'nalishlarni ta'minlaydigan ekoturizmni rivojlantirishda milliy parklar va alohida muhofazadagi hududlardan foydalanish tizimini yaratishga yoki tadqiq qilishga jiddiy kirishgan emas.

Ekoturizmni rivojlantirishdagi Osiyo modeli yuqorida qayd qilganimizdek, endigina rivojlanish yo'lida. Osiyodagi davlatlardan Hindiston, Tayland, Janubiy Koreya, Malayziya, Xitoy va Yaponiya davlatlari ko'p yillardan beri ekoturizmni rivojlantirib borayotgan davlatlar qatoriga kiradi.

Ilmiy adabiyotlarda Osiyo davlatlarida milliy parklar va alohida muhofazadagi hududlardan ekoturizmni rivojlantirishga kirishmayotganligining sabablari ham tadqiq qilinmaganligi qayd etilmoqda. Bu holat O'zbekistonda ham mavjud. Lekin, so'nggi

yillarda alohida muhofazadagi hududlardan ekoturizmga foydalanish asta-sekinlik bilan va o'ta hushyorlik bilan oldinga siljiy boshladi.




4-diagramma.

Ekoturizmni rivojlantirishda xalqaro Osiyo modeli

Bu yo'nalishda BMTning vatanimizdagi vakolatxonasining xalqaro GEF loyihasi asosida Badayto'qay davlat qo'riqxonasi xalqaro biosfera rezervatiga aylantirildi. Hozirda bu rezervatda xalqaro hamkorlikda olimlar rezervatning taraqqiyoti bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni olib bormoqdalar. Bu biosfera rezervatidan xalqaro EKONET tizimida ekoturizmni rivojlantirish boshlandi. Chunki biosfera rezervatida mahalliy aholi ham yashaydi. Bu aholi ekoturistlarga ekoturistik xizmatlarni ko'rsata boshladi.

5. Avstraliya modeli. Ilmiy adabiyotlar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, Avstraliya ekoturizmni uning tamoyillariga asoslanib tashkil qilgan va jahonda ekoturizmni ilmiy-amaliy qoidalariga asosan rivojlantirayotgan lider davlat hisoblanadi. Bu davlat ekoturizmni o'z davlatining hududlarida tashkil qilganda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning davlat dasturlarini ishlab chiqadi va hududning tabiiy resurslarini hisobga olgan holda

ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganadi. Eng muhimi shundaki, ekoturizmni tashkil qilishda mahalliy aborigen aholining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini hisobga olinadi va ekoturistik xizmatlarni amalga oshirish to'liq ularga topshiriladi. Ikkinchidan, mamlakatdagi shtatlar ma'muriyatining taklif va tavsiyalarini ham to'liq hisobga oladi. Mamlakatdagi tabiatshunos, ekolog va biolog olimlar xaltali hayvonlar yurti bo'lgan Avstraliyaga moliyaviy jihatdan imkoniyatlarga ega bo'lgan turistlarning kelishini juda yaxshi bilishadi. Shuning uchun ham ular ekoturistik mahsulotlarni turli-tuman mavzularda tayyorlashadi³⁹.



5-diagramma.

Ekoturizmni rivojlantirishda xalqaro Avstraliya modeli

³⁹ Александрова А.Ю. География туризма. КНОРус, Москва, 2010. С. 590.

Hozirda xalqaro turizmدا Avstraliyaning 9 mavzudagi ekoturistik marshrutlari juda ommaviylashgan va katta ekoturistik oqimlarni hosil qilgan xalqaro ekoturistik marshrutlari muvaffaqiyat bilan ishlamoqda⁴⁰.

Avstraliya modelining muvaffaqiyat bilan ishlayotganligining eng muhim omillaridan biri shundaki, barcha hududlarda tashkil qilinayotgan ekoturistik xizmatlarga faqat o'sha hududning mahalliy aholisi xizmatlar ko'rsatadi. Bu usulda ishlash mahalliy aholining ish bilan ta'minlanishini hal qiladi va mahalliy qishloqlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini o'z vaqtida hal qilishga yordam beradi.


Xalqaro ekoturizm bozorida eng ommaviylashgan 10 ta ekoturistik marshrut reytingi bo'yicha Avstraliya so'nggi o'n yillikda birinchi o'rinlarni egallab kelmoqda. Avstraliyada ekologik turizm bilan 9 ta milliy kompaniya shug'ullanadi. Birgina "Australian Eco Adventures" milliy ekoturizm kompaniyasining 75 ta turmahsuloti (ekoturistik marshruti) xalqaro ekoturizm bozorida sotiladi. Bu kompaniyaning kitlarni kuzatish va tomosha qilish ekoturini xalqaro ekoturistlar navbat kutib olishadi. Avstraliya kengurusi bo'yicha 3 ta milliy ekoturistik kompaniyalar ham faqat xalqaro ekoturistlarni kutib olishga ixtisoslashgan.

6. Bavariya o'rmonlari milliy parki (Yevropa-2 modeli). Bavariya o'rmonlari milliy parkini ko'pincha ekoturizmni rivojlantirishning xalqaro Yevropa-2 modeli deb ham nomlashadi. Bu milliy parkning tashkil qilinish tizimi ham ekoturizmni rivojlantirishda butunlay yangicha usullarni qo'llashdan boshlandi.

Ekoturizmni tashkil qilishda va milliy parklar, alohida muhofazadagi hududlardan ekologik turizmدا foydalanishda asosan davlat tashabbuskor bo'lgan bo'lsa, Bavariya o'rmonlari milliy parkini mahalliy hukumat tashkil qildi va asosiy shior tabiat va uning resurslarini muhofaza qilishda davlatga yordam berish tizimini ishlab chiqdi. Yuqorida keltirilgan Yevropa-2 modelining

⁴⁰ Забелина Н.М. Национальный парк. Москва, Мысль, 2010. С. 210.

asosiy ko'rsatkichlaridan ham bu tizimning barcha ish yuritish holatlarini tezda anglab olish mumkin va kichik maydonlarda ham, alohida muhofazadagi hududlarda ham, tabiiy resurslarni muhofaza qilishda ham, ekologik turizmni rivojlantirishda ham Bavariya o'rmonlari milliy modelini muvaffaqiyat bilan qo'llash mumkin bo'ladi.



6-digamma. *Ekoturizmni rivojlantirishda xalqaro Bavariya o'rmonlari milliy parki modeli*

Yevropa mamlakatlarining maydonlari Amerika va Kanada yoki Afrika davlatlaridagidek katta hududlarni egallagan milliy parklari yo'q bo'lsada, Yevropa xalqlarining ham siyosiy, ham ekologik madaniyatining yuqori bo'lganligi g'oyatda

zich joylashgan davlatlar o'z davlatlari hududlarida saqlanib qolgan tabiatni muhofaza qilishda ekoturizmni rivojlantirish yo'llarini ustalik bilan topdilar. Yaqin vaqtlargacha milliy parklar bir-biridan ajralgan holda, axborotsiz yoki o'zaro hamkorliksiz ishlar edi. Lekin ekologik muammolarning sayyoraviy chegaralarda kuchayishi, muammolarning yechimini topish qiyinlashib borayotganligi, moliyalash tirishning og'irlashib borayotganligi dunyodagi milliy parklarni yagona tarmoqqa birlashtirishni talab qildi. 1993-yilda landshaft bioxilma-xilligi va turlarni saqlash bo'yicha «PanYevropa strategiyasi» jahonda birinchi ekologik tarmoq – EKONETning tuzilganligini e'lon qildi.


6.2. Ekoturizmni rivojlantirishda xalqaro modellardan foydalanish

EKONET tizimidagi davlatlar hozirga kelib alohida qo'riqlanadigan hududlarni muhofaza qilish va oqilona foydalanishning quyidagi texnologiyasini ishlab chiqdi (1-chizma). Ekonet tizimi hozirga kelib nafaqat Yevropa davlatlarida balki, butun jahondagi davlatlarning alohida muhofaza qilinadigan hududlarining ekologik muvozanatini saqlashda ekoturizmni jadal rivojlantirish maqsadlarida ommaviy ravishda qo'llanilmoqda. Chunki, olimlarning xulosalariga ko'ra alohida muhofazadagi hududlarni ekologik bilimli va ekologik ongli kishilar davlat nazoratiga qaraganda yaxshiroq muhofaza qiladilar.

Fikrimizcha qayd qilingan usul – EKONET milliy parklar va qo'riqxonalaridan ekoturizmga foydalanishda juda qo'l keladi va qulay. Hozirda mamlakatimizda EKONET tizimida davlat tabiat qo'riqxonalaridan foydalanish Baday-to'qay xalqaro biosfera rezervatida sinab ko'rilmoqda. Bu biosfera rezervatining qo'riqxonada yadrosidagi Buxoro bug'ulari tabiiy biologik xilma-xillik resurslari tabiiy landshaftlari bilan qattiq rejimda muhofaza qilinadi, insonning har qanday faoliyati

cheklangan. Faqat ilmiy tadqiqotlar o'tkazilishiga ruxsat beriladi (1-qo'riqxonada yadrosi).

Ikkinchi (2-bufer himoya mintaqasi) muhofaza zonasida ham qattiq qo'riqlash rejimida, insonning har qanday faoliyati cheklangan, faqat ilmiy tadqiqotlarga ruxsat beriladi. Chunki bu zonaga asosiy muhofazadagi (qo'riqxonada yadrosidagi) hayvonlar o'tishi mumkin. Shunindek, qo'riqxonadagi boshqa hayvonlar ham o'tishi mumkin.



1-chizma. Milliy park, tabiat qo'riqxonalari va biologik rezervatlarda tabiat muhofazasini tashkil qilish va ekoturizmدا foydalanish tizimi (EKONET).

1. Biosfera rezervatlari, qo'riqxonalar, milliy parklarning asosiy muhofazadagi hududlari yoki yadrosi.

2. Ekologik koridorlar (qo'riqlanadigan obyektlar va yadro o'rtasidan turlar migratsiyasi o'tadigan mintaqalari).

3. Bufer mintaqalar (foydalanishdan olinmagan, xo'jalik faoliyati va tabiatdan ratsional foydalanishga ruxsat berilgan bo'lib tabiatni tiklash sharoitlari ham yaratilgan).

Uchinchi (3-iqtisodiy mintaq) zonada Baday-to‘qay xalqaro biosfera rezervatida mahalliy aholining kichik qishloqlari yoki alohida uylari ham joylashgan. Bu aholi asosan qo‘riqxonalar muhofazasiga jalb qilingan. Shuningdek, ushbu aholining xo‘jalik faoliyatiga ham shaxsiy chorvasini ham yashash joyi atroflarida boqishga ham ruxsat berilgan.

Biosfera rezervatidagi o‘rmonlarni kesish, belgilangan joydan boshqa joylarda yerni qo‘shib olish yoki o‘zlashtirish, foydalanishga ruxsat berilmaydi. Turizm, rekreatsiyada foydalanishga qisman ruxsat berilgan. Kelgusida Baday-to‘qay biosfera rezervatidagi istiqbolli bunday tajribani boshqa qo‘riqxonalarimizda ham qo‘llash istiqbollari mavjud.

O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning maqsadi va vazifalarini amalga oshirishda ekoturizmni rivojlantirishda xalqaro modellarni O‘zbekiston sharoitida qo‘llashdagi tadqiqotlarning natijalarini tahlil qilish natijasida quyidagi istiqbolli yo‘nalishlarni belgilash mumkin:

1. Ekoturizmni vatanimizda rivojlantirishda birinchi navbatda ekoturizmni rivojlantirishda xalqaro modellarning tavsif va ta‘riflarini, bu modellarning maqsadi va vazifalarini, modellar bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlarni batafsil o‘rganish talab qilinadi.

2. Mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirishda xalqaro ekologik modellarni qo‘llash obyektlari mufassal o‘rganilishi lozim bo‘ladi.

3. Alohida muhofaza qilinadigan hududlar va tabiat qo‘riqxonalari, milliy bog‘lardan ekoturizmni rivojlantirishda foydalanishning huquqiy va me‘yoriy hujjatlarini davlat miqyosida ishlab chiqish talab qilinadi.

4. Ekoturizmni rivojlantirishda mamlakatimizning ekoturistik resurslari va obyektlari xalqaro hamda ichki turizm bo‘yicha darajalarga bo‘linishi, bu obyektlarning ekoturizmda foydalanish imkoniyatlari o‘rganiladi.

5. Ekoturizmni rivojlantirishdagi eng muhim masalalardan

biri – ekologik turizm resurslari madaniy markazlardan ancha uzoq masofalarda joylashganligi sababli bu maskanlarda turistik infratuzilmalarning tashkil etilmaganligi hisoblanadi. Shuning uchun ham birinchi navbatdagi vazifalardan biri – alohida muhofazadagi hududlar, davlat tabiat qo‘riqxonalari va milliy bog‘larimizda ekoturistlarga infratuzilma tizimini va xizmatlarini tashkil qilishimiz ekoturizmni rivojlantirishdagi birinchi masala hisoblanadi.

6. Mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirish dolzarb masalalardan ekanligi va bu istiqbolli yo‘nalishda ekoturizmni rivojlantirishning xalqaro modellarini qo‘llashning reklamalarini ishlab chiqish hamda xalqaro va ichki turizm bozorlariga chiqarish kutilgan natijalarni beradi.

7. Ekoturizmni rivojlantirishda yana bir muhim masalalardan biri shundan iboratki, turizm boshqaruvida O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi va uning viloyatlardagi mintaqaviy bo‘limlarida, ekskursiya sayohat byurolarida «Ekoturizmni tashkil qilish va boshqarish tizimi»ni tashkil qilish tuzilmalari shakllantirilishi zarur bo‘ladi.

8. Istiqbolda ekoturizmni rivojlantirishdagi yana bir dolzarb masalalardan biri – barcha viloyatlarimizda aholining qiziqishini, tadbirkorligini va tashabbuskorligini tashkil qilish, aholining ijtimoiy va iqtisodiy manfaatdorligini ta‘minlovchi imtiyozli davlat qarorlarini ishlab chiqish talab qilinadi.

9. Ekoturizmni rivojlantirishdagi eng muhim muammolardan biri bo‘lgan yana bir masala shundan iboratki, ekoturizmni harakatga keltiruvchi ixtisoslashgan maxsus turistik firmalar yoki turistik tashkilotlar hanuzgacha tashkil qilinmayapti. Shuning uchun ham mamlakatimizning barcha viloyatlarida ekoturizmni tashkil qiluvchi va ekoturistik xizmatlarni ko‘rsatuvchi turistik firmalar tashkil qilish ekoturizmni rivojlantirishda shu kunning vazifalaridan hisoblanadi.

10. Mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirishda ruxsat berilgan ekoturizm resurslariga turistik marshrutlar ishlab chiqishni

yo'lga qo'yish va bu turistik marshrutlarning reklamasini xalqaro va ichki turizm bozoriga chiqarish.

11. Mamlakatimizda xalqaro va ichki ekoturizmni rivojlantirish ishlarini jadallashtirish. Bu yo'nalishda xalqaro ekoturizm va ichki ekoturizmni rivojlantirishga ixtisoslashgan turistik firmalarni tashkil qilish.

12. Qishloqlarimizda ekoturizmni qishloq turizmi, rekreatsiya turizmi, ziyorat turizmi va sport turizmlari bilan bog'langan holda, majmualari tashkil qilish.

Tayanch so'z va iboralar: EKONET, ekologik modellar, turistik infratuzilma, ixtisoslashish, ekologik koridor, bufer mintaqqa, yadro.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha test savollari:

- 1. Hozirda ekoturizmning nechta xalqaro modeli bor?**
 - A. 2 ta.
 - B. 4 ta.
 - D. 6 ta.
 - E. 8 ta.
- 2. Ekoturizmning birinchi xalqaro modeli qayerda ishlab chiqilgan?**
 - A. AQSHda.
 - B. Kanadada.
 - D. Avstraliyada.
 - E. Germaniyada.
- 3. Ekoturizmning xalqaro Yevropa modeli qaysi davlatda ishlab chiqilgan?**
 - A. Germaniyada.
 - B. Shvetsiyada.
 - D. Yaponiyada.
 - E. Angliyada.
- 4. EKONETdan foydalanish necha tizimdan iborat?**

- A. 2 tizimdan.
- B. 3 tizimdan.
- D. 4 tizimdan.
- E. 5 tizimdan.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha xalqaro Amerika modelini o'rganing va amaliy darslarda gapirib bering.
2. Ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha xalqaro Avstraliya modelini o'rganing va amaliy darslarda gapirib bering.
3. Ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha xalqaro park rezervat modelini o'rganing va amaliy darslarda gapirib bering.
4. Ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha xalqaro Osiyo modelini o'rganing va amaliy darslarda gapirib bering.
5. Ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha xalqaro Yevropa modelini o'rganing va amaliy darslarda gapirib bering.
6. Rezervatlardan ekoturizmga foydalanish bo'yicha qaysi modelni qo'llash mumkin?
7. Milliy parklarimizdan ekoturizmga foydalanish bo'yicha qaysi modelni qo'llash mumkin?

7-mavzu. O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ TURIZMIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

Reja:

7.1. Qishloq turizmining maqsadi va vazifalari. Qishloq turizmining resurslari. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirishda qishloq turizmining o‘rni.

7.2. Qishloq turizmining zamonaviy reklamalarini yaratish.

7.1. Qishloq turizmining maqsadi va vazifalari

Qishloq turizmining resurslari. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirishda qishloq turizmining o‘rni

XX asrning ikkinchi yarmida atrof-muhitni toza saqlab qolish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, muhofaza qilish, sayyoraviy muammolarga aylanib ketganligi ma’lum bo‘ldi. Shu bilan birga insoniyatning tarixiy, madaniy me’rosini saqlash ham sayyoraviy chegaralarda kun tartibiga chiqdi. Ushbu dolzarb muammolar natijasida jahonda qishloq turizmi o‘zining rivojlanish bosqichini boshladi^{41, 42, 43}.

Mamlakatimizda ham, ayniqsa qishloq joylarimizdagi mavjud turistik resurslardan turizm faoliyatida keng foydalangan holda turizmni tashkil etish va rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizda katta samaralar berishi isbotsiz jarayon. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2009-yilni «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili», 2013-yilni «Obod turmush yili» deb e’lon qilishi qishloq turizmini rivojlantirishda katta imkoniyatlarni yaratib berdi.

Hozirgi kunda hukumatimiz qishloq joylarda yangi ish

⁴¹ Tourism. Development and Growth: the challenge of sustainability. London. 1998. P. 246.

⁴² Rural Tourism: Working for the Countryside. London. Countryside Agensi. 2000. P. 151.

⁴³ Биржаков М.Б., Новикова О.А. Исторические предпосылки деревенского туризма. Туристические фирмы, 2002, № 28.

o‘rinlarini yaratish va bu omil orqali aholining yashash darajasini yaxshilashga katta e‘tibor bermoqda. Bu yo‘nalishda qishloq joylarda turizmni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib uning salohiyatli imkoniyatlari ham bor. Bu imkoniyatlar quyidagilardan iborat:

- qishloq joylarda joylashish va ovqatlanishning shahardagiga nisbatan 2–2,5 marotaba arzonligi;
- qishloq joylarining ekologik jihatdan tozaligi;
- ekologik toza oziq-ovqat turlarining mavjudligi;
- xalqimizning qadimiy milliy merosining saqlanib qolganligi;
- jozibador turistik resurslar, milliy belgilar, xususiyatga boy bo‘lgan xizmat turlarining ko‘pligi va rang-barangligi va boshq.;
- milliy meros mahsulotlari ishlab chiqishning saqlanib qolganligi (milliy hunarmandchilik, ustachilik mahsulotlari va boshq.).

Ikkinchidan, qishloqlarimizda turizmning quyidagi turlarining resurslari ham mavjudligi:

- **tarixiy-arxeologik turizm resurslari** – tarixiy obidalar, tarixiy joylar, arxeologik qoldiqlar, topilmalar;
- **etnografik turizm resurslari** – an‘anaviy mahalliy hayot tarzi, milliy folklor, urf-odatlar, madaniyat, turli marosimlar, milliy o‘yinlar;
- **qishloq xo‘jalik – agroturizm resurslari** – qishloq bog‘lari, dehqonchilik, madaniy landshaftlar va qishloq xo‘jalik ishlari, polizchilik, qishloqning o‘ziga xos ko‘rinishi va qurilishi;
- **diniy – diyorat turizmi resurslari** – muqaddas qadamjolar, aziz-avliyolarning qabrlari, shifobaxsh buloqlar, turli diniy marosimlar;
- **ekoturizm resurslari** – qishloq joylarning vatanimizning barcha tabiiy-geografik mintaqalarida (tog‘, tog‘ oldi, cho‘l, adir, suv havzalari) joylashganligi;
- **rekreatsiya va sog‘lomlashtirish turizm resurslari** – pansionatlar, sog‘lomlashtirish markazlari, kurortlar, mineral suvlar, betakror go‘shalar, buloqlar, o‘rmonlar, to‘qayzorlar, sharsharalar, daryo sohillari;

· **qishloq fermerlari ish tartibi va hayot tarzi** – qishloq xo‘jaligi hayvonlarini saqlash, yem-xashak tayyorlash mahsulotlarini yetishtirish va sotish.

Qishloq turizmini tashkil qilishda yuqorida qayd qilingan turizm turlarining barcha resurslari majmual, birikkan holda ishlaydi va har qanday turistni ko‘proq muddatlarga ushlab qoladi. Shuning uchun ham Yevropa davlatlari qishloq turizmini rivojlantirishga o‘tgan asrning 60-yillaridan jadal kirishdi. Hozirga kelib, Yevropa davlatlarida qishloq turizmidagi turistlarning oqimi 60 mln. turistni tashkil qilmoqda. Fransiya, Germaniya, Angliya, Italiya davlatlarida qishloq turizmi xizmatlarini ishlab chiqaruvchi 10 minglab turistik firmalar va turistik tashkilotlar muvaffaqiyat bilan ishlashmoqda. Biz ham mamlakatimizda qishloq turizmining mohiyati, maqsadi va vazifalarini tadqiq qilishga endigina kirishayapmiz.

Jahonda qishloq turizmiga har bir davlatlar o‘zlaridagi imkoniyatlariga qarab har xil mazmunda qaramoqda. Masalan, Angliyada aholisi 7000 kishilik qishloqlarni qishloq turizmini rivojlantirish rejasiga kiritishadi, Avstriyada bu sonli aholisi bo‘lgan qishloqlarni shahar turizmini rivojlantirish rejalariga qo‘shishadi. Shuningdek, qishloq turizmini, agroturizmni rossiyalik olimlar ekoturizmning tarmog‘i deb bilishadi. Yevropa davlatlarida aksincha agroturizm-dehqonchilik bilan bog‘liq turizm, ekoturizm esa tabiat bag‘rida bo‘lish va uni muhofaza qilishga ko‘maklashish deb belgilangan.

Vatanimizda qishloq joylardagi resurslardan turistik maqsadlarda foydalanishni majmual tashkil qilish qulayligini hisobga olib yuqorida keltirilgan turizm turlarini jamlagan holda qishloq turizmi deb atasak, bu turizmni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish ancha oson kechadi. Shuning uchun ham qishloq turizmini tashkil qilishdagi muammolarni o‘rganishdan oldin, dastavval qishloq turizmining mohiyatini, maqsadi va vazifalarini belgilab olishimiz lozim bo‘ladi.

Jahondagi ko‘plab davlatlarda «Qishloq joylardagi turizm» atamasi ham bor va ular qishloqlardagi turizm resurslarga

bog'liq holda turistik infratuzilmalarni yaratadilar. Bu holat ularda qishloq turizmining juda rivojlanganligini va ayrim-ayrim yo'nalishlarni hosil qilganligini ko'rsatadi. Biz uchun eng muhimi, qishloq turizmini rivojlantirish mamlakatimizda ichki turizmni rivojlantirish asoslari ekanligini anglab olishimizdir. Ma'lumki, ichki turizm Butunjahon turizm tashkilotining tasnifi bo'yicha bir mamlakat aholisining o'z davlati hududlaridagi turistik faoliyati deb belgilangan.

Qishloqlardagi turistik resurslar ichki turizmning asosiy obyektlari hisoblanadi. Shuning uchun ham AQSH, Kanada, Angliya, Fransiya, Germaniya, Ispaniya kabi davlatlar dastlab (o'tgan asrning 70-yillaridan) o'z davlatlarida ichki turizmni rivojlantirganlar, butun aholini yangi ijtimoiy-iqtisodiy sohaga – turizm jarayonlariga ko'p yillar davomida tayyorlaganlar. Shu tariqa turizmdagi tadbirkorlik ayniqsa qishloq turizmidagi tadbirkorlik kuchayib ketgan. Lekin afsuski, biz hozirgacha ichki turizmni ham, xalqaro turizmni ham, tarixiy obidalari bor shaharlarga sayohat deb tushunmoqdamiz.

Respublikamizda qishloq turizmini rivojlantirish zarurligining eng asosiy, dolzarb yana bir masalasini – shahar aholisining qishloqlarda dam olishini tashkil qilish deb tushunmog'imiz lozim. Qayd qilganimizdek, dunyoda qishloq turizmini rivojlantirish orqali ichki turizmni so'ngra xalqaro turizmni rivojlantirgan va jahon turizmida «lider» o'rinlarni egallab kelayotgan AQSH, Kanada, Fransiya, Angliya, Germaniya, Italiya, Avstraliya va Ispaniya davlatlari jahon turizmidagi hozirgi mavqelariga dastlab qishloq turizmini rivojlantirish orqali erishdilar. G'arbiy Yevropaning barcha davlatlari ham qishloq turizmini jadal rivojlantirishmoqda. Sharqiy Yevropa davlatlari ko'p yillar sobiq sovetlar ta'sirida bo'lganligidan qishloq turizmini ishlab chiqish dasturlarini tuzaolmadilar.

Respublikamizda qishloq turizmini rivojlantirishning **mohiyati** – qishloqlarimizga ichki va xalqaro turistlarni jalb qilish asosida qishloqlarimizdagi obodonchilikni kuchaytirish, qishloqlarimiz

aholisini xalqaro hamdo'stlik jarayonlariga qo'shish va qishloqlarimizni xalqaro miqyosda dunyoga ko'rsatish hisoblanadi. Qishloq turizmini rivojlantirishning **maqsadi** – qishloq aholisining ish bilan bandligini qo'shimcha imkoniyatlar asosida oshirish, qishloq aholisi mahsulotlarining ko'proq sotilishini ta'minlashdir.

Qishloq turizmini rivojlantirishning **asosiy vazifasi** – qishloqlarda turizmni rivojlantirish tadbirkorligini tashkil qilish asosida qishloq turizmi xizmatlari va servisni, qishloq turizmi infratuzilmalarini yaratishdan iboratdir deb belgilasak to'g'ri bo'ladi.

Qishloq turizmini rivojlantirish mavzusida respublikamizda hali jiddiy ilmiy-tadqiqotlarning boshlanmaganligini hisobga olib, xalqaro texnologiyalar va dasturlarni o'rganishimiz zarur bo'ladi. Qishloq turizmini rivojlantirishda albatta Yevropa Ittifoqining «Qishloq turizmini rivojlantirishning strategik rejalari»ni o'rganishimiz lozim. Bu strategik rejaga asosan qishloq turizmini rivojlantirish dasturiga quyidagilar kiritilgan. Biz uchun bu dastur ancha muhim bo'lishi mumkin:

- qishloq turizmini rivojlantirishning huquqiy va me'yoriy asoslarini takomillashtirish;
 - salohiyatli turistlarga va rivojlanayotgan tarmoqlarning axborot byurolariga qishloq turizmi haqidagi barcha ma'lumotlarni, axborotlarni bepul yetkazib berish;
 - dasturda qatnashuvchi dehqon xo'jaliklarini manzili bo'yicha moliyaviy quvvatlash;
 - qishloq infratuzilmalarini takomillashtirish bo'yicha maqsadli mablag'lar ajratish;
 - qishloq turizmi korxonalarini xususiyashtirishda davlatning foizli qatnashuvini ta'minlash;
 - qishloq joylarining holati monitoringini doimiy o'tkazib borish;
 - fermerlarni dotatsiyalash va imtiyozli soliqlar belgilashda rag'batlantirish siyosatini qo'llash;
 - loyihalarni amalga oshirish uchun investorlarni izlash;
- Umumiy qilib olganda Yevropa davlatlarida qishloq turizmini

rivojlantirishdan 3 ta siyosiy holatni tashkil qilish va 3 ta manfaatni hosil qilish hal qilinmoqda:

1. Qishloq joylarda yangi ish o'rinlarini tashkil qilish asosida qishloq iqtisodiyotini ko'tarish, qishloqda ishlab chiqarish va savdo-sotiqni kuchaytirish.

2. Shaharliklarning maqsadli dam olishini tashkil qilish orqali shaharliklarning mablag'larini qishloqqa yo'naltirish.

3. Soliq tizimi orqali davlat xazinasiga qo'shimcha mablag'larni tushirish hisobidan qishloqlarni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish (turizm infratuzilmalari, transport kommunikatsiyalari, mehmonxonalar, ovqatlantirish korxonalari, sport inshootlari va boshq.).

Yevropa mamlakatlaridagi qishloq turizmidagi turistik talab va takliflarning o'sish istiqbollari tahlil qilganimizdan ma'lum bo'ladiki, bu davlatlardagi 30% shahar aholisi aynan qishloqlarda dam olish ham qishki mahsulotlarni g'amlash orqali qishloq turizmini kuchli rivojlantirishning maqsadli yo'nalish ekanligidan dalolat beradi. Qishloq turizmini rivojlantirishda jahonning ko'plab davlatlari Yevropa modellaridan, dasturlaridan, strategik rejalardan nusxa olmoqdalar. Chunki, hozirda qishloq turizmi faqat Yevropa davlatlarida barqaror rivojlanmoqda.

Mamlakatimizda qishloq turizmini rivojlantirishda xalqaro modellar, tan olingan texnologiyalar va strategik rejalarni qo'llash masalasini tahlil qilganimizda shunday xulosa kelib chiqadiki, ushbu modellar, texnologiyalar va strategik rejalarda biron-bir qoyil qiladigan yoki hayratga tushadigan tomonlari yo'q. Bu texnologiyalar va strategik rejalarda belgilangan jarayonlar va voqeliklar, tashkiliy jihatlarni hech qiynalmasdan tashkil qilishimiz ham, bajarishimiz ham mumkin.

Bu sohada eng muhimi ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizda ijobiy o'zgarishlar yaratadigan ushbu muhim sohani tashkil qilish va rivojlantirish rejalari, dasturlarini ishlab chiqish jarayonlarini boshlashimiz kerak. Yevropa davlatlarining qishloq turizmi o'tgan asrimizning davomida hozirgi taraqqiyotiga erishgan. Qishloq

turizmini tashkil qilishda 1970-yillarda dastlab Fransiyaning «Turizm va qishloq joylarni rivojlantirish agentligi», Avstriyada—Avstriya fermerlik turizmi assotsiatsiyasi», 1990-yilda Yevropa Ittifoqining «Qishloq joylarni majmualari rivojlantirish Umum Yevropa «Lider» dasturi» tashkilotlari muvaffaqiyat bilan ishlab kelmoqda.

Mamlakatimizda qishloq turizmini rivojlantirishda birinchi navbatda «O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi» milliy kompaniyasi tarkibida «Qishloq turizmini rivojlantirish» bo‘limini tashkil qilishimiz zarur. Bu bo‘lim qishloq turizmini rivojlantirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirishi maqsadli yo‘nalish bo‘ladi:

- qishloqlardagi turistik resurslarning ro‘yxatini olish, ulardan ichki va xalqaro turizmga foydalanish darajalari, tavsiflarini ishlab chiqish;

- qishloq turizmida atrof-muhitni muhofaza qilishda ekoturizmni rivojlantirish dasturlarini yaratish;

- qishloqlarda yetishtirilayotgan va ishlab chiqarilayotgan mahalliy mahsulotlarning sifatini ko‘tarish va iste‘molchini taklif qilish;

- qishloq turizmida marketingni tashkil qilish va talab-taklif-iste‘molchi tizimidagi ishlarning strategik rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- qishloq turizmining infratuzilmalarini yaratish usullarini ishlab chiqish va qishloq turizmi infratuzilmalarini yaratish.

Mamlakatimizda qishloq turizmini rivojlantirishning strategik dasturini ishlab chiqish hozircha ancha murakkab hisoblanadi. Chunki, qayd qilganimizdek, bu sohada keng ko‘lamli tadqiqotlar boshlanganicha yo‘q. Lekin, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vatanimizda turizmni rivojlantirish to‘g‘risidagi farmonlari va qarorlari asosida qishloq turizmini rivojlantirishning strategik dasturini dastlab loyiha variantlarda ishlab chiqishni boshlashimiz lozim bo‘ladi.

Mamlakatimizda birinchi navbatda qishloq turizmini rivojlantirishda davlat dasturi ishlab chiqilishi talab qilinadi, ikkinchi talab esa strategik reja yaratishdir. Qishloq turizmini rivojlantirish rejasi, davlat dasturi, boshqaruv tarkibi, moliyalash tizimi, qishloqlardagi imkoniyatlar, qishloqlardagi turistik resurslar, qishloq aholisining qishloqlarga turistlarning tashrifi haqidagi munosabatlari, qishloq ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri, qishloq tabiiy resurslariga ta'siri haqida davlat ommaviy nashrlarida respublikamizning olimlari, mutaxassislari, ijtimoiy-iqtisodiy sohalar mutaxassislari doimo ilmiy ommabop maqolalar bilan chiqishlari maqsadli bo'ladi. Ikkinchidan, mamlakatimizda qishloq turizmini rivojlantirish masalalari, muammolari va ularning yechimlari haqida yengil o'qiladigan va yengil tushuniladigan o'quv-uslubiy qo'llanmalar chop qilib, qishloqlar aholisiga bepul tarqatilishi kutiladigan natijalarni beradi.

O'zbekistonda qishloq turizmini rivojlantirish naqadar foydaliligi va hozirgi erkin bozor ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarining bajarilishida davlatimizning iqtisodiy siyosatiga mos kelishi quyidagi tahlillardan ham tushunib olish mumkin. Mamlakatimizda qishloq turizmini rivojlantirish asosida qishloqlarimizdagi mavjud ishsizlikni yechish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqishni ko'paytirish va sifatini oshirish, qishloqlarning iqtisodini ko'tarish, savdoni tashkil qilish, milliy ishlab chiqarishni tashkil qilish, xalqaro hamdo'stlikni kuchaytirish kabi muhim masalalarda katta yutuqlarga erishishimiz mumkin.

Ikkinchidan, shaharlarimizda yashayotgan aholining dam olishini tashkil qilish, shaharliklarni qishloqlar bilan bog'lash, ularning qishloq xo'jalik mahsulotlarini qishki mavsumga g'amlab olish sharoitlarini yaratish, ayniqsa shaharlik bolalarning qishloqlarda hordiq chiqarishini, tabiat bag'rida bo'lib tabiatni anglashni, ekologik ong, ekologik madaniyatni shakllantirishimiz tabiatga mehr uyg'otishimiz osonlashadi.

Uchinchidan, qishloq turizmini rivojlantirishda soliq tushumlarining ko'payishini ta'minlash va ushbu mablag'lar

asosida qishloq joylarni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

To'rtinchidan, qishloq turizmini rivojlantirish asosida qishloq tabiatini muhofaza qilish, tarixiy obidalarni muhofaza qilish, ta'mirlash, muqaddas ziyoratgohlarni obod qilish va ko'kalamzorlashtirish, ulardan xalqimizning erkin foydalanishini ta'minlash masalalari hal bo'ladi.

Beshinchidan, jahon xalqlari qishloqlarimizda saqlanib qolgan va mustaqilligimiz tufayli tobora sayqallanib borayotgan milliy merosimiz, milliy san'atimiz va madaniyatimiz bilan yaqindan tanishadi. Eng muhimi, O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning qishloq hayotini tubdan o'zgartirishga qaratilgan farmon va qarorlari, «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili», «Obod turmush yili» davlat dasturlaridagi rejalarning amalga oshishi kuchayadi.

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirishda qishloq turizmining o'rnini. O'zbekistonda qishloq turizmini rivojlantirish muammolarini o'rganishdan oldin, dastavval qishloq turizmining mohiyatini xalqaro miqyosdagi maqsadi va vazifalarini yaxshilab o'rganishimiz lozim bo'ladi. Chunki, tabiat bilan bog'liq turizm turlari ko'p hollarda bir-biri bilan bog'liq holda yoki qo'shib ketadi yoki bitta ekologik turizmni tashkil qiladi va ekoturizm deb ataladi. A.Yu.Aleksandrova dunyodagi ko'p davlatlar qishloq turizmini ekologik turizmning bir tarmog'iga qo'shishni yozadi va quyidagi ma'lumotlarni keltiradi⁴⁴:

1. Yumshoq (Sanfter tourimus – nemischa; Soft Tourism – inglizcha).

2. Tog', Tabiat, shuningdek, yovvoyi tabiat (Mountain, Nature or Wildernestourism).

3. Yashil, Sarguzasht, Qishloq turizmi (Green, Adventure, Agro Tourism).

4. Ekologik turizm yoki Ekoturizm (Ekologikal Tourism or Ekotourism).

⁴⁴ Александрова А.Ю. География туризма, Москва, КноРус, 2010. С. 590.

Keltirilgan ma'lumotlar bo'yicha qishloq turizmi ekoturizmning bir tarmog'iga to'g'ri kelmoqda. Shuningdek, qishloq turizmini ko'p davlatlarda agroturizm deb ham atashadi. Fransiyada, Buyuk Britaniyada, Germaniyada, Italiyada qishloq turizmi, Avstriya, Ruminiya, Avstraliyada ekoturizm, AQSH, Kanada va Afrika davlatlarida ekoturizm va hokazo. Shuning uchun ham qishloq turizmining mohiyatini ko'plab davlatlarda har xil tushunishadi. Shu bilan birga e'tibor berish kerakki, dunyo davlatlarida turizmdagi atamalar hozirgacha bir sistematikaga tushirilgan emas. Agar diqqat qilsak turizm turlarining nomlarini ham turlicha tushunishimiz mumkin. Lekin bu turli tushunishlarga aniqlik kiritish talab qilinmoqda. Masalan, qishloq bilan bog'liq turizm qishloq turizmi deb ataladi va "Qishloq joylardagi turizm" esa butunlay boshqa ma'no bildiradi.

Shuningdek, agroturizm qishloq joylardagi dehqonchilikni bildiradi. Agar bu qishloq turizmining o'rniga "Qishloq joylardagi turizm" desak ko'p jihatlar ma'lum bo'ladi. Chunki qishloq turizmining ichida agroturizm ham bor. Xalqaro adabiyotlarda ham shunday chalkashliklar bor bo'lsada, bu hozircha "Agroturizmni" ham "Qishloq joylardagi turizmni" ham birga qo'shib "Qishloq turizmi" deb atasak to'g'ri bo'ladi.

Qishloq turizmi rivojlana borgan sari albatta uning sohalari yoki yo'nalishlari (agroturizm) alohida tarmoqlarga ajralib ketadi. Chunki, qishloq turizmi turizmdagi ko'plab turlarni o'zida qamrab olgan. Masalan, ekoturizmning asosiy resurslari qishloqlarda joylashgan, lekin biz unga sayohatni ekoturizm deb ataymiz, dehqonchilikka qiziqishni esa agroturizm deymiz. Qishloq turizmining mohiyatiga baho bermaganligimiz, mazmuniga tushunmaganligimizning bosh sababi qishloq turizmi tadqiqotlarini boshlamaganimiz hisoblanadi. Xuddi shuningdek, qishloq turizmining ichki turizm asosi ekanligini ham hozirgacha anglab yetganimiz yo'q.

Ma'lumki, ichki turizm Butunjahon turizm tashkilotining tasnifi bo'yicha — bir mamlakat aholisining o'z davlati hududlaridagi turistik faoliyat deb belgilangan. Qishloq turizmi esa ichki turizmning asosiy obyektlaridan hisoblanadi. Shuning uchun ham turizm rivojlangan davlatlar dastlab o'z davlatlarida ichki turizmni rivojlantirganlar, aholini turizm jarayonlariga tayyorlaganlar. Shu tariqa turmushdagi, ayniqsa qishloq turmushidagi tadbirkorlik kuchayib ketgan. Endi qishloq turizmini rivojlantirish ichki turizmning rivojlanishiga qayta asos, tayanch bo'lishini ortiqcha isbotlab o'tirishga izoh yo'q. Lekin, tashkil qilinmaganligidan ichki turizmni tarixiy obidalari bor shaharlarga sayohat deb tushunmoqdamiz.

Respublikamizda qishloq turizmini rivojlantirishni mamlakatimizdagi shahar aholisining qishloqlarda dam olishi deb tushunmog'imiz kerak. Ana shu tushuncha bilangina O'zbekiston qishloq turizmini rivojlantirishimiz mumkin. Bunday xulosaga kelishga asos albatta turizm va qishloq turizmi juda kuchli rivojlangan Yevropadagi qishloq turizmining geografiyasini o'rganib chiqishimiz bo'ldi. Hatto Yevropada ham qishloq turizmining rivojlanishiga sobiq ittifoqning katta salbiy ta'siri bor: Shimoliy Yevropa qishloq turizmi, Markaziy Yevropa qishloq turizmi, Janubiy Yevropa qishloq turizmi va Sharqiy Yevropa qishloq turizmi.

Markaziy Yevropa qishloq turizmining beshigi hisoblanadi. Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya — bu uchala mamlakat Yevropada birinchilardan bo'lib qishloq turizmini rivojlantirishga kirishgan davlatlar hisoblanadi. Fransiya davlatining qishloq turizmi mamlakat sharqida va janubida kuchli rivojlangan, g'arbida kuchsizroq rivojlangan. Bu holatning asosiy sababi fransiyalik tadbirkorlarning qishloqlarning tabiiy iqlim xususiyatlarini hisobga olganligidandir. Sharqda qishloq turizmi rivojlanganligining asosiy sababi bu joylarda tog' tizimlarining ko'pligi hisoblanadi (Fransiya Alpi, Vogeza tog'lari, Yura tog'lari) va Shveysariya, Italiya, Germaniya,

Belgiya va Lyuksemburg davlatlari bilan chegaradoshligidir. Bu davlatlardan Fransiyada qishloq turizmi turistik oqim ancha kuchli hisoblanadi.

Fransiyaning janubi esa plyaj-cho'milish zonalari bilan mashhurdir va vinochilik rayonlari ham aynan janubiy rayonlarida. Sharqda iqlim xususiyatlarining noqulayligi uchun qishloq turizmi kuchsiz rivojlangan. Lekin, davlat ushbu rayonlar uchun ham qishloq turizmini rivojlantirish strategiyasini ishlab bergan. Bu strategik reja bo'yicha sharqdagi qishloq turizmi davlat mablag'lari tomonidan kuchli ravishda qo'llab-quvvatlanadi.

Germaniyada ham qishloq turizmi bir tekis emas. Bu mamlakatda qishloq turizmi boy rayonlarda kuchli rivojlangan. Chunki Germaniya davlati ham, mamlakatdagi boy rayonlar ham qishloq turizmini rivojlantirish uchun katta mablag'lar ajratadi. Sobiq Germaniya demokratik respublikasi hududlarida ham qishloq turizmi g'arbdagi hamshaharlari tajribalari hisobiga asta-sekinlik bilan rivojlanib bormoqda.

Buyuk Britaniyada qishloq turizmi asosan janubda yaxshi rivojlangan. Buning asosiy sabablari katta shaharlar va poytaxtning janubda joylashganligi bilan izohlanadi. Ikkinchi sabab janubdagi qishloqlarda qadimgi madaniyat qoldiqlarining yo'qligidir. Britaniya davlati ham qaysi rayonlaridagi qishloqlarda turistik oqimni tashkil qilish imkoniyatlari ko'p bo'lsa, o'sha rayonlarga yengil foizli kreditlarni ko'p ajratadi.

Shimoliy Yevropa davlatlaridagi qishloq turizmi qattiq tabiiy iqlim sharoitlariga moslashgan. Daniya davlatining qishloq turizmi Yevropa davlatlari uchun etalon hisoblanadi. Shimoliy Yevropa davlatlaridagi qishloq turizmi qish mavsumlarida shaharliklarning qishloqlarga kelib chang'i sporti bilan dam olishiga asoslangan.

Yevropa davlatlari qishloq turizmini rivojlantirishda qishloqning ijtimoiy-iqtisodiy holatini ko'tarishning davlat dasturlarini tuzishgan. Bu dasturlar qishloqlarni majmuali rivojlantirish rejalariga asoslangan bo'lib, qishloq turizmini

rivojlantirish zahirida qishloqlar aholisini ish bilan ta'minlash, qishloqlarda ishlab chiqarishni kuchaytirish, shahar aholisini qishloqlarga dam olish maqsadlarida yo'naltirish masalalari hal qilinmoqda.

Biz qishloq turizmini rivojlantirish uchun dastlab davlat ahamiyatiga molik bo'lgan "qishloq turizmini rivojlantirishning strategik rivojlantirish dasturi"ni ishlab chiqishimiz kerak. Chunki, hozirgacha qishloq turizmini rivojlantirish haqida katta-kichik hajmdagi tadqiqotlarni ham boshlaganimiz yo'q. Masalan, Fransiya davlatida 1971-yildan "Turizm va qishloq joylari" assotsiatsiyasi, Angliyada 2000-yildan "Turizm va qishloqlarni rivojlantirish" agentligi, Avstriyada 1991-yildan "Avstriya fermerlik turizmi assotsiatsiyasi" muvaffaqiyat bilan ishlab kelmoqda. Bu tashkilotlarning ish uslubini o'rganganimizda ular birinchi navbatda "turizmning qishloqlarga yurishi" dasturini amalga oshirganlar va bu dasturni bosqichma-bosqich amalga oshirib kelmoqdalar.

Yuqoridagi ma'lumotlarni tahlil qilganimizda mamlakatimizda qishloq turizmini rivojlantirishda birinchi navbatda "O'zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi" tarkibida "Qishloq turizmini rivojlantirish" bo'limini tashkil qilishimiz lozim bo'ladi. Bundan keyin «O'zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi»ning viloyatlardagi bo'limlari ham, viloyat hokimliklari va tuman hokimliklari o'z tarkiblarida qishloq turizmini rivojlantirish bo'yicha turistik shtatlar ochish qishloq turizmini rivojlantirishda maqsadli yo'nalish bo'ladi. Bu bo'limlar va turistik shtatlar qishloq turizmini rivojlantirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirishi zarur:

1. Turizmدا talab va takliflar muvozanatini takomillashtirish.
2. Hududlar darajasida qishloq turizmini rivojlantirishning chiqimsiz, kamomadsiz holatiga erishish.
3. Qishloq turistik mahsulotining sifatini ko'tarish.
4. Qishloq landshaftlarni muhofaza qilish.
5. Turistik firmalarga xodimlar tayyorlash sifatini yaxshilash.

6. Qishloq turizmi hamma uchun imkoniyatli bo'lishi sharoitlarini yaxshilash.

7. Qishloq atrof-muhitini yaxshilash.

8. Qishloq turizmidan kelgan daromadni qishloq aholisi o'rtasida teng taqsimlash.

9. Har bir fermer xo'jaligining qishloq turizmi bilan shug'ullanish sharoitlarini yaratish.

10. Qishloq turizmini g'aroyib milliy mahsulot o'rnida ko'rish.

11. Qishloq turizmida marketingni tashkil qilish va talab-taklif-iste'molchi tizimida ishtirokning strategik rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

7.2. Qishloq turizmining zamonaviy reklamalarini yaratish

Qishloq turizmini rivojlantirishda birinchi navbatdagi vazifalar albatta joylashtirish vositalari hisoblanadi. Lekin qishloqlarda qishloq turizmini rivojlantirishdagi dastlabki tadbirkorlikda bu masalani tezda hal qilsa bo'ladi. Qishloq turizmini rivojlantirgan Yevropa davlatlari dastlabki vaqtda ham turistlarni joylashtirishda ijara usulini taklif qilgan. Tadbirkorlik kuchaygandan keyin alohida-alohida uylar, kottejlar qurish raqobat natijasida boshlanib ketadi. Lekin qishloq turizmini rivojlantirishdagi dastlabki tadbirlar qishloq joylardagi eng jozibali va qiziqarli turistik resurslarga turistik marshrutlar ishlab chiqishdan boshlanmog'i kerak.

Qishloq turizmini rivojlantirishda eng muhim omillardan biri qishloqlarimizda turistik marshrutlar ishlab chiqish hisoblanadi. Chunki turistik oqim hamma vaqt turistik marshrut va uning reklamasidan keyin hosil bo'la boshlaydi. Qishloqlarga turistik marshrut ishlab chiqish ham qishloq turizmini rivojlantirishdagi eng qulay imkoniyatlar hisoblanadi. Chunki, qishloqlarda turistik marshrutlar ishlab chiqishning imkoniyatlari ham ko'p, mavzulari ham ko'p va turistik resurslarning turli-tumanligi va deyarli barcha turizm turlarini qamrab olganligi

bilan salohiyatlidir. Qishloq turizmini rivojlantirishda turistik marshrutlar ishlab chiqishning quyidagi bosqichlarini rivojlantirish mumkin:

1. Qishloqlarda tabiatni o'rganish – ekologik turizm marshrutlari.
2. Qishloqlarda madaniy merosni o'rganish marshrutlari – etnografik turizm marshrutlari.
3. Qishloqlardagi tarixiy va arxeologik obidalarni o'rganish marshrutlari tarixiy-madaniy turizm marshrutlari.
4. Qishloqlardagi ziyoratgohlar, diniy ziyorat marshrutlari.
5. Qishloqlardagi dehqonchilik, bog'dorchilik va chorvachilikni o'rganish – agroturizm marshrutlari.
6. Qishloqlarda xalq milliy o'yinlarini o'rganish – milliy-ma'naviy-madaniy turizm marshrutlari.
7. Qishloqlarda milliy madaniyat va milliy folklorni o'rganish – madaniy turizm marshrutlari.
8. Qishloqlarda fermerlar hayotini o'rganish – agroturizm marshrutlari.

Qayd qilganimizdek, ko'plab turizm turlari turmarshrutlar ishlab chiqish mavzulari bir xil bo'lganligidan ularning keng qamrovli faoliyati ancha chegaralangan. bir yoki ikki mavzuda bo'ladi. Qishloq turizmining marshrutlari turli mavzularda ekanligi va turistik obyektlarning xilma-xilligi, jozibadorligi uchun ham juda qiziqarlidir. Birgina qishloq aholisining yashash tarzini o'rganish yoki tomosha qilish bo'yicha quyidagi turistik marshrutlarni ishlab chiqish mumkin:

1. Qishloq bilan tanishuv marshruti (aholisi, tili, hududlari, tabiati, dehqonchiligi, chorvachiligi, asosiy ishlab chiqarish mahsulotlari, kelib chiqishi va boshqalar).
2. Qishloq aholisining yashash tarzi (urf-odatlar, bayramlari, marosimlari, uy-ro'zg'or tutishlari, uy jihozlari, mehmon kutish, oiladagi munosabatlar, to'ylar, milliy taomlar tayyorlash usullari, dam olishi va boshqalar).

Qishloq turizmini rivojlantirishning yana bir imkoniyatlari shundan iboratki, qishloqlarimizda turli mavzularda

ekskursiyalarni tashkil qilishdir. Qishloqlarda ekskursiyalarning qiziqarliligi shundaki, ekskursiyalar bir obyektidan butunlay boshqa mavzudagi obyektga yo'l-yo'lakay o'tiladi. Agar qishloqlarda turistlarga xizmatlar ko'rsatishni kunlik ekskursiyalar asosida tashkil qilsak turistlarga ancha qulayliklar yaratilishi mumkin. Chunki, qishloqlarda uzoq masofali turistik marshrutlar qishloqdagi dastlabki tunash joylariga qaytib kelishida ancha toliqtirib qo'yadi.

Ikkinchidan, qishloq turizmida turistik marshrut yoki turistik ekskursiya ishlab chiqilganda va amalda o'tkazilganda tushki ovqatlanish xizmatlarini albatta dalada tashkil qilish kerak. Chunki, dala sharoitida choy qaynatish, dala sharoitida ovqat tayyorlash turistlar uchun haddan tashqari va taassurotli bo'lishi tabiiydir.

Qishloq turizmida turistik marshrutlar ishlab chiqilganda bir qishloqdan ikkinchi qishloqqa o'tishda yo'llarda uchragan, dalalarda ishlayotgan yoki chorva mollarini boqayotganlar bilan turistlarni uchrashtirish dasturlari, ular bilan suhbatlashtirish dasturlari albatta turistik bo'lishini ta'minlaydi. Qishloq turizmini rivojlantirishda turistik marshrutlarni reklama qilish ushbu turizm turini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Qishloq turizmi marshrutlari reklama qilinganda boshqa turizm reklamalaridan mazmuni va tuzilishi bo'yicha o'ziga xos usullar va yondashishlar qo'llaniladi.

Masalan, bu reklamalarda dastlab qishloqning manzili va bu qishloq atrofidagi turistik resurslar, infratuzilmalar va turistik xizmatlar qisqacha izohlar, roliklar bilan ifodalanadi. Qishloq turizmining reklamasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Qishloqning manzili.
2. Qishloq va uning atroflaridagi turistik resurslarning ro'yxatlari.
3. Qishloqdagi turistik infratuzilmalar haqidagi ma'lumotlar.
4. Transport xizmatlari.
5. Joylashtirish xizmatlari.

6. Ovqatlantirish xizmatlari.
7. Gid ekskursiya xizmatlari.
8. Ko'ngil ochar o'yinlar xizmatlari.
9. Qishloqqa yetib borish marshruti.

Bunday reklamalarning to'liq axborotli bo'lishi turistlarning qishloqqa erkin yetib borishini ta'minlaydi.

Tayanch so'z va iboralar: alternativa, folklor, turistik infratuzilma, instrument, qishloq joylardagi turizm, zamonaviy reklama.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha test savollari:

1. Qishloq turizmini rivojlantirishning modellari nechta?

- A. 7 ta.
- B. 8 ta.
- D. 5 ta.
- E. 10 ta.

2. Qishloq turizmini rivojlantirishning mohiyatini aniqlang.

A. Qishloqlarimizga ichki va xalqaro turistlarni jalb qilish asosida qishloqlarimizdagi obodonchilikni kuchaytirish, qishloqlarimiz aholisini xalqaro hamdo'stlik jarayonlariga qo'shish va qishloqlarimizni xalqaro miqyosda dunyoga ko'rsatish hisoblanadi.

- B. Qishloq aholisini ekoturizmga tortish.
- D. Qishloqlarni rivojlantirish.
- E. Agroturizmni rivojlantirish.

3. Qishloq turizmini rivojlantirishning maqsadini aniqlang.

A. Qishloq aholisining ish bilan bandligini qo'shimcha imkoniyatlar asosida oshirish, qishloq aholisi mahsulotlarining ko'proq sotilishini ta'minlashdir.

- B. Agroturizmni rivojlantirish.
- D. Qishloqlarda ekoturizmni tashkil qilish.
- E. Qishloqlarda turizmni tashkil qilish.

4. Qishloq turizmini rivojlantirishning vazifasini aniqlang.

- A. Qishloqlarda turizmni rivojlantirish tadbirkorligini tashkil

qilish asosida qishloq turizmi xizmatlari va servisni, qishloq turizmi infratuzilmalarini yaratishdan iborat.

B. Agroturizmni rivojlantirish.

D. Qishloqlarda ekoturizmni tashkil qilish.

E. Qishloqlarda turizmni tashkil qilish.

5. Qishloq turizmini rivojlantirish bo'yicha "Umumyevropa Lider dasturi" qachon ishlab chiqildi?

A. 1990-yilda.

B. 1995-yilda.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. O'zbekistonning qishloqlarini o'rganing va gapirib bering.
2. Qishloq turizmini rivojlantirishning maqsadini gapirib bering.
3. Qishloq turizmini rivojlantirishda Yevropa davlatlarining tajribalarini o'rganing va gapirib bering.
4. Qishloq turizmini rivojlantirishda xorij davlatlarining xalqaro modellarini o'rganing va gapirib bering.
5. Qishloq turizmini rivojlantirishda «Umumyevropa Lider dasturi»ni o'rganing va gapirib bering.
6. EKONET nima?
7. Qishloq turizmini rivojlantirishning vazifasini tushuntiring.

8-mavzu. EKOLOGIK TURIZM RIVOJLANGAN XORIJ DAVLATLARINING TAJRIBALARI

Reja:

8.1. Dunyo mamlakatlaridagi ekoturizm.

8.1. Dunyo mamlakatlaridagi ekoturizm

Jahon turizmida jadallik bilan rivojlanib borayotgan ekoturizmda yevropaliklar Afrika, Osiyo, Janubiy Amerikaning inson qadami tegmagan tabiiy landshaftlari tomon oqib bormoqda. Ekologik turizm geografiyasida Laos, Keniya, Tanzaniya, Ekvador, Kosta-Rika, Nepal, Avstraliya, Yangi Zelandiya

va Janubiy Afrika Respublikasi yetakchilik qilmoqda. AQSHdagi Yellouston milliy parkidagi geyzerlar vodiysiga har yili 2 mln. turist kelmoqda. Kamachatkadagi Koronotskiy qo'riqxonasidagi Geyzerlarga esa har yili 3000 turist kelib ketadi.

Ekoturizmning dunyoda juda ommaviylashgan davlatlari Lotin Amerikasidagi Kosta-Rika, Argentina, Ekvador, Braziliya va Peru hisoblanadi. Osiyoda ekoturizmning liderlari Hindiston va Nepal, va albatta ekoturizmda tengsiz davlatlar Avstraliya va Yangi Zelandiyadir. Yevropaning shimoliy davlatlari Islandiya, Norvegiya va Finlandiyada ekoturizm kuchli rivojlangan. Markaziy Yevropa davlatlarida ekoturizm asosan tabiat qo'riqxonalarida jadal rivojlanmoqda. Rossiyaning Tog'li Oltoy, Kamchatka, Baykal, Kareliya va o'rmonzorlarida ham ekoturizm hamda qishloq turizmi jadal rivojlanmoqda.

Kanada. Kanadada milliy parklarni tashkil qilish 1885-yilda tashkil qilingan Banf milliy parkidan boshlandi. 1990-yillarning o'rtalarida Kanada davlatida 37 ta yirik milliy parklar tashkil



qilingan edi. Bu milliy parklarga hozirgacha 15 mln. ekoturist tashrif qildi. Kanadaning barcha provinsiyalarida tabiiy rezervatlar tashkil qilingan. Bu rezervatlarning vazifalari noyob, sonlari tobora kamayib borayotgan biologik turlarni muhofaza qilish va ko'paytirishdan iborat. Shuningdek, Kanada milliy tabiiy rezervatlarning ko'pligi jihatidan ham jahonda birinchi o'rinni egallaydi, bu milliy tabiiy rezervatlarning soni 1000 ta. Jahon miqyosida milliy parklardagi tabiiy ekotizimlarni saqlab qolish va muhofaza qilishda lider davlatlardan hisoblangan Kanada davlatida 5 ta dengiz tabiiy qo'riqxonalari ham tashkil qilingan.

Amerika Qo'shma Shtatlari. AQSH milliy parklar, tabiiy qo'riqxonalar va tabiiy rezervatsiyalar soni bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallaydi (ikkinchi o'rinda Kanada davlati). AQSHda 300 ta milliy park tabiat qo'riqxonalari va rezervatsiyalar tashkil qilingan va shundan 14 tasi YUNESKOning "Jahon xalqlari milliy merosi" ro'yxatiga kiritilgan (Rangel-Sent-Elayas, Xavayi-Volkeynos, Gleysheer, Gleysheer-Bey, Grand-Kanon, Greyt-Smoking-Mauntins, Yelloustonskiy, Yosemitekiy, Karlsbadskie pещеры, Mamontova pещera, Mesa-Verde, Olimpik, Redvud, Evergleyds) va bitta milliy tarixiy park — Chako.



Yellouston milliy parkida Amerika bizonlari



Yosemit milliy parki tabiati

AQSH o'z tabiati va tabiiy resurslarini birinchilardan bo'lib muhofaza qilishni va ulardan o'z aholisining rekreatsiyasini tashkil qilgan davlat hisoblanadi. Har yili AQSH milliy parklari va tabiat qo'riqxonalariga 300 mln. turist tashrif qilishadi. Dunyodagi birinchi milliy park Yellowstone ham 1872-yilda AQSHda tashkil qilingan edi. Bu milliy parkka har yili 3 mln. turist tashrif qilishadi. Dunyoda bir vaqtlar qirilib, oxirgi sonlari qolgan Amerika bizonlarining soni tiklanib, hozirda Yellowstone'da 4 ming bosh bizon yashaydi.

Kosta-Rika. Bu davlat Lotin Amerikasida ko'p yillardan beri ekoturizmدا liderlik qilib kelmoqda. Bu davlatda ekoturizmning birinchi ishqibozlari o'tgan asrning 90-yillaridan paydo bo'la boshladi. Kosta-Rikaning ekoturizmdagi liderligining bosh sabablari shundan iboratki, qo'shni davlatlar o'zlarining iqtisodiyotini tiklash uchun jungli o'rmonlarini kesib sota boshlaganda bu davlat o'z hududlaridagi jungli o'rmonlarini qattiq muhofazaga oldi. Bu o'rmonlarda Janubiy Amerikaning

ko'plab davlatlarida yo'qolib ketgan hayvonlar va o'simliklar saqlanib qoldi, bu joylarda ekoturizm infratuzilmalarini tashkil qilib jahon miqyosida ekoturizm yo'nalishini maqsadli ravishda, rejali rivojlantirib bordi. Milliy parklar va tabiat qo'riqxonalari sonini ko'paytirdi. Bu davlatda ekoturistlar otilib turgan vulkanlarni, bahaybat dengiz toshbaqasini, behisob sharsharalarni, takrorlanmas tabiiy landshaftlarni ko'rishlari mumkin.

Braziliya. Bu davlat birinchi navbatda dunyoning eng katta daryosi Amazonka va uning betakror tabiati, dunyoning biror joyida uchramaydigan flora va faunasi, milliy parklarining ko'pligi bilan mashhur hisoblanadi. Hozirgi vaqtda dunyodagi 7 mo'jizadan biri hisoblanadigan Iso payg'ambarga qo'yilgan haykalning poyiga gul qo'yish va sig'inish uchun har yili millionlab turistlar kelishadi. Dunyodagi eng katta sharsharalar ro'yxatida turgan Iguasu sharsharasiga har yili millionlab ekoturistlar tashrif qilishadi. Braziliya turizm industriyasida ekoturizm yetakchi yo'nalishni hosil qilgan.

Ekvador. Tinch okeani qirg'oqlarida joylashgan, iqtisodida ekoturizm asosiy sohani tashkil qilgan va ekoturizmida lider davlatlardan hisoblanadi. Bu davlat dunyo ekoturistlariga baland tog'lardagi milliy parklarini taklif qiladi. Eng muhimi, milliy parklar va tabiat qo'riqxonalarida ekoturistik so'qmoqlar, dam olish infratuzilmalari yaratilgan.

Dunyoning mashhur olimi Charlz Darvin tajribalar o'tkazgan Galapagos orolini reklama qilishi natijasida har yili bu orolning o'ziga millionlab turistlar kelishadi. Bu davlatda xalqaro dayving turizmi, ulkan suv toshbaqalarini ko'rsatish mukammal holatlarda tashkil qilingan. Ekoturistlarga daryolardan oltin yuvib olish ham taklif qilinadi va ko'plab ekoturistlar bu davlatda oylab qolib ketishadi.

Peru. Hududlaridagi tropik o'rmonlari ekotizimlari va bu o'rmonlardagi noyob biologik resurslari bilan mashhur. Peruning xalqaro turizm va xalqaro ekoturizmdagi eng mashhur resursi

bu qadimiy Machu-Pikchu shahridir. Hozirda bu qadimiy tosh shahar dunyoning 7 mo'jizasi ro'yxatiga kiritilgan. Naska cho'lida chizilgan qadimiy ulkan rasmlar hozirgacha insoniyatni hayratga solib kelmoqda.

Nepal. Dunyodagi kichik bu davlatning dovrug'i butun jahonda mashhur va bu davlatni dunyodagi tog'larning poytaxti joylashgan deb ta'riflashadi. Dunyodagi eng baland tog' Everest ham shu davlatda. Qoyatoshlarga chiquvchilar, rafting va baliq ekosafari jahon miqyosida rivojlangan. Milliy parklariga maxsus so'qmoqlar, vaqtinchalik dam olish infratuzilmalari xalqaro ekoturizm talablari asosida tashkil qilingan. Shu bilan birga bu davlat tog'-alpinizmidagi fojiali halokatlarni bo'yicha ham oldingi o'rinlarda turadi.

Hindiston. Dunyo ekoturizmida liderlikka davo qilayotgan, betakror tabiiy ekotizimlarga ega davlat. Milliy parklari dunyoga mashhur va ularning deyarli barchasi haqida ekofilmlar yaratilgan. Bu ekofilmlarni sotishdan ham yaxshi foyda oladi. Dunyo miqyosidagi ekoturistlar asosan Hindiston yo'lbarasi va Hindiston filini ko'rishga, okean qirg'oqlarida dengiz toshbaqalarini ko'rishga kelishadi. Xalqaro ekoturizmni shunday mukammal tashkil qilganki, ekoturistlar ko'pincha Hindistonning tosh ibodatxonalarining tomoshasi bilan o'z muddatlarini uzaytirishganini ham bilmay qoladilar.

Xitoy. Xitoy xalq respublikasi. O'rmon qo'riqxonalari va o'rmon parklarining soni bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallaydi. Xitoyda 1757 ta o'rmon qo'riqxonalari, 1658 ta o'rmon parklari bor. Shulardan 6 ta o'rmon qo'riqxonalari va o'rmon parklari YUNESKOning jahon xalqlarining milliy merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Xeylunshyan provinsiyasidagi «Qadimgi kraterli o'rmon» dunyo miqyosida qadimgi holatdagi o'rmon maqomini olgan. Sinxay provinsiyasining janubida 2000-yilda tashkil qilingan «Sanszyanyuyan» milliy parki dunyoda mashhur. Aynan shu yerdan dunyodagi eng katta daryolar bo'lgan Xuanxe,

Lankang va Chang daryolari boshlanadi. Milliy parkda 1000 tur o'simliklar, 74 tur hayvonlar, 174 tur qushlar, 48 tur reptiliyalar muhofaza qilinadi.

Finlandiya. Shimoliy iqlimli davlatlar orasida ekoturizmni rivojlantirishning barcha imkoniyatlari mavjud degan xulosani olgan davlat. Minglab ko'llari, dunyodagi eng qalin o'rmonlari, dengiz sohillari yil davomida xalqaro ekoturistlarni chorlaydi. Shimoliy shafaqni ko'rish va tomosha qilish uchungina har yili yuz minglab xalqaro ekoturistlar kelishadi. Qorboboning vatani Finlandiya va qorbobo tug'ilgan joy – Laplandiyaning o'ziga yil davomida millionlab xalqaro turistlar tashrif buyurishadi. 30 ta milliy parki bor. Ekologlarning xulosalariga ko'ra ularning ko'plari hali o'rganilmagan.

Islandiya. Eng shimoldagi bu davlat vulkanlar va geyzerlar, fordlar va aysberglar, orollar va kichik, shinam uyli chiroyli qishloqlari bilan dunyoga mashhur. Qayd qilingan turizm resurslari, takrorlanmas shimoliy tabiiy landshaftlari, sanoqsiz ko'llari va muzliklar qoyalaridan tushuvchi takrorlanmas sharsharalarini ko'rish uchun dunyoning barcha qit'alaridan ekoturistlar yil davomida tashrif qilishadi. Bu yerda dunyodagi eng katta Xaukadalur geyzerlar vodiysida 250 ta geyzerlar doimiy ravishda otilib turadi. Yuz minglab ekoturistlar shimoliy shafaqni va shimoliy dengizlarning hayvonlarini, balandligi 900 metrli muzlik qalpog'ini ko'rish uchungina kelishadi.

Avstraliya. Ilmiy adabiyotlar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, Avstraliya ekoturizmni uning tamoyillariga asoslanib tashkil qilgan va jahonda ekoturizmni ilmiy-amaliy qoidalariga asosan rivojlantirayotgan lider davlat hisoblanadi. Bu davlat ekoturizmni o'z davlatining hududlarida tashkil qilganda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning davlat dasturlarini ishlab chiqadi va hududning tabiiy resurslarini hisobga olgan holda ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganadi.

Xalqaro ekoturizm bozorida eng ommaviylashgan 10 ta ekoturistik marshrut reytingi bo'yicha Avstraliya so'nggi o'n

yillikda birinchi o‘rinlarni egallab kelmoqda. Avstraliyada ekologik turizm bilan 9 ta milliy kompaniya shug‘ullanadi. Birgina “Australian Eco Adventures” milliy ekoturizm kompaniyasining 75 ta turmahsuloti (ekoturistik marshruti) xalqaro ekoturizm bozorida sotiladi. Avstraliyada 55 ta milliy park bor. Shulardan 10tasi YUNESKOning jahon xalqlari milliy merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Katta Rif va Avstraliya kengurularini butun dunyo biladi.

Yangi Zelandiya. Kichik davlatning tabiati, ayniqsa ulkan paporotniklar, kivi qushlari, ulkan kaltakesaklar dunyoda faqat shu davlatning hududlarida saqlanib qolgan. 14 ta milliy parkning 5tasi YUNESKOning jahon xalqlari milliy me‘rosi ro‘yxatiga kiritilgan. Dayving, qoyatoshlarga chiquvchilar, “robinzonlar”ning dunyo bo‘yicha eng ko‘p sonlilari bu davlatga tashrif buyurishadi.

Rossiya. Dunyoda maydoni jihatidan ham, turli tabiiy mintaqalarning joylashganligi, ekoturizmni rivojlantirishning barcha imkoniyatlari mavjud bo‘lgan qudratli davlat. Rossiyada 100 ta davlat tabiat qo‘riqxonasi, 35 ta milliy park, davlat ahamiyatidagi 68 ta tabiat buyurtmaxonalari, 2976 ta hududiy ahamiyatga ega bo‘lgan tabiat buyurtmaxonalari, 31 ta hududiy ahamiyatdagi milliy parklari bor. Bularning maydoni 67,8 mln. ga ni tashkil qiladi. Shuningdek, Rossiyada 1024 ta tabiat yodgorliklari bor. Bu ekoturizm resurslari har qanday ekoturistning talab va ehtiyojlarini qondiradi.

Afrika. Qora qit‘a nomini olgan Afrika har xil tabiiy-iqlimiy geografik mintaqalar joylashgan, o‘zining betakror tabiati va yovvoyi hayvonot dunyosida turlarning hamda bu turlarning sonlari ko‘pligi jihatidan ham qit‘alar orasida tengi yo‘q hisoblanadi. Sayyoramizdagi eng ko‘p 335 ta milliy park Afrikada joylashgan. Bu milliy parklarda 1100 tur sut emizuvchilar, 100 000 tur hasharotlar, 2 600 tur qushlar, 3 000 tur baliqlar muhofazaga olingan. Afrikada yuzlab qo‘riqxonalar, Buyurtmaxonalar va tabiiy rezervatsiyalar ishlab turibdi.

Tayanch so‘z va iboralar: milliy park, rezervatsiya, robinzonlar, bizon, hayvonlar migratsiyasi, geyzerlar, qorboboning vatani, lava.

Mavzuni o‘zlashtirish bo‘yicha savol va topshiriqlar:

1. AQSHdagi milliy parklarni sanab bering.
2. Afrika davlatlaridagi ekoturizmni gapirib bering.
3. Qorboboning vatanidagi ekoturizmni tushuntirib bering.
4. AQSH, Kanada va Avstraliya davlatlarini nima uchun ekoturizmدا lider davlatlar deyishadi?
5. Islandiya davlatini nima uchun “Geýzerlar vatani” deyishadi?
6. Kanada davlatida ekoturizm rivojlanganmi?
7. Afrika davlatlarida ekoturizm rivojlanganmi?
8. Mavzu matnidagi xalqaro tashkilotning ramzini ta’riflang.

9-mavzu. O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZMNING RESURSLARI. TABIAT MINTAQALARI. HAYVONOT OLAMI VA O‘SIMLIKLER DUNYOSI

Reja:

9.1. O‘zbekistonning tabiiy geografik mintaqalari – ekoturizm resurslari.

9.2. O‘zbekistonning hayvonot olami – ekoturizm resurslari.

9.3. O‘zbekistonning o‘simliklar dunyosi – ekoturizm resurslari.

9.1. O‘zbekistonning tabiiy geografik mintaqalari – ekoturizm resurslari

O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishda ekologik resurslardan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganishda biz birinchi navbatda mamlakatimizdagi milliy parklar, davlat tabiat qo‘riqxonalari va alohida muhofazadagi hududlar (davlat tabiat buyurtmaxonalari – zakazniklar), xalqaro miqyosdagi «Qizil kitob» va O‘zbekiston «Qizil kitob»idagi noyob hayvonlar turlari, o‘simliklar turlarini va betakror tabiiy landshaftlarni, hayvonot olami va o‘simliklar dunyosidagi endemik turlarni (endemik – faqat tub joy sharoitida yashaydi va o‘sadi) ro‘yxatga olishimiz va ularning ta’rif, tavsiflarini tayyorlashimiz kerak.

Shuningdek, hozirgi axborotlarimizdan ma’lumki, hozirgacha vatanimizga kelib ketayotgan xalqaro turistlar Orol dengizi qoldiqlariga, Quyiamudaryo sohillariga, tog‘larimizdagi qadimiy shakllar va rasmlarga, ming yillik daraxtlarga (chinorlar, archalar va boshq.) va rekreatsion buloqlar, sharsharalarga qiziqmoqdalar. Mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirishda qayd qilingan ekologik resurslarni alohida-alohida ro‘yxatga olganimizda xalqaro turistlarni qiziqtiruvchi quyidagi ekologik resurslar guruhlarini tashkil topadi⁴⁵:

• O‘zbekiston Respublikasining davlat qo‘riqxonalari va milliy parklari ekoturizm resurslari;

⁴⁵ Hayitboyev R., Matyaqubov U. Ekologik turizm. Samarqand, 2010. 60-b.

- Xalqaro «Qizil kitob» va O‘zbekiston «Qizil kitob»idagi noyob hayvonlar va o‘simliklar turlari;
- O‘zbekistondagi endemik hayvonlar va o‘simlik turlari;
- Orol dengizi qoldiqlari Quyiamudaryo sohili, to‘qayzorlar, ularning o‘simliklar va hayvonot olami;
- Tog‘larimizdagi qadimiy shakllar, rasmlar;
- Ming yillik daraxtlar va tabiat haykallari, tabiat yodgorliklari;
- Rekreatsion tabiiy landshaftlar, shifobaxsh buloqlar, sharsharalar;
- O‘zbekistondagi tabiiy geografik mintaqalar (cho‘llar, adirlar, tog‘ oldi, tog‘lar, baland tog‘lar);
- Suv havzalari (daryolar, ko‘llar, suv omborlari);
- To‘rt fasli iqlim mavsumlari;
- Arxeologik topilmalar, geologik ko‘rinishlar;
- Ovchilik maydonlarining mavjudligi;
- Tabiiy geografik mintaqalarda joylashgan qishloqlarimiz tabiati;

- O‘zbekistonning alohida muhofaza qilinadigan hududlari.

Yuqorida keltirilgan ekologik resurslar xalqaro turizm ekspertlari ta’kidlaganlaridek, O‘zbekiston turizm resurslarining turli-tumanligi, rang-barangligi va jozibadorligi bo‘yicha dunyo mamlakatlaridagi kuchli 10 talik resurslari ro‘yxatiga kiradi. Bu ekoturistik resurslarning ta’rif va tasniflari ushbu o‘quv qo‘llanmaning mavzularida berilmoqda. Hozirda ekoturizm resurslariga geomorfologik, gidrologik va organik resurslarni qo‘shish ham tavsiya qilindi ⁴⁶.

Lekin, «O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish Konsepsiyasi»da ta’kidlanganidek, amalda O‘zbekiston ekoturizmini rivojlantirishda yuqorida keltirilgan ulkan ekologik resurslardan, ekologik salohiyatlardan va imkoniyatlardan to‘la-to‘kis foydalanish tizimlari, omillari mukammal ishlab chiqilmaganligi natijasida mamlakatimizda turistlarni qabul

⁴⁶ Nizamov A., Amanbaeva Z., Safarova I. O‘zbekistonning ekoturistik resurslari va yo‘nalishlari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. 104-b.

qilish salohiyatiga nisbatan amaldagi ularning kelib-ketishi uch baravar kamdir.

Respublikamizda ekoturizmni rivojlantirishning asosi bo'lgan ekologik resurslarning bir qismi mazkur ishning kirish qismida keltirildi. O'zbekistonning butun hududlari dengiz sathidan belgilanganda bir-biridan tabiiy ekologik jihatdan farqlanuvchi 5 ta vertikal mintaqalarga bo'linadi. Bu mintaqalarning iqlimi, o'simliklar dunyosi va hayvonot olami ham turli-tuman. Shuningdek, chet ellik turistlarni qiziqtiruvchi 4 ta fasl ham ekoturizmning muhim resurslari hisoblanadi. Bu ekologik turizm resurslariga 11 ta yirik daryolarimiz va 55 ta suv omborlari havzalarini ham qo'shish mumkin.

1. Cho'llar mintaqasi dengiz sathidan 400–500 metr balandlikdagi joylarni o'z ichiga oladi va O'zbekiston Respublikasi hududlarining 70% ini ishg'ol qiladi, o'simliklari – 498 tur. Shulardan 64 turi shifobaxsh o'simliklar, 273 turi chorva mollari uchun ozuqaviy xususiyatlarga ega bo'lgan o'simlik turlari hisoblanadi. Bu mintaqalarning o'simliklari qurg'oqchil iqlimga moslashgan va asosan sho'rxok va qumli tuproqlarda yaxshi rivojlanadi. Quruq iqlimli bu cho'llarning ham ekologik tiplari xilma-xil bo'lib, gipsli cho'l, qumli cho'l va ko'chib yuruvchi qumli – barxanli cho'llar ko'plab ekoturistlarni o'ziga jalb qilishi mumkin.

Chunki har xil ekologik tipli cho'l hududlarida ushbu hududlarga moslashgan o'simliklar qoplami va hayvonot dunyosi tarkib topgan. Ayniqsa, floramizda endemik turlarning ko'pligi xalqaro miqyosda turistik oqimlarning kuchayishiga qiziqishni hosil qiladi. Cho'llardagi hayvonot olamidagi turlar (jayron, sayg'oq, Qizilqum echkiemari, kaltakesaklar, «Qizil kitob»dagi yo'rg'a tuvaloq, tasqara, cho'l burgutlari, miqqiy, qirg'iy, qorabovur, cho'l kaptari va boshq.) nafaqat xorijiy balki, ichki ekoturizmga ham qiziqarli ekoturistik obyekt hisoblanadi.

O'zbekistonning cho'llari quyidagilar: Qizilqum, Ustyurt cho'li, O'rta cho'l, Qarnobcho'l, Konimexcho'l, Muborak cho'l, Qarshi cho'li, Mirzacho'l, Markaziy Farg'ona cho'llari,

Kattaqum va Sandiqli cho'llari. Bulardan tashqari 1.9 mln. gektarli o'simliksiz ko'chma barxanli qum hududlari ham bor. Barxanli qumliklarda arab mamlakatlari ekoturistlarni tuyada sayr qilish turlariga taklif qilishadi. Bunday ekoturlarning yevropaliklar uchun juda qiziqarli bo'lishini arab turoperatorlari juda yaxshi bilishadi. Bizning cho'llarimizning qumliklarida ham shunday ekoturistik imkoniyatlar bor.



Cho'llarimizda ekoturizm infratuzilmalari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

2. To'qayzorlar mintaqasi. Respublikamizning Sirdaryo, Amudaryo, Zarafshon, Chirchiq, Ohangaron kabi daryolari sohillarida to'qaylar alohida mintaqalar holida uchraydi. To'qaylar o'ziga xos tabiat landshaftlari bo'lib, siyrak, zax o'rmon va chakalakzorlardan iborat. To'qaylar turli hayvonlar yashashi uchun muayyan sharoitga ega. To'qaylar ekoturizmning eng qiziqarli resurslaridir. O'zining betakror tabiatiga va boy biologik xilma-xillikka ega bo'lgan to'qayzorlarimizga sobiq ittifoq davrida o'nnglanmas darajalarda zarar keltirildi. To'qayzorlarning o'rmonlari kesilib, cheksiz paxta dalalariga aylantirildi. Bebaho boyligimiz bo'lgan 300 ming ga to'qayzorlardan hozirga kelib 30 ming gektari saqlanib qolgan. Bu maydonlar davlat muhofazasiga olingan va ularning o'simliklari, hayvonot olami muhofaza qilinadi va ko'paytirilmoqda

3. Adir mintaqasi okean sathidan 1000–1200 metrdan 2700–2800 metrgacha bo'lgan balandliklarni o'z ichiga oladi. Balandlikka ko'tarilgan sari havo harorati pasayib yog'inlar miqdori orta boradi. Vatanimiz tabiatidagi adirlar mintaqasida nafaqat ekologik turizmni balki, qishloq turizmini, agroturizmni rivojlantirish imkoniyatlari bor. Chunki, adir mintaqasi asosan mamlakatimizdagi tog' oldi mintaqalari hisoblanib, bu mintaqaning asosiy qismi sug'oriladigan yerlar bo'lganligidan qishloqlar zich joylashgan va dehqonchilik kuchli rivojlangan. Adirlar mintaqasidagi bahorikor yerlardagi o'ziga xos bo'lgan dehqonchilik (g'allachilik, lalmi no'xat, zig'ir, qovun, tarvuz yetishtirish) nafaqat xorijiy turistlarni balki, shaharlarda yashayotgan aholini ham qiziqtirishi mumkin. Bunday imkoniyatlarni ekoturizm operatorlari yaxshi bilishlari talab qilinadi.

4. Tog'lar mintaqasi. Tog'larda yoz salqinroq, cho'ldagiga nisbatan qisqaroq bo'ladi. Tog'larimizda 1048 tur o'simliklar o'sadi. Shifobaxsh, dorivor o'simliklarga boy mintaq. Okean sathidan 1400 metrdan 2500 metrgacha balandlikda archa daraxti o'sadi. Archa yog'ochi mustahkam, qimmatbaho daraxt bo'lib, uzoq umr ko'radi. Tabiatdagi biologik resurslar — o'simliklar

olami va hayvonot dunyosi ekoturizmida eng ommaviylashgan resurs hamda obyektlardan hisoblanadi.

Archazorlar — shifobaxsh oromgohlardir. Archazorlardan ekoturizmning eng ommaviy maskanlariga aylantirish maqsadlarida foydalanish mumkin. Shu bilan birga, adir mintaqasining hayvonot olami to‘qayzorlar faunasi bilan ko‘p hollarda bu ikki mintaqa bir-biri bilan chegaradosh bo‘lganligidan aralash holda yashashadi. Bu imkoniyatlardan ekoturizmida ham, ekosafari marshrutlaridan ham foydalanish imkoniyatlari kelib chiqadi. O‘zbekistonning tabiiy iqlim sharoitlari Markaziy Osiyo kontinental iqlim sharoitlaridan tarkib topganligi uchun ham hayvonot dunyosi va o‘simliklar olamining turli-tuman va rang-barangligini hosil qilgan.

5. Baland tog‘ mintaqasi dengiz sathidan 2700 — 2800 metrdan balandda joylashgan bo‘lib bu mintaqaning maydonlari uncha katta emas. Mintaqadagi sovuq va nam iqlim sharoitida och qo‘ng‘ir va o‘tloq tuproqlar hosil bo‘ladi. Baland tog‘ mintaqalari subalp va alp o‘tloqlaridan iborat. Ayrim, quyoshga teskari yonbag‘irlarida yil bo‘yi qor va muzliklar saqlanishi mumkin. Baland tog‘ mintaqasida va bu tabiiy mintaqaning boshlanishi garalarida ayniqsa, Zomin milliy parki hududlarida ekoturistik tog‘-chang‘i sport turizmini rivojlantirishning juda katta imkoniyatlari bor.

Ekoturizmning ekosafari (ov va baliq ovlash) resurslari ham g‘oyat biologik xilma-xillikka ega. Birgina ovlanadigan baliqlarning 83 turi daryolarimiz va suv havzalarimizda ko‘paytirilib muhofaza qilinmoqda. Shulardan 18 turi O‘zbekiston Respublikasining «Qizil kitob»iga kiritilgan. Ovchilik mavsumida suv havzalarimizda ichki va tashqi turist ovchilarni taklif qilishning katta imkoniyatlari bor. Shuningdek, vatanimizda ovchilik qushlarining ov qilish darajadagi sonlariga yetishganligi va ovchilik hududlarining mavjudligi hamda ovchilikka ruxsat berilganligi ham ekoturizmida ekosafari marshrutlarini ishlab chiqish va xalqaro ekoturizm, ichki ekoturizm bozoriga chiqarishning katta imkoniyatlari bor.

Ilmiy axborotlardan ma‘lum bo‘ladiki, vatanimizga kelib-ketayotgan har 100 turistning 50–60 tasi mamlakatimizning

tabiatiga va undagi biologik xilma-xillikka qiziqishmoqda. Ayniqsa, mamlakatimizdagi alohida muhofazadagi tabiat qo'riqxonalariga va ulardagi flora hamda faunaga qiziqish kuchli. Shu nuqtayi nazardan ham mavjud ekoturistik resurslardan ayniqsa alohida muhofazadagi ekologik hududlardan ekoturistik maqsadlarda foydalanish yo'llarini ishlab chiqishimiz lozim bo'ladi.

9.2. O'zbekistonning hayvonot olami — ekoturizm resurslari.


Respublikamizning ekoturizm salohiyatini hisobga olganimizda ekologik turizmni rivojlantirishning asosiy resurslari — 4 faslli tabiat mavsumlari va bu iqlim sharoitlariga va o'zining ekologik tizimlariga ega bo'lgan 5 ta tabiiy landshaft bio-xilma-xilliklarida endemik (faqat O'zbekiston tabiatida) turlarning mavjudligidir. O'zbekistonning ekoturizmdagi resurslar salohiyatiga alohida to'xtalganimizda quyidagi ekoturizm manbalarini keltirish, tavsiflash masalaga ravshanlik kiritadi.

O'zbekiston 38 mln. gektarga ega bo'lgan ovchilik—baliqchilik yer maydonlariga ega, ulardan 1 mln. gektarini suv fondi tashkil etadi. Respublikamiz faunasi 97 turdagi o'txo'r hayvonlar, 424 turdagi qushlar, 58 turdagi sudralib yuruvchilar va 83 tur baliqlarga ega. Bulardan O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitobiga» o'txo'r hayvonlarning 24 turi, qushlarning 48 turi, sudralib yuruvchilarning 10 turi, baliqlarning 18 turi va 78 turdagi umurtqasizlar kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Botanika instituti ma'lumotlari bo'yicha, O'zbekistonda hozirgi kunda 4148 tur o'simliklar mavjud. Shulardan, 3000 turlari oliy, yovvoyi o'suvchi o'simliklar, ulardan 9 % i endemiklardir. O'zbekiston hududining muhofaza etilayotgan tabiiy hududlar tarkibida 2164 km² ni tashkil qilgan 9 ta davlat qo'riqxonasi, 6061 km² ni tashkil etgan 4 ta milliy bog' va noyob turlarga kiruvchi hayvonlarni ko'paytirish respublika markaziy —«Jayron» ekomarkazi, 12186 km² maydonni tashkil etgan 10 ta davlat buyurtmaxonalari mavjud.

Ekoturizmning ekosafari (ov va baliq ovlash) resurslari ham g'oyat biologik xilma-xillikka ega. Birgina ovlanadigan baliqlarning 83 turi daryolarimiz va suv havzalarimizda ko'paytirilib muhofaza qilinmoqda. Shulardan 18 turi O'zbekiston Respublikasining «Qizil kitob»iga kiritilgan. Ovchilik mavsumida suv havzalarimizda ichki va tashqi turist ovchilarni taklif qilishning katta imkoniyatlari bor.





Ekoturizm markazidagi qushlar

Hozirga kelib «Nurota» davlat tabiat qoʻriqxonasida qariyb yarim asrdan beri qoʻriqlanib kelinayotgan yovvoyi qoʻylar-
arxarlar son jihatdan koʻpayishi hisobiga qoʻriqxonaga chegaralaridan
chiqib qadimiy areallari Qizilqumning qoldiq togʻlari tomon
siljib bormoqda. Shuning uchun ham bu joylardan ekoturistik
maqsadlarda foydalanish bu yovvoyi qoʻylarning asta-sekinlik
bilan odamlar koʻziga oʻrganishini tashkil qilib borish ekoturizmni
tashkil qilishni osonlashtirib boradi. Keyingi yillarda «Nurota»
davlat tabiat qoʻriqxonasidan ekoturizmni rivojlantirishda
maqsadli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, turistlarga
joylashtirish, ovqatlantirish va dam olish xizmatlarini mahalliy
aholi koʻrsatmoqda. Viloyatdagi turizm mutaxassislari va turizm
tadbirkorlarining yordami bilan mahalliy aholi oʻz uylarini xalqaro
va ichki turistlar ehtiyojlariga, talablariga moslashtirmoqdalar.
Hozircha bu qoʻriqxonaga har yili 100 dan ziyod xorijiy turistlar
kelib ketishmoqda.

Istiqbolda «Nurota» davlat tabiat qoʻriqxonasida mahalliy
aholi yordami bilan zamonaviy turistik infratuzilmalar barpo

etish, xizmatlar sifatini yaxshilash rejalari ishlab chiqilmoqda. Qizilqum echkemari esa xalqaro «Qizil kitob»ga kiritilgan bo'lib vatanimiz tabiatidagi bu noyob sudraluvchi yashayotgan joylarga ham ekoturistik marshrutlar ishlab chiqishni talab qiladi. Qizilqum echkemari odamlarga boshqa sudraluvchilarga qaraganda ancha oson o'rganadi. Ikkinchidan, xalqaro "Qizil kitob"dagi hayvonlar va parrandalar xalqaro ekoturistlarning eng ashaddiy muxlislarini o'ziga jalb qiladi.

9.3. O'zbekistonning o'simliklar dunyosi – ekoturizm resurslari

O'simliklar – Yerdagi hayot manbayi. Haqiqatdan ham insonning yashashi uchun Yerni atmosfera kislorodi bilan ta'minlaydigan o'simliklar karbonat angidrid yutib atmosferani tozalab turadi. O'simlik insonning oziq-ovqati va kiyimi, dorivor moddalar, kimyoviy xomashyo, qurilish materiallari, inson uchun hosildor navlar yaratish manbayi. O'simliklar havoni fitonsidlar-zararli virus va bakteriyalarni o'ldiruvchi uchuvchan moddalar bilan to'ldiradi. O'simlik iqlim sharoitlarini hosil qiladi. O'simlik hayvonot olamini ozuqa bilan ta'minlaydi. Umuman o'simliklarning muhim ahamiyatlarini sanash juda qiyin, fotosintez jarayonida o'simliklar har yili 100 mlrd t organik moddalar va 150 mlrd t erkin kislorod chiqaradi.

Yer yuzida hammasi bo'lib 265000 tur o'simlik bor. Shulardan 92%i quruqlikda, 8%i suvlarda o'suvchi o'simliklardir. O'simliklar turlarining 50%i gulli o'simliklar, 27%i zamburg'lar, qolganlari mox va lishayniklar. Quruqlikdagi o'simliklar tuzilishiga qarab 6 guruhga ajratiladi – daraxtlar, butalar, yarim butalar, o't-o'simliklar, moxlar, lishayniklar.

Hozirgi vaqtda sayyoramizdagi madaniylashtirilgan o'simliklar insoniyatning yovvoyi o'simliklardan foydalanishdagi minglab yillardagi faoliyati natijasidir. O'simliklarni madaniylashtirishda Janubiy va Janubiy Sharqiy Osiyo juda katta hissa qo'shdi. Bu mintaqada 7822 tur o'simliklar madaniylashtirildi, Yevropada

1312, Afrikada 500, Amerika qit'asida 2117 tur o'simliklar madaniylashtirilgan. Insoniyat hozirda 30 ming tur o'simlikdan foydalanadi. Inson 250 tur o'simlikdan xomashyo oladi. Bu o'simliklar butun dunyoda ekiladigan ekin maydonlarining 82% ini tashkil qiladi.



Tabiatdagi betakror makon – muhim ekoturistik obyektlar

O'simliklar haqida aytiladigan, yoziladigan hamma fikrlar o'rmonga, o'rmon boyliklariga taalluqlidir. Inson faoliyatida o'rmon mahsulotlari ishlatilmaydigan sohaning o'zi yo'q. Birgina yog'ochdan hozir 2 ming xil mahsulot olinmoqda. O'rmon daraxtlarining dorivorligi ham beqiyos. Masalan, pixta daraxti dizinteriya, qarag'ay – sil, archa – nafas oluvchi organlarni zaharlovchi viruslarni o'ldiradi. O'rmonlarda kasallik qo'zg'atuvchi mikroorganizmlar shahar havosiga nisbatan 70–80 marotaba kam bo'ladi. Archaning karbonat angidrid yutish qobiliyati 100%, keng bargli o'simliklarning 120%–450%, terakniki 700%dir.

Bir gektardagi 60 yoshli qarag'ay o'rmonlari 1 yilda 10 t kislorod, 40 yoshli eman daraxti 14 t kislorod chiqaradi. Bir gektar yerdagi terak daraxti vegetatsiya davomida 340 kg chang yutadi. Bir ga arg'uvonzorlardan 900 kg, 1 ga o'rmon malinazorlaridan 270 kg asal olish mumkin.

O'simliklarning dorivorlik xususiyatlari haqida buyuk bobomiz Ibn Sinoning "Dorivorlik xususiyati bo'lmagan o'simlik yo'q, o'simlik bilan davolanmaydigan kasallik ham yo'q" degan so'zlarini yod olishimiz kerak. Tibbiyotning otasi bo'lgan Gippokrat 200 xilga yaqin dorivor o'simliklar haqida ma'lumotlar qoldirgan. Bobokalonimiz Ibn Sino 900 xil o'simliklardan foydalanish yo'llari haqida asarlar bitgan.

Yer yuzida o'rmonlarning umumiy maydoni 4100 mlnga atrofida, ya'ni quruqlikning 31% ini tashkil qiladi. Yog'och miqdori 140 mlrd m³. O'rmonlar aholi jon boshiga: Kanadada 24 ga, Finlyandiyada 5 ga, Rossiyada 4,2 ga, Shvetsiyada 3 ga, Norvegiyada 2,2 ga, AQSHda 1,6 ga, Yevropa davlatlarida 0,1–0,4 ga va O'zbekistonda 0,04 ga to'g'ri keladi. Inson ilmiy texnika taraqqiyoti jadal rivojlanayotgan hozirgi vaqtda o'simlik resurslarini muhofaza qilish zarur. Birgina o'rmonlarning 1-suvni me'yorlashtirish va suv saqlash; 2-tuproqni muhofazalovchi va 3-iqlim hosil qiluvchi rolining o'zigina yashash faoliyatimizning mezonini tashkil qiladi.

Keyingi 100 ming yil ichida 2/3 qism o'rmonzorlar yo'q qilingan. Oxirgi 2000 yil ichida 0,5 mlrd ga o'rmonlar o'rnida cho'llar hosil bo'lgan. Keyingi 100 yil ichida Amerikada 540 ming ga o'rmon kesilgan, jahon bo'yicha 67 mln ga o'rmon yo'q qilingan. AQSHning Vetnamdagi agressiyasi natijasida 1,5 mln gektar tropik o'rmonlar hayvonot dunyosi bilan yo'q qilingan. Hozirgacha vetnamliklar 180 ming gektarini asl holiga keltirishdi. Agar o'rmonlardan hozirgidek foydalanilsa 70–80 yildan keyin tropik o'rmonlari batamom tugatiladi. Olimlarning hisobiga ko'ra oliy tur o'simliklardan 3 ming turi yo'qotilish arafasida. Butun dunyo bo'yicha 40 ming tur o'simlikning butunlay yo'qolib ketishi xavfi yuzaga kelgan.

O'zbekistonning o'simlik resurslari 4148 tur o'simliklardan iborat. Shulardan 390 turi endemik tur hisoblanadi, 577 tur shifobaxsh o'simliklardir, 115 turi ilmiy tabobatda ishlatiladi, 47 turi xalqaro davlatlar farmakologiyasiga kiritilgan. O'zbekiston o'rmonlari asosan tog', tog' oldi, vohalardagi daryolar qayirlaridagi to'qayzorlarda va qisman cho'llarda joylashgan. Cho'llarimizda 498 tur, adirlarimizda 638 tur, tog' va baland tog'larimizda 1048 tur o'simliklar o'sadi.

Floramizdagi 1500 tur o'simlik chorva uchun ozuqaviylik xususiyatiga ega. Shundan 550 turini chorva mollari a'lo darajada yeyishadi, 180 turi dasturxonimizdagi oziq-ovqatimizda, 20 turi ziravorchilikda, 400 turi oshlovchi, 150 turi turli bo'yoqchilikda ishlatiladi. Bu O'zbekistonda o'simlik dunyosining turlari boyligini ko'rsatadi. Biroq, o'simlik dunyosini saqlab qolishga mas'uliyatsiz munosabatda bo'lish va undan nooqilona foydalanish, uning kambag'allashishiga olib keladi ⁴⁷.

O'zbekistonning quyidagi o'simliklari xalqaro «Qizil kitob»ga kiritilgan va qattiq muhofaza qilinadi. Ular quyidagilar: tog' piyozi, omonqara, balquray, kovrak, sumbul, tovsagiz, taxmoq kovar, etmak, xurmo, qizil lola, targ'il lola, chinor, anor.

⁴⁷ Mahmudov M.M., Yusupov S., Yu., Hayitboyev R. va boshq. Qorako'lchilik yaylovlari va ulardan samarali foydalanishga oid amaliy qo'llanma. IKARDA, IFAD, O'zQCHEITI. Samarqand, 2001. 51-b.

O'zbekistonda 301 tur o'simlikning yo'qolib ketish xavfi bor. Masalan, 1991-yilda O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitob"ga 163 turdagi o'simliklar, 1999-yilda 301 turi, 2006-yilda esa 305 turi kiritildi. O'simliklarning ko'pchilik turlari yovvoyi o'sadi, bu o'simliklardan jadal sur'atlarda xomashyo tayyorlash yoki manzarali turlarini ommaviy to'plash va tayyorlash (lola, sallagul, quyonlab, shirach, rovoch) sababli "Qizil kitob"ga tushib qoldi.

O'zbekistonda yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarga dorivor va oziq xomashyosi sifatida ehtiyoj katta. 1992-yilgacha dorivor va ozuqabop yovvoyi o'simliklarni tayyorlash bilan bir necha davlat tashkilotlari, qo'shma korxonalar va jismoniy shaxslar shug'ullangan edilar. Tayyorlash hajmi cheklanmagan edi. Yig'ib olish hajmlari resurslarni tejash va o'simlik dunyosida ekologik tenglikni saqlashni ko'zda tutadigan ilmiy asoslar bilan ta'minlanmagan.

Dorivor va ozuqa xomashyosini tayyorlash hajmini ixtiyoriy belgilash qizilmiya, andiz, zirk butasi, sariqchoy, chirmovuqqul, efedra kabi va boshqa o'simlik turlari zaxiralari keskin kamayishiga sabab bo'ldi. O'simlik xomashyosining asosiy tayyorlovchisi O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining O'rmon xo'jaligi Bosh boshqarmasi qoshidagi «Shifobaxsh» ishlab chiqarish birlashmasi hisoblanadi.

O'rmonlar. Respublika barcha o'rmonlari yagona davlat o'rmon fondini tashkil etadi, u davlat ahamiyatidagi hamda o'rmon xo'jaligi tashkilotlari tasarrufidagi o'rmonlardan iborat. O'rmonlarning juda kichik qismi boshqa idora va yuridik shaxslar tomonidan foydalaniladi.

Shuning uchun, ular tog', daryo yoqalari va vodiylar o'rmonlariga tabiiy hudud bo'yicha ajratilgan. XX asr boshlaridan O'zbekiston o'rmonlari maydoni 4–5 baravar qisqardi. Qishloq xo'jaligi dalalariga aylantirilgan qayir o'rmonlari (to'qaylar) ayniqsa qat'iy antropogen ta'sirga uchradi. Bunday harakatlar sababli Amudaryo sohili bo'yidagi to'qaylarning maydoni 150 ming ga dan (1928-yilda) 22–24 ming ga gacha (1993-yilda) qisqardi. Respublika davlat

oʻrmon fondining soʻnggi hisobi yerlar toʻliq inventarizatsiyasi bilan birga 1988-yilda oʻtkazildi. Mazkur hisob maʼlumotlariga qaraganda Oʻzbekiston Respublikasi Davlat oʻrmon qoʻmitasi ixtiyoridagi davlat oʻrmon fondi yerlari 4994 ming ga ni, oʻrmon bilan qoplangan maydon esa 1788 ming ga ni tashkil qilgan.

Boshqa idora va yuridik shaxslar ixtiyoridagi oʻrmon bilan qoplangan maydon taxminan 500 ming ga boʻlgan. Oʻzbekistonning oʻrmon bilan qoplangan yeri umumiy yer maydonining 5,1 foizini tashkil qilgan. 1.01.91-yildagi hisobotga muvofiq davlat oʻrmon fondi 5467 ming ga, oʻrmon bilan qoplangan maydon esa 1819 ming ga ga teng boʻlgan. Boshqa yuridik shaxslarga tegishli oʻrmon bilan qoplangan maydon 546 ming ga ni tashkil qilgan. Oʻzbekistonning oʻrmon bilan qoplangan yeri umumiy yer maydonining 6,2 foizini tashkil qilgan.

Mamlakatimizdagi oʻsimliklar olamidagi endemiklar hatto qoʻshni davlatlar oʻsimliklar qatlamida ham uchramasligi tabiatimizdagi oʻziga xos noyob hodisadir. Ekoturizmni rivojlantirishda bu imkoniyatdan foydalanishimiz lozim. Buning uchun esa bu endemik oʻsimliklarning biologik va xoʻjalik xususiyatlarini, xalq xoʻjaligida foydalanish usullarini va ularning oʻsishi areallarini yaxshi oʻrganishimiz va ekoturizmda foydalanish xaritalarini ishlab chiqishimiz lozim boʻladi. Ushbu xaritaga asoslanib ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqishimiz va bu ekoturistik marshrutlarning reklamasini ichki va tashqi ekoturistik bozorga chiqarish ham vatanimizda ekoturizmni rivojlantirishda katta imkoniyatlarni yaratadi.

Tayanch soʻz va iboralar: arid, choʻllar, adirlar, vertikal poyas, subalp, alp, ovchilik resurslari, bioresurs, xarita, fond, areal.

Mavzuni oʻzlashtirish boʻyicha test savollari:

1. Oʻzbekistonda nechta tabiat qoʻriqxonalari bor?

- A. 6 ta
- B. 7 ta
- D. 8 ta

- E. 9 ta
- 2. O‘zbekistonda nechta tabiat buyurtmaxonalari bor?**
- A. 7 ta
B. 8 ta
D. 9 ta
E. 10 ta
- 3. O‘zbekistonda necha tur o‘simliklar o‘sadi?**
- A. 3148 tur
B. 4148 tur
D. 5148 tur
E. 6148 tur
- 4. O‘zbekistonda nechta ekologik parvarishxonalar bor?**
- A. 1 ta
B. 2 ta
D. 3ta
E. 4 ta
- 5. Xalqaro “Qizil kitob”ga O‘zbekistonning nechta hayvonlari kiritilgan?**
- A. 6 ta
B. 8 ta
D. 10 ta
E. 12 ta

Mavzuni o‘zlashtirish bo‘yicha savol va topshiriqlar:

1. O‘zbekistonda nechta tur o‘simliklar o‘sadi?
2. O‘zbekistonning “Qizil kitob”iga qaysi o‘simliklar kiritilgan?
3. O‘zbekistonning “Qizil kitob”iga qaysi hayvonlar kiritilgan?
4. Xalqaro “Qizil kitob”ga O‘zbekistonning qaysi hayvonlari kiritilgan?
5. Endemik turlar nima uchun xorijlik ekoturistlarni qiziqtiradi?
6. O‘zbekistonning o‘simliklar olami mavzusida ma’ruza tayyorlang.
7. O‘zbekistonning hayvonot dunyosi mavzusida ma’ruza tayyorlang.

10-mavzu. O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZM RESURSLARI. MILLIY PARKLAR, TABIAT QO'RIQXONALARI, TABIAT BUYURTMAXONALARI VA TABIAT YODGORLIKLARI

Reja:

- 10.1. O'zbekistonning milliy parklari.
- 10.2. O'zbekistonning tabiat qo'riqxonalari.
- 10.3. O'zbekistonning tabiat buyurtmaxonalari.
- 10.4. O'zbekistonning tabiat yodgorliklari.

10.1. O'zbekistonning milliy parklari

O'zbekistonda milliy parklarni xalq bog'i, davlat milliy tabiat parki deb atashmoqda. Bu nomlanishlar jahondagi milliy parklardagi tabiat muhofazasi va milliy parklardagi biologik xilma-xillikni saqlashning ustuvor tomonlarini o'rganish davrlarida berilgan edi (o'tgan asrning 70-yillari). Oldingi mavzulardagi ma'lumotlardan ma'lum bo'ldiki, milliy parklarni faqat Germaniyada (qisman) va bizning mamlakatimizda bog' deyishadi.


Biz mevali daraxtzorlarni bog' deymiz. Milliy parklar haqidagi xalqaro ilmiy-amaliy tadqiqotlarda hamkorlik qilish ishlarida bu atamalar biroz tushunmovchiliklar keltirib chiqaradi. Chunki, xalqaro miqyosda milliy parklarning belgilangan nizomi va maqomi bir xil talablarda bo'lib, bu talablarni hamma davlatlar qabul qilishgan. Ikkinchidan, bizdagi xalq bog'i va davlat milliy tabiat parkining nizom va maqomlari (statusi) jahondagi milliy parklarning nizomi va maqomidagi ko'plab bandlarining talablariga javob beraolmaydi.

Keltirilgan mulohazalar bo'yicha biz ham milliy bog'larimizni xalqaro miqyosdagi atama bilan milliy parklar deb nomlashga o'tishimizni talab qilyapti. Chunki, ilmiy adabiyotlarda va ilmiy ommabop manbalarda ko'pincha xalq bog'i emas milliy park

atamasi ko'proq ishlatilmoqda. O'zbekistonda chop qilinayotgan maqolalar va adabiyotlarda milliy parklar turlicha nomlanmoqda. Fikrimizcha, mutaxassislar va olimlar bu haqda yagona xulosaga kelishlari lozim.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunga kelib 4 ta milliy parklarimiz bor: 1. Zomin milliy parki. 2. Ugom-Chotqol milliy parki. 3. Oqtepa milliy parki. 4. Sarmishsoy milliy parki

Zomin milliy parki. Turkiston tizma tog'larining hududlaridagi Qizilmozorsoy, Ko'lo'oy, Supa, Chortangi, Sharilloq, Qashqasoy, O'rikli soylari bu tog'larning eng xilma-xil tabiiy archazor o'rmonlari bilan qoplangan. Shuning uchun ham bu archa o'rmonlari va uning noyob hayvon olamini muhofaza qilish uchun Markaziy Osiyoda va O'zbekistonda birinchi Zomin (ilgarigi nomi G'o'ralas) davlat tabiat qo'riqxonasi 1960-yilda tashkil qilingan edi. Qo'riqxonaning umumiy maydoni 26800 gektarni tashkil qiladi, shundan 22135 gektari archazor o'rmonlari bilan qoplangan.





Zomin milliy parkidagi dam olish va sog'lomlashtirish sanatoriyasi, milliy parkdagi archazorlar

Zomin milliy parki Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi Zomin tog'-o'rmon qo'riqxonasi tegralarida betakaror tog'-archazor o'rmonlarini saqlash, muhofaza qilish va rekreatsiyali maqsadlarda o'zlashtirish uchun 1976-yilning 8-sentabrida ochildi. Milliy park qo'riqxonasi tabiatida muhofazani kuchaytirish shu bilan birga aholining dam olish maskanlarini yaratish maqsadida qo'riqxonasi chegaralari hududlarining bir qismida Zomin milliy bog'i tashkil qilindi. Bu milliy bog' ma'muriy jihatdan Jizzax viloyatining Zomin tumani hududida Pomir-Oloy tog' tizmasiga kiruvchi Turkiston tog' tizmasining G'arbiy qismida, Molguzar tog'ining g'arbiy yon bag'rida joylashgan bo'lib, uning maydoni 24110 gektarni tashkil etadi. Shundan, o'rmonli yerlar — 16783 ga, to'liq o'rmon bilan qoplangan yerlar — 12130 ga.

Milliy parkning dunyo miqyosida takrorlanmas bo'lgan boyligi shifobaxsh archa o'rmonlaridir. Archazorlar tabiiy-iqlimiy

o'sish sharoitlari va geografik vertikal poyaslar (qavat) bo'yicha quyidagicha joylashgan:

1. Dengiz sathidan 1700–2300 metr balandlikda – Zarafshon archasi.

2. Dengiz sathidan 2300–2500 metr balandlikda yarimsharsimon archa.

3. Dengiz sathidan 2500–3300 metr balandlikda Turkiston archasi.

Milliy park qo'riqxonaga chegarasida va tegralarida bo'lganligi uchun uning tabiati va tabiiy iqlim sharoitlarida alohida belgili o'zgarishlar, xususiyatlar uchramaydi. Faqat geomorfologik relyef tuzilishida tog' massivlarining joylashishlarida, o'simliklar qoplaminin qalinligi yoki siyrakligida va hayvonot olaminin yashash areallarida biroz farqlanishlar uchraydi.

Qo'riqxonada va Milliy tabiat bog'ida g'oyat noyob va xilma-xil hayvonot dunyosi yashaydi. Bu tabiatda qushlarning 134 ta turi, sut emizuvchilarning 37 ta turi, sudralib yuruvchilarning 37 ta turi ro'yxatga olingan. Qo'riqxonadagi turkiston silovsini, oq tirmoqli ayiq, sibir echkisi O'zbekiston Respublikasining «Qizil kitob»ga kiritilgan. «Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi» va YUNESKOning «Qizil kitob»ga, Turkiston silovsini, oq tirmoqli ayiq, soqolli burgut, burgut, qirg'iy va qora laylak kiritilgan.

Milliy parkda o'simliklar olami ham nihoyatda boy va biologik xilma-xillikka ega hisoblanadi. Bu hududlarda 59 oilaga mansub, 312 turkumga kiruvchi 660 tur gullovchi yuksak o'simliklar o'sadi. Bu o'simliklarning 13 turi O'zbekiston Respublikasining «Qizil kitob»ga kiritilgan. Shundan 48 turi endemiklar (faqat shu hududlarda o'sadi) hisoblanadi, 400 turi foydali o'simliklardir (dorivor, shifobaxsh o'simliklar – 119 tur, yem-xashak – 88 tur, manzarali – 57 tur, oshlovchi – 49 tur, ozuqabop – 42 tur, zaharli – 35 tur, bo'yoqbop – 10 tur, efir moyli – 14 tur, yelim beruvchi – 3 tur, yog'li – 3 tur, ziravor – 5 tur).

Singzor daryosining irmoqlaridan biri – Ko'ksoyning o'rta qismida ohaktoshlar orasidagi g'aroyib bir darani mahalliy aholi

«Chortangi» deb ataydi. Bu darada suv hayqirab oqib, sayroqi qushlar kabi har xil ovozlari chiqaradi. Shuning uchun ham bu «Sayrovchi dara» nomini ham olgan. Bu dara ohaktosh yotqiziqlari orasidan 2 km masofaga choʻzilgan. Bunday tor va chuqur daralar, Qashqasuv, Gʻoʻralashsoylarda ham mavjud.

Gʻoʻralashsoyning oʻng yon bagʻridagi katta archali qismida ming yillar davomida nurash natijasida palaxsa toshlar turli shakllarga afsonaviy ajdarho, yoʻlbars va boshqa koʻrinishlarga ega boʻlganligidan turistlarni hayratga soladi. Xuddi shunday tabiat haykallari: Qizil etaksoydagi «Qirqqiz»dir (mahalliy aholining atamasi). Baland holatdagi qizil konglomerat va qumning ekologik tarixiy davrda yemirilishi natijasida Misrdagi sfinkslarni eslatuvchi qirqa oʻziga xos koʻrinishlardagi tabiat haykallari hosil boʻlgan. Ushbu tabiat yaratgan moʻjizalarni turistlar tomosha qilish bilan birga shifobaxsh archazorlar havosidan bahramand boʻladilar.

Ugom-Chotqol milliy parki. Ugom-Chotqol davlat tabiat milliy parki 1990-yilda Toshkent viloyati hududlarida, Gʻarbiy Tyan-Shan togʻ tizmalaridagi 574,6 ming ga maydonda tashkil qilindi. Oʻrmon bilan qoplangan yerlar — 56,4 ming ga, yaylov va pichanzorlar — 177,3 ming ga, sugʻoriladigan yerlar — 1,61 ming ga, qoyali va oʻsimliksiz yalangʻoch togʻ yonbagʻirlari — 329,4 ming ga. Milliy park bu yerda joylashgan va yashayotgan yerdan foydalanuvchilar hamda yer egalarining xoʻjalik faoliyatlarini tartiblashtirish, betakror tabiiy ekotizimlarni saqlash, muhofaza qilish va rekreatsiyali foydalanish maqsadlarida tashkil qilingan.

Milliy parkning hududlari quyidagi faoliyatlar zonasiga boʻlingan;

- Agroparkli zona — 59,1 ming ga;
- Faol rekreatsiyali zona — 30,7 ming ga;
- Muvofiqlashtiriladigan rekreatsiyali zona — 13,6 ming ga;
- Qoʻriqxonalar zonasi — 35,8 ming ga;
- Qoʻriqxonalar tartib sharoitlariga tenglashtirilgan zona — 109,1 ming ga;
- Tabiiy landshaftlar zonasi — 326,1 ming ga;

• Milliy park hududlarida o‘rmon xo‘jaligining 322,6 ming ga va 620 ga madaniy o‘rmonlar maydoni ro‘yxatga olingan.



Tog' barsi (qor qoplani)



Milliy park tabiati

G'arbiy Tyan-Shanning o'simliklar olami milliy parkning betakror boyligi bo'lib, turlarning xilma-xilligi jihatidan hayratlanarli darajadagi o'simlik turlaridan iborat. Milliy parkda 2200 tur o'simliklar o'sadi, ularning 2150 turi yopiq urug'lilardir. Milliy parkning o'simliklar qatlamidagi turlardan 650 turi tabobatda, xalq tabobatida, 400 turi oziq-ovqat mahsulotlari va ziravorlar sifatida ishlatiladi.

Milliy park G'arbiy Tyan-Shanning O'zbekiston qismini egallagan bo'lib, hayvonot olami quyidagi 280 turdan iborat:

- Sut emizuvchilar – 44 tur;
- Qushlar – 200 tur;
- Reptiliyalar – 16 tur;
- Amfibiylar – 2 tur;
- Baliqlar – 20 tur.

Milliy park hududlarida «Qizil kitob»ga kiritilgan Menzbur sug'uri (qunduz)ning asosiy populyasiyalari yashaydi.

Oq tepa milliy parki (Oqtepa tabiat bog'i). Surxondaryo viloyati noyob hayvonot va nabotot dunyosini tiklash va ko'paytirish hamda O'zbekiston va chet el ekoturizm sayohatchilarini yovvoyi tabiat bilan tanishtirish, dam olish, ov va baliq ovlash maskanini yaratish maqsadida 2005-yil 9-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Davlat bionazorati nozirligi qoshidagi Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani, Termiz shahridan 30 km shimoliy-sharqda, jami 1034 gektar maydonni tashkil etgan Oq tepa suv omborining atrofida joylashgan «Oq tepa» tabiat bog'i tashkil etildi. Ushbu maskan migratsiya qiluvchi qushlar, yovvoyi o'rdaklar va suv qushlarining vaqtincha dam olib, to'xtab o'tuvchi hamda ko'pgina qushlarning qishlab qolish makoniga aylangan hududdir.

Sarmishsoy milliy parki. Navoiy viloyati hokimiyatining 21.04.1997-yildagi qarori bilan mahalliy darajada tashkil qilindi. Hudud sahro pasttog'liklarini, ularning flora va faunasini muhofaza qiladi. Bu yerda qoyatoshlarga chizilgan 3000 dan ortiq qadimiy rasmlar-petrogliflar mavjud. Bu jahon miqyosida ham juda noyob hisoblanadi va turli mamlakatlardan olimlar hamda turistlarda

katta qiziqishlar uygʻotadi. Milliy bogʻning maydoni 5000 ga va Navoiy viloyatining ekologiya va atrof-muhit muhofazasi davlat qoʻmitasi nazoratida.



Sarmishsoy qoyatoshlaridagi qadimiy rasmlar

10.2. O'zbekistonning tabiat qo'riqxonalari

Tabiat qo'riqxonasi maydoni hayvonot va o'simlik dunyosi bilan qattiq rejimda qo'riqlanadi. O'ziga xos, betakror tabiat landshaftlari, noyob, yo'qolib borayotgan hayvonot turlarini saqlab qolish va ko'paytirish maqsadida davlat tomonidan tashkil qilinadi. Qo'riqxonalarda inson faoliyati taqiqlanadi. Faqat ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazishga ruxsat berilgan. O'zbekistonning davlat qo'riqxonalari – muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning eng qat'iy tartibli turi bo'lib, muayyan o'simlik, hayvon turlari va ekotizimlarni himoyalash uchun tashkil qilingan, doimiy amal qiladigan muhofaza etiladigan zonalar hisoblanadi. Qo'riqxonalarda har qanday xo'jalik faoliyati taqiqlangan (nazorat etiladigan ilmiy tadqiqotlar bundan mustasno).

Qo'riqxonalar Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi (IUCN) muhofaza etiladigan zonalarini tasnifining I toifasiga to'g'ri keladi. Respublika qo'riqxonalarida «Qizil kitob»ga kirgan ko'plab hayvon turlari: xongul, morxo'r, Seversov qo'yi, ko'k sug'ur, Turkiston silovsini, yirik yirtqich qushlar, hasharotlar muhofaza qilinadi.

O'zbekiston Respublikasida 9 ta davlat tabiat qo'riqxonasi va 10 ta davlat buyurtmasi (zakaznik) tashkil qilingan⁴⁸ (4-jadval). Bu qo'riqxonalar vatanimizda ekoturizmni rivojlantirishda asosiy ekoturistik obyektlar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida quyidagi qo'riqxonalar mavjud: Chotqol; Baday-to'qay; Hisor; Zomin; Zarafshon; Qizilqum; Nurota; Surxon; Kitob. Jadval ma'lumotlaridan ma'lum bo'ladiki, O'zbekistonda tabiat qo'riqxonalari mamlakatimizning barcha tabiat mintaqalarida joylashgan. Bunday qulay salohiyat, sharoitdan ekoturizmni rivojlantirishda samarali foydalanish imkoniyatlarini tabiatning o'zi bizga yaratib bergan. Davlat tabiat qo'riqxonalarimizdan nafaqat xalqaro turizmga balki ichki turizmga ham foydalanish masalalarini hal qilishimiz lozim.

⁴⁸O'zbekiston va Markaziy Osiyo tabiiy geografiyasi atlas. Toshkent, 2007.

O'zbekiston Respublikasining davlat tabiat qo'riqxonalari

Qo'riqxonalar	Ixtisoslashuvi	Maydoni, ga
1. Chotqol tog'-o'rmon-biosfera qo'riqxonasi	Tog' o'rmon landshaftlari. Barcha tabiiy majmualarni o'rganish va muhofaza qilish. Qor qoplari muhofazasi.	35200
2. Hisor qo'riqxonasi	Tog'-o'rmon landshaftlari. Barcha tabiiy majmualarni o'rganish va muhofaza qilish.	80986,0
3. Nurota tog'-yong'oq o'rmonlari qo'riqxonasi	Tog'-yong'oqzor o'rmonlari landshaftlari, grek yong'og'ining tabiiy populyatsiyalari, yovvoyi arxarlarning tabiiy populyatsiyalari muhofazasi.	21137,5
4. Surxon qo'riqxonasi	Tog'-o'rmon landshaftlari. Burama shoxli echkinning tabiiy populyatsiyalari (Morxo'r), tabiiy archazorlar muhofazasi.	23802,38
5. Baday-to'qay biosfera rezervati	To'qayzorlar landshafti. «Xalqaro Qizil kitob»dagi Buxoro bug'usining tabiiy populyatsiyasi, to'qayzorlar o'rmonlarining muhofazasi.	6462,1
6. Zarafshon qo'riqxonasi	To'qay lanshaftlari. Qirg'ovulning tabiiy populyatsiyalari va chakanda butasining muhofazasi.	2552,0
7. Qizilqum qo'riqxonasi	To'qay-qum landshaftlari. Buxoro bug'usining tabiiy populyatsiyalari.	10311,06
8. Zomin qo'riqxonasi	Tog'-archa landshaftlari. Archa o'rmonlari va uning hayvonot olamini muhofaza qilish.	26848,6
9. Kitob geologik qo'riqxonasi	Tog'lar. Paleontologik-stragrafik obyektlarning muhofazasi. Xalqaro meridianning vatanimizdan o'tishi belgisi qo'yilgan.	5378,0

1. Chotqol biosfera qo'riqxonasi⁴⁹ 1947-yilda tashkil qilingan. Ugom-Chotqol tabiiy milliy bog'i tarkibiga kirib, Toshkentdan sharqda va Angrendan shimolda joylashgan. Umumiy maydoni 35724 ga, shundan o'rmonlar 6586 ga,

⁴⁹ Milliy ma'ruza ma'lumotlari. 110-120-bb.

dalalar 7047 ga, hovuzlar 81 ga ni tashkil qiladi. Qo'riqxonada Toshkent viloyati hududida Chotqol tizmasining g'arbiy qismida joylashgan. Qo'riqxonaning maqsadi G'arbiy Tyan-Shanning tog'li ekotizimlarini saqlash va atrof-muhit holatining ekologik monitoringidan iborat.

Chotqol qo'riqxonasi florasi 1168 turga ega bo'lib, mintaqa uchun xosdir. Bu yerda Qo'riqxonada uchun endem bo'lgan 6 tur o'sadi. Qo'riqxonada o'simliklarining 28 turi O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitobi»ga kiritilgan. Bu yerda 44 turdagi sut emizuvchi, 230 dan ortiq turdagi qush, 16 turdagi reptiliya va 2 turdagi suvda va quruqlikda yashovchi, 3 mingdan ortiq turdagi umurtqasizlar yashaydi. O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitob»ga bir turdagi ilon, 10 turdagi qush va uch turdagi sut emizuvchi kirgan. TMXR «Qizil kitob»ga yo'qolib ketish xavfi ostidagi ilvirs, ko'k sug'ur, o'rmon sonyasi, ko'rshapalaklar — kichik va katta takaburunlar va uchrangli tunshapalak qushlardan: tasqara, quyqa qora kaptar, oqqanot qizilishton kiritilgan.

YUNESKO MAB dasturi Xalqaro Muvofiqlashtiruv kengashining 9-qurultoyida unga biosfera maqomi berildi. 1993-yilda belgilangan tartibda xalqaro biosfera rezervatlari tarmog'iga kiritilgan. Qo'riqxonada muhofaza etiladigan hudud maqomida tabiiy muhitning bir qismi, keng tarqalgan yoki noyob landshaft shakllari yoki o'simlik va hayvonlar genetik resurslarini saqlash joylari sifatida tabiatni muhofaza qilish, ilm-fan va ekologik ta'lim uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan tabiiy komplekslar (yer, yer osti boyliklari, suv, flora va fauna)ni muhofaza qilishga xizmat qilib kelmoqda.

2. Hisor davlat qo'riqxonasi Qashqadaryo viloyatida Hisor tizmasining g'arbiy yonbag'rida dengiz sathidan 1750 m dan 4349 m gacha balandlikda joylashgan. 1983-yilda ikki davlat qo'riqxonasi — Qizilsuv va Miroqi qo'riqxonalarining birlashishi natijasida tashkil qilingan. Hozirgi paytda bu O'zbekistondagi eng katta qo'riqxonadir. Umumiy maydoni 80986 ga ni tashkil qiladi.



Morxo 'r



Tog ' qo ' yi


Qo'riqxonada o'rmon, dala ekotizimlari ajralgan; o'rmon bilan qoplanmagan maydoni 56678,1 ga; yaylovlar mavjud; daryo va ko'llarga 171 ga to'g'ri keladi; botqoqliklar 511 ga; qiyaliklar va tog' yonbag'ridagi to'kilmalar 31819 ga ni tashkil qiladi; yo'llar, shudgor va qamishzor dalalar mavjud. Qo'riqxonaning asosiy o'rmon hosil qiluvchi o'simliklari zarafshon va yarim sharsimon archalar hisoblanadi. Umuman olganda muhofaza etiladigan hududdagi o'simliklar Markaziy Osiyo tog'lari uchun odatiy bo'lib, uning katta qismi tor endem o'simliklaridir. Ba'zi hisoblarga qaraganda tomirli o'simlik turlarining umumiy miqdori 800—900dan kam emas.

O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitob»ga kiritilgan noyob turlardan qo'riqxonada hududida 32 turdan kam bo'lmagan tomirli o'simlik turi o'sadi. Qo'riqxonaning hayvonot olami boy, turli-tuman va tog'li o'rmonlarga xos bo'lgan deyarli barcha turlarni qamrab oladi. Qo'riqxonada 2 turdagi baliq, 19 turdagi amfibiya va reptiliya, 103 turdagi uyali qushlar, 28 turdagi sitemizuvchilar yashaydi.

O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitob»ga oqtirnoq ayiq, ilvirs, Turkiston silovsini, eron qunduzi, qushlardan: burgut, boltayutar, itolg'i, qumoy, kichik burgut kiritilgan. Qizilsoy maydonidagi Osmontalash cho'qqisi eng yuqori nuqta — dengiz sathidan 4000 m dan baland, aynan shu yerda sibir qo'zisi, ilvirs, ular va qizil sug'ur yashaydi. Sudralib yuruvchilardan suvilon, chiporilon, qalqontumshuq, ko'lvor, Turkiston agamasi va boshqalar uchraydi. Tojikiston bilan chegarada qo'riqxonaning eng yirik daryolaridan biri Oqsuv havzasida eng yuqori cho'qqili O'qilon uchastkasi joylashgan. Uning balandligi dengiz sathidan 2500 dan 4300 m gacha oraliqda. Bu uchastkada O'zbekistondagi eng yirik Seversov muzligi mavjud. Hisor davlat qo'riqxonasi O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tizimiga kiradi va Davlat biologik nazorati tomonidan boshqariladi.

4. Nurota davlat qo'riqxonasi O'zbekiston Respublikasi janubi-g'arbida Jizzax viloyati Forish tumanidagi Nurota tizmasining

markaziy qismida joylashgan. 1975-yilda tashkil qilingan. Qo'riqxonada maydoni 17752 ga, shundan 2529 ga o'rmon bilan qoplangan. Yong'oqning qadrlil turlarini saqlab qolish va Seversov qo'yining noyob populyatsiyasini himoyalash qo'riqxonaning asosiy maqsadi hisoblanadi.



Qo'riqxonadagi arxarlar

Qo'riqxonada florasi 600 dan ortiq (27 endemik) turni qamrab olgan. Avvallari Nurota tizmasi archa o'rmonlari bilan qoplangandi, lekin ular o'tgan asrdayoq kesib tashlangan. Qo'riqxonada atigi 30 ga yaqin archa qolgan. Qo'riqxonada faunasi 183 turdan iborat, shundan 13 turi O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitobi»ga kiritilgan.

Nurota davlat qo'riqxonasi O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi tizimiga kiradi hamda Qo'riqxonalar, milliy tabiiy bog'lar va ovchilik xo'jaliklari boshqarmasi tomonidan boshqariladi. Qo'riqxonaning Osrafsoyida qadimgi qoyatoshlarga chizilgan qadimiy rasmlar saqlanib qolgan. Mujrumsoyda esa 1000 yoshli archalar bor. Uxum, Sintobsoy, Ustun qishloqlarida ham Aleksandr Makedonskiy nomi bilan bog'lanib qolgan joylar, 1000 yoshli daraxtlar davlat muhofazasi ro'yxatiga olingan.

4. Surxon davlat qo'riqxonasi Surxondaryo viloyati Sherobod tumanining shimoli-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, ikkita mustaqil hudud: Orol-Payg'ambar va Qo'hitong tog' tizmasi sharqiy yonbag'ridan tashkil topgan. Umumiy maydoni 3092 ga bo'lgan Orol-Payg'ambar hududi Xalqaro «Qizil kitob» va O'zbekiston «Qizil kitob»iga kirgan Buxoro bug'usi (xongul) va yaylov, to'qay ekotizimlarini saqlab qolish maqsadida 1971-yildayoq qo'riqxonada sifatida tashkil topgandi.



1987-yilda Qo‘hitong davlat qo‘riqxonasi Orol-Payg‘ambar qo‘riqxonasi bilan birlashtirildi va umumiy maydoni 24554 ga bo‘lgan Surxon davlat qo‘riqxonasiga qayta tashkil qilindi. Qo‘riqxonaning Qo‘hitong hududi tog‘- o‘rmon ekotizim sifatida tavsiflanadi. Uning hududi Pomir-Oloy tog‘ tizimi Hisor tizmasining janubi-g‘arbiy tarmoqlarida dengiz sathidan 1500 dan 3157 m gacha balandlikda joylashgan. Qo‘riqxonada ko‘p sonli mayda soylardan tarkib topgan yaxshi rivojlangan gidrografik tizimni ta‘minlaydigan doimiy va muvaqqat oqadigan ko‘plab suv oqimlariga ega. Hozirgi paytda Qo‘hitongda 269 tur va 55 oilaga mansub 578 o‘simliklar ro‘yxatga olingan, shundan 23 turdagi o‘simlik turi O‘zbekiston Respublikasi «Qizil kitob»ga kiritilgan.

Yer usti (o‘rmon, dala, adir) o‘simliklari bilan band maydon 16620 ga (67,7%), toshli yonbag‘ir, to‘kilma, qiyaliklar bilan band maydon 7839 ga (31,9%), o‘rmonlar 9288 ga yoki hududning 37,8 foizini tashkil qiladi. Asosiy o‘rmon hosil qiladigan o‘simlik Zarafshon archasi hisoblanadi. Hozirgi paytda Qo‘hitongda 1 turdagi baliq, 2 turdagi amfibiya, 26 turdagi reptiliya, 74 turdagi qush va 23 turdagi sutemizuvchi aniqlangan.

5. «Baday-to‘qay» davlat qo‘riqxonasi 1971-yil oktabr oyida to‘qay landshaftini va uning hayvonot olamini saqlab qolish maqsadida O‘zbekiston hududida oltinchi va Qoraqalpog‘istonda birinchi qo‘riqxonada sifatida tashkil topgan. Qo‘riqxonada Quyiamudaryoning o‘ng sohil to‘qayzorlarida vatanimiz hayvonot olamida endemik bo‘lgan xalqaro «Qizil kitob»dagi Buxoro bug‘usini saqlab qolish, muhofaza qilish va ko‘paytirish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasida Beruniy va Kegayli tumanlari hududlarida tashkil qilingan. Qo‘riqxonada 91 tur qushlar yashaydi, shulardan 18 turi qishlovchi qushlar hisoblanadi. 1975-yilda qo‘riqxonaga 4 bosh Buxoro bug‘usi keltirilgan edi, hozirda ularning soni 350 boshdan oshdi. Qo‘riqxonada BMTning O‘zbekistondagi taraqqiyot loyihasi bo‘yicha xalqaro biosfera rezervatiga aylantirilgan.

Maydoni 6462 ga, xususan, o‘rmon bilan qoplangan yeri 3975 ga. Beruniy va Kegayli tumanlari hududida Amudaryo


past oqimida joylashgan. To‘qay changalzorlari maydonning 70 foizini egallaydi. Hayvonot olami 91 turdan ortiq qush, 15 turdagi sutemizuvchi va 15 turdagi baliqni o‘z ichiga oladi. «Baday-to‘qay» davlat qo‘riqxonasi TMXR Qizil kitobi, O‘zbekiston Respublikasi «Qizil kitob»i, SITES II Ilovasiga kiritilgan Buxoro bug‘usini (xongulni) iqlimlashtirish bilan shug‘ullanadi.

6. Zarafshon davlat qo‘riqxonasi 1975-yilda tashkil etilgan, Samarqand viloyatida joylashgan. Uning hududi Cho‘ponota cho‘qqilaridan boshlanadi va tor tizma bo‘lib, Zarafshon daryosining o‘ng sohili bo‘ylab 47 km ga cho‘zilgan. O‘rmon yerining kengligi 300 dan 1500 m gacha. Qo‘riqxonada maydoni 2352 ga, shundan 680 ga o‘rmon bilan qoplangan. Qo‘riqxonada vatanimizning eng chiroyli, noyob ov qushi bo‘lgan – Zarafshon tustovug‘ini, shifobaxsh buta o‘simligi – chakandani va daryo sohilidagi to‘qayzor o‘rmonlarini saqlab qolish, muhofaza qilish va ko‘paytirish maqsadlarida tashkil qilingan.



Zarafshon tustovug‘i

Qo‘riqxonani tashkil qilishdan maqsad yo‘qolib borayotgan chiroyli Zarafshon qing‘ovulini, qimmatli dorivor butasi — chakanda (oblepixa), to‘qay changalzorini tiklash va saqlash, ilmiy tadqiqotlar olib borishdan iborat. Qo‘riqxonaning nisbatan kichik hududida qariyb 300 turdagi o‘simlik o‘sadi. Qo‘riqxonada 59 turdagi dorivor va 23 turdagi texnik o‘simlik aniqlangan.



Chakanda o'simligi

Qo'riqxonaning faunasi 359 tur bilan taqdim qilingan, shundan amfibiyalar – 2, sudralib yuruvchilar – 8, qushlar – 206, sutemizuvchilar – 24 turni tashkil qiladi. Noyob va yo'qolib ketayotgan turlar 32 ta. 1995-yildan beri Zarafshon davlat qo'riqxonasida xongulni ko'paytirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. 1996-yilda Zarafshon davlat qo'riqxonasiga «Baday-to'qay» qo'riqxonasidan 6 bosh Buxoro bug'usi keltirilgan. Hozirgi paytda qo'riqxonada yuz boshdan ziyod xongul yashaydi.

7. Qizilqum davlat qo'riqxonasi 1971-yilda tashkil topgan, Buxoro viloyatida joylashgan. Qo'riqxonada maydoni 10311 ga ni tashkil qiladi, shundan 5144 ga o'rmon bilan qoplangan, 6964 ga qumli zonada va 3177 ga Amudaryo bo'yida joylashgan. Qo'riqxonada 250 turdagi hayvon mavjud, shundan 10 dan ortiq turi TMXR Qizil kitobi va O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitobi»ga kirgan; 160 turdagi o'simlik uchraydi, shundan 2 turi O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitob»iga kirgan.

Buxoro bug'usi alohida e'tiborga molik, uning soni 1991-yildan beri 200 boshgacha ko'paydi. Hozirda soni 5 mingdan oshgan Amudaryo tustovug'i ham asosiy muhofazadagi qushlardan hisoblanadi. Qo'riqxonada hududlarida hozirda jayron ham ko'paytirilmoqda.



Buxoro bug'usi



Jayronlar

8. Zomin davlat qo'riqxonasi 1960-yilda tashkil etilgan, Jizzax viloyatining Zomin va Baxmal tumanlarida 26840 ga maydonda joylashgan, shundan 11322 ga o'rmon bilan qoplangan. Dengiz sathidan 1760–3500 m balandlikdagi tog'-archa ekotizimlari muhofaza qilinadi, 700 dan ortiq turdagi o'simlik mavjud, shundan Zarafshon, yarimsharsimon va Turkiston archalari o'rmon hosil qiladi. Bu qo'riqxonaga tegralarida va chegara hududlarida Zomin milliy parki joylashganligi va milliy park haqidagi ma'lumotlar keltirilganligi uchun qo'riqxonaga tabiati haqida to'xtalishning zarurati yo'q.



Oq tirnoqli qo'ng'ir ayiq



Tasqara

Ekoturistlarni jalb qiladigan obyektlar so'lim tabiati, archazor o'rmonlari va turli-tuman hayvonot olami hisoblanadi. Qo'riqxonada «Qizil kitob»dagi oq tirnoqli ayiq, sibir tog' echkisi, Turkiston silovsini va qora laylak asosiy muhofazada hisoblanadi. Qo'riqxonada hududida hayvonlar 152 tur bilan taqdim qilingan, shundan 16 turi Xalqaro «Qizil kitob» va O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitob»iga kiritilgan.

9. Kitob davlat qo'riqxonasi 1979-yilda 3938 ga maydonda tashkil topgan. Kitob-Shahrisabz vodiysi qulay sayyohlik imkoniyatlari jihatidan vatanimizning noyob, betakror o'lkalaridan hisoblanadi. Hisor va Zarafshon tog'lari o'rtasidagi xushmanzara go'shalar ekoturizmni rivojlantirishning manzillari bo'lib xizmat qiladi. Qo'riqxonada Zarafshon tizmasining janubi-g'arbiy tarmoqlarida joylashgan, balandligi 1300 dan 2650 m gacha oraliqda. Qo'riqxonada 168 turdagi hayvon mavjud (qushlar — 128, sutemizuvchilar — 21, sudralib yuruvchilar — 14, baliqlar — 3 turdan iborat) bilan taqdim qilingan, shundan 10 turi O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitobi»ga kirgan, 800 turdagi o'simlik o'sadi, shundan 23 turi O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitob»iga kirgan.

Bu qo'riqxonaning xalqaro miqyosdagi ahamiyati shundan iboratki, qo'riqxonada xalqaro meridianning o'tganligi haqida xalqaro belgi qo'yilgan. Bu imkoniyatni reklama qilib xalqaro ekoturistlarni qo'riqxonaga qiziqtirish mumkin.

10.3. O'zbekistonning tabiat buyurtmaxonalari

O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishda yana bir salohiyatli ekoturistik obyektlarning biri — tabiat Buyurtmaxonalari hisoblanadi⁵⁰. Vatanimizda turlari kamayib ketayotgan o'simliklar, hayvonlar va tabiiy landshaftlarni ma'lum bir muddatlarda muhofaza qiluvchi 10 ta tabiat buyurtmaxonalari bor (5-jadval).

5-jadval

O'zbekiston Respublikasining tabiat Buyurtmaxonalari

Buyurtmaxonalar	Ixtisoslashuvi	Maydoni, ga
1. Arnasoy buyurtmaxonasi	Suv havzasi tabiati. Qushlar va qishlovchi qushlarning muhofazasi.	63300,0
2. Dengizko'l buyurtmaxonasi	Suv havzasi tabiati. Qushlar va qishlovchi qushlarning muhofazasi.	50000,0
3. Qoraqir buyurtmaxonasi	Cho'l landshaftlari. Jayron va qishlovchi qushlarning muhofazasi.	30000,0

⁵⁰ G'ulomov R. va boshq. Turkiston tabiiy geografiyasi. Toshkent: «O'qituvchi», 2000. 191-b.

4. Qarnobcho'l buyurtmaxonasi	Cho'l landshaftlari. Tuvaloq, qorabovur va jayronlarni hamda ularning yashash joylari muhofazasi.	40000,0
5. Qo'shrabod buyurtmaxonasi	Cho'l landshaftlari. Tuvaloq, qorabovur va jayronlarni hamda ularning yashash joylari muhofazasi.	16500,0
6. Nurobod buyurtmaxonasi	Cho'l landshaftlari. Saksovulzorlar, tuvaloq va kobrani muhofaza qilish.	29000,0
7. Oqtog' buyurtmaxonasi	Cho'l landshaftlari. Barcha tabiiy majmualarni muhofaza qilish.	2500,0
8. Saygachi buyurtmaxonasi	Cho'l landshaftlari. Sayg'oqlarni muhofaza qilish.	1000000,0
9. Sudoche buyurtmaxonasi	Suv havzalari tabiati. Baliqlar va ko'chib o'tuvchi qushlarni muhofaza qilish.	50000,0
10. Muborak buyurtmaxonasi	Cho'l landshaftlari tabiati bioxilma-xilligi va asosan yo'rg'a- tuvaloqni saqlash, muhofaza qilish va ko'paytirish.	219534

Bu buyurtmaxonalar mamlakatimiz hududlarining barcha tabiiy landshaftlari majmualarini qamrab olgan bo'lib, flora va faunamizdagi ko'plab noyob biologik xilma-xillikni, tabiiy landshaftlarni, suv havzalarini va ularda muhofaza qilinayotgan hayvonot olami va o'simliklar dunyosini, vatanimizda qishlab ketadigan qushlarni muhofaza qiladi. Bugungi kunda O'zbekiston hududida faoliyat yuritadigan 10 ta buyurtmaxona mavjud.

1. «Dengizko'l» davlat ornitologik buyurtmaxonasi O'zSSR Vazirlar Kengashining 1973-yildagi 530-sonli qarori bilan tashkil qilingan, faoliyat muddati Buxoro viloyati ijroqo'mining 26.06.90-yildagi 157-11-sonli qarori bilan (muddatsizga) uzaytirildi. Buyurtmaxona maydoni 50 ming ga. Tashkil qilishdan maqsad — uchib o'tadigan suvda suzuvchi qushlarni muhofaza qilish va qayta tiklash, qishlash yerlarini, yashash muhitini saqlab qolishdir.

2. «Qoraqir» davlat buyurtmaxonasi Buxoro viloyati ijroqo'mining 25.01.92-y.dagi 15-1-sonli qarori bilan tashkil qilingan. Buyurtmaxonaning muddati cheklanmagan. Maydoni 30 ming ga. Tashkil qilishning maqsad — uchib o'tadigan qushlar va

boshqa hayvonlarni, ular yashash va ko'payish yerlarini muhofaza qilishdan iborat.

3. Armasoy ornitologik buyurtmaxonasi Jizzax viloyati Forish tumanidagi Tuzkon ko'lida O'zSSR Vazirlar Kengashining 9.09.83-yildagi 521-sonli qarori bilan tashkil qilingan. Buyurtmaxona maydoni 63,3 ming ga. Buyurtmaxona muddati cheklanmagan. Tashkil qilishdan maqsad — uchib o'tadigan va uya quradigan qushlarni muhofaza qilishdir.

4. «Saygachi» davlat buyurtmaxonasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 29.11.91-y.dagi 311/42-sonli qarori bilan tashkil qilingan. Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumanida joylashgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 11.02.2001-y.dagi 33/1-sonli qarori bilan buyurtmaxona tartibining amal qilish muddati 2020-yilgacha uzaytirildi. Buyurtmaxona maydoni 1 mln. ga. Buyurtmaxona sayg'oqlar CITES II va ular yashash joylari — migratsiya yo'llari, qishlash va ko'payish yerlari, shuningdek, boshqa, birinchi navbatda, «Qizil kitob»ga kiritilgan hayvonlar — tuvaloq, yo'rg'a-tuvaloq kabilarni muhofaza qilish maqsadida tashkil qilingan.

5. «Sudoche» davlat ornitologik buyurtmaxonasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 29.11.91-yildagi 311/42-sonli qaroriga muvofiq tashkil qilingan. Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumanida joylashgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 11.02.2001-yildagi 33/1-sonli qaroriga muvofiq buyurtmaxona tartibining amal qilish muddati 2020-yilgacha uzaytirildi. Buyurtmaxona maydoni 50 ming ga. Ornitologik buyurtmaxonasini tashkil qilishdan maqsad — Amudaryo sohilbo'yidagi suv-botqoqlik joylari biologik kompleksini saqlab qolish, uchib o'tadigan qushlarni, ular ko'payishi va dam olishi joylarini muhofaza qilishdan iborat.

6. «Muborak» davlat buyurtmaxonasi Qashqadaryo viloyati hokimiyatining 5.12.98-yildagi X-344/12-sonli qarori bilan tashkil qilingan (muddati cheklanmagan). Buyurtmaxona maydoni o'zgartirilgan — 219534 ga. Tashkil qilish maqsadi — yo'rg'a-

tuvaloq, uning yashash joylari va boshqa yovvoyi hayvonlar yashash joylarini saqlab qolishdan iborat.

7. «Oqtogʻ» davlat buyurtmaxonasi Navoiy viloyati hokimiyatining 21.04.97-yildagi K-113-sonli qarori bilan tashkil qilingan (muddati cheklanmagan). Navoiy viloyati Nurota tumanidagi Oqtogʻ tizmasida joylashgan. Buyurtmaxona maydoni 15420 ga. Tashkil qilish maqsadi – «Oqtogʻ» togʻli mavzesi tabiiy kompleksini saqlab qolish.

8. «Qarnabchoʻl» davlat buyurtmaxonasi Navoiy viloyati hokimiyatining 9.07.98-yildagi F-90-sonli qarori bilan tashkil qilingan (muddati cheklanmagan). Buyurtmaxona maydoni 25 ming ga. Tashkil qilishdan maqsad – birinchi navbatda, yoʻrgʻa-tuvaloq va uning yashash joylari, shuningdek, butun Qarnabchoʻl biologik kompleksini saqlab qolish. Buyurtmaxona yoʻrgʻa-tuvaloq koʻplab uchib oʻtadigan yoʻlda joylashgan.

9. «Qoʻshrabod» davlat buyurtmaxonasi Samarqand viloyati ijroqoʻmining 8.07.92-yildagi 86-k-sonli qarori bilan tashkil qilingan (muddati cheklanmagan). Buyurtmaxona maydoni 16 ming ga. Tashkil qilishdan maqsad – «Qizil kitob»ga kiritilgan hayvonlar – yirtqich qushlar, Nurota qoʻriqxonasi bilan buyurtmaxona hududiga kiradigan Seversov qoʻyini (*Ovis ammon severtzovi*) muhofaza qilishdir.

10. «Nurobod» davlat buyurtmaxonasi Samarqand viloyati ijroqoʻmining 8.07.92-yildagi 86-k-sonli qarori bilan tashkil qilingan (muddati cheklanmagan). Buyurtmaxona maydoni 40 ming ga. Tashkil qilishdan maqsad – yovvoyi hayvonlar, jumladan, yoʻrgʻa-tuvaloq va uning yashash joylari, butun tabiiy choʻl kompleksini muhofaza qilishdir.

Qayd qilingan tabiat qoʻriqxonalariga, buyurtmaxonalariga turmarshrut orqali borish ham ekoturistlar uchun zerikarli boʻlmaydi aksincha, tabiat landshaftlari, tabiiy mintaqalar oʻzgarib borganidan ekoturistlar koʻz oʻngida xilma-xil oʻsimliklar dunyosi va hayvonot olami ham oʻzgarib boradi. Ekoturizmni rivojlantirish dasturlarini rejalashtirish va tayyorlashda birinchi navbatda, mamlakatimizda ichki ekoturizmni rivojlantirishga katta eʼtibor berishimiz lozim

bo'ladi. Chunki, davlat tabiat qo'riqxonalariga turistlarning, tabiatga qiziquvchilarning qo'yilmasligi natijasida aholining, talabalarning, maktab o'quvchilarining qo'riqxonalarimiz haqidagi bilimlari juda kam. Shuning uchun ham xalqaro ekoturizm rivojlangan davlatlarning ayniqsa ekoturizm rivojlangan Yevropa davlatlarining boy tajribalarini qo'riqxonalarimizda qo'llash vaqti keldi. Buning uchun birinchi navbatda vatanimizda alohida muhofazadagi hududlardan ekoturistik maqsadlarda foydalanishning huquqiy me'yorlarini ishlab chiqishimiz lozim.

Shuning uchun ham, O'zbekiston Respublikasidagi davlat tabiat qo'riqxonalarida, tabiat buyurtmaxonalarida, milliy parklarida saqlanayotgan, muhofaza qilinayotgan va ko'paytirilayotgan, noyoblighi bo'yicha endemik bo'lgan va xalqaro miqyosdagi xalqaro «Qizil kitob»ga kiritilgan hayvonot va o'simliklar turlarini ham ekoturizmda foydalanish uchun tabiat qo'riqxonalarining ekoturistik reklamasiga kiritish ekoturistlarni tabiat qo'riqxonalariga jalb qilishda maqsadli yo'nalishlardan bo'ladi, deb hisoblaymiz.

10.4. O'zbekistonning tabiat yodgorliklari

Tabiat haykallari kelib chiqishi jihatidan juda xilma-xil bo'lmasin, ularning har birida tabiat jarayonlarining izlari qolgan bo'ladi. Ularning holati, tuzilishiga qarab ana shu joy tabiatidagi muammolarni yechish tadbirlarini ishlab chiqish mumkin. O'zbekistonning tabiat muzeylarining ro'yxatga olinganlari 400 ta. Bularning ko'pchiligini «botanika muzeylari» tashkil qiladi. Bu muzeylardan 75 tasiga «pasport» berilgan, ya'ni davlat tomonidan qayd qilingan va alohida muhofaza qilinadi.

Davlat tabiiy yodgorliklari (O'zbekiston Respublikasining «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi Qonunining 26-moddasiga muvofiq Davlat tabiiy yodgorliklari III toifadagi METHga kiradi):

Vardanzi tabiat yodgorligi Navoiy viloyati hokimiyatining 21.04.97-yildagi K-113-sonli qaroriga muvofiq tuzilgan (sobiq

ittifoq davrida qo‘riqxonaga maqomiga ega bo‘lgan), maydoni 320 ga ni tashkil qiladi.

«Mingbuloq» tabiat yodgorligi Namangan viloyati hokimiyatining 28.12.91-yildagi 164/14-sonli qaroriga muvofiq tuzilgan, maydoni 1000 ga ni tashkil qiladi.

«Chust» tabiat yodgorligi O‘rta Osiyo o‘simliklarni himoyalash ITI tashabbusi bilan Namangan viloyati hokimiyatining 19.08.90-yildagi 65/5-sonli qaroriga muvofiq (shuningdek, Namangan viloyati Chust tumani Xalq deputatlari kengashining 1990-yil 30-avgustdagi II-5/12-sonli qaroriga) muvofiq tuzilgan, maydoni 1000 ga ni tashkil qiladi.

«Yozyovon» tabiat yodgorligi Farg‘ona viloyati hokimiyatining 23.05.94-yildagi 164-sonli qaroriga muvofiq tuzilgan, maydoni 1842 ga ni tashkil qiladi.

«Markaziy Farg‘ona» tabiat yodgorligi Farg‘ona viloyati Xalq deputatlari kengashi Oxunboboyev tumani ijroiya qo‘mitasining 1986-yil 2-avgustdagi qaroriga muvofiq «Solijonobod» xo‘jaligi yerlarida tuzilgan, maydoni 142,5 ga ni tashkil qiladi.

«Yangibozor» tabiat yodgorligi Xorazm viloyati Yangibozor tumani hokimiyatining (10.05.03-yildagi 738-sonli, 4.02.04-yildagi 819-sonli, 7.08.04-yildagi 853-sonli, 17.04.04-yildagi 1155-sonli) qarorlariga muvofiq tuzilgan. Maydoni o‘zgarib turgan va tegishli ravishda 136 ga, 113,2 ga, 120 ga, 121 ga ni tashkil qilgan, hozirgi paytda 490,3 ga.

Tayanch so‘z va iboralar: qo‘riqxonaga, buyurtmaxona, o‘simlik turi, hayvonot turi, endemik, «Qizil kitob», geologik yotqiziqlar, ornitologiya.

Mavzuni o‘zlashtirish bo‘yicha test savollari:

- 1. O‘zbekistonda nechta milliy park bor?**
 - A. 4 ta.
 - B. 6 ta.
 - D. 8 ta.
 - E. 2 ta.

2. O'zbekistonda nechta tabiat qo'riqxonasi bor?

A. 4 ta.

B. 6 ta.

D. 8 ta.

E. 9 ta.

3. O'zbekistonda nechta tabiat buyurtmaxonalari bor?

A. 6 ta.

B. 8 ta.

D. 10 ta.

E. 12 ta.

4. O'zbekistonda xalqaro biologik rezervat maqomiga ega bo'lgan qo'riqxonani aniqlang.

A. Zomin tog'-o'rmon qo'riqxonasi.

B. Kitob qo'riqxonasi.

D. Zarafshon qo'riqxonasi.

E. Baday-to'qay qo'riqxonasi.

5. O'zbekistonda xalqaro biosfera qo'riqxonasi maqomiga ega bo'lgan qo'riqxonani aniqlang.

A. Zomin qo'riqxonasi.

B. Chotqol qo'riqxonasi.

D. Hisor qo'riqxonasi.

E. Zarafshon qo'riqxonasi.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Nima uchun milliy park deyiladi?

2. Nima uchun tabiat buyurtmaxonasi deyiladi?

3. Nima uchun tabiat yodgorliklari deyiladi?

4. Nima uchun biosfera qo'riqxonasi deyiladi?

5. O'zbekistonning milliy parklari haqida gapirib bering.

6. O'zbekistonning tabiat qo'riqxonalari haqida gapirib bering.

7. O'zbekistonning biosfera qo'riqxonalari haqida gapirib bering.

11-mavzu. OROL DENGIZI HAVZASI – EKOLOGIK TURIZMNING RESURSLARI

Reja:

11.1. Orol dengizi havzasida ekoturizmni rivojlantirish yo‘llari.

11.1. Orol dengizi havzasida ekoturizmni rivojlantirish yo‘llari

Ekologik barqaror rivojlanish ekologik muammolarning ijtimoiy va iqtisodiy muammolarga kuchli ta’sir etishi, bu ta’sirlarni ijobiy hal qilishdagi tabiat resurslari foydasini ko‘zlab amaliy hamkorlik qilishni talab qiladi. Bu yechim mamlakatimizning barcha mintaqalarida turizmning zamonaviy istiqbolli yo‘nalishlaridan biri ekoturizmni rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.



Orol dengizi va Orol dengizi bo‘yi inqirozli ekologik hududlarning hozirgi holatiga qiziquvchi turistlarning soni yildan-yilga ortib bormoqda. Bu ekologik vaziyat tang hududlarga 2007 va 2008-yillarda 64–68 chet el davlatlaridan xorijiy turistlar kelgan bo‘lsa, 2009-yilda 81 ta xorijiy davlatlardan turistlar kelib ketishdi. Orol dengizi akvatoriyasiga asosan Yevropa davlatlaridan ekoturistlar ko‘plab kelishmoqda. Yevropaliklarning Orol dengiziga qiziqishi sabablarini yaxshilab tahlil qilishimiz va bu yo‘nalishni kuchaytirishimiz lozim.

Endi o‘z o‘rnida ekologik vaziyat tang Orol bo‘yi hududlarida ekoturizmni rivojlantirish masalalarini qanday hal qilish mumkin degan savol tug‘ilishi tabiiy. Orol dengizi bo‘ylari va umuman ekologik vaziyat tang bo‘lgan quyi Amudaryo hududlarida ekoturizmni rivojlantirishning muhim ahamiyati quyidagi natijalar berishi bilan muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida qayd qilish lozim deb hisoblaymiz:

- har bir tabiiy-geografik majmua betakror ekoturizm imkoniyatlariga ega, ya'ni o'ziga xos hududiy xususiyatlarga ega. Iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan ekoturizmni tarixiy turizm bilan birga olib borish, jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasidagi qadimiy qal'alar va Xiva shahriga tashrif qilgan xorijiy sayyohlariga tabiat va inson «mahsuli»ni ko'rsatishdir;

- xorij olimlari va tadqiqotchilarini mazkur hududga jalb qilish, ularning ilmiy tadqiqotlari natijalari va xulosalarini davlat miqyosida muhokama qilish va bu asosda belgilangan tadbirlarni amalga oshirish orqali muammolarni yengillashtirish;

- mahalliy sayohatchilar shu jumladan, maktablar, litseylar, kollej, universitetlar talabalariga Orol dengizining qurib qolgan qismini ko'rsatish, bu yerlarga sayyohatlar qilish orqali voyaga etayotgan barkamol avlodni sobiq ittifoq ma'muriy buyruqbozlik tizimining ekologik muhitni saqlash sohasidagi bugungi halokatli oqibatlarini ko'rsatish.

Orol dengizi bo'yi hududlari ekologik vaziyat tang inqirozli ekoturizm hududlari bo'lganligi uchun ham bu hududlarda paydo bo'lgan ekologik inqiroz holati asosiy ekoturizm obyekti hisoblanadi. Ekoturizm marshrutlari bir vaqtning o'zida Orol dengizining qurigan va bu qirg'oqchilik ta'sirida turgan hududlarni qamrab olishi zarur bo'ladi.

Bu ekoturizm hududlariga turistlar va sayyohatchilarni, tadqiqotchilarni jalb qilishning quyidagi yo'llari tavsiya qilinadi:

- xalqaro ekologiya bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikni tashkil qilish uchun O'zbekistonning mukammal xalqaro ekologik turizm dasturini ishlab chiqish;

- Orol dengizi bo'yi hududlaridagi ekoturistik salohiyatni internet axborot tizimlariga ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy va madaniy landshaftlar haqida tasviriy lavha va axborotlarni berish;

- ichki ekoturizmni rivojlantirish uchun ommaviy axborotlar vositalarida, televideniyada hujjatli ko'rsatuvlar berish;

- Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasiga tarixiy turizm sayohatini tashkil qilgan va tashrifi kutilayotgan turistlarga

Orol dengizi bo'yi ekoturizm hududlari bo'yicha qo'shimcha turmarshrutlarni kiritish.

Orol dengizi bo'yi hududlarida ekoturizmni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor berishda birinchi navbatda bu hududlarda ekoturizmni xalqaro turizm ham va ichki turizm rivojlantirishning strategik vazifalarini aniqlab olish talab qilinadi. Bu vazifalar quyidagilardan iboratdir:

- Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida ekoturizmni mintaqaviy turizm sohasida davlat ahamiyatiga molik muhim yo'nalish deb qabul qilish;

- mazkur tabiiy hududlarni ekologik toza saqlashga asoslangan mintaqaviy ekoturizmni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish.

Orol dengizi bo'yida ekoturizmni rivojlantirishning strategik vazifalarini amalga oshirish uchun esa quyidagi taktik vazifalarni bajarishga to'g'ri keladi:

- mintaqada tabiat muhofazasida ekoturizm manfaatlariga mos bo'lgan viloyat va respublika hukumati qarorlarini qabul qilish;

- mintaqadagi kollej va universitetlarda ekoturizm bo'yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash;

- ekoturizm bo'yicha xalqaro va ichki turizm darajalariga moslangan turmahsulotlar ishlab chiqish;

- Orol dengizi bo'yidagi ekologik inqirozli vaziyatni hisobga olib ekoturizmda ishonarli baho siyosatini ishlab chiqish;

- alohida muhofazadagi davlat hududlaridagi mahalliy hokimiyatlarga davlat yordamini ko'rsatish, dastlabki bosqichlarda turizm va ekoturizmdagi xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash;


- ekoturizmning mukammal axborot resurslarini, ekoturizm marshrutlarini, ekoturizm ekskursiyalarini ishlab turizm bozoriga chiqarish.


Orol dengizi bo'yi hududida ekoturizmni rivojlantirishning strategik va taktik vazifalarini bajarishdagi dastlabki ishlar bu hududdagi barcha ekoturizm obyektlarining mukammal ro'yxatini tuzib chiqish va ularning mukammal ta'rifi, tavsifi, mohiyatlarini tayyorlash hisoblanmog'i kerak. Bu vazifani bajarish mintaqadagi

universitetlar va turizm kolleji zimmalariga yuklatilishi maqsadli va natijali bo'лади

Orol dengizi bo'yi, Quyiamudaryo va Xorazm viloyatlarida ekoturizmni rivojlantirishda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati hokimiyatining «Turizmni rivojlantirish dasturlari» ishlab chiqilgan. Navbatdagi birinchi darajali vazifamiz Respublikamizdagi barcha viloyatlar o'zlarining «Turizmni rivojlantirish dasturlari»ga Orol dengizi bo'yi, Quyiamudaryo va Xorazm viloyatlarida ekoturizmni rivojlantirish rejalarini qo'shishi lozim. Chunki, mamlakatimiz aholisida Orol dengizi bo'yidagi ekologik-iqtisodiy holatlarning aniq tavsiflari unchalik ham to'liq emas hisoblanadi.

Shuning uchun ham vatanimizda Orol dengizi bo'yida yashovchi aholining ijtimoiy-iqtisodiy holatlarini qo'llab-quvvatlash uchun ekoturizm marafonlarini o'tkazish, tabiatsevar tadbirkorlarni jalb qilish, iqtisodiy jihatdan kuchli korxonalar, tashkilotlarni jalb qilish ishlarini tashkil qilishimiz vatanimiz tabiatini asrash-avaylashdagi salohiyatli ishlarimizdan bo'lishi shubhasizdir.





Orol dengizini eslatib turuvchi kemalar xalqaro va ichki ekoturizm obyektlariga aylandi

Tayanch soʻz va iboralar: Orol dengizi inqirozi, koinot, fazo, shoʻr, kosmonavt, sizot, gidrologiya, irrigatsiya, siklon, dispersion chang.

Mavzuni oʻzlashtirish boʻyicha savol va topshiriqlar:

1. Orol dengizining qurib borishi sabablarini aytib bering.
2. Orol dengizidan baliq ovlash qanday darajalarda boʻlgan?
3. Orol dengizi haqida prezentatsiyali maʼruza tayyorlang.
4. Orol dengizini qutqarish haqidagi loyihalar bormi?
5. «Nukus deklaratsiyasi»ni oʻrganing va amaliy darslarda gapirib bering.
6. Orol dengizi ekoturizm resurslari mavzusida maʼruza tayyorlang.

12-mavzu. O'ZBEKISTONNING SUV HAVZALARI EKOLOGIK TURIZM RESURSLARI

Reja:

12.1. O'zbekistonning suv resurslari.

12.2. O'zbekistonning suv resurslaridan ekoturizmga foydalanish.

12.1. O'zbekistonning suv resurslari

O'rta Osiyo, aniqrog'i, Orol dengizi havzasi daryolari va ularning suv resurslari geografik joylashishi hamda gidrologik xususiyatlariga ko'ra yagona tabiiy tizimni tashkil qiladi. Shu tufayli ularni ma'muriy, ya'ni ayrim davlatlar sarhadlari miqyosida o'rganish ancha murakkabdir. Ayni paytda, bu suv resurslaridan shu hududda joylashgan alohida davlatning ma'lum maqsadga yo'naltirilgan manfaatlari yo'lida ustivor holda foydalanish ham qator ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy muammolarni keltirib chiqaradi (6-jadval).

6-jadval

Markaziy Osiyo davlatlarida suvning taqsimlanishi

Davlatlar	Sirdaryo va Amudaryoning havzasi		Jami	
	Sirdaryo	Amudaryo	Km ²	%
Qozog'iston	15,3	0,0	15,3	13,8
Qirg'iziston	4,9	0,4	5,3	4,8
Tojikiston	3,7	9,5	13,2	11,9
Turkmaniston	00	22,0	22,0	19,8
O'zbekiston	22,5	29,6	55,1	49,7
Jami	49,9	61,5	110,9	100

Daryolarning bir davlat chegarasidan ikkinchi bir davlat chegarasiga oqib o'tishi juda ko'p holatlarda ushbu davlatlar o'rtasida doimiy kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham biz O'zbekistonning ichki suv resurslariga qisqacha

to'xtaldik. Mavzuning qo'yilishiga qarab mamlakatimizning suv resurslaridan turizmga foydalanish masalalarini turizmdagi tadbirkor o'zining imkoniyatlari va xulosalari bo'yicha daryodan, ko'ldan yoki buloqlardan foydalanishi mumkin.

O'zbekistonning suv omborlari. Hozirgi vaqtda respublikada 55 suv ombori ishlab turibdi. Ularning to'liq loyiha hajmi 18,8 km³, foydalisi – 14,8 km³ dan iborat. Eng yiriklari: Tuyamo'yin, Chorvoq, Tudako'l, Kattaqo'rg'on suv omborlari hisoblanadi. Ular daryo suv oqimlarini, kutilmagan kuchli yog'ingarchilikdan hosil bo'lgan suvlarni yil davomida boshqarib turish, ekinlarni sug'orish davrida foydalanish, favqulodda suv toshqinlarini oldini olish uchun qurilgan. Respublikamizning suv omborlari bilan bog'liq muammolar ancha to'planib qolgan. Vaqt o'tishi bilan bu muammolar o'z yechimini topib boradi.

7-jadval

O'zbekistonning eng muhim suv omborlari

Suv omborlari	Qaysi daryoda qurilgan	Ishga tushgan yili	Maydoni, km ³	Suv sig'imi ³	Eng chuqur joyi, m
Tuyamo'yin	Amudaryo	1976	630	7800	40
Chorvoq	Chirchiq	1969	40	2000	162
Kattaqo'rg'on	Zarafshon	1941	83,5	1080	28
Janubiy Surxon	Surxondaryo	1962	65	800	27
Andijon	Qoradaryo	1978	60	1750	115
Chimqo'rg'on	Qashqadaryo	1963	49,2	6500	30
Quyimozor	Zarafshon	1959	16,2	260	40
Pachkamar	G'uzordaryo	1970	13,8	280	62
Karkidon	Isfayramsoy	1963	9,2	218	23
Uchqizil	Surxondaryo	1962	10	160	40
Tolimarjon	Qarshi mag.k.	1964	22,3	941	40
Kosonsoy	Kosonsoy	1955	5,5	165	57
Tuyabo'g'iz	Ohangaron	1960	18,5	250	31,5
Ohangaron	Ohangaron	-	-	100	66

O‘zbekistonning daryolari. Respublikada hammasi bo‘lib 17 mingdan ko‘proq tabiiy ochiq suv oqimlari hisoblangan. Amudaryo havzasida ular 9,9, Sirdaryo havzasida — 4,9 va bu ikki daryo oralig‘ida — 2,9. Lekin, bular asosan katta bo‘lmagan soylar, suv oqimining uzunligi 10 km dan kam, asosan Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida ular qariyb butun yil davomida qurib yotgan daryolar, suv oqimining uzunligi har yili ham 10 km ga yetib bormaydi.

O‘zbekistonning ko‘llari. O‘zbekistonda ko‘llar soni 500 dan sal ko‘proq. Bu asosan kichik suv havzalari, maydoni 1 km² kamroq. Maydoni 10 km² dan ko‘proq ko‘llar — 32 ta. O‘zbekistonda eng katta ko‘llar tizimi — bu Aydar-Arnasoy, maydoni 3600 km², hajmi esa 42 km³, hamma suv omborlari zaxirasidan ustun turadi.



Suv resurslarimiz tog‘lardan boshlanadi

O'zbekistonda yer osti suvlari. O'zbekiston hududida 95 yerosti suvlari konlari ma'lum. Ularning umumiy zaxirasi 75580 ming m³/sut miqdorida baholanadi, regional foydalanish zaxirasi – 63986 ming m³/sut, barqaror foydalanish zaxirasi – 23578 ming m/sut. Chuchuk suv resurslari asosan Farg'ona vodiysida – 34,5%, Toshkent viloyatida – 25,7%, Samarqandda – 18%, Surxondaryoda – 9 %, Qashqadaryoda – 5,5% to'plangan. Qolgan viloyatlarda umumiy chuchuk suv resurslari 7% ni tashkil etadi.

O'zbekistonda qaytim suvlar kollektor-zavurlar oqimi va tashlangan suvlar hisobiga shakllanadi. Suv resurslarini tashkil qilishdan ularning hissasi yuqori va shuning bilan birga jiddiy ifloslashtirish manbasi hisoblanadi. 1990–1999-yillar davrida respublika miqyosida qaytim suvlar yig'indisining o'rtacha hajmi yiliga 28 dan 33,5 km³ o'zgargan. Bu qaytgan suv oqimi hajmidan 13,5–15,5 km³ yaqini Sirdaryo havzasida va 16–19 km³ yaqini Amudaryo havzasida shakllangan.

- Qaytim suvlarning katta hajmi (50–51%) daryolarga, qolgan qismi, 33% ga yaqini pastliklarga oqib tushadi, shundan 16% qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish uchun qayta ishlatiladi.

- Qaytim suvlarining pastliklarga tashlanishi natijasida ko'pgina irrigatsion-tashlandiq ko'llar hosil bo'lgan. Eng yiriklari – Arnasoy, Aydarko'l, Dengizko'l, Solenoe, Sudochi, Jiltirbas va boshqalar.

Ushbu ko'llardan qishloq xo'jaligida unumli foydalanish masalalari davlat miqyosida ko'rib chiqilmoqda. Tabiatni muhofaza qilish nuqtayi nazaridan ham ushbu ko'llar hozircha ko'plab murakkab muammolarni keltirib chiqarmoqda. Eng jiddiy muammo Aydarko'l-Arnasoy tizimi ko'llari bilan bog'liq bo'lib, suvning yildan-yilga ko'payib borishi natijasida hozirga kelib 600 ming ga yerlar suv ostida qoldi. Ekologik jihatdan yana ham jiddiyroq muammo shundan iboratki, bu ko'llar tizimining pastki qatlamlarida juda katta tuz konlari joylashgan.

12.2. O'zbekistonning suv resurslaridan ekoturizmida foydalanish

Hozirda bozor munosabatlari O'zbekiston Respublikasi turizmi oldiga ancha murakkab, keskin shartlarni keltirib chiqardi. Turizm

tizimini tubdan qayta tashkil qilish, turizmni boshqarishning markazlashtirilgan mexanizmlaridan farq qiluvchi amaliy iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish zarurlari kelib chiqdi. Yangi iqtisodiy mexanizmlar O'zbekistonda turizmni hududlar bo'yicha bir tekis rivojlantirish, barcha turistik resurslardan foydalanish imkoniyatlarini izlashni talab qilmoqda. Ayniqsa, ekoturizm va rekreatsiya turizmlarini jadal rivojlantirish kun tartibiga qo'yilmoqda.

Qayd qilingan dolzarb muammolarning yechimini topishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «*O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida*»gi 2016-yil 2-dekabrda PF-4861-sonli Farmoni asos bo'ladi, mamlakatimizda turizmni, xalqaro turizmni rivojlantirishda tub burilishni, yangi bosqichning zaminini, istiqbolli islohotlarning sharoitlarini yaratadi. Prezident farmonida⁵¹:

“Mamlakatda turizmni jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanishda:

– *ziyosat qilish, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog'lomlashtirish, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik turizmi va boshqa turlarini jadal rivojlantirish, bolalar, o'smirlar va yoshlar turizmini, oilaviy turizmni, keksalar uchun ijtimoiy turizmni rivojlantirish,*

– *ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish*”;

– *respublikaning barcha mintaqalarida zamonaviy jahon standartlariga, turistlarning talablari va ehtiyojlariga javob beradigan turizm industriyasi obyektlarini rivojlantirish* belgilangan.

Farmon turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishni ta'minlash, turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish, uni mamlakat iqtisodiyotini barqaror o'stirishning, mintaqalarda turizm salohiyatidan samarali foydalanishning, aholi turmush

⁵¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni 2016-yil 2-dekabrda PF-4861.

darajasi va sifatini oshirishda turizm rolini kuchaytirishning qudratli vositasiga aylantirishga qaratilgandir.

Farmonga asoslangan holda aholining dam olish sharoitlarini tashkil qilishda O'zbekistonning suv havzalaridan ekoturizm va rekreatsiyada foydalanish turizmni ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarda rivojlantirishni talab qilmoqda. Bu masalaning dolzarbligi shundaki, hozirgacha mamlakatimizning suv havzalaridan turizmda foydalanish masalalari ilmiy-amaliy jihatlardan tadqiq qilinmayapti. Bu holatning asosiy sabablaridan biri O'zbekistonning suv havzalari davlat muhofazasida turganligi hisoblanadi.

Hozirga kelib insonning dam olishida suv resurslaridan foydalanish eng oldingi o'rinlarga chiqmoqda. Nazariy jihatdan qaralganda ekoturizm va rekreatsiyani tashkil qilishda mamlakatimizdagi suv omborlari eng qulay turistik resurslardan hisoblanadi. Lekin qayd qilganimizdek, suv omborlari davlat muhofazasida ekanligidan, bu suv omborlaridan ekoturizm va rekreatsiyada foydalanish ancha murakkab bo'lgan masalalarni hal qilishni talab qiladi. Lekin shu holatni ham keltirish lozimki, suv omborlari atroflarida yashayotgan aholi yozning haroratli kunlarida ushbu suv omborlari sohillarida dam olmoqda.

Bizning birinchi o'rindagi vazifamiz o'z vatanimizning aholisi uchun bu suv omborlaridan ekoturizm va rekreatsiyada foydalanish masalalarini ko'tarishimiz va bu masalalarning yechimlarini hal qilishimiz hisoblanadi. Buning uchun esa albatta suv omborlari ma'muriyatlari bilan ushbu masalalarni o'rganish, dastlabki vaqtlarda suv omborlari sohillarida o'z aholimizning dam olishlarini tashkil qilishning hayotiy zaruratini tushunish va tashkil qilishni boshlashimiz kerak.

Suv omborlarida ekoturizm va rekreatsiyani tashkil qilishning birinchi imkoniyatlari bu – o'rganilayotgan suv omborlariga va daryolarga ekoturistik-rekreatsiya marshrutlarini ishlab chiqish hisoblanadi. Adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish natijalaridan ma'lum bo'ldiki, mamlakatimizda hozirgacha bu masala turizmda e'tibordan chetda qolmoqda.

Lekin aholining suv havzalarida yozning katta haroratli kunlarida dam olishga talablari yildan-yilga oshib borishini hisobga olsak, albatta bu suv havzalaridagi suv resurslaridan ekoturizm va rekreatsiyada foydalanish muammolarini o'rganishimiz va bu muammolarning yechimlarini topishimiz lozim:

1. Suv havzalari va suv omborlaridan ekoturizm-rekreatsiyada foydalanishda, ekoturizmni va rekreatsiya turizmlarini rivojlantirishda foydalanishdagi cheklovlar borligi aniqlandi.

2. Ekoturizm-rekreatsiyada suv resurslaridan turizmga foydalanishning huquqiy-qonuniy me'yorlari to'liq ishlab chiqilmagan.

3. Mamlakatimizning suv havzalari va suv omborlaridan ekoturizm va rekreatsiya turizmlarini rivojlantirishda tadbirkorlik, tashabbuskorlik, turizm biznesi, ijtimoiy-iqtisodiy o'sish, mahalliy mehnat resurslarining ish bilan band bo'lishi, mahalliy va davlat budjetiga valuta va milliy valutaning kirib kelishdagi ta'lim-targ'ibot, qiziqtirish, yo'l-yo'riqlar ko'rsatish ishlari qoniqarsiz holatda.

4. Ekoturizm va rekreatsiya turizmida suv resurslarining turizmga foydalanish jihatidan ro'yxatga olinmaganligi, ta'rif-tavsiflari yaratilmagan.

5. Ekoturizm va rekreatsiyada suv makonlariga turistik marshrut va turistik ekskursiya marshrutlarining ishlab chiqilmaganligi, reklama qilinmagan.

6. Ekoturizm va rekreatsiya turizmidagi suv obyektlarida turistlarga xizmatlar ko'rsatish infratuzilmalarini yaratish qoniqarsiz holatda.

7. Ekoturizm va rekreatsiya turizmlarini suv havzalarida rivojlantirishda ichki va xalqaro talablardagi reklamalarning turizm bozoriga ishlab chiqilmagan.

8. Aholi uchun ekoturizm va rekreatsiyada suv havzalariga turizm marshrutlari, ekskursiyalari, rekreatsiyani tashkil qilishda boshqaruvning (turistik tashkilotlar, turistik firmalar, tadbirkorlik faoliyatlari) tashkil qilinmagan.

Suv havzalarida ekoturizm va rekreatsiyani rivojlantirishdagi vazifalar:

1. Ekoturizm va rekreatsiya turizmida suv havzalari resurslarini belgilash, georafik xaritasini ishlab chiqish, har bir resurslar va obyektlarning ta'rif-tavsiflarini yaratish.

2. Ekoturizm va rekreatsiya turizmida suv resurslaridan turizmida foydalanish darajalari, huquqiy-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish.

3. Ekoturizm va rekreatsiya turizmlarini suv havzalarida rivojlantirishda ta'lim-targ'ibot, qiziqtirish, yo'l-yo'riqlar ko'rsatish dasturlarini ishlab chiqish.

4. Suv havzalarida aholining dam olish sharoitlarini rekreatsiya obyektlarida tashkil qilish dasturlarini ishlab chiqish.

5. Ekoturizm va rekreatsiya turizmida suv havzalari obyektlarida turistik ekskursiya xizmatlarini ko'rsatish infratuzilmalarini yaratishga kirishish.

6. Ekoturizm va rekreatsiya turizmida suv havzalariga majmual turistik marshrutlarini, turistik ekskursiya marshrutlarini ishlab chiqish, reklama qilish.

7. Suv havzalaridan turizmida foydalanish bo'yicha turistik firmalar, turistik tashkilotlar tashkil qilishning iqtisodiy-ijtimoiy samarali ekanligini asoslash.

Tayanch so'z va iboralar: suv havzalari, suv resurslari, chuchuk suvlar, grunt suvlari, atmosfera suvlari, qaytim suvlar, harorat.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Suv resurslarini tushuntiring.
2. O'zbekistonning suv resurslarini ta'riflang.
3. O'zbekistonda nechta daryolar bor?
4. O'zbekistondagi ko'llarni gapirib bering.
5. O'zbekistonda suv sarfini tushuntiring.
6. Siz yashab turgan yerdagi suv resurslarini gapirib bering.
7. Suvdan zamonaviy usullarda qanday foydalanish kerak?

13-mavzu. O‘ZBEKISTONNING EKOTURISTIK RAYONLARI

Reja:

13.1. O‘zbekistonning ekoturistik rayonlari.

13.1. Ekoturistik rayonlarda ekoturizmni rivojlantirishdagi vazifalar.

13.1. O‘zbekistonning ekoturistik rayonlari

O‘zbekiston Respublikasining ekoturistik rayonlari va bu rayonlarning ekoturistik tavsifini A.Nig‘matov va N.T.Shomuratovalar yaratdilar^{52,53}. Xaritaga muvofiq butun mamlakatimiz hududi XIV ekoturistik rayonga ajratilgan. Ular jumlasiga Ustyurt, Orol va Orolbo‘yi, Amudaryo, Qizilqum, Nurota, Zarafshon, Aydarko‘l, Sirdaryo, Chirchiq-Ohangaron, Farg‘ona, Turkiston, Qashqadaryo, Hisor, Surxondaryo ekoturistik rayonlari kiritilgan (2-chizma).



Har bir rayon o‘zining ekoturistik holati, imkoniyatlari, shart-sharoitlari va rivojlanish istiqbollari nuqtayi nazaridan ajralib turadi. Masalan, Ustyurt ekoturistik rayonini oladigan bo‘lsak, u O‘zbekistonning shimoliy-g‘arbiy-Qoraqalpog‘istonda joylashgan plato bo‘lib, uning umumiy maydoni 200 ming km² ni tashkil etadi. Bu joylar dunyoda eng katta va yagona 60–150 metrlik tik qoyali jarlari, davolash xususiyatiga ega bo‘lgan juda katta – 1000 km²li tuzli Borsakelmas sho‘rxogi bilan mashhur.

O‘simlik qoplami siyrak, osh tuzi va balchiqli tuzning qatlami 16–27,5 m gacha boradi. Yangi qurib bitkazilgan Qo‘ng‘irot soda

⁵² Shomurotova N. T. O‘zbekistonda ekologik turizm va uning tabiiy geografik jihatlari, g.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati, Toshkent, 2011. 22-b.

⁵³ Nig‘matov A., Shomurotova N. O‘zbekistonni ekoturistik rayonlashtirish tajribasi. Ekologiya xabarnomasi, j.№ 2, 2007, Toshkent. 45–54-b.

zavodi aynan ana shu tuzlar hisobiga ishlaydi. Neolit davridan qolgan «Ustyurt makoni» ham noyobdir. Unda 60 ga yaqin qadimiy odamlar yashagan tabiiy obyektlar aniqlangan. Ularning ichida ham tarixiy, ham ekoturistik ahamiyatga moyil «Tempa» makoni bo‘lib, undan Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi qadimiy mehnat va ov qurollarini topgan



2-chizma. O‘zbekiston Respublikasining ekoturistik rayonlari

Orol va Orolbo‘yi ekoturistik rayoni ekologik inqirozli ekoturistik hudud bo‘lgani uchun ham ekstremal ekoturistik obyekt bo‘lib hisoblanadi. Ekoturistik marshrutlar bir paytning o‘zida ham Orolning qurigan, ham uning ta’sirida bo‘lgan Orol atrofi hududlarini qamrab oladi. Ekoturlar nafaqat treking (piyoda) yoki tuya va otlarda, balki samolyot va vertolyotlar orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Amudaryo ekoturistik rayoni. Amudaryoning o‘zaniga yaqin sohillarida to‘qayzorlar mavjud bo‘lib, ular ekoturlar uchun juda qiziqarli noyob landshaft hisoblanadi. Quyi Amudaryoning o‘ng sohilida to‘qay landshaftidagi qushlar va hayvonlarni muhofaza qilish uchun Badayto‘qay qo‘riqxonasi tashkil etilgan. Ornitofaunani saqlash uchun Xorazm buyurtmaxonasi tashkil etilgan. Bulardan tashqari Qizilqumning g‘arbiy qismida, Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida, kembriy va kembriygacha davrda burmalangan tog‘ jinslari ochilmalaridan iborat, balandligi 485 metrlik Sulton Uvays tog‘lariga ekoturlar uyushtirish mumkin. Amudaryo rayonida O‘zbekistonning ko‘hna shaharlaridan biri Xorazm joylashgan, uning arxitektura yodgorliklari tarixiy turizm markazlaridan biri hisoblanadi. Ekoturlarni tarixiy turlar bilan kompleks olib borish mumkin.

Nurota ekoturistik rayoni o‘zining ajoyib tabiat manzaralari, tarixiy arxitektura yodgorliklari bilan kishilarni maftun etadi. 1975-yilda tashkil etilgan va maydoni 17,8 ming ga bo‘lgan Nurota tog‘ yong‘oqzor-meva qo‘riqxonasi mavjud. Bu qo‘riqxonaga «Ekosan» qoshidagi «Ekosantur» firmasi tomonidan ko‘plab marshrutlar uyushtirilgan. Oqtog‘ning janubiy yon bag‘rida joylashgan shamol ta’sirida tebranib turuvchi bahaybat xarsang toshli «Sangijumon», «Koriz qoldiqlar» kabi tabiat yodgorligi ekoturizmning muhim obyektlaridan bo‘lib hisoblanadi. Ko‘p asrlik ziyoratgoh «Chashma buloq» yaqinida «Chilustun» masjidi, madrasa, Abul Xasan Nuriy maqbarasi va qal’asi joylashgan. Qoratog‘ tizmasining janubiy yon bag‘rida «Sarmish darasi»dagi qoyalarda avlodlarimizning hayoti va madaniyatini aks ettiruvchi lavhalar, rasmlar ishlangan.

Janubiy Nurota tizmasida uzunligi 110 m, absolut balandligi 1060 m, maydoni 163 m keladigan «Maydon karst g‘ori», Shimoliy Nurota tizmasidagi uzunligi 130 m, absolut balandligi 1100 m, maydoni 70 m keladigan «Xonaixudo karst g‘or»da g‘orshunoslikni rivojlantirish mumkin. Bulardan tashqari, XI asrda bunyod etilgan va XVIII asr boshlarigacha turgan «Raboti Malik karvonsaroyi»

sayyohlarning to'xtash joyi, shuningdek, savdogarlarning savdo qilish joyi bo'lgan. Raboti Malik yonida ming yillik tarixga ega bo'lgan madaniy yodgorlik — sardoba uchraydi. Yer ichiga 12 m botirilgan sardobada butun yoz bo'yi muzdek va toza suv saqlangan.

Zarafshon ekoturistik rayonida Zarafshon daryosi bo'ylarida joylashgan to'qay landshafti, undagi o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish uchun tashkillashtirilgan «Zarafshon qo'riqxonasi» mavjud. Buxoro viloyatining Shofrikon o'rmon xo'jaligi hududida joylashgan qum cho'l landshafti, u yerdagi o'simliklar va hayvonlar hamda tarixiy yodgorliklar (Vardanza shahar xarobalari) davlat tomonidan qo'riqlanadi. «Vardanza qo'riqxonasi», «To'dako'l flora va faunasini boyitish buyurtmaxonasi», Qoravulbozor xo'jaligida joylashgan «Jayron-ekomar kazi», suv va botqoqqa moslashgan qushlarni ko'paytiruvchi «Dengizko'l buyurtmaxonasi», Zarafshon tog' tizmalaridagi Omonqo'ton va Temurlang karst g'orlari, Zirabuloq-Ziyovuddin tog' tizmalaridagi ko'p qavatli «G'untak g'ori» va boshqalar diqqatga sazovordir.

Turkiston ekoturistik rayonida ekoturlarni alohida muhofaza etiladigan hududlarga uyushtirish mumkin. Chunki bu rayonda Turkiston tizmasining shimoliy yonbag'rida 1959-yilda tashkil etilgan, absolut balandligi 1760—3500 m, umumiy maydoni 21735 ga bo'lgan «Zomin davlat qo'riqxonasi», maydoni 24110 ga bo'lgan noyob tog'-archa ekosistemalarini tiklash va rekreatsiya maqsadlarida foydalanish uchun 1978-yilda tashkil etilgan «Zomin milliy bog'i» mavjud.

Qashqadaryo ekoturistik rayoni cho'l, dasht, tog' oldi va tog'li hududlardan iborat. Bu rayonda yoz va bahor oylarida cho'l va dashtlarda, yilning barcha fasllarida esa tog' oldi va tog'li hududlariga ekoturlar uyushtirish mumkin. Qashqadaryo rayonida 1979-yilda tashkil etilgan, 3938 ga maydonga ega bo'lgan, MDH davlatlari ichida yagona «Kitob davlat geologiya qo'riqxonasi», 1992-yilda tashkil etilgan «Muborak buyurtmaxonasi», 1992-yilda tashkil etilgan «Sechenko'l buyurtmaxonasi» mavjud.

Surxondaryo ekoturistik rayonida Ko'hitang tog'li hududda 1987-yilda tashkil etilgan, 53,7 ming ga maydonda 800 xil o'simlik va 290 ta qush hamda 20 dan ortiq hayvon turlarini muhofaza qilishga yo'naltirilgan «Surxon davlat tabiat qo'riqxonasi» mavjud. Surxondaryo rayoni respublikamizning o'ziga xos rayonlaridan biri, bu yerda quruq subtropik iqlim mintaqasi hukmron. Shuning uchun ham yilning ko'p oylarida ekoturlar uyushtirish imkoniyati bor.

Qizilqum ekoturistik rayoni O'zbekistonning boshqa ekoturistik rayonlaridan tabiiy-iqlimiy xususiyatlari bo'yicha ajralib turadi. Chunki bu ekoturistik rayon respublikamizdagi eng katta cho'lning hududlarida joylashgan. Sayyoramizdagi eng katta cho'llardan hisoblanuvchi Qizilqum cho'lining maydoni 32,5 mln.ga. Shundan, 7 mln. ga maydoni O'zbekiston hududlarida, qolganlari Qozog'iston Respublikasining asosiy maydonlarini egallaydi. Qizilqum cho'lida cho'lning barcha tiplari va relyef shakllari uchraydi.

Hisor ekoturistik rayonining tabiiy iqlim xususiyatlari, o'simliklar olami va hayvonot dunyosi haqidagi ma'lumotlar Hisor davlat tabiat qo'riqxonasi haqida yozilgan tavsiflarda keltirildi.

Aydarko'l ekoturistik rayoni asosan seryog'in bo'lgan 1969-yildagi suvlarning va Mirzacho'lni paxtachilik maqsadlarida o'zlashtirish natijalari, tashlama suvlarning ko'payishi natijasida Aydarko'l va Arnasoy tizimidagi ko'llarining qo'shib ketishi va Chordara suv omboridagi ortiqcha suvlarning tashlanishi hisobiga yuzaga keldi. Bu ekoturistik rayonning suv bilan band qismi 600 ming ga. Maydon yildan yilga kattalashmoqda va bu kattarish ham ko'p o'tmasdan o'zining salbiy oqibatlarini o'zbekistonliklarning oldiga ko'ndalang qilib qo'yadi. Hozirda bu suv havzalaridan baliqchilik va xalqaro miqyosda qishlovchi qushlarning muhofazasi maqsadlarida foydalanilmoqda. Bu joyda ekoturistik infratuzilmalar yaratilgan va mahalliy, xalqaro ekoturistlarni qabul qilish boshlangan.

Sirdaryo ekoturistik rayoni asosan Sirdaryoning havzasini to'liq egallaydi. Bu daryo havzasida saqlanib qolingan to'qayzor va

qamishzorlarda asosan baliqchilik, qisman sholichilik va qishlovchi qushlar ekoturistik obyektlar bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, bu ekoturistik rayonda mahalliy ekosafari turistik marshrutlarini ham tashkil qilishning katta imkoniyatlari bor.

Chirchiq-Ohangaron ekoturistik rayonida Chotqol tog'-o'rmon Biosfera tabiat qo'riqxonasi va Ugom-Chotqol milliy parkining hududlari joylashgan. Bu ikkala muhim ekoturistik obyektlarning tavsiflari keltirildi. Bu ekoturistik rayonning hududlarida ekoturistik infratuzilmalar yaratishning xalqaro talablari darajalaridagi inshootlari qurilmoqda va mahalliy, xalqaro ekoturistlarni qabul qilish boshlangan.

Farg'ona ekoturistik rayonining maydoni butun Farg'ona vodiysining hududlarini qamrab oladi. Bu vodiylarning tabiatining betakrorligi, maftunkorligi va turli-tumanligi qadimdan dunyoga ma'lum. Aslida, insoniyat taraqqiyotining eng yuqori cho'qqilariga asos solgan Buyuk ipak yo'lining ochilishi ham ana shu Farg'onamizning tabiati va uning mehnatkash, ijodkor xalqi bo'lgan. Bu ekoturistik rayonda ekologik turizmni ham va turizmdagi barcha turlarni ham rivojlantirishning juda katta salohiyatlari va imkoniyatlari bor.

13.2. Ekoturistik rayonlarda ekoturizmni rivojlantirishdagi vazifalar

O'zbekistonning ekoturistik rayonlari xaritasining ishlab chiqilishi ham mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirishdagi jiddiy tadqiqotlardan hisoblanadi. Shu bilan birga bu ekoturistik rayonlarda ekoturizmni rivojlantirishda quyidagi muammo va masalalarni hal qilishga to'g'ri keladi:

1. Ekoturistik rayondagi ekoturizm resurslaridan ekoturizmni rivojlantirishda foydalanishning huquqiy-me'yorlarini ishlab chiqish.

2. Ekoturistik rayonda turizmda foydalanish mumkin bo'lgan barcha resurslarning ro'yxatini tuzish va ta'rif-tavsiflarini tayyorlash.

3. Ekoturistik rayondagi ekoturizm resurslarining ro'yxatini tuzish va ta'rif-tavsiflarini tayyorlash.

4. Ekoturistik rayonda ekoturizmni rivojlantirish yo'nalishlarini, imkoniyatlarini, ilmiy, amaliy va tashkiliy jihatlardan ishlab chiqish.

5. Ekoturistik rayonning ekoturistik resurslari reklamalarini ishlab chiqish.

6. Ekoturistik rayondagi ekoturizm resurslariga ekoturistik ekskursiya va ekoturistik marshrutlar ishlab chiqish.

7. Ekoturistik rayonda ekoturizmni rivojlantirishning tashkiliy, ekologik va iqtisodiy tizimlarini ishlab chiqish.

8. Ekoturistik rayonda aholini ekoturizm sohasiga tayyorlashda bepul o'qitish va ekoturizm tadbirkorligi markazlarini tashkil qilish.

9. Ekoturistik rayonda ekoturizmni rivojlantirishning hududiy dasturlari va strategik rejalarini ishlab chiqish.

10. Ekoturistik rayonlardagi ekoturizm resurlarida (obyektlarida) ekoturistik infratuzilmalar yaratishga kirishish.

11. Respublikamizdagi viloyatlar o'zlarining ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish dasturlariga ekoturizmni rivojlantirish dasturlarini ham qo'shishi.

O'zbekistonning ekoturistik rayonlarida ekoturizmni rivojlantirishni turizmga qisqa muddatlarda hal qilinadigan masalalar qatoriga kiritib bo'lmaydi. Chunki, yuqorida keltirilgan vazifalar mukammal ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishni va tashkiliy-iqtisodiy tizimlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Shuning uchun ham ekoturizm mutaxassislari dastlabki bosqichda mamlakatimizning viloyatlarida ekoturizmni rivojlantirish muammolarini o'rganishni boshlashlari lozim bo'ladi. Bu yo'nalishda dastlabki natijalar yuzaga (Navoiy viloyati bo'yicha) chiqdi⁵⁴.

Bu holatning asosiy sababi birinchidan, O'zbekistonda hali majmualiy turizm, majmualiy turmahsulotlarni ishlab chiqaruvchi

⁵⁴ Islomova R.A. Ekologik turizmni rivojlantirish muammolari. Toshkent: «Iqtisodiyot», 2014. 131-b.

malakali turoperatorlarning juda kamligi hisoblanadi. Ikkinchidan, turoperatorlarimiz respublikamizning tabiiy geografiyasini, tabiiy mintaqalarning biologik xilma-xillik resurslarini yaxshi bilishmaydi. Uchinchidan, viloyatlardagi turistik resurslarning rayonlashtirilmaganligidir. Shu sababli turoperatorlar turistik resurslarning umumiy ro'yxati bilangina ishlashadi, yoki viloyatlarda faqat ancha ommaviylashgan turistik obyektlargagina turmahsulot, turistik marshrutlar ishlab chiqishmoqda.

Ichki turizm ham, ayniqsa xalqaro turizm bunday, ya'ni har bir turistik obyektidan individual usulda foydalanish davridan o'tdik. Bu davrning turistik mahsuloti eskirdi. Hozir xalqaro turizmni rivojlantirish uchun yangi va faqat yangi turistik mahsulotlar ishlab chiqishimiz talab qilinmoqda.

Turistik resurslardan majmuali foydalanishning mazmuni shundaki, tajribali turoperator bir turistik obyektini ko'rishga kelgan turist yoki turistlarni qo'shni turistik obyekt yoki turistik hududga qiziqtirishning uddasidan chiqishi lozim. Yevropa, Amerika va Xitoy davlatlaridagi turoperatorlar shu usulda ishlashadi. Shuning uchun ham biz viloyatdagi ekoturistik-rekreatsion resurslardan turizm foydalanish uchun bu resurslarni viloyat bo'yicha rayonlashtirish bugungi turizm rivojining dolzarb talablaridan deb hisoblaymiz.

Turistik rayonlashtirishda ko'plab tadqiqotchilar hududlarning turizmga yaroqliligi, turistik resurslarning jozibadorligini asos qilib turizm tizimini hududiy va mintaqaviy loyihalashtirishni taklif qilishgan. Turistik hududiy birliklarda rayonlashtirilganda tahlil obyekti qilib (asos qilib) geografik joylashishni, tabiiy sharoitini, biologik resurslarini, etnik, madaniy, tarixiy va tarixiy-madaniy resurslarini (arxitektura obidalari, o'ziga xos an'anaviy madaniyati, muzeylari, madaniy markazlari), turizm industriyasining madaniy-texnik resurslarini, hududning ijtimoiy-iqtisodiy va zamonaviy ekologik holatiga bahoni, ekologik ijtimoiy-iqtisodiy bashoratlarni asos qilib oladi.

Yana bir muhimi ekoturistik rayon ichidagi ekoturistik hududlar

bir-biriga chegaradoshligi, bir ekoturistik hududdan ikkinchi bir ekoturistik hududga o'tishi mumkinligi ham hisobga olindi. Shuning uchun ham, bizning xulosalarimiz bo'yicha bir ekoturistik rayon ichidagi ekoturistik hududlardan majmualiy foydalanish imkoniyatlari yuqori darajada bo'ladi (masalan, o'rmonlardan suv havzalariga, ulardan ijtimoiy-madaniy resurslarga va boshq.).

Tayanch so'z va iboralar: rayonlashtirish, mintaqaviy turizm, tabiiy landshaftlar, ekoturistik rayon, biologik xilma-xillik.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. O'zbekistonni ekoturistik rayonlashtirishda qanday vazifalarni hal qilish kerak?
2. O'zbekistonni ekoturistik rayonlashtirishda qanday takliflaringiz bor?
3. O'zbekistonning ekoturistik rayonlari nimalarga asoslanib ishlab chiqilgan?
4. Siz yashayotgan manzil qaysi ekoturistik rayonda ekoturizmni rivojlantirishda nimalarga e'tibor berish kerak?
5. Qaysi ekoturistik rayonlarida ekoturizmning asosiy resurslari joylashgan?
6. O'zbekistonning ekoturistik rayonlarini amaliy darslarda gapirib bering.
7. O'zbekistonning ekoturistik rayonlaridagi asosiy ekoturistik resurslar bo'yicha ko'rgazmali materiallar tayyorlang.
8. Mavzu matnidagi xalqaro ekologik ramzni ta'riflang.

14-mavzu. EKOLOGIK TURIZMNING TABIATGA TA'SIRI

Reja;

- 14.1. Ekoturizmning tabiatga to'g'ridan to'g'ri ta'siri.
- 14.2. Ekoturizmning tabiatga yonlama ta'siri.

14.1. Ekoturizmning tabiatga to'g'ridan to'g'ri ta'siri

Ekoturizmning tabiatga ta'siri yo'nalishida mamlakatimiz ekoturizmida ilmiy-tadqiqotlar boshlangan emas. Umuman ekoturizm haqidagi ilmiy-tadqiqotlarning aksariyat qismini rossiyalik olimlarning ilmiy adabiyotlaridan o'rganayapmiz va hozircha ekoturizmida quruq, ilmiy-amaliy, tajribaviy jihatlardan asoslanmagan tavsiyalarni yozmoqdamiz.



Lekin, Rossiyadagi ekoturizmning darg'alari ham ekoturizmning tabiatga ta'sirini ilmiy-amaliy tajribasiz, "shunday bo'lsa kerak" ma'nosida yozishmoqda^{55, 56, 57, 58}. Biz ham bu ilmiy muhitdan ilmiy tadqiqotlarsiz chiqaolmaymiz. Shuning uchun ham bu mavzuda ekoturizmning tabiatga ta'sirini asosan rossiyalik mutaxassislarining xulosalari bo'yicha keltiramiz. Ilmiy adabiyotlarda ekoturizmning tabiatga ta'sirini izohlashni ikki davrga bo'lish mumkin:

1. O'tgan asrning 70-yillaridan asr oxirigacha bo'lgan davr.
2. XX asrning hozirgi davri.

O'tgan asrning 70-yillaridan asr oxirigacha bo'lgan davrda insoniyat oldidagi global ekologik inqirozlarning oldini olishda ekoturizmning

⁵⁵ Дроздов А.В., Основы экологического туризма. Москва: Гардарики, 2005. С. 271.

⁵⁶ Сергеева Т.К. Экологический туризм. Москва: Финансы и статистика, 2004. С. 360

⁵⁷ Храбовченко В.В. Экологический туризм. Москва: Финансы и статистика, 2003. С. 172.

⁵⁸ Косолапов А.Б. Теория и практика экологического туризма. Москва: КНОРУС, 2005. С. 240.

ahamiyatini belgilashda va ekoturizmning prinsiplarini ishlab chiqishda asosan uning tabiatni muhofaza qilishdagi oʻrniga katta eʼtibor berildi. Shuning uchun ham ekoturizmning tabiatga salbiy taʼsirini tadqiq qilish haqidagi maʼlumotlar u davr adabiyotlarida deyarli uchramaydi. Bu oʻsha vaqtdagi toʻgʻri yoʻl edi.

Chunki, ekoturizmning asosiy resurslari va obyektlari “Alohida muhofaza qilinadigan hududlar”, “Milliy parklar” va “Davlat tabiat qoʻriqxona”lari boʻlganligidan ekoturizmning tabiatga salbiy taʼsirlarini yuzaga chiqarish xalqaro tabiatni muhofaza qilish tashkilotlarining qarshiligiga albatta duch kelishi mumkin boʻlardir. Shu bilan birga u davrlarda ilmiy-texnika taraqqiyoti tabiat va uning resurslarini yemirib borayotgan, tabiatni muhofaza qilishda davlatlar tabiat qoʻrixonalarini va milliy parklarni tashkil qilishni kuchaytirgan vaqtlar edi.

Ekoturizmning tabiat muhofazasidagi oʻrni va ahamiyati dunyo ekologik turizmida dunyo mamlakatlarining koʻpchiligida amaliy jihatlardan isbotlangandan keyin (AQSH, Kanada, Avstraliya, Yevropa davlatlari, Afrikada ekoturizm rivojlangan davlatlar, Hindiston, Yaponiya) asrimiz boshlanish davrlariga kelib ekoturizmning tabiatga salbiy taʼsirlari yuzaga chiqqan boshladi. Bu haqda koʻplab misollarni keltirish mumkin.

Oʻtgan asrning 70–80-yillarida iqtisodiy rivojlangan AQSH, Kanada va Yevropa davlatlarida ommaviy turizm kuchli rivojlanib bordi. Turizm va antropogen bosimning tabiatga salbiy taʼsiri haqida birgina misol keltiramiz. Masalan, 1973–1983-yillarda ana shunday taʼsirlar natijasida Yevropa mamlakatlari boʻyicha daryo va koʻllarda turistik marshrutlar 40% ga, dengizdagi marshrutlar 70% ga qisqardi, tabiiy oʻrmonlarining 60% i ommaviy turizmdan zarar koʻrdi, payxon qilindi.

AQSHning Balinger kanʼonida turistik transport oqimining kuchayishi va turistik infratuzilmalarning markazlashuvi natijasida atrof hudud tuproq qatlamining 86% i tabiiy unumdorligini yoʻqotdi. Shu yillarda AQSHning milliy parklarida, Alpda, Nepal davlatidagi alpinizm turizmi kuchli rivojlangan Everest togʻi yon

bag'irlarida, Janubiy Amerikadagi mashhur Inklar so'qmog'ida, Nepalning Annapurna tog'lari yon bag'irlarida turistik rekratsion yemirilish kuchayib ketdi⁵⁹.

Turizmdagi ommaviy va ekologik rivojlanishning tabiatga va uning resurslariga salbiy ta'siri haqidagi birinchi ilmiy maqola G'arbiy Germaniyalik R.Yunkning "1 ga cho'milish joyida qancha turistlar bor" mavzusidagi maqolasi bo'lib qoldi. Shundan keyin 1981-yilda X.Vaysning "Shveysariyada landshaftlarning asta-sekinlik bilan yemirilishi va ularni qutqarish tadbirlari" mavzusidagi kitobi nashr qilindi va boshq. Shundan keyin xorij ekoturizmida ekoturizmning tabiatga salbiy ta'siri darajalarini o'rganishga katta e'tibor berildi.

XX asrning hozirgi davrdagi ilmiy adabiyotlarda ekoturizmning tabiatga ta'siri haqida ilmiy-amaliy tajriba va kuzatuvga asoslanmagan xulosalar yozila boshlandi. Bu haqda yuqorida to'xtaldik. Masalan, Rossiyadagi ekologik turizmning darg'alari bo'lgan Drozdov A.V., Sergeyeva T.K., Xrabovchenko V.V., va Kosolapov A.B.larning turizmning tabiatga ta'siri haqidagi xulosalari bir xil ma'noda, ya'ni turizmning tabiatga ta'siri: a) to'g'ridan to'g'ri; b) yonlama (bilvosita) yuz beradi.

Ekoturizmning tabiatga to'g'ridan to'g'ri ta'siri haqida juda ko'p misollar keltirish mumkin. Bu misollarning barchasida ekoturizmning noto'g'ri tashkil qilinishi va ekoturistik faoliyatning nazoratsiz holatlarida yuz beradi. Ekoturizmida quyidagi ikkita holat ekoturizmni rivojlantiruvchilar, ekoturizmni tadqiq qiluvchilar uchun juda muhim hisoblanadi:

1. Ekoturizmning tabiatni muhofaza qilishi.
2. Tabiatni ekoturizmdan muhofaza qilish.

Ekoturizmning asosiy maqsadi tabiatni muhofaza qilish hisoblanadi. Ekoturizmning jahonda shakllantirilishi dunyoviy ekologik inqirozlardan kelib chiqqanligi ham o'rganildi. Ekoturizmning tabiatga har qanday ta'siri ekoturizmning huquqiy me'yorlari ishlab chiqilmagan holatlarda yuz beradi. Ekoturizmning

⁵⁹ Сергеева Т.К. Экологический туризм. Москва: Финансы и статистика, 2004. С. 360..

huquqiy me'yorlari ishlab chiqilmagan holatlarda ekoturizmni tashkil qilish va ekoturistik faoliyatni nazorat qilish ham qiyin kechadi.

Tabiatni ekoturizmdan muhofaza qilishda ekoturistik resurslardan foydalanish yuklamasini, ya'ni ekoturistik obyektga bir kunda qancha ekoturistni qo'yish chegarasini, me'yorini bilish lozim. Bu chegaradan, yuklamadan ortig'i ekoturistik bosim deyiladi. Ekoturistik bosim qanchalik ortsa tabiatga keltirilgan zarar oshib boradi. Bunday holatlarda tabiatdan ekoturizmga foydalanish zararli bo'lib chiqadi.

Ekoturizmning tabiatga to'g'ridan to'g'ri ta'siri quyidagi holatlarda yuz beradi:

- ekoturistik me'yordan ortiq baliq ovlash va ekoturistik me'yordan ortiq ovchilik ta'sirida o'simlik va hayvonlarning qirilishi, tabiiy hududlardagi qishloq xo'jalik faoliyati natijasida tabiiy sharoitlarning buzilishi.

- o'simliklar va hayvonlarning tabiiy hayotiga aralashuv — shovqin, ularni qo'ldan oziqlantirish, sun'iy sharoitlarda ko'paytirish, doimo ta'qib qilish, kuzatish, uyalarini buzish va boshq.;

- inson keltirgan oziq-ovqat chiqindilaridan yuqumli kasalliklarning kelib chiqishi, o'rmonlarning kesilishi, tuproq qatlamida salbiy o'zgarishlarning hosil bo'lishi.

14.2. Ekoturizmning tabiatga yonlama ta'siri

Ekoturizmning tabiatga yonlama ta'sirini insoniyatning tabiat va uning resurslaridan noto'g'ri foydalanishi-antropogen ta'sirlarining barchasini misol tariqasida keltirsak to'g'ri bo'ladi. Bunday ta'sirlar haqida juda ko'plab misollarni keltirish mumkin. Bu misollarning umumiy holatlarini quyidagicha tushuntirish mumkin:

- hayvonlar va o'simliklar tabiiy yashash muhitining inson faoliyati natijasida o'zgarishi;

- geografik tabiiy muhit komponentlariga global antropogen ta'sir (suv yuzalari va tuproqning ifloslanishi, o'rmonlarning kesilishi va eroziyaning kuchayishi, iqlimning global o'zgarishi,

atmosferaaning ifloslanishi, dunyo okeanining ifloslanishi va boshq.);

• hayvonlarni sun'iy sharoitlarda saqlash, hayvon va o'simliklarning tabiiy sharoitdagi yashash jarayonlariga aralashish va boshq.;

• tabiatga o'nglanmas qirg'in keltiruvchi harbiy qurollarni sinash;

• zaharli kimyoviy moddalarni ishlab chiqarish va qo'llash.

E'tibor qilsak, yuqorida keltirilgan "ta'sirlar" o'tgan asrning ikkinchi yarmidagi insonning ilmiy-texnika taraqqiyotini rivojlantirishi natijasida sayyoramiz "tabiatini bo'ysundirish" shiori bilan ertangi kunini o'ylamasdan, kelajak avlodining tabiatdagi rizqi-nasibasini yeb qo'yishini izohlash deb baholasa xato bo'lmaydi.

Ikkinchidan, "ta'sirlar"ni yozgan mualliflar tabiatga ekoturizmning ta'sirini emas va turizmning ham ta'sirini emas balki, tabiatga insoniyatning butun sivilizatsiyasi davridagi ochko'zligi va kaltafahmligi natijasida ayniqsa, o'tgan asrning ikkinchi yarmidan to hozirgacha davom etayotgan tabiatni buzish, yemirish, talash va qirishining natijalarini izohlashgan.

Ekoturizmni rivojlantirar ekanmiz uning tabiatga yonlama (bilvosita) ta'siri bo'lishi kutilmagan hodisa emas. Bu ta'sirlarsiz ekoturizmni rivojlantirib bo'lmaydi. Bu yerda asosiy mulohaza tabiatdagi ekoturistik so'qmoqlar, ekoturistlarning nojo'ya harakatlari, qo'riqlanayotgan hududlardagi so'qmoqlarda qisqa muddatli dam olish infratuzilmalari, ekoturistlarning shovqini va chiqindilari haqida bormoqda^{60, 61, 62, 63}.

Ekoturizmni tashkil qilishda ekoturizmida lider davlatlarning "alohida muhofazadagi tabiiy hududlar" da ekoturizmni rivojlantirish mexanizmlaridan foydalanishimiz kerak. Bu haqida 9-bobda yozildi, foydalanish tizimi chizma ravishda keltirildi (EKONET).

⁶⁰ Дроздов А.В. Основы экологического туризма. Москва: Гардарики, 2005. С. 271.

⁶¹ Сергеева Т.К. Экологический туризм. Москва: Финансы и статистика, 2004. С. 360.

⁶² Храбовченко В.В. Экологический туризм. Москва: Финансы и статистика, 2003. С. 172.

⁶³ Косолапов А.Б. Теория и практика экологического туризма. Москва: КНОРУС, 2005. С. 240.

Bu foydalanish tizimining uchinchi zonasi (*Bufer mintaqalar (foydalanishdan olinmagan, xo'jalik faoliyati va tabiatdan ratsional foydalanishga ruxsat berilgan bo'lib tabiatni tiklash sharoitlari ham yaratilgan)*)da xo'jalik faoliyatiga ruxsat berilgan. Chunki, milliy parklar tabiat qo'riqxonalari va alohida muhofaza qilinadigan hududlarning barchasida aholi (asosan qishloq aholisi) yashashadi.

Mamlakatimizdagi Zomin va Ugom-Chotqol milliy parklarining hududlarida ham ko'plab qishloqlar bor. Bu qishloq aholisi o'tgan vaqt davomida milliy park va qo'riqxonalaridagi tabiiy landshaftlardan foydalanish uchun ko'plab so'qmoqlar yaratishgan. Milliy park va qo'riqxonalaridan ekoturizmدا foydalanishda dastlab ushbu so'qmoqlardan foydalanish mumkin. Ikkinchidan, hayvonot olami haqidagi Afrika, Amerika, Hindiston yoki Avstraliya davlatlari milliy parklarida olingan filmlarni ko'rsak yirtqich hayvonlarning ekoturistlardan hayiqmasligini tomosha qilamiz.

Ekoturizmдаgi ma'lum yillardan keyin ular albatta insonga o'rganishadi (faqat ekologik so'qmoqlar atrofida). Shuning uchun ham ekoturizmning tabiatga salbiy ta'siri (so'qmoqlar ta'sirida landshaftlarning yemirilishi, hayvonotning, qushlarning "qochib" ketishi va tabiiy yashash muhitining o'zgarib ketishi va boshq.) ni vahima darajasiga ko'tarish kerak emas. Yerlarning eroziyaga uchrashi, hayvonot olamining "qochib" ketishi, turlarning yashash tarzining buzilishi va boshqa salbiy o'zgarishlar, suvlarning bulg'anishi ekoturizmning "Prinsiplari", "Qoidalari" va "Talablari"ga rioya qilinmaganda yuz beradi.

Xulosa shundan iboratki, ekoturizmning tabiatga salbiy ta'siri va uning darajalari, ko'rsatkichlari Rossiyada va Markaziy Osiyo davlatlarida ilmiy-amaliy jihatlardan o'rganilgan emas. Ekoturizmда ekoturizmni tashkil qiluvchilar va ekoturistlar ekoturizmning xalqaro prinsiplarini, huquqiy me'yorlarini o'rgansalar va unga amal qilsalar, ekoturizmда tabiatdan foydalanishning qonun-qoidalari darajasidagi ekologik monitoring tashkil qilinsa va doimiy ekologik monitoringni olib borsa

“Alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar” dan ekoturizmda foydalanish insoniyatga va tabiat muhofazasiga faqat ijobiy “ta’sir” qiladi. Fikrimizcha, ekoturizmda tabiatga salbiy ta’sirning oldini olishda aholida va ekoturistlarda, ekoturistik bilim, ekoturistik madaniyatni shakllantirishda “tabiatga achinish his-tuyg‘ularini hosil qilish lozim” degan xulosalar to‘g‘ridek bo‘lmoqda.

Yuqorida keltirilgan mavzularda ekoturizmni rivojlantirish modellarini ishlab chiqqan Yevropa davlatlarida bolalarni boshlang‘ich maktablarda “o‘lkashunoslik” va “tabiatshunoslik” fanlarini kuchli talab bilan o‘qitilishini keltirgan edik. Ko‘p yillik kuzatishlardan ma’lum bo‘lmoqdaki, uyida xonaki gullarni o‘stiruvchi, bolaligidan qandaydir hayvon turiga yoki qush turiga qiziquvchi talabalar “ekologiya” va “tabiatni muhofaza qilish” fanlaridan “a’lo” baholarga o‘qishadi.

Hozirgi davrda “Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi” ning xulosalari bo‘yicha qaysi bir davlatda endemik bo‘lgan hayvon yoki o‘simlik turining abadiy yo‘q qilinishi o‘sha davlatda yashayotgan xalqlarning ekologik bilimi va madaniyatining pastligi, tabiatini muhofaza qilish va saqlashdagi loqaydligini bildiradi.

Mavzuning xulosasida qayd qilish mumkinki, ekoturizmning tabiatga ijobiy ta’sirini ham, salbiy ta’sirini ham ekoturizm faoliyatiga kiritilgan tabiat hududlarida quyidagi ikki yo‘nalishda ilmiy-amaliy jihatlardan mukammal o‘rganish kerak:

1. Ekoturizmning tabiatni muhofaza qilishi.
2. Tabiatni ekoturizmdan muhofaza qilish.

Tayanch so‘z va iboralar: ekologik ta’sir, bilvosita ta’sir, eroziya, ayovsiz qirish, zoologiya, ornitologiya, evolutsiya, paleolit, Turon yo‘lbarsi.

Mavzuni o‘rganish bo‘yicha test savollari:

1. Ekoturizmning tabiatga ta’sirini o‘rganishning birinchi davrini aniqlang.

- A. O‘tgan asrning 70-yillaridan asr oxirigacha bo‘lgan davr.
- B. XX asrning oxiri.

D. XX asrning o'rtalari.

E. XX asrning boshlanishi.

2. Ekoturizmning tabiatga ta'sirini o'rganishning ikkinchi davrini aniqlang.

A. XX asrning hozirgi davri.

B. XX asrning boshlanishi.

D. O'tgan asrning 70-yillaridan asr oxirigacha bo'lgan davr.

E. XX asrning o'rtalari.

3. Ekoturizmning tabiatga ta'siri O'zbekistonda o'rganilganmi?

A. O'rganilgan.

B. O'rganilmagan.

D. O'rganilmoqda.

E. Rejalashtirilmoqda.

4. Ekoturizm tabiatga salbiy ta'sir qiladimi?

A. Salbiy ta'sir qilmaydi.

B. Salbiy ta'sir qiladi.

D. Ijobiy ta'sir qiladi.

E. Salbiy va ijobiy ta'sir qiladi.

5. Hayvonlarning butunlay yo'qotilishida insoniyat aybdormi?

A. Aybdor.

B. Tabiiy tanlanishda va inson aybi bilan yo'qotilmoqda.

D. Faqat insoniyat aybdor.

E. Yashash muhitining o'zgarishi.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha savol va topshiriqlar;

1. Ekoturizmning tabiatga ta'sirini o'rganing va gapirib bering.

2. Ekoturizmning tabiatga ijobiy ta'sirini o'rganing va gapirib bering.

3. Ekoturizmning tabiatga ta'sirini qanday tushunasiz?

4. Ekoturizmdan tabiatni himoya qilish kerakmi?

5. Ekoturizmning tabiatga salbiy ta'siri qanday holatlarda kelib chiqadi?

6. Dunyoda qirilib bitgan hayvon turlari haqida gapirib bering.

7. Mavzu matnidagi xalqaro ekologik ramzni ta'riflang.

15-mavzu. REKREATSIYA TURIZMINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Reja:

15.1. Rekreatsiyaning o‘rganish obyekti, maqsadi va vazifalari. Rekreatsiya faoliyati.

15.2. Rekreatsiya ehtiyoji, omillari va rekreatsiya turizmini rivojlantirish yo‘llari.

15.1. Rekreatsiyaning o‘rganish obyekti, maqsadi va vazifalari. Rekreatsiya faoliyati

Rekreatsiyaning obyekti — insonning turli-tuman rekreatsion faoliyatida ishtirok etadigan, moddiy obyektlar, tizimlar, jarayonlar va hodisalar shu bilan birga rekreatsiyani amalga oshiruvchi standartlar, sharoitlar va xizmatlar hisoblanadi.

Rekreatsiya turizmining maqsadi — insonning ruhiy va jismoniy jihatdan tiklanishi sharoitlarini yaratishdir. Bu o‘rinda qisqa muddatli rekreatsiyadan doimiy foydalanish tizimi rekreatsiya turizmini hosil qilishi alohida ta’kidlanadi.

Rekreatsiya turizmining vazifasi — jamiyatning har bir a’zosini jismoniy va ruhiy jihatdan qayta tiklash, insonning jismoniy holatini dam olish yo‘li bilan oldingi holatiga qaytaruvchi turistik rekreatsion tizimlarni yaratishdan iboratdir. Shuning uchun ham turistik rekreatsion tizimlarni yaratish va bu tizimlarda rekreatsiya sharoitlarini tashkil qilish rekreatsiya turizmini rivojlantirishdagi eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Rekreatsion turistik tizimlarni yaratishda albatta turizmga rekreatsion faoliyatni hisobga olish va unga asoslanish birinchi navbatda talab



qilinadigan turistik rekreatsion infratuzilmalarni ishlab chiqishni kun tartibiga qo'yadi.

Rekreatsion faoliyat: birinchidan, insonning madaniy-ijtimoiy tizimidagi standartlarga mos keladigan o'z jismoniy kuchlarini tiklashga mo'ljallangan turli-tuman dam olish faoliyati; ikkinchidan, insonning rekreatsiya faoliyatiga yo'naltirilgan, sog'ligi va jismoniy holatini qayta tiklashga qaratilgan o'zidan chiqqan rekreatsiya faoliyati tashabbusi hisoblanadi.

Rekreatsiya turizmni rivojlantirishning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ahamiyati. Hozircha ilmiy tadqiqotlarda rekreatsiyaning jamoaviy faoliyatlarini tasniflash amalga oshirilmagan. Ko'plab olimlar, ayniqsa geograflar rekreatsiyani betakror tabiat bag'ridagi qisqa dam olish deb ta'riflashgan.

O'tgan asrning 70-yillarida mamlakatimizning geograf olimlari respublikamiz hududlariga rekreatsion baho berish va rekreatsiyada foydalanishda ko'plab ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishgan. Bu tadqiqotlar asosan O'zbekistonning tog' va tog' oldi mintaqalarida qisqa muddatli dam olish, rekreatsiya manzillarini yaratishga bag'ishlangan. Shu nuqtayi nazardan bizda rekreatsiya deganda faqat tabiatning so'lim go'shalarida qisqa muddatli dam olish tushunilmoqda.

Hozirgi vaqtda rekreatsiya butunjahon turizmida ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yetakchi yo'nalishga aylanib bormoqda. Chunki, globallasuv jarayonida insonning ruhiy va jismoniy dam olishi turizmning asoslari hisoblanadi. Biz faqat rekreatsiyaning asl mohiyatini bilganimiz holda aholining dam olishidagi asosiy yo'nalishlar, manbalar, obyektlarini aniqlashimiz, respublikamiz aholisining ruhiy va jismoniy dam olishi hozirgacha qanday amalga oshirilgan, aholi ruhiy va jismoniy dam olishda qanday obyektlarni tanlagan va tanlanmoqda?

Hayotimizdagi eng ko'p voqeliklar va jarayonlarda ham, ilm-fanda ham eng ko'p ishlatiladigan «dam» va «bo'sh vaqt» atamalari hisoblanadi. Bu so'zlar bir-birini to'ldiradi, bir-biriga yaqin, lekin ma'no jihatidan maxsus adabiyotlarda bir-biridan

ma'lum bir masofada ajralib turadi. «Dam» so'zi ma'lum ma'noda chegaralangan, qaram so'z. Bu so'zning ma'nosi «mehnat» so'zi bilan birgalikda ancha oydinlashadi. Ya'ni mehnatsiz dam bo'lmaganidek, dam ham mehnatsiz yuzaga chiqmaydi.

Mutlaq mehnat tananing bioenergiyasini yo'qotadi va tana organizmini sog'lomlik bahosidan kasallik inqiroziga, hatto o'limga ham olib keladi. Bu inqiroz yo'lida unga charchoq, holsizlanish qarama-qarshilik qiladi — bu dam olishdir. Faqatgina dam olish va tiklanishdan tana organizmi ishga yaroqlilik qobiliyatini saqlab qoladi.

Yana shuni ham ta'kidlash kerak—ki, patologiyadagi mutlaq dam olish ham tana organizmi uchun xavfli hisoblanadi. Charchoq, holsizlanish faqatgina mutlaq mehnatdan emas «faqat dam» olish natijasida ham kelib chiqadi, tana organizmi kuchsizlanib qoladi. Shuning uchun ham organizmdagi moddalar almashinuvini, bioenergiyani saqlash uchun mehnat qilish talab qilinadi. Mehnat va dam olishni juft, biri-biridan ajralmagan holda qabul qilish insonning biologik tur sifatida yashash shakllaridan eng muhimi hisoblanadi. «Dam»ga nisbatan «bo'sh vaqt» tushunchasi o'zida ijtimoiy mazmunni anglatadi, insonning jamoadagi o'rni va ruhiy holatini bildiradi.

Bo'sh vaqtning tavsifi odamlarning hayot faoliyati jihatlari bilan, estetik dunyoqarashlari, ijtimoiy me'yorlari va qoida-yu huquqlari, an'analari va urf-odatlar bilan bog'lanib ketadi hamda bu xususiyatlarni umumlashtirishga, saqlashga, rivojlantirishga xizmat qiladi. Bo'sh vaqtning klassik, gumanistik konsepsiyasi ruhiy g'oya sifatida o'zining boshlanishini qadimgi grek falsafasida topadi. Bo'sh vaqt Aristotel asarlarida ham rivojlantirilgan. Bo'sh vaqt — insonni aqliy va ruhiy dam oldiruvchi, axloq-odob, ma'naviy jihatdan yuqoriga ko'taruvchi, fan bilan shug'ullanish, san'at bilan bahramand bo'lish imkoniyatlarini yaratadi.

Bo'sh vaqtning quvonchi — bekorchilik emas balki, shaxsning kamol topishida, ichki va tashqi hissiyotlari, tuyg'ularini

takomillashtirishda va rivojlantirishda eng bebaho va e'zozli vaqt hisoblanadi. Bu esa Aristotel bo'yicha erkin insonning yashashidagi bahoni va oliy maqsadni tashkil qiladi. «Shaharlarda aholining to'planishi odamlarda rekreatsiyaga talabni kuchaytirdi va ular bu talabni-ehtiyojni qondirish uchun so'lim tabiat va iqlimiy qulay joylarni izlay boshladi. Bu izlanishlar turistik harakatning hududiy joylanishini keltirib chiqardi. Natijada oddiy qishloqlar bo'lgan Sopot, Kann, Monte-Karlo, Nitssa, Shamoni, Davoslar hozirga kelib xalqaro turizm markazlariga aylandi»⁶⁴.

Germaniyalik olim I.T.Kol o'zining «Jamoaviy harakat va ular yaratgan ko'ngil ochish xizmatlari va suv kurortlari» asarida dam olishning eng mahsulli usuli *rekreatsiyani* amalga oshirish ekanligini mukammal tadqiq qilganlardan biri hisoblanadi. I.T. Kol bo'yicha «rekreatsiya» mehnatdan keyin imkoni boricha tabiat bag'rida qisqa (asosan yakshanba kuni, yoki bir necha kunlar) muddatli dam olish hisoblanadi.

Rekreatsiya atamasi lotin tilida «recreatio» — «tiklanish» ma'nosini bildiradi. Fransuzlar bu so'zni «recreation» deb yozishadi va tarjimasini — ko'ngilxushlik, dam olish, ishdan xoli holda harakatlarni o'zgartirish va bu harakatlarni amalga oshiruvchi manzillarning tavsiflarini keltirishni tushunadi. Ikkala holatda ham rekreatsiya atamasi insonning hayot faoliyatini tiklash (bo'sh vaqtda) bilan birga o'sha bo'sh vaqtni o'tkazish makonini, manzilini ham bildiradi.

Turizm faoliyati asosan bo'sh vaqtda amalga oshiriladi. Shuning uchun ham *rekreatsiya* va *turizm* so'zlarining ma'nolarini ko'rib chiqishda — vaqtni samarali o'tkazish bo'yicha — ularning biologik va ijtimoiy-iqtisodiy mazmunlarining mohiyatini anglab olishni talab qiladi. «Dam olish» va «bo'sh vaqt» har xil nisbatlarda — biologik va ijtimoiy mazmunga ega. Ya'ni, «dam olish» ijtimoiy muhitda, «bo'sh vaqt» biologik muhitda amalga oshiriladi.

⁶⁴ Kol I.G.«Jamovaiy harakat va ular yaratgan ko'ngil ochish xizmatlari va suv kurortlari» (1841) Ердавлетов С.Р. География туризма. Алматы, 2000. С. 330..

Rekreatsiya keng chegaralarni hosil qiladi. Rekreatsiya qisqa muddatli (ish vaqtida qisqa muddatli dam olish) va uzoq muddatli bo'lishi mumkin (ta'tillar, bayramlar, hafta oxiridagi dam olish). Birinchisida ma'lum bir qolip-chegaradan chiqilmaydi (kundalik ishdagi qisqa dam olish). Ikkinchisida har kunlik bir xil odatiy faoliyat butunlay o'zgaradi. Ya'ni rekreatsion faoliyat rekreatsion sharoitga boradi.

Turizmning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, uning ta'sir doirasining kengligi, ommaviyligi va ahamiyati — bularning hammasi turizmni tushunish iboralari — «dam olish», «bo'sh vaqt», «rekreatsiya», «turizm» to'planib hozircha bitta tushuncha — turizmni tashkil qilmoqda. Lekin turistik faoliyat hamma vaqt ham rekreatsiya bo'lmaganidan, rekreatsiya ham hamma vaqt turizm bo'la olmaydi. Masalan, ishchanlik turizmi ishlab chiqarish talablaridan kelib chiqib asosan ish vaqtida bajariladi. Bu turizm. Bu yerda turizm ishchanlik turizmini, rekreatsiyani, bo'sh vaqtni qamrab olgan. Bularning qisman uchrashuvi rekreatsiya turizmini tashkil qilmoqda.

«Rekreatsiya», «rekreatsion faoliyat» va «rekreatsion xizmatlar» tushunchalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini anglashda insonning dam olish faoliyati bilan bog'lik hodisalarni tushunish lozim. Bu hodisalar esa insonning dam olish faoliyatining tasniflari deb tushuntiriladi⁶⁵:

1. Aniq jismoniy yuklama bilan bog'langan faoliyat (sport bilan shug'ullanish, sayrga chiqish).

2. Havaskorlik mashg'ulotlari faoliyati (ovga chiqish, baliq ovlash, qo'ziqorin va mevalar terish, har xil buyumlarni to'plash-kolleksiya qilish).

3. San'at dunyosi bilan bog'lanish (teatrlarga, konsertlarga, muzeylarga, badiiy galereyalarga borish).

4. Intellektual faoliyat (o'z ustida ishlash, gazetalar, jurnallar, adabiy kitoblar o'qish, televideniya ko'rsatuvlarini kuzatib borish).

⁶⁵ Ердавлетов С.Р. География туризма: История, теория, методика, практика. Алматы, 2000. С. 330.

5. O'z qiziqishi va tanlashi bo'yicha bo'sh vaqtni o'tkazish.

6. Faol ko'ngil ochish (o'yinlar, raqs) va sust ko'ngil ochish-tomosha.

7. Qiziqish va qoniqish — zavq-shavq olish uchun sayohatga chiqish.

Yuqorida qayd qilingan dam olish turlari majmuali holda yuzaga chiqadi yoki bir-biri bilan bog'liq holda faoliyat ko'rsatadi, ayniqsa sayohat vaqtida bir-biri bilan bog'liq holda birdaniga yoki ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Shuning uchun ham «rekreatsiya», «rekreatsion faoliyat» va «rekreatsion xizmatlar» atamaları mehnat qilish xususiyatlari o'zgarganda, bo'sh vaqtdan foydalanish tarkibi va shakllari o'zgarganda jismoniy jihatdan eng yaxshi dam tinchlik emas, faoliyatning o'zgarishi deb tushunilgandagina alohida-alohida ma'nolarga ega bo'ladi.

Og'ir mehnatdan keyin quvvatni tiklash, tiklanish uchun dam olish asosan yashash joyida amalga oshirilib kelinardi, hozir ham shunday. Asta-sekinlik bilan sutkalik, haftalik, oylik va yillik mehnat qilishning to'planib borishi natijasida inson o'zini-o'zi avaylashi nuqtayi nazaridan dam olishni tobora samaraliroq o'tkazishni xohlaydigan va buni «samarali o'tkazish» uchun moddiy-iqtisodiy sharoitlar yaratilganidan keyin sanatoriya-kurortlarni tanlay boshladi.

Shuning uchun ham bo'sh vaqtni samarali o'tkazishni, insonning hayotiy faoliyatlaridan kelib chiqqan tanlash xususiyatlarining paydo bo'lishiga «rekreatsiya», «rekreatsion faoliyat» deb qarash to'g'ri bo'ladi. Bundan kelib chiqadiki, turizm tushunchasi rekreatsiya tushunchasiga nisbatan ancha tor ma'noni, tor doirani hosil qiladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, insonning rekreatsiya faoliyati bo'sh vaqt davomida amalga oshirilganligidan «dam olish» yoki «dam» turizm, rekreatsiya, ekskursiya tushunchalaridan yuqorida turadi.

Dam olish rekreatsiya mashg'ulotlaridan iborat bo'lib, bu mashg'ulot bilan uyda ham, uydan boshqa joyda ham shug'ullanish mumkin. «Rekreatsiyada» inson albatta o'z uyidan rekreatsiya

makoniga borishi kerak. Bu borish o'zida «turizm va ekskursiyani» birlashtiradi. Turizm esa +dam olish turi +rekreatsiya turi, aniqrog'i turizm rekreatsiyaning bir qismi. Ekskursiya ham, dam olish ham rekreatsiya — turizm.

Hozirda turizm sohasidagi tadqiqotchilar, turizm ta'limidagi tadqiqotchilar insonning «rekreatsiya faoliyati», «rekreatsion faoliyat» atamalarini ko'proq ishlatishmoqda. «Rekreatsion faoliyat» ruscha va o'zbekcha so'zlardan iborat bo'lganligidan, ikkinchidan «rekreatsion faoliyat» insonning «rekreatsiya faoliyati»ni anglatgani uchun «rekreatsiya faoliyati» atamasini ko'proq adabiyotlarga kiritishimiz to'g'riroq bo'ladi. Agarda ikkala atamani ham ishlatsak har ikkala atamaning rekreatsiyadagi turli tavsiflarni yaratishga to'g'ri keladi. Bunday tavsiflarni yaratishning iloji yo'q. Chunki, bu ikkala atamaning tavsiflari aynan bir xil hisoblanadi.

Insonning rekreatsiya faoliyatlarini tasniflashni izohlash uchun juda ko'p hajmdagi ma'lumotlarni yozish mumkin. Chunki, inson rekreatsiyani turizmning turlari bo'yicha ham tanlashi mumkin. Bunday holatda rekreatsiyaning faoliyatlarini tasniflash qayd qilganimizdek, juda katta hajmlarni oladi. Shuning uchun ham rekreatsiya faoliyatini jamoaviy tasniflash-guruhlash ancha tushunarli hisoblanadi. Rekreatsiyaning jamoaviy tasnif-guruhlari^{66, 67, 68};

1. Rekreatsiyaning tibbiy-biologik faoliyati: rekreatsiyaning tibbiy-biologik guruhi faoliyati-sanatoriya va kurortlarda davolanish va sog'liqni tiklashdan iborat hisoblanadi. Ya'ni, insonni rekreatsiya turizmi orqali sog'lomlashtirish va dam oldirishda ushbu jamoaviy guruh yordam beradi (rekreatsiya xizmatlari).

2. Rekreatsiyaning ijtimoiy-madaniy faoliyati: rekreatsiyaning ijtimoiy-madaniy faoliyatlari (yuqorida dam olish tizimining

⁶⁶ Ердавлетов С.Р. География туризма. История, теория, методика, практика. Алматы, 2000. С. 330.

⁶⁷ Кусков А.С., Голубева В.Л., Одинцова Т.Н. Рекреационная география, КноРУС, Москва. 2010. С. 500.

⁶⁸ Александрова А.Ю. География туризма. КноРУС, Москва. С. 592.

yoʻnalishlarida keltirildi) natijasida ishchi kuchi qayta tiklanadi. Ayniqsa, ijtimoiy turizm (imtiyozli rekreatsiya), shuningdek, madaniy rekreatsiyada ham ishchining mehnat qilish qobiliyati oshadi, kengayadi, asabiy holatlar kamayib, koʻplab xavfli kasallanishning oldi olinadi.

3. Rekreatsiyaning iqtisodiy faoliyati: rekreatsiyaning iqtisodiy faoliyati bir necha yoʻnalishda amalga oshiriladi:

- mamlakatning aniq bir hududida aniq xoʻjalik tarkibining rivojlanishi kuchayadi;
- rekreatsiya xizmatlari natijasida aholining ish bilan bandligi oshadi;
- rekreatsiya markazlarida aholining iqtisodiy daromadlari oshib boradi;
- xorijiy turistlarga rekreatsiya xizmatlari koʻrsatishda valuta tushumlari hosil boʻladi.

4. Rekreatsiyaning siyosiy faoliyati: siyosiy jihatdan rekreatsiyaning faoliyati shundan iboratki, u xalqlarni tanishtiradi, yaqinlashtiradi va doʻstlashtiradi.

5. Rekreatsiyaning ekologik faoliyati: rekreatsiyaning ekologik faoliyatida inson tabiat bagʻrida dam olishi bilan birga tabiatni asrash va muhofaza qilishga hissa qoʻshadi.

15.2. Rekreatsiya ehtiyoji, omillari va rekreatsiya turizmini rivojlantirish yoʻllari

Rekreatsiya turizmining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ahamiyatini belgilaganimizda birinchidan, hozirda aholining ruhiy va jismoniy dam olish obyektlari tavsif va taʼrifini kengaytirishimiz talab qilinadi. Yuqorida qayd qilingan, rekreatsiya faoliyatining tasnifida rekreatsiyaning ijtimoiy-madaniy faoliyati, rekreatsiyaning yetakchi, asosiy faoliyatlaridan biri hisoblanadi. Yaʼni madaniy va ruhiy ehtiyoj insonning yashash zavqini taʼminlovchi, oʻz makonida dunyoni anglashni mustahkamlovchi kuchlarni tiklovchi (ruhiy rekreatsiya) muhim omillardir.

Respublikamizda rekreatsiya turizmini rivojlantirishning eng muhim dolzarb masalalaridan biri ushbu joylarda turistik marshrutlar ishlab chiqish sust holatda ekanligi hisoblanadi. Rekreatsiya turizmining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o'rnini belgilaganimizda, ushbu joylarga dastlab tur mashrutlar ishlab chiqish mahalliy aholi iqtisodini ko'tarishda juda muhim omildir.

Ekoturizm, rekreatsiya va ziyorat — dam olish turizmi manzillariga, makonlariga va obyektlariga turmarshrutlar ishlab chiqilmas ekan, ushbu joylarga o'ziga xos bo'lgan xizmatlar ko'rsatish infratuzilmalari hosil bo'lmaydi. Bu holatda muhim bir omilga e'tibor berish zarurki, rekreatsiya manzillariga turistik marshrutlar tashkil qilishgina bu joylarda turistlarga xizmat qiluvchi infratuzilmalarni yuzaga keltiradi. Chunki, ma'lum bir turistik obyektga turistik oqimning ko'payishi albatta ehtiyoj nuqtayi nazaridan ularga xizmat qiluvchilarni chorlaydi. Natijada, turistlarning ehtiyojlarini sezgan mahalliy aholi dastlab turistlarga oddiy, sifatsiz xizmatlarni, keyinchalik sifatli va majmual xizmatlarni taklif qila boshlaydi⁶⁹.

Shu holatdan mahalliy aholi o'rtasida turistlarga xizmatlar ko'rsatish bo'yicha o'ziga xos raqobatbardoshlik hosil bo'ladi. Natijada, turistlarga xizmatlar ko'rsatish yaxshilanib, xizmatlarning turlari ko'payadi, sifati yaxshilanadi. Bu sharoit o'z navbatida ushbu turistik obyektlarga turistik infratuzilmalarni yaratib beradi.

Bu darajalarga yetishish uchun turistik firmalar va turistik tashkilotlar har bir turistik obyektlarning, har bir turistik infratuzilmalarning turistlarni nechog'liq qiziqtirishi va qoniqtirishi bo'yicha marketing taqdiqotlari o'tkazishi va olingan natijalar bo'yicha turizmni rivojlantirishning aniq maqsad va vazifalarini, rejalarini ishlab chiqishi lozim bo'ladi.

Mamlakatimizda ziyorat-rekreatsiya (rekreatsiya turizmining asosiy yo'nalishi) turizmni rivojlantirishning mamlakat

⁶⁹ Hayitboyev R., Haydarov S., Abduhamidov S. va boshq. O'quv qo'llanma. Turizm marshrutlarini ishlab chiqish. Samarqand, 2016. 180-b.

ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'рни, ahamiyatini ham marketing tadqiqotlari o'tkazish yo'li bilan aniqlab olish mumkin. Bu yo'nalishda marketing tadqiqotlarining mavzularini quyidagicha belgilash mumkin:

- yangi ish o'rinlarini tashkil qilishni tadqiq qilish;
- mahalliy va mahalliy aholi daromadlarini oshirishni tadqiq qilish;
- turistik xizmatlar ishlab chiqarish bilan bog'liq barcha sohalarni rivojlantirishni tadqiq qilish;
- turistik markazlarda ishlab chiqarish ijtimoiy sohalarni rivojlantirishni tadqiq qilish;
- xalq madaniyat markazlarini rivojlantirishni tadqiq qilish;
- valuta tushumlarini ko'paytirishni tadqiq qilish;
- mahalliy xalqlar madaniyatini xalqaro miqyosida tashviqot, reklama qilishni tadqiq qilish;
- mahalliy aholida milliy g'urur va vatanparvarlikni kuchaytirishni tadqiq qilish;
- xalqaro miqyosda xalqlar hamdo'stligini tashkil qilish, xalqaro hamdo'stlikni mustahkamlashni tadqiq qilish.

Rekreatsiya iste'molchilarini rekreatsiyaga jalb qilishda keltirilgan mavzular bo'yicha marketing tadqiqotlarini o'tkazish rejalashtirilganda albatta rekreantlarning rekreatsiyaga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olishi zarur. Rekreatsiya ehtiyojlarini o'rganish, rekreatsiyani hududiy tashkil qilish davlat ahamiyatiga molik talab hisoblanadi. Hududlar dam olishga ajratilganda tabiiy geografik talablar emas, aholining ehtiyojlari hisobga olinishi lozim. Chunki, hududdagi aholida tarixiy, ijtimoiy davrda ularga xos bo'lgan rekreatsiya ehtiyojlari shakllangan. Rekreatsiyani tadqiq qiluvchilar (rekreatsiya geografiyasi) rekreatsion faoliyatni hududiy tashkil qilish va hududiy-vaqti rekreatsiyali faoliyat o'sishini aniqlaydi.

Rekreatsion ehtiyoj — insonning hayot faoliyati jarayonida yo'qotilgan ruhiy va jismoniy mehnat qobiliyatini va sog'ligini tiklashga bo'lgan ehtiyoji hisoblanadi. Rekreatsion ehtiyoj alohida

tizim bo'lib, odamlarning hayot faoliyatini tashkil qilishda 3 darajaga bo'linadi⁷⁰. Bular quyidagilar: 1-jamoaviy rekreatsion ehtiyoj; 2-guruhli rekreatsion ehtiyoj; 3-yakka (individual) rekreatsion ehtiyoj.

Jamoaviy rekreatsion ehtiyoj – jamiyatning barcha a'zolarining mehnat qobiliyati va sog'ligini tiklovchi, ularning har tomonlama, jismoniy va ruhiy tiklanishini aniqlovchi, rekreatsiya tarkibining hududiy tashkillanish shakli hisoblanadi.

Guruhli rekreatsion ehtiyoj – aholining ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy, professional va yosh guruhlarining rekreatsiyaga bo'lgan talablarini qondiradi. O'ziga xos bo'lgan rekreatsiya ehtiyojiga ko'pincha oilalar talabgor bo'lishadi. Shuningdek, ma'lum bir guruhlar davolanish, sog'liqni tiklash, bilish bo'yicha maslakdosh, fikrdosh bo'lishadi. Masalan, hozir jahon bo'yicha keksalarning rekreatsiyaga bo'lgan ehtiyojlari yildan-yilga o'sish ko'rsatkichlariga ega bo'lib bormoqda.

Yakka (individual) rekreatsion ehtiyoj – yakka shaxsning dam olish, jismoniy tiklanish talablaridir. Bunda inson faqat o'zining rekreatsiya talablarini qondiruvchi rekreatsiya markazlarini yoki xizmatlarini tanlaydi.

Rekreatsiya ehtiyojlarining shakllanishiga ko'plab omillar sabab bo'ladi va ular quyidagicha guruhlanadilar:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar: ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi darajasi; farovonlik darajalarini ishlab chiqarish darajasi; shu jumladan xizmatlarni ham; turizm va dam olish sohalarining rivojlanish darajasi; tovarlar va xizmatlarni sotish baholari darajalari; rekreatsiya baholari darajalari; transport vositalari va transport infratuzilmalarining rivojlanish darajalari; mehnat ta'tillarining uzoq muddatliliigi; rekreatsiya markazlari, hududlari va rayonlarining hamda ularga marshrutlar haqidagi axborotlar va reklamalar qo'yilishi; aholining ijtimoiy va malakaviy

⁷⁰ Николаенко Д.В. Рекреационная география. Москва, 2001.; Николаенко Д.В. Картографический метод исследования в рекреационной географии. Рекреационная география. Саратов, 2004. стр. 25–36.

tarkibi; aholining madaniy hayot kechirish darajalari; aholining harakatchanligi; milliy an'analar.

2. *Demografik omillar* — shahar va qishloq aholisining nisbatlari (urbanizatsiya) darajalari; aholining jinsiy tarkibi; aholining tarkibiy yoshlari; aholining tarqalishi xususiyatlari.

3. *Ijtimoiy-ruhiy (psixologik) omillar* — ishchanlik va madaniy aloqalarning tezkorligi (chiqishimligi; gapga, fikr-xulosalarga tushuniladiganligi, xushmuomalaligi va boshq.); madaniy hayot tipi; kutilmagan axborotlar va voqeliklar ta'siriga bog'liqliligi; dunyoqarashi xususiyatlari va xislatlari.

4. *Tibbiy-biologik omillar* — aholining sog'ligi holatlari darajalari; sport-sog'lomlashtirish tadbirlariga ehtiyojlari darajalari.

5. *Tabiiy omillar* — inson yashayotgan tabiiy mintaqaga, tog'ga, o'rmonga, daryoga, dengizga, flora va faunaga qiziqishi darajalari va ularga nisbatan geografik joylanishi, tanlashi xususiyatlari⁷¹.

Rekreatsiya ehtiyojlarining eng muhim masalalaridan biri — aholining rekreatsiya xizmatlariga bo'lgan talablarini qondirish darajalarini oshirish hisoblanadi. Lekin, bizda hanuzgacha bu muammolarni hal qilish tizimi ishlab chiqilmagan. Rekreatsiya ehtiyojlarini iqtisodiy isbotlangan baholarda asoslashgina aholini rekreatsiyadan bahramand bo'lishi shakllari va usullaridan foydalanishga undaydi.

Rekreatsion faoliyat zamonamizning muhim ijtimoiy-iqtisodiy omillariga aylanib bormoqda. Rekreatsion faoliyatni tashkil qilish majmualari xususiyatlarga ega bo'lib, har qanday rekreatsiya tizimida dam oluvchilar guruhi, tabiat majmualari, texnik infratuzilmalar, xizmat ko'rsatish sohalari, mehnat resurslari, tashkiliy-iqtisodiy va tashkiliy-tarqalish tizimlari o'zaro aloqada, o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatadi. Shunday ekan, turistik firmalar va turistik tashkilotlar rossiyalik taniqli olim M.B.Birjakovning "Turizmni o'rganish vaqti, turizm bilan shug'ullanish vaqti, turizmdan daromad olish vaqti" degan shiori bo'yicha ishlab turizmning

⁷¹ Hall C.M., Pige S.J., The Geography of Tourism and Recreation. London — N.Y.: Routledge, 1999.P. 126-137.

rivojlanishi marketing tadqiqotlari bilan uzviy holatlarda bog'liq ekanliklarini yaxshilab anglab olishlari talab qilinadi. Zeroki, marketing tadqiqotlari har bir tashkilotning samarali rivojlanishini, uning maqsadi va vazifalarini aniq belgilab beradi.

Tayanch so'z va iboralar: rekreatsiya, bo'sh vaqt, bekor vaqt, rekreatsiya faoliyati, rekreatsiya omillari, rekreant, rekreatsiya ehtiyoji.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Rekreatsiya turizmining mohiyati nimalardan iborat?
2. Rekreatsion faoliyatni tushuntiring.
3. Rekreatsiya omillarini sanab bering va tushuntiring.
4. Rekreatsiya ehtiyojini qanday tushunasiz?
5. Rekreatsiya, turizm va ekskursiyaning bog'lanishini tushuntiring.
6. Bo'sh vaqtni tushuntiring.
7. Bekor vaqt qanday vaqt?
8. Mavzu matnidagi xalqaro ekologik ramzni ta'riflang.

16-mavzu. O‘ZBEKISTONDA ICHKI VA XALQARO EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOYIY-IQTISODIY HAYOTIMIZDAGI AHAMIYATI

Reja:

16.1. O‘zbekistonda ichki ekoturizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizdagi ahamiyati.

16.2. O‘zbekistonda xalqaro ekoturizmni rivojlantirishning ijtimoiy iqtisodiy hayotimizdagi ahamiyati.

16.1. O‘zbekistonda ichki ekoturizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizdagi ahamiyati

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 7-fevralda “Ichki turizmni rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3514-sonli Qaror qabul qildi⁷². O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-son Farmoni ijrosini ta’minlash, shuningdek, hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida ichki turizmni jadal rivojlantirish, fuqarolarni mamlakatimizning madaniy-tarixiy merosi hamda tabiiy boyliklari bilan tanishtirish maqsadida:

1. «O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!» ichki turizmni rivojlantirish dasturini amalga oshirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi.

Bu muhim qarorning amalga bajarilishi jarayonida ichki ekologik turizmni rivojlantirish vatanimiz aholisining

⁷² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori: «Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash to‘g‘risida». 2018-yil 7-fevral, № PQ-3514. QHMMB: 07/18/3514/0672-son, Toshkent sh., 08.02.2018-y.

tabiatimizning tabiiy mintaqalarini, tabiatimizning boyliklari, biologik xilma-xillikni ko'rish va o'rganishda juda katta va qulay imkoniyatlarni yaratadi. Bu yerda eng muhimi ichki ekologik turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini kechiktirmasdan, o'z vaqtida ishlab chiqishimiz talab qilinadi.

O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish hozirga kelib o'zining shakllanishi bosqichida. Shaharlarimizdagi turizm raqobati natijasida ko'plab turistik firmalar qo'shimcha resurslarni va imkoniyatlarni izlashmoqda. Izlanayotgan resurslar va imkoniyatlar mamlakatimizda ichki turizmni rivojlantirish yo'nalishi hisoblanadi. Lekin, hanuzgacha turizm mutaxassislari tomonidan ham, turizm boshqaruvidagi tashkilotlar tomonidan ham, turizm tadbirkorligida ham ichki turizmni rivojlantirish muammolarini ilmiy va amaliy jihatlardan jiddiy tadqiq qilish e'tibordan chetda qolib kelmoqda.

Ichki turizmni rivojlantirishda eng muhim omil aholining turistik resurslar, turistik xizmatlar va mahsulotlar, turistik infratuzilmalar va turizmdagi daromad haqida axborotlanganlik darajasi hisoblanadi. Ikkinchidan, turistik xizmatlar va turistik infratuzilmalarning narxi aholining barcha qatlamlariga mosligidir. Yevropa davlatlari maktab o'quvchilari, institut, kollej va universitetlar talabalariga xizmat ko'rsatish, infratuzilmalar narxini 10% past belgilagan hamda bu tarkibda faoliyat yurituvchi turistik firmalarga ko'plab imtiyozlar berishadi. Ana shunday davlat dasturlarini bizning mamlakatimizda ham ishlab chiqishimiz maqsadli bo'ladi.

Birinchidan, hozirgi vaqtga kelib turizm sohasi xalq xo'jaligimizning deyarli barcha tarmoqlarini qamrab olish darajalarida rivojlanmoqda. Ana shu qamrab olish davrida turizmning ko'plab ishlab chiqarish tarmoqlariga va sohalariga



bo'linishi kelib chiqdi. Yangi tarmoqlarni va sohalarni rivojlantirish turizmdagi dolzarb masalalarga va muammolarga aylanib borayotganligi va ayniqsa qishloq joylarda aholini ish bilan ta'minlash va servis xizmatlarini sifatli, samarali ko'rsatish davlat siyosatiga aylanganligi sababli, ushbu qayd qilingan muammolarni yechishni talab qilmoqda. Bu muammolarni yechishning eng samarali yo'llari esa mamlakatimizda ichki turizmni rivojlantirish hisoblanadi.

Ikkinchidan, mamlakatimiz xalq xo'jaligi mustaqilligimizdan keyin xalqaro integratsiya sharoitlarida rivojlanishni boshladi. Xalq xo'jaligida eski xalqaro talablarga javob bermaydigan texnologiyalar, bir yoqlamaga moslashgan ishlab chiqarish tarmoqlari mamlakatni modernizatsiya qilish asosida zamonaviy texnologiyalarda ishlab chiqarish usuliga o'tdi. Bu sharoitda ishlab chiqarish va aholiga servis xizmatlarini samarali ko'rsatish birinchi navbatda aholining ish bilan ta'minlanganlik darajalarini ko'tarishni talab qilmoqda. Mamlakatimizda esa deyarli 50% aholi qishloqlarimizda yashashmoqda. Qayd qilingan muammolarni hal qilishda ichki turizmni qishloqlarni rivojlantirishning barcha rejalariga qo'shgan holatlarda yechish mumkin.

Uchinchidan, ichki turizmni rivojlantirish hozirgi vaqtda xalqimizning madaniy va ma'rifiy taraqqiyotini rivojlantirishda ham kutilgan samaralarni berishi shubhasiz hisoblanadi. Chunki, ichki turizmni rivojlantirishda aholi ish bilan ta'minlanadi, ijtimoiy-iqtisodiy yashash tarzi oshadi, ichki turizm infratuzilmalarini yaratishda va ichki turizm xizmatlar qilishda aholining turizmdagi faoliyati kuchayadi, viloyatlar va tumanlarda yashayotgan aholilarning bir-biri bilan tanishishi va do'stlashuvi kuchayadi. Viloyatlardagi aholilar boshqa viloyatlardagi, tumanlardagi turistik resurslardan va ayniqsa rekreatsiya, davolanish va muqaddas ziyoratgohlardan xabardor bo'lishadi.

Eng muhimi shundaki, ichki turizmning rivojlanishi turistik ekskursiya xizmatlarining rivojlanishini ta'minlaydi. Ayniqsa, bolalar ekskursiyalarining rivojlanishi natijasida bo'lg'usi avlodning

vatanimizni bilishi va uning boyliklarini bilishi, betakror tabiatini o'rganishi xalqimizning madaniy-ma'rifiy taraqqiyotida muhim va ahamiyatli hisoblanadi.

To'rtinchidan, mamlakatimizda ichki turizmni rivojlantirish natijasida ishlab chiqarish sohalarida mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytiradi va kuchaytiradi. Ayniqsa, qishloqlarimizda milliy meros mahsulotlarini ishlab chiqarish kuchayadi, unutilganlari qayta tiklanadi.

Beshinchidan, ichki turizmni rivojlantirish jarayonida vatanimizga tashrif buyurayotgan xalqaro turistlarni jalb qilish va ularga qiziqarli, jozibali turistik xizmatlar ko'rsatish imkoniyatlari hosil bo'ladi. Chunki, xalqaro turizm ekspertlarining xulosalariga ko'ra xalqaro turistlar birinchi navbatda xalqlarning yashash tarziga, milliy madaniyatiga, milliy merosiga, milliy urf-odatlariga va milliy o'yinlariga qiziqishadi.

Qayd qilinganlarga asoslanib xulosa qilishimiz mumkinki, mamlakatimizda ichki turizmni rivojlantirish milliy turizmning shiddat bilan rivojlanishiga asoslar, katta imkoniyatlar yaratadi. Bu rivojlanishga va imkoniyatlarga erishish uchun esa birinchi navbatda mamlakatimizda ichki turizmni rivojlantirishning nazariy-konseptual rejalarini ishlab chiqishimiz kerak.

Ikkinchidan, *ichki turizmni shaharliklar – qishloqlarga va qishloqliklar – shaharlarga shiori va dasturi asosida* rivojlantirish Yevropa davlatlarida o'tgan asrning 70-yillaridan mukammal amalga oshirilib kelinmoqda. Ayniqsa, qishloqlardagi maktab o'quvchilarini shaharlar hayoti va diqqatga sazovor joylari bilan tanishtirish ekskursioniyalarini muntazam tashkil qilish va aksincha shaharlik maktab o'quvchilarini qishloq hayoti bilan tanishtirish, dam oldirish ekskursioniyalarini muntazam tashkil qiluvchi turistik firmalarga ko'plab imtiyozlar yaratish Yevropa davlatlarida ichki turizmni rivojlantirish dasturlariga kiritilgan.

Uchinchidan, viloyatlar va tuman hokimliklari o'z hokimliklari tasarrufida yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining dam olish tizimini samarali tashkil qilishda ichki turizmni

rivojlantirish imkoniyatlaridan unumli foydalanish salohiyatlari juda katta ekanliklarini e'tiborga olishlari lozim (ziyoratgohlarda ziyorat va dam olish infratuzilmalarini yaratish, ishlamayotgan va ta'mir talab ziyoratgohlar hamda rekreatsiya obyektlarini tadbirkorlarga berish, vatanimizni o'rganamiz dasturlarini yaratish va boshq.).

To'rtinchidan, maktablarimizdagi yozgi ta'til vaqtida shaharlarga, tog'larga, tabiatning so'lim maskanlariga, tabiiy geografik mintaqalarga o'quvchilar ekskursiyalarini tashkil qilishda viloyatlar va tumanlar, shahar hokimliklarining mablag'larini jalb qilishning huquqiy me'yorlarini ishlab chiqish vaqti keldi. Buning uchun birinchi navbatda ushbu yo'nalishda turistik faoliyat ko'rsatuvchi turistik firmalarga davlatimiz tomonidan ko'rsatiladigan jiddiy moliyaviy yordam va imtiyozlar tizimini ishlab chiqish zarur bo'lmoqda.

16.2. O'zbekistonda xalqaro ekoturizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizdagi ahamiyati

Mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirishda xalqaro turizm sohasi muhim ahamiyatga ega bo'lgan sohalardan hisoblanadi. Yildan-yilga xalqaro turizmning obro'yi oshib bormoqda. Uning iqtisodiy smaradorligi ortib yildan-yilga ko'plab davlatlarni qamrab olmoqda. Xalqaro turizm ma'lumotlaridan ma'lum bo'lmoqdaki, turistlar ko'proq qadimiy, tarixiy yodgorliklarga boy davlatlarga intilmoqdalar. Bunday, ko'p tarmoqli imkoniyatlardan kirish turizmida foydalanish, jahon turizmida dunyo xalqlarining O'zbekistonga bo'lgan qiziqishlari va istiqbolli iqtisodiy yuksalishlardagi ulug' maqsadlarni hisobga olib, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorini qabul qildi⁷³.

⁷³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.02.2018-y., 07/18/3509/0658-son).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu qarorida «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-son Farmonini ijro etish, shuningdek, respublikaga turistlar oqimini ko'paytirish, kirish turizmini milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biriga aylantirish, mamlakatning madaniy-tarixiy merosi va tabiiy boyliklarini keng targ'ib qilish maqsadi qo'yilgan. O'zbekiston turizmining muammolarini iqtisodiyotning boshqa sohalaridan ajratib, alohida rivojlantirish mumkin emas. Chunki, hozirning o'zida turizm sohasi iqtisodiyotimizning 32 dan ortiq tarmoqlari bilan bog'liq hisoblanadi.

O'zbekistonda xalqaro ekoturizmni rivojlantirishning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ahamiyatini belgilaganda juda ko'plab fikr-mulohazalarni keltirish mumkin. Dastlab qayd qilish lozimki, xalqaro ekoturistlar oqimining kuchayishi mamlakatimizdagi tinch-osoyshta hayotning barqarorligidan, xalqaro ekoturistlarning vatanimizda erkin turistik faoliyati ta'minlanganligidan, ularga ko'rsatilayotgan xizmatlarning mehmondo'stlik talablari asosida tashkil qilinganligidan hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekistonda xalqaro ekoturizm faoliyatining huquqiy me'yorlari yaratilganligi, xalqaro ekoturistlarning vatanimizda erkin turistik faoliyatda bo'lishliklarining xalqaro qonuniy aktlari yaratilganligi ham xalqaro ekoturizmni yanada rivojlantirish imkoniyatlarini keltirib chiqaradi.

O'zbekistonda xalqaro ekoturizmni rivojlantirishning mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rini aniqlashdan oldin vatanimizda xalqaro turizmni rivojlantirishning maqsadi va vazifalarini belgilab olish talab qilinadi. Mamlakatimizning barcha viloyatlarida, iqtisodiy yoki tabiiy mintaqalarida xalqaro turizmni rivojlantirish masalalari ham O'zbekistonda xalqaro ekoturizmni rivojlantirish masalalari bilan uzviy holatlarda va talablarda ko'riladi.

O‘zbekistonda xalqaro ekoturizmni rivojlantirishning maqsadi:

1. Davlatimizning xalqaro miqyoslardagi obro‘cini oshirish.
2. Xalqaro darajalardagi, mo‘jizali turistik resurslarimizni, obyektlarimizni dunyo xalqlariga tanishtirish.
3. O‘zbekiston xalqlarini ko‘plab chet elliklar bilan tanishtirish, o‘zaro hamdo‘stlik, hamkorlik aloqalar kelib chiqishiga sharoitlar yaratish.
4. O‘zbekistonliklarning milliy merosi, boyliklari, milliy madaniyati, sanoati va milliy an‘analarini jahondagi xalqlarga ko‘rsatishda hududiy hamda mintaqaviy turizmning xalqaro turistik markazlarni tashkil qilish.
5. O‘zbekistonda xalqaro ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlaridan kelib chiqqan yangi xalqaro turistik hududlarni, mintaqalarni tashkil qilish, bu hududlar va mintaqalarda xalqaro ekoturizmni rivojlantirishning yangi xalqaro turistik rejalarini, strategiyalarini ishlab chiqish.

O‘zbekistonda xalqaro ekoturizmni rivojlantirishning vazifalari:

1. Xalqaro ekoturizmni tashkil qilishning huquqiy me‘yorlarini, ijtimoiy-iqtisodiy-tashkiliy mexanizmlarini ishlab chiqish.
2. Xalqaro ekoturizmga aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan turizm tarmog‘i va unga xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish uchun davlat ahamiyatidagi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.
3. Xorijiy davlatlarning xalqaro ekoturizmni rivojlantirish sohasidagi xalqaro loyihalarida ishlash, hamkorlik qilish imkoniyatlarini, sharoitlarini yaratish.
4. Xalqaro ekoturizm infratuzilmalarining komfortlilik darajalarini, jahon andozalari va talablari darajalarida yaratish, tayyorlash.
5. Xalqaro ekoturizm xizmatlarini jahon andozalari va talablari darajalarida yaratish, tayyorlash.
6. Transport-kommunikatsiya tarmoqlari xizmatlarini xalqaro ekoturizmga transport kommunikatsiya xizmatlari talablari darajalariga yetkazish.

O‘zbekistonda xalqaro ekoturizmni rivojlantirishning ijtimoiy-

iqtisodiy hayotidagi ahamiyati quyida keltirilgan muhim ijtimoiy-iqtisodiy ko'tarilishga, taraqqiyotga zamin, shart-sharoitlar yaratadi:

- Mamlakatimiz iqtisodiyotida valuta tushumlari ko'payadi. Shu bilan birga xalqaro ekoturistlardan mahalliy xizmatlar ko'rsatuvchilar ham valutalarni oladilar;
- Davlatimizning xalqaro miqyoslardagi obro'sini oshiradi;
- Turistik infratuzilmalarning komfortlilik darajalarini xalqaro talab darajalariga ko'taradi;
- Sanoatda va qishloq xo'jaligida mahsulotlar ishlab chiqarish kuchayadi. Bu mahsulotlarning sifati xalqaro darajalarga ko'tariladi;
- Xalqaro miqyosdagi barcha turistik resurslar-obyektlar ta'mirlanadi, ko'klamzorlashtiriladi, obodonlashtiriladi;
- O'zbekistonliklarning milliy merosi, boyliklari, milliy madaniyati, san'ati va milliy an'analari jahondagi ko'plab davlatlarda taniladi;
- Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish kuchayadi;
- Transport-kommunikatsiya tarmoqlari xizmatlari yaxshilanib boradi;
- Turizm xizmatlarining turlari ko'payadi va sifatlari xalqaro talablar darajalariga ko'tarilib boradi;
- O'zbekiston turizmiga xorijiy investitsiyalar kirib kelishiga sharoitlar va imkoniyatlar yaratadi;
- Mehmonxonalar xo'jaliklarida xizmatlarning turi ko'payadi, sifatlari oshadi, komfortliliklari ko'tarilib boradi;
- Xalqaro ekoturistlarni ovqatlantirish xizmatlari yaxshilanib boradi, milliy taomlarni tiklash va sifatli tayyorlash kuchayib boradi;
- Xalqaro turistik marshrutlar yaratish talablari kelib chiqadi;
- Xalqaro turizm reklamalarini ishlab chiqish kuchayadi;
- Xalqaro ekoturizmni rivojlantirish yo'nalishlariga ixtisoslashuv takomillashib boradi;

- Xalqaro turoperatorlar tayyorlash talablari kelib chiqadi;
- Xalqaro turistik markazlarni tashkil qilish talablari kelib chiqadi.

Tayanch soʻz va iboralar: ichki ekoturizm, xalqaro ekoturizm, xorij ekoturizmi, xalqaro turizm talablari, komfort, xalqaro turoperatorlar.

Mavzuni oʻzlashtirish boʻyicha savol va topshiriqlar:

1. Xalqaro ekoturizm va ichki ekoturizmni tushuntiring.
2. Yevropa davlatlarining shaharliklar—qishloqlarga va qishloqliklar — shaharlarga shiori va dasturini tushuntiring.
3. Oʻzbekistonda xalqaro ekoturizmni rivojlantirishning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
4. Oʻzbekistonda ichki ekoturizmni rivojlantirishga qanday maqsadlar qoʻyiladi?
5. Xalqaro ekoturizmning Oʻzbekistondagi resurslarini aytib bering.
6. Xalqaro ziyorat turizmining resurslari qanday belgilanadi?
7. Qadimiy tarixiy obidalar qaysi turizm turining resurslari hisoblanadi?

17-mavzu. EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Reja:

17.1. Ekoturizmni rivojlantirishdagi muammolar.

17.2. Ekoturizmni rivojlantirishdagi muammolarning yechimlari.

17.1. Ekoturizmni rivojlantirishdagi muammolar

Ekoturizmni rivojlantirishda «O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish Konsepsiyasi» dasturlari bo‘yicha katta ishlar bajarilmoqda. Shu bilan birga respublikamizda ekoturizmni rivojlantirishda yechimlari ancha og‘ir, jiddiy bo‘lgan muammolar ham to‘planib qolgan. Bu muammolarning birinchi navbatda o‘z yechimini kutib turgani, ekoturizmni rivojlantirishdagi bosh ekoturizm resurslarining davlat muhofazasida turganligidir (9-jadval). Keltirilgan jadval ma‘lumotlari bilan tanishib chiqib respublikamizda ekoturizm rivojlanishi kerak bo‘lgan birinchi navbatdagi ekoturizm resurslari davlat muhofazasida ekanligi ma‘lum bo‘ladi. Bu holat juda to‘g‘ri qaror qilingan. Dunyoning barcha davlatlarida ham 9-jadvaldagi tabiiy hududlar o‘zining o‘simliklar olami va hayvonot dunyosi bilan qattiq qo‘riqlanadi.



Shu bilan birga ta‘kidlash lozimki, juda ko‘plab davlatlarda, ayniqsa tabiatda noyob o‘simlik yoki hayvon turlari muhofaza qilinadigan qo‘riqxonalar ham ekoturizm maqsadlarida samarali foydalanishadi. Bunga misol qilib Afrika, Kanada, Amerika, Avstraliyadagi qo‘riqxonalar, rezervatlar va milliy parklar haqidagi kino seriallarning tobora ommaviylashib borayotganligini keltirish mumkin.

Bu holatning eng muhim sababi, bu muhofazadagi manzillardan ekoturizmga foydalanishning huquqiy-qonuniy me‘yorlari yaratilganligidir va bu qonunlarga «mehmonlar» ham,

«mezbonlar» ham qattiq rioya qilishadi. Respublikamizdagi tabiat qo'riqxonalariga faqat ilmiy xodimlar kirishga ruxsat beriladi. Bu qo'riqxonalariga hatto maxsus ilmiy ekspeditsiyalar ham O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining ruxsatnomasini olishi kerak.

Shuningdek, respublikamizning daryo va suv havzalari, suv omborlariga kirish O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan taqiqlangan. Tabiatimizning diltortar tog' va cho'l landshaftlari haqida ham qayd qilingan cheklovlarni keltirish mumkin. Mamlakatimizda xalqaro ekologik turizmni rivojlantirish uchun birinchi navbatda tabiat qo'riqxonalarimizdan xalqaro ekologik turizmni rivojlantirishda foydalanishning huquqiy-me'yoriy asoslarini yaratishimiz kerak. Chunki, xalqaro ekologik turizmning asosiy resurslari milliy parklar, tabiat va biosfera qo'riqxonalari, alohida muhofazadagi hududlar hisoblanadi. Ekoturizmni rivojlantirish uchun ekoturizmning asosiy resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilib ekoturizmdagi muammolar quyidagilar ekanligi ma'lum bo'ldi:

1. Respublikadagi asosiy ekoturizm resurslariga turistik marshrutlar ishlab chiqish qoniqarsiz holatdaligini alohida ta'kidlash zarur.

2. Qo'riqxonalar, zakazniklar va milliy parklarda ekoturizm so'qmoqlari, marshrutlari va bu marshrutlarda turistlarga xizmatlar ko'rsatish, dam olish va tunash manzillarini yaratishga haligacha kirishilgan emas.

3. Respublikamizda ekoturizm resurslaridan foydalanishning huquqiy-qonuniy me'yorlari hozirgacha ishlab chiqilmagan.

4. Ekoturizmni rivojlantirishda ekoturizm maskanlaridagi tadbirkorlik, tashabbuskorlik, turizm-biznes mahalliy mehnat resurslarining ish bilan band bilishidagi ta'lim-targ'ibot, qiziqtirish ishlari qoniqarsiz ahvolda.

5. Ekoturizmni rivojlantirishda ichki ekoturizm va xalqaro ekoturizmning milliy reklamasi ichki turizm bozoriga ham, tashqi turizm bozoriga ham chiqarilmagan.

O'zbekiston Respublikasining muhofaza etiladigan tabiiy hududlari

No	Tabiiy landshaft	Muhofaza hududlari	Maydoni, ga	Tashkil etilgan yil
1	2	3	4	5
		Davlat qo'riqxonalari	175536	1971
1	Baday - to'qay	Amudaryo pasttekisliklari to'qay ekotizimlari	6462	1983
2	Hisor	Hisor tizmasi tog' ekotizimlari	80986	1959
3	Zomin	Turkiston tizmasi tog' ekotizimlari	21735	1975
4	Zarafshon	Zarafshon daryosi o'rta oqimi to'qay ekotizimlari	2352	1971
5	Qizilqum	Amudaryo o'rta oqimi va qo'shni sahrolar to'qay ekotizimlari	10311	1975
6	Nurota	Nurota tizmasi tog' ekotizimlari	26895	1971
7	Surxon	Qo'hitang tog' tizmasi ekotizimlari va Amudaryo o'rta oqimi to'qay ekotizimlari	26895	1975
8	Kitob	Noyob geologik kon	3938	1987
9	Chotqol davlat biosfera qo'riqxonalari	Chotqol tog' tizimi ekotizimlari	35724	1947
1	Uyum-Chotqol davlat milliy bog'i	G'arbiy Tyonshon ekotizimlari	574590	1990
2	Xalq bog'i (Zomin)	Turkiston tizmasi ekotizimlari	24110	1977
Davlat tabiat yodgorliklari				
1	Yozyovon sahrosi	Noyob tabiat yodgorliklari	1000	1991
2	Mingbuloq tumani tabiat yodgorligi	O'simlik va hayvonot dunyosi	1000	1991

17.2. Ekoturizmni rivojlantirishdagi muammolarning yechimlari

O'zbekistonda muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarda ekoturizmning rivojlanishini ta'minlaydigan asosiy chora va tadbirlar «Ekoturizm Konsepsiyasida» mukammal holatda berilgan. Ekoturizmning dunyoda tutgan o'rnini, mavqei hamda O'zbekistondagi salohiyati va uning rivojlanishini e'tiborga olgan holda «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi» Vatanimizning muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarida ekoturizmning rivojlanishini ta'minlaydigan quyidagi asosiy chora va tadbirlar ishlab chiqdi⁷⁵:

1. Respublikamizda ekoturizm sohasida xizmat qiluvchi, jahon talablariga javob beraoladigan yuqori malakali mutaxassislarining yetishmasligini hisobga olgan holda, yosh mutaxassislarni ekoturizm rivojlangan mamlakatlarga (AQSH, Yaponiya, Kanada, Fransiya, Germaniya) malakalarini oshirish uchun o'qishga, ishga yuborish lozim.

2. Jahon andozalari va talablariga mos keladigan ilmiy va iqtisodiy asoslangan katta-kichik, qisqa va uzoq muddatga mo'ljallangan loyihalar va biznes rejalar ishlab chiqib amalga oshirish lozim (imtiyozli kredit asosida).

3. O'zbekistonda ekoturizmning jahon talablariga javob beraoladigan moddiy-texnik, axborot tahliliy bazasini yaratish, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish zarur.

4. Vatanimizning tarixiy yodgorliklari, go'zal va betakror tabiati, landshafti, nabotot va hayvonot dunyosi haqida bukletlar, turistik atlas va xaritalar yordamida dunyo ekoturizm bozorida targ'ibot ishlarini amalga oshirish lozim.

5. Baday-to'qay va «Jayronxona» ekomarkaziga qo'shni hududlarda Markaziy Osiyoda qirilib ketishi xavfli bo'lgan noyob

⁷⁵ O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish Konsepsiyasi, «Ekologik xabarnomasi», j. № 6, 2007, Toshkent. 8--14-bb.

hayvonlarni saqlash va ko'paytirish uchun milliy bog'lar tashkil qilish lozim.

6. O'zbekiston viloyatlari bo'yicha yangi ekoturistik dasturlar, yo'nalishlar va xaritalar tuzish kerak.

7. Ekoturizm sohasi bilan bog'liq tashkilotlarga ko'proq huquqlar, imtiyozli kreditlar berish, "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi" tomonidan ishlab chiqilgan «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunga ekoturistlarga nisbatan huquqiy nazorat ishlarini yengillashtirish bo'yicha ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish lozim.

Vatanimiz ekoturizmining taraqqiyot salohiyati nihoyatda katta va uni jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Faqat bu salohiyat va imkoniyatlardan jahonda ekoturizmi taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasiga tayangan holda oqilona foydalanish hamda ilmiy asosda xatolarsiz amalga oshirish lozim. Qayd qilingan muammolar ham mamlakatimizda turizmni va ekoturizmni rivojlantirishga kirishganimizdan keyingina aniqlanmoqda.

O'z rivojlanishini boshlagan har qanday soha taraqqiyotiga, istiqboliga bosqichma-bosqich yetib boradi. Birinchi navbatda ana shu bosqichlardagi muammolarning bajarilish darajalari va ketma-ketligini aniqlash talab qilinadi. Ikkinchidan, muammolarning yechimini topishda albatta mukammal tajriba va mukammal tadqiqot natijalariga asoslanish lozim. Ikkinchidan, ekologik turizm faoliyati tabiat muhofazasi bilan bog'liq bo'lganligidan ekoturizmni tashkil qilishdagi ilmiy-amaliy tadqiqotlar o'ta darajadagi diqqat-e'tiborni talab qiladi.

Tayanch so'z va iboralar: ekologik muammo, xalqaro darajalar, ilmiy ekspeditsiya, zaxira, ekologik cheklov, biznes reja, antropogen, landshaft.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Ekoturizmni rivojlantirishning qanday muammolarini bilasiz?
2. Qo'riqxonalaridan ekoturizmda foydalanishda ruxsat beriladimi?
3. Ekoturizmdagi xalqaro EKONET tizimini bilasizmi?.
4. Ekoturizmni rivojlantirish uchun nimalar qilish kerak?
5. Ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha savollar tayyorlab keling.
6. Ekoturizm tabiat muhofazasi bilan qanday bog'langan?
7. O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish davlat dasturi bormi?
8. Mavzu matnidagi xalqaro ekologik ramzni ta'riflang.

18-mavzu. EKOLOGIK TURIZM MARSHRUTLARINING REKLAMALARINI ISHLAB CHIQISH

Reja;

18.1. Turizm va ekoturizm marshrutlarning reklamalarini ishlab chiqish va reklama qilish.

18.1. Turizm va ekoturizm marshrutlarining reklamalarini ishlab chiqish va reklama qilish


Turistik marshrutlar alohida turlar uchun ishlab chiqilganligidan uning reklamasi ham turlar bo'yicha alohida reklama qilinadi. Bu reklama mazmuni reklama qilinayotgan turga bag'ishlanadi.

Marshrutlarning reklama mazmuni tanlanganda va ishlab chiqilganda quyidagilarga e'tibor berish lozim bo'ladi:

- reklamaga turning eng qiziqarli, asosiy resursi-obyektini kiritish;
- reklamada marshrutning yo'nalishi atrofida joylashgan (agar mavjud bo'lsa) diqqatga sazovor turistik obyektlarni rangli tasvirlash;
- reklamada marshrut davomida o'tkaziladigan ekskursiyalarning qiziqarli obyektlarini rangli tasvirlash;
- reklamada marshrut davomida ko'rsatiladigan xizmatlarni tasvirlash.

Respublikamizda turizmni rivojlantirish uchun dastavval har bir turistik resursga turistik marshrut ishlab chiqilmog'i zarur. Turizmdagi reklamada 3 ta zaruriy obyekt bo'ladi. Birinchisi— turistik obyekt (makon, manzil), ikkinchisi — turistik marshrut, uchinchisi — turistik marshrutdagi xizmatlar.

Reklamaga turning eng qiziqarli, asosiy resursi—obyektini kiritish va izohlash. Bu talabda reklamaga barcha turlarning asosiy obyektini



rangli tasvirda kiritiladi. Bu usul jahon turizmida eng qulay, natijali va tan olingan usul hisoblanadi. Respublikamizdagi tarixiy obidalar turizmida qayd qilingan usulda reklama mahsulotlari jahon andozalarida chop qilinib dunyo mamlakatlariga tarqatilmoqda.

Biz turistik obyekt yoki ziyoratgoh manzilini soʻrab-surishtirib borishga oʻrganganmiz Reklamada turistni turistik resursga—obyektga chorlaydigan markaziy obyekt birinchi betda, koʻrinarli holatda, rangli tasvirda, qisqacha izoh bilan berilishi lozim. Masalan, ekoturizm ishqibozlari xilma-xil hayvonot dunyosiga qiziqishadi, biri qushlarga, biri hayvonlarga. Bunday reklamalarga maʼlum joylarda (togʻlarda, qoʻriqxonalarda, buyurtmaxonalarda, suv havzalarida va h.k.) yashayotgan, koʻpaytirilayotgan, asosiy diqqat-eʼtibordagi yakka yoki oʻsha joyda yashayotgan hayvonot olamining vakillari birgalikda beriladi.

Masalan, Nurota Qoʻriqxonasida 600 tur oʻsimliklar oʻsadi. Bu oʻsimliklarning umumiy fondini rangli qilib berish reklamaning taʼsirchanligini oshiradi. Shuningdek, qoʻriqxonaning Osraf darasida togʻ hayvonlari tasvirlangan qoyatoshlarni ham reklamaga kiritish reklama bilan tanishgan turistlarda qiziqish hosil qiladi. Qoʻriqxonada hududidagi Majrum qishlogʻida ming yoshli ulkan archa daraxti hozir ham koʻkarib turibdi, bu archani ham tayyorlanadigan reklamaga kiritish reklamaning taʼsirchanligini kuchaytiradi. Shuningdek, qoʻriqxonada burgut, lochin va qora kalxatlar ham reklamaga albatta rangli tasvirda kiritilishi reklamaning jozibadorligini kuchaytiradi.

Reklamada marshrutning yoʻnalishi boʻyicha joylashgan diqqatga sazovor turistik obyektlarni tasvirlash. Turizm reklamalarini ishlab chiqishda turoperatorning yetuk bilimlari, malakali va qiziquvchanligi turistik firma uchun juda muhim omildir. Turistni belgilangan marshrut bilan toʻgʻridan toʻgʻri u tanlangan turistik obyektga (makonga) olib borish mumkin. Turoperatorning bilimi, qiziquvchanligi va ustamonligi omilini ishlayotganimizda yoki undan talab qilganimizda turist tanlagan maʼlum bir turistik marshrut reklamasiga mazkur marshrut boʻylab joylashgan

qiziqarli tur-obyektlarning rasmlarini qisqacha izohlash albatta qiziqarli bo'ladi. Masalan, Samarqand shahriga kelgan turist reklama bo'yicha viloyatimizning eng so'lim go'shalaridan biri bo'lgan Omonqo'ton vohasida 1–2 kun dam olishni xohlaydi (rekreatsiyali va ekoturizm). Bunday buyurtmalarga turfirma va mehmonxonalarda ishlayotgan turoperatorlarda hamisha zaxirada qo'shimcha turistik marshrut reklamalari bo'lishi lozim va shunday bo'lishi ham kerak.

Omonqo'ton vohasiga boradigan turistik marshrutning zaxiradagi reklamasiga marshrut bo'ylab joylashgan ko'plab yoki asosiy diqqatga sazovor turistik obyektlarni joylashtirish mumkin. Masalan, Samarqandga kelib Omonqo'tonni ko'rishni xohlagan turist va turistlar albatta birinchi kuni Samarqand shahridagi tarixiy obidalarni tomosha qilishadi va ikkinchi kundan boshlab Omonqo'ton vohasiga turistik marshrut asosida yo'lga tushadi.

Ana shu turistik marshrut reklamasiga birinchi navbatda Samarqand shahridan chiqishda joylashgan, naqshbandiya tariqatining jahonga mashhur allomasi Xoja Ahror Vali hazratlarining madrasasi binosini rangli tasvirda joylashtirish maqsadli bo'ladi. Chunki, Xo'ja Ahror Vali nomi ham Temuriylar davrida qurilgan Xo'ja Ahror Vali madrasasining qurilishi, mahobati va rang-barangligi ham Temuriylar qurgan ulkan, tarixiy binolardan kam emas. Xuddi ana shu reklamaga shahardan chiqishdagi qadimiy Darg'om kanalining rasmi va qisqacha tarixini berish ham turistni qiziqtiradi. Ushbu reklamaga Omonqo'ton yo'lidagi tosh haykallarning rasmlarini joylashtirish ham albatta turistlarni o'ziga jalb qiladi. Ular tabiiy jarayonlar ta'sirida hayratomuz ko'rinishni hosil qilgan tabiiy tosh haykallarni tomosha qilishadi, rasmlarga tushishadi, turistlar jozibadorlik, takrorlanmaslikni ko'rib yaxshi kayfiyatda bo'lishadi.

Har bir turistik marshrut reklamasida qayd qilingan usullarni qo'llash mumkin. Turistik marshrut reklamasini faqat diqqatga sazovor turistik obyektlar bilan to'ldirilishi mumkin. Ba'zi hollarda turistik makonga yetguncha birorta ham qiziqarli turistik obyektlar bo'lmasligi ham mumkin. Bunday marshrutlarda tabiiy

va antropogen landshaftlardagi so‘lim, rekreatsion obyektlarga ekskursiyalar uyushtirish lozim bo‘ladi.

Reklamada marshrut davomida o‘tkaziladigan ekskursiya obyektlarini tasvirlash. Turizmda ishlab chiqiladigan marshrutlarda ekskursiyalar (sayrlar) qanchalik ko‘p bo‘lsa marshrutning betakrorligi, jozibadorligi, turli-tumanligi shunchalik kuchli bo‘ladi. Har qanday turobyektga turistik marshrutning reklamasi ishlab chiqilganda marshrut davomida nechta ekskursiya o‘tkazish rejalashtirilsa barchasi haqida turmarshrut reklamasida rangli rasm va qisqacha izoh bo‘lishi marshrutni tanlagan turist uchun yaxshi axborot bo‘ladi.

Reklamada marshrut davomida ko‘rsatiladigan xizmatlarni tasvirlash. Turistik marshrut davomida turistlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar haqida ushbu o‘quv qo‘llanmadagi mavzularda batafsil yozildi. Endi turistik marshrutdagi xizmatlarni ham marshrut reklamasida aks ettirish turistlar uchun talab qilinadigan axborotlar ro‘yxatida turadi. Turistik marshrutlardagi xizmatlar reklamada tasvirlaganda reklamadagi asosiy obyektlardan, qo‘shimcha obyektlardan va ekskursiya obyektlaridan keyin qo‘yilishi mumkin.

Bu holatda dastlab marshrutda xizmat qiladigan yuqori komfortli transport xillari, ovqatlanishdagi milliy taomlar, eng so‘nggida dam olishdagi sharoitlar kichik rangli rasmlarda ham berilishi turistlarni ancha xotirjam qiladi. Ular marshrut davomida yuqorida qayd qilingan xizmatlarni so‘rab-surishtirib yurmaydi. Respublikamizda hozirgi kunga kelib Chimyon tog‘i sporti turizmi majmuasi, yirik, xalqaro kurortlarimiz jahon andozalari talabida reklama chiqarmoqda va xalqaro turizmida turistlar oqimining kelishiga yaxshi sharoitlar yaratmoqda.

Turizmida reklama ishlab chiqarish mutaxassislarining fikricha:

- rangli reklamalar oq-qora rangdagilarga nisbatan 65–70% ko‘proq ko‘zga yaxshi tashlanadi;
- sifatli ranglangan rasmlari bor reklama sifatsiz rasmlari reklamaga qaraganda bir yarim barobar ko‘p kishilarni o‘ziga jalb qiladi;

- sariq hoshiyadagi qora rangdagi matn boshqa ranglarga qaraganda ko‘proq kishilarni matnni o‘qishga jalb qiladi;
- reklamada ramkalanmagan tasvirlar, izohlar ramkalanmagan matnlarga nisbatan birinchi navbatda o‘qiladi;
- reklamadagi so‘z o‘yinlari uning o‘quvchanligini pasaytirib yuboradi;
- reklamada matn qanchalik qisqa bo‘lsa tez yodda qoladi.

Reklama turizmning doimiy yo‘ldoshi bo‘lib, turistlarga faqat sayohat vaqtida emas, balki undan so‘ng ham xizmat ko‘rsatadi. Bu esa reklamaga alohida mas‘uliyat yuklaydi va turizmdagi tovar hamda xizmatlarni taklif qilishda turizm bozoridagi axborotlarga to‘la moddiy mahsulot vazifasini bajaradi. Yodda tutish lozimki, turistik marshrut qanchalik mukammal ishlab chiqilsa uning reklamasi mazmuni shunchalik qiziqtiruvchi ma‘lumotlarga boy bo‘ladi. Turizm bozorida reklama qanchalik ko‘p bo‘lsa, xalqaro miqyosda ham, mahalliy miqyosda ham turistlar oqimining kuchayishiga ijobiy ta‘sir qiladi.

Ko‘pincha, bir reklama axborotida mahsulotni harakatlantiruvchi har uchala tashkil qiluvchini ham hisobga olish talab qilinadi (yo‘nalish, safarlar ko‘rinishlari va iste‘molchilar kategoriyalari bo‘yicha ajratilgan takliflar). Bunda reklamaning quyidagi asosiy prinsiplarini hisobga olish zarur:

- reklama qisqa bo‘lishi lozim, aks holda u oxirigacha qabul qilinmaydi;
- reklama mijozlarga tushunarli bo‘lishi kerak, chunki ongli qabul qilingan narsalar odatda xotirada ko‘proq saqlanib qoladi;
- axborotning boshidagi va oxiridagi xabarlar axborotning o‘rtasida keltiriladigan ma‘lumotlarga qaraganda yaxshi esda qoladi. Reklama axboroti maketi va matnini tuzishda asosiy ma‘lumot bilan boshlab, u bilan tugatish uchun uni oldindan ajratib olish lozim;
- ma‘lumotlar odatiy tushunchalarga, ishonchlar, fikrlarga zid bo‘lmasa, yengil qabul qilinadi va yaxshi eslab qolinadi;
- jamiyat hayotining asosiy tendensiyalari ruhiyatini ham

hisobga olish zarur. Buning uchun aholi ichida ijtimoiy so'rovlar, ya'ni marketing tadqiqotlarini o'tkazish kerak. Faqat shu orqali mijozlarga nima yoqishini bilib olish mumkin.

Turistik firmadagi reklama bo'yicha taktik qarorlar o'z ichiga 3 blok savollarni oladi:

- reklama vositalari yoki reklama tashuvchilarni tanlash;
- reklama e'lonlariga to'lovlar va xarajatlarni nazorat qilish;
- reklama murojaatnomalarining chiqish grafigi.

Ekoturizm marshrutlarining reklamasini ishlab chiqishda dastlab ekoturizm marshrutining mavzusi aniqlanadi. Respublikamizda ekoturizmni rivojlantirishda tabiat qo'riqxonalaridan foydalanish haqida juda ko'plab mulohazalar va takliflar, tavsiyalar bildirilmoqda. Lekin, yuqorida qayd qilganimizdek, tabiat qo'riqxonalaridan ekoturizm maqsadlarida foydalanishning huquqiy me'yorlari ishlab chiqilmaganidan hozircha bu ekoturistik salohiyatdan foydalanish imkoniyatlari yo'q.

Shunga qaramasdan hozirdanoq tabiat qo'riqxonalarimizdagi ekoturistik obyektlarni ro'yxatga olishimiz va ularning tavsiflarini yozib borishni boshlashimiz kerak. Albatta, tabiat qo'riqxonalarining o'ziga xos bo'lgan tabiat landshaftlarining rangli tasvirlari kataloglari ishlab chiqilgan. Ekoturizm rivojlanishidagi xalqaro statistikani ko'rganimizda ichki turizm ham xalqaro turizm ham 70—80% turistlar tabiat qo'riqxonalaridagi noyob ayniqsa, tubjoy tabiatidagi hayvonot olamiga qiziqishmoqda. Quyida biz O'zbekiston cho'llarining tabiatidagi hayvonot olamini tasvirlovchi ekoturistik marshrutdagi asosiy va qiziqarli hayvon turlarini reklama qilish loyihasini ishlab chiqamiz.

Ekoturistik reklamaning mavzusi

«Qizilqum tabiat qo'riqxonasiga sayohat» reklamasida ekoturistik marshrutning o'zi ishlab chiqilmaydi. Balki turistlarni qiziqtiruvchi va bu tabiat qo'riqxonasiga borish istagini hosil qiladi. Shuning uchun ham turizmning tijoriy sir-

asrorlarini birdaniga e'lon qilib bo'lmaydi. Dastlab ekoturistik marshrutning jozibador va qiziqarli obyektlarining bir qismigina reklama qilinadi. Qayd qilingan mavzudagi ekoturistik reklama quyidagicha bo'lishi mumkin:

Qizilqum davlat qo'riqxonasi Amudaryoning o'rta oqimidagi qirg'oqlaridagi to'qayzor tabiatiga qo'shilib ketadigan Qizilqum cho'li hududlarida joylashgan bo'lib cho'llarimizning, to'qayzorlarning tipik tabiati va bu tabiat bilan bog'liq hayvonot olamini tasvirlaydi.



Amudaryoning qirg'oq bo'ylarida joylashgan betakror tabiati va noyob hayvonot olamiga ega bo'lgan to'qayzorlar Qizilqumning bepoyon cho'liga ulashib ketadi.

Qo'riqxonasi muhofazasi to'qayzorlar va cho'l tabiatidagi ekotizimlarning yonma-yon joylashishidagi quruq va nam iqlimli ekologik tabiiy sharoitlarga moslashgan mayda sudralib yuruvchi kaltakesaklarning ham ko'payishiga tabiiy sharoit yaratmoqda. Bu kaltakesaklar iqlim o'zgarishi bilan ranglarini o'simliklar qoplamiga moslashtirib boradi. Yozning harorati ko'tarilgan sari ulardagi rang xilma-xilligi kuchayadi.




O'zbekiston Respublikasining «Qizil Kitob»iga va Xalqaro «Qizil kitob»ga kiritilgan va xalqaro miqyosda qo'riqlanayotgan Qizilqum echkema^{ning} eng ko'p sonlari ushbu qo'riqxonada muhofaza qilinadi.



Qo'riqxonada qo'riqlanayotgan Xalqaro «Qizil kitob»dagi Buxoro bug'usi (Xongul)





Qo'riqxonadagi jayronlar va sayg'oq



Turistik marshrut oxirida ekoturistlar daraxtlar soyasida dam olib Amudaryoni tomosha qilishlari mumkin

Keltirilgan ma'lumotlar va rasmlar ekoturistlarni albatta qo'riqxonada tabiati va noyob hayvonlari haqidagi oldingi eshitgan, o'qigan axborotlarini tasdiqlaydi va albatta qo'riqxonaga tashrif qilishga undaydi. Ushbu reklamani ishlab chiqqan turoperator turagentliklarga sotishi, mehmonxonalarga, turistik tashkilotlarga taklif qilishi, ikki tomonlama shartnomalarni tuzishi, internet, radio, TV, ko'cha va boshqa reklama tarqatish usullaridan foydalanishi mumkin.

Ekoturizm marshrutlarini ishlab chiquvchi turoperatorlar vatanimizning tabiati va undagi biologik xilma-xil resurslarni mukammal bilishlari lozim. Chunki, ekoturizm marshrutlarining reklamasida ko'riladigan barcha qiziqtiruvchi obyektlarni joylashtirib bo'lmaydi. Yana shunday talablarga ham e'tibor berish kerakki, Yevropa davlatlarida ekologik turlarga maxsus tayyorlangan, ekologik turlarga ixtisoslashgan gidlarni talab qilishadi.

Masalan, birgina Germaniyada 122 ta turistik firmalar faqat ekoturizmga maxsus ixtisoslashgan bo'lib, shulardan 50% i xorijiy davlatlarning ekoturizmga ixtisoslashgan turistik firmalari bilan ishlaydi. Shuning uchun ham turoperatorlarimiz ekologik turlarda xorijiy turistlarning vatanimiz tabiati haqidagi har qanday savollariga to'g'ri javob berish uchun tayyor bo'lishlari kerak.

Tayanch so'z va iboralar: direkt meyl, «Qizil kitob», turistik shartnoma, transparant, kitob reklamasini, matbuot reklamasini, afishalar.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Turizm reklamasini va turistik marshrut reklamasini qanday tushunasiz?
2. Turizm reklamalarning qanday turlarini bilasiz?
3. Turizm reklamalari qanday usullar bilan reklama qilinadi?
4. Turizm reklamasida xabarlar va axborotlar qanday tartibda qo'yilishini o'rganing va amaliy darslarda gapirib bering.
5. Turizm reklamarini kim ishlab chiqadi va qanday tarqatilishi yoki sotilishini o'rganing va amaliy darslarda gapirib bering.
6. Ekoturizm reklamalari qanday ishlab chiqiladi?
7. Turizm reklamalari qanday vositalar bilan tarqatiladi?

19-mavzu. EKOLOGIK TURIZMNING MARSHRUTLARINI YARATISH

Reja:

19.1. Ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqish tamoyillari.

19.1. Ekologik turizm marshrutlarini ishlab chiqish tamoyillari

Mavzuning rejasi bo'yicha turizmga marshrutlar ishlab chiqish tamoyillari bilan ekoturizm marshrutlarining ta'rif va tavsiflarini ishlab chiqamiz.

1. *Ekoturizm marshrutlaridagi jozibadorlik, betakrorlik tamoyili* talablari haqida ta'riflashni batafsil keltirishga izoh bu yerda ortiqchalik qilsa kerak. Ekoturizmning kelib chiqishi ham insonning tabiatni sog'inishi, hozirgi sivilizatsiya bo'hronlaridan (atmosferaning ifloslanishi, yerlarning ishdan chiqib borayotganligi, noyob o'simlik va hayvonotning insondan uzoqlashib borayotganligi, toza havoning yetishmayotganligi va hokazolar) charchaganligidan, insonning tabiatdagi toza havoli tabiiy mintaqalariga sayohatni xohlaganligidan kelib chiqdi. Bu soha marshrutlarini tuzganda tabiatdagi jozibadorlik — betakrorlikning o'zi ham tabiiy mintaqalarning o'ziga xos bo'lgan landshaftlari, shu mintaqada o'suvchi o'simliklar va shu mintaqa tabiatiga intilish jihatlarini hisobga olish to'g'ri bo'ladi.

Ekologik marshrutlar tuzishda ishlatiladigan jozibadorlik va betakrorlik ko'rinishlari O'zbekistondagi 5 ta tabiiy ekologik mintaqada mavjud. Shuning uchun ham ekologik maskanlarga — resurslarga marshrut tuzishda bu tamoyilni qo'llashning kutilgandan ziyoda bo'lgan imkoniyatlari bor. Eng muhimi, marshrut tavsifida ekologik resursdagi jozibador va betakror tabiiy



ko‘rinishlar birinchi navbatda rasmlar tasvirida berilishi kerak. Bu tipdagi marshrutlarni ishlab chiqishda albatta noyob hayvonot olamidagi qushlar, hayvonlar, «Qizil kitob»dagi hayvonot turlarining rasmlari, ta‘riflari marshrut ma‘lumotlarida berilishi maqsadli bo‘ladi.

2. *Imkoniyatning yaratilganligi tamoyilida* ekoturizm resursiga marshrutlar ishlab chiqish juda jiddiy masala. Bu tamoyilga amal qilib ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqishda quyidagi imkoniyatlar bo‘lishi talab qilinadi.

1) ekoturizm maskanlariga kirishning huquqiy-qonuniy tartiblari yaratilganligi;

2) ekoturizm maskanida turistlar uchun maxsus marshrutlarning (so‘qmoqlar, yo‘llar, dam olish joylari) ishlab chiqilganligi va faoliyat ko‘rsatishi;

3) ekoturizm maskanlarida turistlarga xizmatlar ko‘rsatish tizimlarining tashkil qilinganligi (dam olish, tunash, ovqatlanish, ko‘ngil ochar o‘yinlar, qisqa muddatli ekskursiyalar va h.k.).

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda Davlat muhofazasidagi tabiat landshaftlari, qo‘riqxonalar, tog‘ tizmalariga turistlar kiritilishining huquqiy-qonuniy me‘yorlari ishlab chiqilmagan. Bu me‘yorlar endi yaratilmoqda. Bu ekoturizm maskanlaridan ekoturizm foydalanishning eng muhim imkoniyatlari hozircha yo‘q. Shuning uchun ham bu tamoyilning talablari (1,2,3) amalda bajarilgandagina ekoturizm resurslariga, obyektlariga turistik marshrutlar ishlab chiqish zarur bo‘ladi.

3. *Mazmundorlik tamoyili* o‘z talablari jihatidan jozibadorlik va betakrorlik tamoyiliga qo‘shilib ketadi. Tabiatdagi betakrorlikni ko‘rgan, uning go‘zal bag‘rida dam olgan, rang-barang o‘simliklar olami va hayvonot dunyosini ko‘rgan turist ruhiy jihatdan ham, jismoniy jihatdan ham turistik marshrutning mazmunli o‘tganligini his qiladi. Uning kayfiyati yaxshilanib o‘zida boy taassurotlar paydo bo‘lganligini sezadi. Shuning uchun ham ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqishda marshrut bo‘ylab o‘zgarayotgan tabiat elementlarigacha marshrut tuzuvchi e‘tibor berishi lozim

bo'ladi. Shuningdek, marshrut yo'nalishida turizmning boshqa resurs manzillari (ziyoratgoh joylar, taniqli insonlar qabri, mashhur kishilar nomi bilan bog'liq obidalar, tarixiy-madaniy, ma'muriy obidalar va b.) bo'lsa albatta marshrutning ma'lumotlariga qisqacha ta'rif bilan kiritish foydali bo'ladi.

Masalan, turist yoki turistik guruh Omonqo'ton vohasi marshrutini tanladi. Albatta turist yoki turistik guruh tezroq Omonqo'ton vohasiga shoshiladi. Endi agar marshrut ma'lumotlarida jozibadorlik-betakrorlik, imkoniyatlarning yaratilganligi tamoyili resurslari mavjud bo'lsa turist va turistik guruh marshrut yo'lidagi bu resurslarni ko'rishga qiziqqanligidan yoki ko'p hollarda ko'rish uchun to'xtaydi. Bu holatda mazmundorlik tamoyili ham ishga tushib marshrutdan ko'ngil to'lish, qoniqish hislarini keltirib chiqaradi. Bu natija esa marshrutni tashkil qilgan turistik firma obro'sini oshiradi.

4. *Faoliyatlilik tamoyilida* ekoturizm marshrutlarining harakatlanish vaqtlari, muddatlari tushuniladi. Fasllarimiz almashib turganligidan ekoturizm marshrutlarini tuzishda bu tamoyilga jiddiy e'tibor berish talab qilinadi. Chunki, ekoturizmning muhim resurslari bo'lgan tog' hududlaridagi ekoturizm resurslariga qishki marshrutlar ishlab chiqishda turistlarning hayoti xavfsizliklarini ta'minlash masalasi birinchi navbatdagi o'ta jiddiy masaladir.

Tog'lardagi ekoturizm resurslariga yetib borishda avtoyo'llarda qorning erimasligi, baland dovonlardan har qanday transport vositalarining chiqaolmasligi, tog'dagi marshrut so'qmoqlarining qor bilan ko'milib qolishi, qor ko'chkilari turistlar hayotiga jiddiy xavf soladi. Shuning uchun ham tog' hududlariga qish mavsumida ekoturizm marshrutlarini tashkil qilishda chegaralanish muddatlarini va bu marshrutlarning harakatlanish vaqtlarini aniq belgilash ekoturizmida jiddiy ahamiyatga egadir.

Tog' hududlariga kech bahor faslidan to kech kuz mavsumlarigacha ekoturizm marshrutlarini tashkil qilish maqsadli bo'ladi. Ekoturizm marshrutlarini O'zbekistondagi boshqa tabiiy mintaqalardagi ekologik maskanlarga ishlab chiqilganda ham

bu ekoturizm maskanlarida yil fasllaridagi iqlimiy xususiyatlarni hisobga olish, tur marshrutning harakatlanish holatlarini aniq bilish talab qilinadi.

5. *Ko'pqirralik, ko'p variantlilik tamoyili* bo'yicha ekoturizm marshrutlari quyidagi variantlarga bo'linadi:

- 1) faqat quruqlik bo'ylab ekoturizm maskaniga borish;
- 2) havo transporti yordamida ekoturizm maskaniga borish;
- 3) suv marshruti orqali ekoturizm maskaniga borish;
- 4) aralash transport vositalaridan foydalanib ekoturizm maskaniga borish.

Qayd qilingan yo'nalishlar bo'yicha ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqish tushunarli. Bu ishlab chiqarish tamoyilining ko'p variantlilikiga kirib turist yoki turistik guruhning talabi, xohish-istaklari bo'yicha ular xohlagan ekoturizm marshrutlari bo'lishi mumkin. Bu marshrutlar tabiiy muhit-sharoit, yo'l-yo'lakay turli-tuman obyektlarini ko'rish imkoniyatlari bo'lganligidan ko'pqirralilikka ham kiradi. Shu bilan birga ekoturizmning ko'p qirralilik tamoyili ekoturizmning asosiy obyektiga borguncha turizmning boshqa resurslariga ham marshrutning kirib-o'tishni ta'minlaydi. Bu haqda ekoturizm marshrutlarini tuzishda mazmundorlik tamoyilini qo'llash qismida zarur talablar haqida izoh berildi.

6. *Ekoturizm marshrutlarida qulaylik tamoyilini* qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tamoyilda ekoturizm marshrutlarida quyidagi qulaylik manbalari yaratish lozim bo'ladi:

1. Transport va transport xillaridan foydalanishdagi qulaylilik.
2. Marshrut davomida xizmatlarni qabul qilish qulayligi.
3. Marshrut davomida dam olish, ko'ngil ochar o'yinlarga qatnashish, ekskursiyalarga chiqish, ovqatlanish yoki tunab qolishdagi qulayliklar.
4. Marshrut davomida tibbiy yordamni olish qulayligi.
5. Marshrut davomida turist uchun minimum (termosda choy, palatka, yotib dam olish uchun yig'ma karovat, biroz qattiq ovqat, qattiq, sharbatlar, tuxum) va optimum (mehmonxonada tunash,

restoranda ovqatlanish, sport zalida mashq qilish, basseynida cho‘milish) qulayligi puxta ishlab chiqilishi lozim.

7. *Ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqishda axborotlanganlik tamoyilini* qo‘llash marshrutni o‘ziga xos ravishda reklama qilish, turizm bozoriga kiritish ham hisoblanadi. Bu tamoyilda marshrut haqidagi barcha ma‘lumotlar turist uchun muhayyo qilinishi kerak — broshyura, jurnal, buklet, gazeta, radio, televideniya. Turist marshrutda nimalarni ko‘radi, nimalar haqida ma‘lumotlar eshitadi, qanday yuradi, qaysi kiyimlar kerak bo‘ladi, qanday transport vositalari taklif qilingan, qaysi xil ovqatlar, ichimliklar tayyorlanadi, qanday dam oladi, ovqatlanish tartibi qanday tashkil qilinadi va hokazolarga — hammasiga javob berishi shart bo‘ladi.

Ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqish tamoyillaridagi talablarni o‘rganib tahlil qilganimizda har bir tamoyilning marshrutda muhim o‘rni borligini anglaymiz. Bu tamoyillarni asos qilib olib ishlab chiqilgan marshrut o‘zida marshrutning barcha talablarini majmual ravishda mujassamlashtirgan bo‘ladi, ekomارشrutning reklamaligi ahamiyatini oshiradi.

Tayanch so‘z va iboralar: metodika, turoperator, turagentliklar, optimum, minimum, standart, tamoyillar, palatka usuli, ekspeditsiya.

Mavzuni o‘zlashtirish bo‘yicha savol va topshiriqlar:

1. Ekoturizm marshrutlarida qanday xizmatlar rejalashtiriladi?
2. Ekoturizm marshrutlarida transport qanday tanlanadi?
3. O‘zingiz yashab turgan manzilga ekoturizm marshrutini ishlab chiqing.
4. Ekoturizm marshrutlarida ekskursiya obyektlarini ajrating.
5. Ekoturizm marshrutida qanday metodika qo‘llaniladi?
6. Ekoturizm marshrutlaridagi hayot xavfsizligi nima?
7. Ekoturizm marshrutlarida rekreatsiyani loyihalashtiring.
8. Mavzu matnidagi xalqaro ekologik ramzni ta’riflang.

20-mavzu. O‘ZBEKISTONDA TURISTLARNING HAYOTI XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASHNING HUQUQIY ME‘YORLARI

Reja:

20.1. O‘zbekistonda turistlarning hayoti xavfsizligini ta‘minlashning huquqiy me‘yorlari.

20.1. O‘zbekistonda turistlarning hayoti xavfsizligini ta‘minlashning huquqiy me‘yorlari

Turizmدا turistlarning hayoti xavfsizligini ta‘minlash eng muhim, davlat ahamiyatiga molik masala hisoblanadi. Turistik marshrutlarni ishab chiqish, tashkil qilish, o‘tkazishni qayd qilingan omillar asosida turistlarning tur vaqtida (marshrut vaqtida) hayoti xavfsizligini ta‘minlash, vatanimizga turistlar oqimini kuchaytirishdagi eng muhim va mas‘uliyatli vazifalardan hisoblanadi.

Turistlarning hayoti xavfsizligini ta‘minlash O‘zbekistonda turizmni tashkil qilish va rivojlantirish sohasidagi dastlabki qonunlarda alohida modda bilan belgilangan. Ana shunday dastlabki qonun — O‘zbekiston Respublikasining «Turizm to‘g‘risida»gi qonuni hisoblanadi⁷⁶. Bu qonun 20-avgust 1999-yilda qabul qilingan bo‘lib qonundagi 18, 19, 20-moddalar turistlarning hayoti xavfsizligini ta‘minlashdagi chora-tadbirlar tizimini yaratishga asos bo‘ladi. Turizm ta‘limidagi barcha mutaxassislar ushbu qonun moddalarini yaxshi o‘zlashtirishi, mukammal bilishi nuqtayi nazaridan qayd qilingan moddalarni keltirish o‘rinli bo‘ladi. «Turizm to‘g‘risida» qonunning:

18-moddasi — «Turistlarning xavfsizligi kafolati». O‘zbekiston Respublikasi hududida turistlarning xavfsizligi davlat tomonidan kafolatlanadi. Turizm sohasidagi vakolatli davlat organi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda turistlarning himoya qilinishini hamda xavfsizligini ta‘minlash dasturini ishlab chiqadi va uning bajarilishini tashkil etadi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari

⁷⁶ O‘zbekiston Respublikasining «Turizm to‘g‘risida»gi qonuni.

turizm sohasida barcha turistik yo'nalishlar bo'yicha turistlarning himoya qilinishini va xavfsizligini ta'minlash mintaqaviy dasturlarini ishlab chiqadilar va ularning bajarilishini tashkil etadilar. Turistik faoliyat subyektlari turistlarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ular jarohatlanganda, kasallanganda va boshqa hollarda tibbiy hamda o'zga xil yordam ko'rsatish yuzasidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqadilar.

19-moddasi — *Turistlarning xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari*. Turistik faoliyat subyektlari turistlarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida:

- turistlarning safarda xavf-xatardan xoli bo'lishlari uchun shart-sharoitni, safar, sayr, ekskursiya yo'llari, musobaqalar o'tkaziladigan joylarning ta'minlanishlari;
- turistlarga jarohatlanish va baxtsiz hodisalardan saqlanish hamda ularning oldini olish usullarini o'rgatishlari, birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish yuzasidan yo'l-yo'riq berishlari, shuningdek, belgilangan yo'nalishning xususiyati va turistlarning xatti-harakatiga bog'liq holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf manbalari haqida ularning o'zini xabardor qilishlari;
- turistlarning sayohatlar, safarlar, musobaqalar, boshqa turistik tadbirlarga tayyorgarligi ustidan nazoratni amalga oshirishlari;
- falokatga uchragan turistlarga tezkor yordam ko'rsatishlari;
- avtomobil, tog'-chang'i, velosiped, suv, mototsikl, piyoda safar, g'or turizmi va turizmning boshqa maxsus turlarini tashkil etish va o'tkazishda xavfsizlikning alohida talablarini ishlab chiqishlari va amalga oshirishlari shart.

20-moddasi — «*Turistlarni sug'urta qilish*». Turistlarni sug'urta qilish majburiydir va u turistik faoliyat subyektlari tomonidan sug'urta faoliyati olib borish huquqiga ega bo'lgan tegishli sug'urta tashkilotlari bilan tuziladigan bitimlar asosida amalga oshiriladi.

Butunjahon turizm tashkiloti (VTO) talablari bo'yicha har bir davlatda turistlarning ushbu davlatga kelib-ketishi bo'yicha davlat nizomi bo'lishi lozim. Bizning respublikamizda ham xuddi shunday nizom hukumatimizning maxsus vazirliklari tomonidan ishlab

chiqilgan va tasdiqlangan. «Sayyohlarning O‘zbekiston Respublikasiga kelishi va ketishi tartibi to‘g‘risida»gi Nizomga muvofiq quyidagi moddalar sayyohlarning hayoti xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan:

- xavf-xatar manbalari bo‘lgan hududlarga chet ellik sayyohlarni olib chiqishlaridan oldin, O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining tegishli boshqarmalaridan baxtsiz hodisalar yoki xavf-xatarlar kelib chiqishi mumkin bo‘lishi yoki bo‘lmasligi yuzasidan tegishli ma‘lumotlar olish;

- ruxsat etilgan xavfsiz yo‘nalishlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining tegishli hududiy boshqarmasi bilan kelishilgan holda belgilangan xavfsiz yo‘nalish bo‘yicha sayyohat qilishni ta‘minlash;

- belgilangan yo‘nalishning xususiyati va sayyohlarning xatti-harakatiga bog‘liq holda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatar manbalari haqida ularning o‘zini xabardor qilish va xavfsizligini ta‘minlash;

- qabul qiluvchi turistik tashkilot chet el sayyohlari bilan xavfsizlik choralariga rioya etishlari, O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish tartibi, ekologik xavfsizlik talablari, milliy urf-odatlariga hamda sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilishlari to‘g‘risida tegishli tushuntirish ishlarini o‘tkazadi.

Turizmda xavfsizlik masalalari dolzarbligiga qaramasdan hozirgacha turizm mutaxassislarining e‘tiboridan chetda hisoblanadi. Respublikamizdagi turizm mutaxassislari va bakalavrlari tayyorlaydigan kollej, institut va universitetlarda turizmda hayot xavfsizligini ta‘minlash kursini o‘qitish vaqti keldi. Chunki, mamlakatimizga xalqaro turistik oqim yildan-yilga ortib bormoqda. Turizmda hayot xavfsizligi bo‘yicha hozirda yagona manbani, taniqli olim, professor N.Tuxliyev va T.Abdullayevalarning mukammal asarini keltirishimiz mumkin⁷⁷. Turistik marshrutlarning barchasida turistlarning

⁷⁷ Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Основы безопасности в туризме. Государственное научное издательство, Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Ташкент, 2008. С. 503.

hayoti xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari ishlab chiqilishi va marshrutni o'tkazadigan turistik tashkilot rahbarining imzosi va gerbli muhri bilan rasmiylashtirilishi lozim.

Tayanch so'z va iboralar: hayot xavfsizligi, huquqiy me'yorlar, xavfsizlikni ta'minlash, konvensiya, deklaratsiya, turistik muhit.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. «Turizm to'g'risida»gi qonunida turistlarning hayoti xavfsizligini ta'minlashning chora-tadbirlari qanday belgilangan?
2. «Turizm to'g'risida»gi qonunida turistlarning hayoti xavfsizligini ta'minlashda sug'urta qilish qanday belgilangan?
3. Turizmda xavf-xatar masalalarini qanday tushunasiz?
4. Turizmda xavf-xatarlarni bartaraf qilishdagi xalqaro me'yorlarni qanday tushunasiz?
5. Gaaga deklaratsiyasida qanday talablar qabul qilindi?



GLOSSARIY

Atrof-muhit — insonning yashash makoni boʻlgan va yashashi uchun barcha tabiiy boyliklar yaratilgan tabiiy muhit. Tabiiy resurslar yaratilgan makon. Inson oilasi bilan yashaydigan uyining sayyoraviy hamjihatligi.

Antropogen taʼsir — antropos — odam va genesis — kelib chiqish. Insonning tabiatga taʼsiri.

Antropogen landshaft — inson faoliyati natijasida hosil boʻlgan yer yuzasi va uning obyektlari.

Atmosfera — atmos grekcha — havo (bugʻ) va sphaira — shar. Yerning havo qobigʻi.

Areal — maydon (hudud), maʼlum bir turlarning yashash faoliyati kechadigan joylar.

Alohida qoʻriqlanadigan hududlar — tabiat qoʻriqxonalari, tabiat buyurtmaxonalari, milliy parklar, tabiat yodgorliklari.

Barxan — choʻllardagi koʻchma qum tepaliklari.

Biosfera — yerning hayot qobigʻi.

Biologik xilma-xillik — biologik resurslar — flora va fauna.

Endogen — yerning ichki qismidagi tabiiy geologik jarayonlar.

Ekzogen — yerning ustki qismidagi tabiiy geologik jarayonlar.

Geotizm — biosfera komponentlarining oʻzaro bir-biriga bogʻlanib, uygʻunlashib majmual tabiiy landshaftlarni hosil qilishi.

Geosfera — yerning ustki qismidagi tabiiy jarayonlar.

Geografik qobiq — geografik qobiqqa yer poʻsti (litosfera)ning yuza qismi, butun gidrosfera va biosfera hamda atmosferaning quyi — troposfera qismi kiradi va ular bir-biri bilan qoʻshilib bir-biriga taʼsir etib turadi.

Gidrosfera — grekcha hidros — suv va sphaira — shar.

Degradatsiya — inqiroz, yemirilish, buzilish.

Delta — daryolarning dengiz yoki quruqlikka quyilish joyida oqiziq jinrlarining choʻkib, toʻplanib qolishidan hosil boʻlgan tekislik.

Ijtimoiy ekologiya — jamiyat (kishilar) va ularni oʻrab turuvchi tabiiy muhit bilan oʻzaro aloqadorlikni oʻrganuvchi taʼlimot yoki fan sohasi.

Landshaft — geologik zamin, relyefi, tuproq, o‘simlik, hayvonot dunyosi, yer osti rejimining bir xilligi bilan ajralib turadigan, tabiiy chegaralangan hudud.

Litosfera — grekcha litos — tosh va sphiara — shar. Yer mantiyasining qattiq holatdagi yuqori qismi va yer po‘sti birgalikda litosferani hosil qiladi.

Rekreatsiya — recreatio — lotincha — tiklanish.

Rekreatsiyali joylar — aholining yalpi dam olishini va turizmni tashkil etishning tabiiy geografik jihatdan qulay tabiiy joylar.

Rekreatsion ehtiyoj — insonning hayotiy faoliyati jarayonida yo‘qotilgan ruhiy va jismoniy mehnat qobiliyatini va sog‘ligini tiklashga bo‘lgan ehtiyoj hisoblanadi.

Relief — yer yuzasining shakllari.

Tabiiy resurslar — inson hayoti uchun zarur bo‘lgan, inson tomonidan bunyod etilmagan resurslarga tabiiy resurslar deyiladi — yer, havo, suv, o‘rmon, hayvonot, mineral qazilmalar. Tabiatning inson xo‘jaligida foydalanilgan barcha elementlari.

Tabiatni muhofaza qilish — tabiatni har bir inson o‘zi va kelajak avlodlar uchun saqlab qolish chora-tadbirlari yig‘indisi. Tabiatni muhofaza qilish, davlat, xalqaro jamiyat tomonidan ilmiy amalga oshiriladigan hamda tabiatdan oqilona foydalanishga, tabiat resurslarini kishilik jamiyati farovonligi uchun tiklash va ko‘paytirishga, atrof-muhitni musaffo, go‘zal saqlashga qaratilgan tadbirlar majmuasidir.

Tabiiy majmua — yer yuzining, tabiat komponentlarining o‘zaro murakkab ta’siri natijasida tarkib topgan hamda tabiatning xususiyatlariga ko‘ra boshqa joylaridan farq qiladigan qismlariga aytiladi.

Tabiiy yodgorliklar — ekologik, ilmiy estetik, madaniy qimmatga ega bo‘lgan noyob va o‘ziga xos tabiiy kelib chiqqan obyektlar (tabiatning inson tomonidan tegilmagan etalon uchastkalari, noyob relikt (shu yerga xos) va yo‘q bo‘lib ketayotgan o‘simlik va hayvonot dunyosi, noyob relyef shakllari, geologik ochilmalar, vulqonlar, sharsharalar, muzliklar, g‘orlar,

uzoq umr ko'rgan daraxtlar, qiziq ko'rinishdagi toshlar, obyektlar, daraxtlar kabi.

Freon — xlor va brom atomlarini saqlagan faol kimyoviy zaharli modda.

Cho'llanish — tabiiy resurslarning yaroqsiz holga kelishi.

Endem (endemik) — endem — mahalliy, faqat ma'lum bir joyga xos bo'lgan, ma'lum bir joyda bo'ladigan o'simliklar va hayvonlar turi.

Ekologiya — grekcha oikos — uy va logos — ta'limot. Tabiiy muhitda organizmlarning yashashi haqidagi fan.

Ekologik barqarorlik — tabiatning o'z rivojida taraqqiy etishi.

Ekologik ekspertiza — tabiiy resurslardan foydalanish va loyihalarni ekologiya talablari bo'yicha baholash.

Ekologik muvozanat — inson, o'simlik va hayvonlar uchun zarur bo'lgan tabiiy sharoit muvozanati.

Ekologik xavfsizlik — tabiiy hududda tabiiy muhitning tabiiy va antropogen kuchlar ta'sirida haddan tashqari noqulay o'zgarishi.

Ekologik monitoring — turli darajadagi ekotizimlarning holati va ulardagi o'zgarishlarni muntazam kuzatish va nazorat qilib borish tizimi.

Ekologik tizim (ekotizim) — tirik organizmlar majmui va ularning yashash muhiti yig'indisi bo'lib, tirik organizmlar o'zaro va atrof-muhit bilan uzviy aloqadorlik qonuniyati asosida bo'lishi.

Ekologik xavfsiz muhit — kishilarning muhim hayotiy manfaatlarini avvalo toza, sog'lom, qulay tabiiy sharoitga bo'lgan talabini qondirishga qodir bo'la oladigan atrof-muhit holati.

Ekologik inqiroz — jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabat muvozanatining barqaror ravishda buzilishi natijasida atrof tabiiy muhitning yomonlashib borishi, davlat boshqaruvi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yuzaga kelgan salbiy holatlardan chiqq olmasliklari hamda ekologik tizimlarni tiklash imkoniyatlari yo'qolishi. Tabiiy muhit inqirozi va ijtimoiy muhit falokati.

Ekologik konsepsiya — tabiat va jamiyaning o‘zaro ta’siri to‘g‘risidagi qarashlar tizimi, ya’ni jamiyat qonunlari bilan tabiat qonunlari o‘zaro harakat yo‘nalishlarining o‘rni, ahamiyati va mohiyati haqidagi dunyoqarashlar.

Ekologik siyosat — davlatning hudud, suv akvatoriyasi va havo kengligining chinakam (real) holatini hisobga olib, atrof tabiiy muhitni yaxshilashga (sog‘lomlashtirishga) qaratilgan ichki ijtimoiy-iqtisodiy va xalqaro siyosati.

Ekologik dastur — davlat organlari, siyosiy partiya, nodavlat, notijorat tashkilotlar va boshqa ekologiya huquqi sub’ektlari ekologik faoliyatining maqsad va vazifalari bayoni.

Ekologik ta’lim — yer kurrasi tabiiy boyliklari va yaqin fazoga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, insoniyatni tabiatdagi ekologik jarayonlar bilan uzviy bog‘langanligini chuqur anglash ruhida tarbiyalash va boshlang‘ich o‘qitish.

Ekologik madaniyat — hozirgi va kelajak avlod hayotida ekologik muammolar juda chuqur ahamiyatga ega ekanligini anglagan holatdagi davlatlar va jahon madaniyatining rivojlanish bosqichi va tarkibiy qismi.

Ekosan — grekcha “ekos” va “sanos”, ya’ni ekologiya va salomatlik so‘zlarining bosh bo‘g‘inlari yig‘indisidan iborat bo‘lgan xalqaro jamg‘arma nomi. Bu tashkilot 1992-yil Toshkent shahrida tuzilgan bo‘lib, hozirgi kunda 3 mln.dan ortiq a’zosi, 34ta mamlakatda 63ta bo‘linmalari va vakolatxonalariga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

O‘zbekiston Respublikasining qonunlari

1. O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992-yil 9-dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2004-yil 3-dekabr.
4. O‘zbekiston Respublikasining «Turizm to‘g‘risida»gi qonuni. «Xalq so‘zi» gazetasi, 1999-yil 14-sentabr.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Farmonlari, Qarorlari va nutqlari

1. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2016-yil 2-dekabrda PF-4861-sonli Farmoni.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollari bag‘ishlangan majlisdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2017-yil 16-yanvar, № 11.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori: O‘zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. (Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 07.02.2018-y., 07/18/3510/0668-son).

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori: Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.02.2018-y., 07/18/3509/0658-son).

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni: O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida. Toshkent shahri, 2018-yil 3-fevral.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori: Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash to'g'risida. 2018-yil 7-fevral, № PQ-3514. QHMMB: 07/18/3514/0672-son, Toshkent sh., 08.02.2018-y.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning farmonlari, qarorlari va asarlari

1. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning "Buyuk ipak yo'lini qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va Respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni. Toshkent, 1995, 02.06, PF-1162.

2. O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning 2005-yilgacha bo'lgan davlat dasturi. 15.04.1999-yildagi PF.№2286 farmoni. «Xalq so'zi», № 74, 1999-yil, 16-aprel.

3. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning «O'zbekiston Respublikasida 2012–2016-yillarda xizmat ko'rsatishni rivojlantirish Dasturi to'g'risida»gi 2012-y. 10-maydagi PF-1754-sonli Qarori.

4. I.A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: "O'zbekiston", 1997. 325-b.

Darsliklar, monografiyalar va kitoblar

1. Aberqulov Q.N., Hojimatov A.N., Rajabov N.R. Atrof-muhitni muhofaza qilish. – Toshkent: TDIU, 2003, 148-b.

2. Александрова А.Ю. География туризма. Москва, КНО-РУС, 2010. С. 592.

3. Бабкин А.В. Специальные виды туризма. Ростов на-Дону. Феникс, 2008. С. 252.

4. Дроздов А.В. Основы экологического туризма. — М.: Гардарики, 2005. С. 271.

5. Jumayev T.J., Hoshimov Z.Y., Ro'ziyev O.A. Ekologik menejment. — Toshkent, 2004. 111-b.

6. Ibodullayev N. O'zbekistonning turistik resurslari. Samarqand, 2008, 142-b,

7. Islomova R.A. Ekologik turizmni rivojlantirish muammolari. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2014, 131-b.

8. Кварталнов В.А. Теория и практика туризма. — Москва: «Финансы и статистика». 2003. С. 660.

9. Косолапов А.Б. Теория и практика экологического туризма. — Москва, КНОРУС, 2005. С. 240.

10. Кусков А.С., Голубева В.Л., Одинцова Т.Н. Рекреационная география. Саратовский государственный университет. Саратов 2005. С. 503.

11. Matyaqubov U. Ekologik vaziyatni inobatga olib turizm samaradorligini oshirish yo'nalishlari va istiqbollari. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati, Samarqand, 2011. 24-b.

12. Maxmudov M.M., Yusupov S., YU., Hayitboyev R. va boshq. Qorqo'lchilik yaylovlari va ulardan samarali foydalanishga oid amaliy qo'llanma. IKARDA, IFAD, O'ZQCHEITI. Samarqand, 2001, 51-b.

13. Nizamov A., Amanbayeva Z., Safarova I. O'zbekistonning ekoturistik resurslari va yo'nalishlari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. 104-b.

14. Pardayev M.Q. Ekologik turizm asoslari. — Toshkent: Navro'z nashriyoti, 2015. 95-b.

15. Pardayev M.Q., Islomova R.A. Ekologik turizmni rivojlantirishning nazariy masalalari va uning o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekistonda turizm xizmat bozorini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari. Monografiya. —

Toshkent: Iqtisodiyot, 2012. 302-b.

16. Nigmatov A.N. Ekologiya huquqi sxemalar va tushunchalarda. — Toshkent, 1999. 147-b.

17. Nigmatov A., Shomurotova N. O'zbekistonni ekoturistik rayonlashtirish tajribasi. Ekologiya xabarnomasi. j.№2, —Toshkent. 2007. 46–54-b.

18. Сергеева Т.К. Экологический туризм. — М.: Финансы и статистика, 2004. С. 360.

19. Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Экологический туризм; сущность, тенденции и стратегия развития. — Тошкент. 2009. С. 415.

20. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.SH., Tursunova G. Turizm asoslari. Darslik. — Toshkent. 2014. 330-b.

21. Храбовченко В.В. Экологический туризм. Финансы и статистика. — Москва, 2004. С. 172.

22. Shodimetov Yu.Sh. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. 1-qism. — Toshkent: «O'qituvchi», 1994, 238-b.

23. «O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan foydalanishning holati to'g'risida Milliy ma'ruza». — Toshkent, 2006, 110–150-bb.

24. O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish Konsepsiyasi. Ekologiya xabarnomasi, № 2. — Toshkent, 2007, 5–14-bb.

25. Hayitboyev R., Hayitboyev K., Xudayberdiyev U. Tabiatdan foydalanish iqtisodi. — Samarqand, 2004, 104-b.

26. Hayitboyev R., Amriddinova R. Turizmدا marketing tadqiqotlari. — Samarqand, 2009, 64-b.

27. Hayitboyev R., Amriddinova R. Turizmning maxsus turlari. “Tong” MCHJ, Samarqand, 2009, 45-b.

28. Hayitboyev R., Matyaqubov U. Ekologik turizm. Samarqand, 2010, 60-b.

29. Hayitboyev R., Pardayev O. Turizmning menejmenti. Samarqand, 2010, 46-b.

30. Hayitboyev R., Hayitboyev K. Muzeylarda qolgan hayvonot. Samarqand, 2016, 76-b.

31. Hayitboyev R., Haydarov S., Abduhamidov S. va boshq., Turizm marshrutlarini ishlab chiqish. O'quv qo'llanma, Samarqand, 2016, 180-b.

32. Hayitboyev R. Qishloq turizmini rivojlantirish: muammolar va yechimlar. Servis jurnali, №1. Samarqand, 2015, 63–71-bb.

33. Hayitboyev R. Turizmning turlari va sohalarining o'ziga xos xususiyatlari va ularni tadqiq qilishning nazariy masalalari. Servis jurnali, №3. Samarqand, 2015, 43–48-bb.

34. Allcock A., Jones B., Lane S., Grant J. National ecotourism strategy. Commonwealth of Australia, 1994, 196 p.

35. Zalatan A., Gastom A.R., Soft Ecotourism* the Substitution Effect// The Tourist Review. 1996, N. 4

36. Hall C.M., Page S.J. The Geography of Tourism and Recreation Environment place and Space. London-N.Y..Routledge. 1999. 256 p.

37. Lindberg K., Hawkins D.E. (eds) Ecotourism: a Guide for Planners and Managers. North Bennington, Vermont. 1993, 256 r.

38. Douglas Pearce. Tourism Today: A Geographical Analysis. Second edition. Edinburch Gate. Harlow, 1997. 204 p.

39. Hobson J.S.P., Ko Goldwin. Tourism and politics, Journal of Travel Researches. 1994.-Vol.32. №4. p.2-8.

40. Mose Ingo. Sanfter Tourismusim Nationalpark Hohe Tauern. Vechtaer Arbeitenzur Geographie und Regional wissenschaft, Band 6. Vechta, 1988, 267 p.

41. Franklin P. Metzler J. Pitcher D. at al. USA: National Parks. Museums. N.Y.: DK Travel. 2004. 294 p.

www.ecotourism.org

www.ecolabeltourism.eu

www.unwto.org

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-mavzu. EKOLOGIK TURIZM FANINING O'RGANISH OBYEKTI, MAQSADI VA VAZIFALARI.....	5
1.1. Ekologik turizm fanining maqsadi va vazifalari. O'rganish obyekti.....	5
1.2. Ekologik turizm fanining ta'rifi va mohiyati.....	12
2-mavzu. EKOLOGIK TURIZMNING KELIB CHIQISH TARIXI.	19
2.1. Ekologik turizmning shakllanishi davrida tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar. BMTning xalqaro ekoturizm yilini e'lon qilishi.....	19
2.2. Ekologik turizmning turlari.....	28
3-mavzu. EKOLOGIK TURIZMNING TAMOYILLARI. O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI	34
3.1. Ekoturizmning tamoyillari.	34
3.2. O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish Konsepsiyasi.....	37
4-mavzu. EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING MAMLAKATIMIZ IJTIMOY-IQTISODIY HAYOTIDAGI AHAMIYATI.	43
4.1. Ekoturizmni rivojlantirishning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati.	43
4.2. Ekoturizmda ekologik bilim va madaniyatning shakllanishi.	47
5-mavzu. EKOLOGIK TURIZMNING RESURSLARI: MILLIY PARKLAR, BIOSFERA VA TABIAT QO'RIQXONALARI, TABIAT BUYURTMAXONALARI VA TABIAT YODGORLIKLARI.....	52
5.1. Dunyoda ekoturizmning resurslari. Milliy parklarning tashkil qilinishi	52

5.2. Tabiat qo‘riqxonalari, tabiat buyurtmaxonalari va tabiat yodgorliklari	60
6-mavzu. DUNYODA MILLIY PARKLARNING XALQARO MODELLARI. O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO MILLIY PARK MODELLARIDAN FOYDALANISH.....	
6.1. Ekoturizmni rivojlantirishning xalqaro modellari.....	68
6.2. Ekoturizmni rivojlantirishda xalqaro modellardan foydalanish.....	80
7-mavzu. O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ TURIZMIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI	
7.1. Qishloq turizmining maqsadi va vazifalari.	86
7.2. Qishloq turizmining zamonaviy reklamalarini yaratish.....	99
8-mavzu. EKOLOGIK TURIZM RIVOJLANGAN XORIJ DAVLATLARINING TAJRIBALARI	
8.1. Dunyo mamlakatlaridagi ekoturizm.....	104
9-mavzu. O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZMNING RESURSLARI. TABIAT MINTAQALARI. HAYVONOT OLAMI VA O‘SIMLIKLAR DUNYOSI	
9.1. O‘zbekistonning tabiiy geografik mintaqalari – ekoturizm resurslari.....	112
9.2. O‘zbekistonning hayvonot olami – ekoturizm resurslari..	118
9.3. O‘zbekistonning o‘simliklar dunyosi – ekoturizm resurslari.....	121
10-mavzu. O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZM RESURSLARI. MILLIY PARKLAR, TABIAT QO‘RIQXONALARI, TABIAT BUYURTMAXONALARI VA TABIAT YODGORLIKLARI.....	
10.1. O‘zbekistonning milliy parklari	128
10.2. O‘zbekistonning tabiat qo‘riqxonalari.....	136

10.3. O‘zbekistonning tabiat buyurtmaxonalari.....	148
10.4. O‘zbekistonning tabiat yodgorliklari.....	152
11-Mavzu. OROL DENGIZI HAVZASI – EKOLOGIK TURIZMNING RESURSLARI.....	155
11.1.Orol dengizi havzasida ekoturizmni rivojlantirish yo‘llari..	155
12-mavzu. O‘ZBEKISTONNING SUV HAVZALARI EKOLOGIK TURIZM RESURSLARI	160
12.1. O‘zbekistonning suv resurslari.....	160
12.2. O‘zbekistonning suv resurslaridan ekoturizm foydalanish.....	163
13-mavzu. O‘ZBEKISTONNING EKOTURISTIK RAYONLARI.....	168
13.1. O‘zbekistonning ekoturistik rayonlari.....	168
13.2. Ekoturistik rayonlarda ekoturizmni rivojlantirishdagi vazifalar.....	173
14-mavzu. EKOLOGIK TURIZMNING TABIATGA TA’SIRI.	177
14.1. Ekoturizmning tabiatga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’siri.....	177
14.2. Ekoturizmning tabiatga yonlama ta’siri.....	180
15-mavzu. REKREATSIYA TURIZMINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI.....	185
15.1. Rekreatsiyaning o‘rganish obyekti, maqsadi va vazifalari. Rekreatsiya faoliyati.....	185
15.2. Rekreatsiya ehtiyoji, omillari va rekreatsiya turizmini rivojlantirish yo‘llari.....	192
16-mavzu. O‘ZBEKISTONDA ICHKI VA XALQARO EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY- IQTISODIY HAYOTIMIZDAGI AHAMIYATI	198
16.1. O‘zbekistonda ichki ekoturizmni rivojlantirishning ijtimoiy- iqtisodiy hayotimizdagi ahamiyati.....	198

16.2. O‘zbekistonda xalqaro ekoturizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizdagi ahamiyati.....	202
17-mavzu. EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI.....	207
17.1. Ekoturizmni rivojlantirishdagi muammolar.....	207
17.2. Ekoturizmni rivojlantirishdagi muammolarning yechimlari.	212
18-mavzu. EKOLOGIK TURIZM MARSHRUTLARINING REKLAMALARINI ISHLAB CHIQISH.....	215
18.1. Turizm va ekoturizm marshrutlarining reklamalarini ishlab chiqish va reklama qilish.....	215
19-mavzu. EKOLOGIK TURIZMNING MARSHRUTLARINI YARATISH.....	226
19.1. Ekologik turizm marshrutlarini ishlab chiqish tamoyillari. .	226
20-mavzu. O‘ZBEKISTONDA TURISTLARNING HAYOTI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING HUQUQIY ME’YORLARI.....	231
20.1. O‘zbekistonda turistlarning hayoti xavfsizligini ta’minlashning huquqiy me’yorlari.....	231
GLOSSARIY.....	235
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	239

RAXMATULLA XAITBOYEV

EKOLOGIK TURIZM

(o'quv qo'llanma)

Toshkent — «Barkamol fayz media» — 2018

Muharrir: H.Zakirova

Dizayner D.Azizov

Musahhih: H.Zakirova

Kompyuterda sahifalovchi: Z.Ro'ziyev

Nashriyot litsenziyasi: AI №284, 12.02.2016. Barkamolfayz@mail.ru

Bosishga ruxsat etildi 28.11.2018. «Uz-Times» garniturasida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. Bosma tabog'i 15,5. Nashr hisob tabog'i 15,5. Adadi 300 nusxa. Buyurtma № 27

«ZEBO YULDUZLARI» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Aviasozlar-4 34-uy 56-xonadon

